

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

# **OILA HUQUQI**

**Darslik**

Imomov Nurillo Fayzullayevich  
Babayev Djahongir Ismailbekovich  
Shorahmetova Umida Shoakbarovna  
Topildiyev Bahrom Rahimjonovich  
Mehmonov Qambariddin Miradhamovich

# **OILA HUQUQI**

## **Darslik**

yuridik universitet, universitetlarning yuridik fakultetlari, huquq asoslari  
o'qitiladigan oliy maktab talabalariga mo'ljallangan

5240100 – Yurisprudensiya (faoliyat turlari bo'yicha)

Oila huquqi.  
Darslik /Mualliflar jamoasi.  
Prof. O.I.Oqyulovning umumiy tahriri ostida.  
–T.: TDYU nashriyoti, 2016. 181 bet.

O-37  
КБК 67.404(5Ў)

Sarlavhada: Toshkent davlat yuridik universiteti.

**Mas’ul muharrir:** N.F.Imomov, yu.f.d.,TDYU “Fuqarolik huquqi” kafedrası dotsenti.

**Mualliflar jamoasi:** N.F.Imomov – 6-mavzu; J.I.Babaev – 12-mavzu; B.R.Topildiyev – 1-3, 8-mavzular; U.Sh.Shorahmetova – 4-5, 7-mavzular; Q.M.Mehmonov – 9-11-mavzular.

***Taqrizchilar:***

Inamjanova Gulnora Soataliyevna – Respublika yuristlar malakasini oshirish markazi katta o’qituvchisi, yuridik fanlari nomzodi;

Aminjonova Matluba – O’zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi Oliy o’quv kurslari direktori o’rinbosari, yuridik fanlar nomzodi, dotsent.

Mazkur darslik O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Oila kodeksi va boshqa qonun hujjatlari, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 28-iyundagi “Yuridik kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 1990-sonli qarori talablaridan kelib chiqqan holda oliy yuridik ta’lim muassasalari uchun zamonaviy talab va standartlarga javob beradigan, o’quv jarayonini ta’lim berishning modulli tizimini qo’llagan holda umum e’tirof etilgan xalqaro standartlar va talablarga mos ravishda yozilgan. Mazkur nashr yuridik universitet, universitetlarning yuridik fakultetlari, huquq asoslari o’qitiladigan oliy maktab talabalariga darslik sifatida tavsiya etiladi.

© Mualliflar jamoasi

© Toshkent davlat yuridik universiteti, 2016.

## MUNDARIJA:

SO‘ZBOSHI.....	5
GLOSSARIY.....	7
1-MAVZU. Oila huquqi tushunchasi, tamoyillari va manbalari.....	10
2-MAVZU. Oila qonunchiligining rivojlanish tarixi.....	25
3-MAVZU. Oilaviy-huquqiy munosabatlar.....	35
4-MAVZU. Nikoh.....	51
5-MAVZU. Er va xotinning huquq va majburiyatlari.....	79
6-MAVZU. Nikoh shartnomasini huquqiy tartibga solish.....	89
7-MAVZU. Ota-ona va voyaga yetmagan bolalarning huquq va majburiyatlari.....	100
8-MAVZU. Aliment majburiyatlari.....	119
9-MAVZU. Ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni joylashtirish shakllari.....	134
10-MAVZU. Farzandlikka olish.....	151
11-MAVZU. Vasiylik va homiylik. bolalarni oilaga tarbiyaga olish.....	158
12-MAVZU. Chet el elementi ishtirokidagi oila munosabatlarini huquqiy tartibga solish.....	173
Tavsiya etiladigan adabiyotlar.....	181

## SO‘ZBOSHI

O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimovning 2013-yil 28-iyundagi “Yuridik kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1990-sonli qaroriga asosan mamlakatimizda yuridik ta’limni tubdan isloh qilish va zamonaviy yurist kadrlarni tayyorlash vazifasi qo‘yildi. Shuningdek, qarorda “zamonaviy yuridik fanning yutuqlarini, davlat-huquqiy, sud, huquqni muhofaza qilish, huquqni qo‘llash sohalaridagi demokratik o‘zgarishlar tajribasini inobatga olgan holda huquqiy fanlar va predmetlar bo‘yicha yangi avlod darsliklari va o‘quv qo‘llanmalarini tayyorlash” qayd etildi. Shu munosabat bilan bugungi kunda talabalarga chuqur, puxta bilim beruvchi yangi avlod darsliklari tayyorlash va ta’lim tizimida ulardan keng foydalanishni yo‘lga qo‘yish talab etiladi. Yurisprudensiya bo‘yicha mutaxassislar egallashi kerak bo‘lgan huquq sohalaridan biri oila huquqi hisoblanadi. Ushbu huquq tarmog‘i bo‘yicha zarur bilimlarni olgan va ularni amaliyotda qo‘llay oladigan talaba kelgusida malakali huquqshunos kadrlarga nisbatan belgilangan talablarga javob berishi mumkin.

Oila huquqi bo‘yicha mazkur darslik tegishli talablar (davlat ta’lim standartlari, o‘quv rejasi va o‘quv dasturi) asosida yaratilgan hamda modulli o‘qitish uslubiga mos ravishda tayyorlangan. Darslik oila huquqi bo‘yicha asosiy tushuncha va kategoriyalarni qamrab olgan. Darslikdan mantiqiy mushohadaga yo‘naltirilgan muammoli savollar va aniq vaziyatning huquqiy tahliliga oid masalalar, har bir mavzu bo‘yicha adabiyotlar ro‘yxati, glossariy o‘rin olgan, shuningdek sxemalardan foydalanilgan.

Ushbu darslik sodda va ravon tilda bayon etilgan. Uning mazmunini shakllantirishda Oila kodeksi, tegishli qonun hujjatlari, huquqni qo‘llash va sud amaliyoti materiallaridan foydalanilgan. Ayni paytda shuni ta’kidlash o‘rinliki, mualliflar ushbu darslikda oila huquqining barcha jihatlarini qamrab oluvchi, uning mohiyatini atroflicha ifodalagan axborot beruvchi ma’lumotlar bazasini yaratish maqsadini qo‘ymaganlar. Zero, amaldagi yuridik ta’lim tizimi talabani bilim olishida darslikni yagona manba sifatida nazarda tutmaydi. Talaba nafaqat darslik orqali, balki mustaqil o‘qish, izlanish, boshqa manbalarni o‘rganish asosida to‘laqonli bilim va tasavvurlarga ega bo‘ladi. Binobarin, talaba darslik bilan

cheklanib qolmasdan oila huquqi moduli predmetini o'rganishda mustaqil izlanish zaruriyatini ham unutmasligi shart. Mazkur darslik bunda o'ziga xos uslubiy qo'llanma vazifasini o'taydi.

Oilaviy-huquqiy normalar bilan bir qatorda oilaviy-huquqiy munosabatlarni tartibga solishda fuqarolik-huquqiy normalari (nikoh shartnomasi, er-xotin mol-mulkinging huquqiy rejimi, farzandlar mol-mulkinging huquqiy rejimi, oilaviy mol-mulkdan tadbirkorlik faoliyatida foydalanish kabi), shuningdek ma'muriy-huquqiy normalar (ota-onalik huquqini cheklash, ota-onalik huquqidan mahrum qilish, ota-onalarni o'z farzandlari oldidagi majburiyatlarni bajarishga mas'uliyatsizlik bilan munosabatda bo'lishi, ularning huquqbuzarlik yo'liga kirishiga befarq qarashi yoxud dalolat qilishi kabi) o'ziga xos ko'makchi vazifasini bajaradi. Demak, talaba mavjud o'quv predmetini o'zlashtirishda avval egallagan bilimlar zaxirasiga ham tayanmog'i lozim.

Oila huquqi bo'yicha tayyorlangan ushbu darslik yangi avlod darsliklarini yaratish bo'yicha dastlabki urinish bo'lganligi sababli darslik yuzasidan bildirilishi mumkin bo'lgan har qanday fikr va mulohazalarni mualliflar jamoasi mamnuniyat bilan qabul qiladi.

**yu.f.d., prof. O.Oqyulov**

## GLOSSARIY

**Bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat)** – ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan voyaga yetmagan bolalarni tarbiya va davolash muassasalaridan, shuningdek, aholini ijtimoiy himoyalash muassasalaridan bolalarni oilaga tarbiyaga olish shakli bo‘lib, bunda vasiylik va homiylik organlari bilan voyaga yetmagan bolalarni oilaga tarbiyaga olishni istagan tutingan ota-ona o‘rtasida kelishuv tuziladi.

**Vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj bo‘lgan shaxslar** – alohida g‘amxo‘rlikka, shuningdek o‘z huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishiga muhtoj bo‘lgan yetim bolalar va ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar, ota-onalik huquqidan mahrum etilmagan ota-onasi bo‘lgan hamda bolalarning hayoti yoki sog‘lig‘iga bevosita tahdid tug‘dirayotgan yoki ularning ta‘minoti, tarbiya va ta‘lim olishiga doir talablarga javob bermaydigan sharoitda yashayotgan bolalar, sog‘lig‘ining holatiga ko‘ra homiylikka muhtoj bo‘lgan voyaga yetgan muomalaga layoqatli fuqarolar, muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan fuqarolar.

**Vasiylik** – o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan yetim bolalarni va ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni, shuningdek, sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolarni ularga ta‘minot, tarbiya va ta‘lim berish, ularning mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida joylashtirishning huquqiy shakli.

**Vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxs** – o‘ziga nisbatan vasiylik yoki homiylik belgilangan shaxs.

**Ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan oila** – ota-ona yoki ota-ona o‘rnini bosuvchi shaxslar voyaga yetmaganlarni ta‘minlash, tarbiyalash va ularga ta‘lim berish bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishdan bo‘yin tovlayotgan yoki lozim darajada bajarmayotgan yoxud ularning xulq-atvoriga salbiy ta‘sir ko‘rsatayotgan yoki ular bilan shafqatsiz muomalada bo‘layotgan oila.

**Ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish markazi** – ichki ishlar organlarining voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasini hamda voyaga yetmaganlarni qabul qilish, vaqtincha saqlash, ularning ijtimoiy moslashuvi va rehabilitatsiyasini amalga oshiruvchi maxsus bo‘linma.

**Ixtisoslashtirilgan kasb-hunar kolleji** – alohida sharoitlarda ta‘minlash, tarbiyalash va ta‘lim berishga muhtoj bolalarga ta‘lim berishni,

ularning kasb-hunar tayyorgarligi va ijtimoiy-pedagogik rehabilitatsiyasini amalga oshiruvchi ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasi. Ixtisoslashtirilgan kasb-hunar kollejiga o'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan ta'minlash, tarbiyalash va ta'lim berish uchun alohida sharoitlarga muhtoj voyaga yetmaganlar joylashtirilishi mumkin.

**Ixtisoslashtirilgan maktab** – alohida sharoitlarda ta'minlash, tarbiyalash va ta'lim berishga muhtoj bolalarga ta'lim berishni, ularning kasb-hunar tayyorgarligi va ijtimoiy-pedagogik rehabilitatsiyasini amalga oshiruvchi ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasi hisoblanadi. Ixtisoslashtirilgan maktabga o'n bir yoshdan o'n to'rt yoshgacha bo'lgan ta'minlash, tarbiyalash va ta'lim berish uchun alohida sharoitlarga muhtoj voyaga yetmaganlar joylashtirilishi mumkin.

**Nikoh** – nikoh yoshiga yetgan, qonunga muvofiq oila qurishni istagan erkak bilan ayolning ixtiyoriy roziligi va teng huquqligiga asoslangan, rasmiylashtirilgan, o'zaro shaxsiy va mulkiy huquq va majburiyatlarni vujudga keltiradigan ittifoq.

**Nikoh yoshi** – bu nikohlanuvchi shaxslarning qonun doirasida belgilangan yoshga yetishlari.

**Nikoh tuzishning ixtiyoriyligi** – nikohlanuvchi shaxslarning o'zga shaxslar tomonidan majbur etilmasdan oila qurish uchun erkin, tenglik va o'zaro ixtiyoriylik asosida nikohni rasmiylashtirishlari.

**Nikoh shartnomasi** – nikohlanuvchi shaxslarning yoki er va xotinning nikohda bo'lgan davrida va (yoki) er va xotin nikohdan ajratilgan taqdirda ularning mulkiy huquq hamda majburiyatlarini belgilovchi kelishuvi.

**Nikohdan ajralish** – er-xotin o'rtasidagi huquqiy munosabatlarning kelajak vaqt uchun tugatilishi.

**Nikohning tugatilishi** – ma'lum yuridik faktlar tufayli er-xotin o'rtasida vujudga kelgan nikoh huquqiy munosabatlarining tugallanishi.

**Oila** - bu nikoh, er-xotinlik, farzandlar, ota-onalar hamda o'zaro qarindosh, qondosh, qarindosh bo'lgan shaxslarning umumiy ro'zg'or, umumiy xo'jalik yuritish hamda oiladagi maishiy-madaniy ishlarni g'amxo'rlik, o'zaro hurmat, hamjihatlik asoslarida yurituvchi shaxslar guruhi, ittifoq, xonadon hisoblanadi.

**Oilaviy munosabatlarda fuqarolarning tengligi** – O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi 3-moddasiga asosan, barcha fuqarolar oilaviy munosabatlarda teng huquqlarga ega ekanliklari normalangan bo'lib, nikoh tuzish chog'ida jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqei hamda boshqa holatlarga qarab, huquqlarni



muayyan tarzda bevosita yoki bilvosita cheklashga, bevosita yoki bilvosita afzalliklar belgilashga hamda oilaviy munosabatlarga aralashishga yo‘l qo‘yilmasligi belgilangan.

**Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi** – jismoniy imkoniyatlari cheklangan (nogironlar, jismoniy nuqsoni bo‘lgan hamda asab va ruhiyati buzilgan bolalar, surunkali og‘ir kasalliklardan azob chekuvchi bolalar), ijtimoiy va huquqiy jihatdan xatarli guruhlarga kiradigan bolalarni (yetimlar, ota-onasi yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar qarovisiz qolgan bolalar, notinch oilalar bolalari), shuningdek ijtimoiy moslashuvda qiyinchilikka ega bo‘lgan, biroq xatarli guruhlarga kirmaydigan alohida iqtidorli bolalarni (umumiy maxsus qobiliyatli bolalarni, xususan: sportga, badiiy, ilmiy va boshqa qobiliyatlarga ega bo‘lgan bolalarni) (keyingi o‘rinlarda bolalar deb ataladi) ijtimoiy moslashtirish muammolarini o‘rganuvchi mustaqil tashkilot hisoblanadi.

**Soxta nikoh** – oilaviy hayotda yashashni maqsad qilmay, biron-bir mol-mulkka, boylikka, uy-joyga hamda uy-joyga doimiy ro‘yxatdan o‘tishni maqsad qilib tuzilgan nikoh.

**Farzandlikka olish** – ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan voyaga yetmagan bolalarni oilaga joylashtirish shakli. Farzandlikka olish bolani farzandlikka olishni istagan shaxslarning (shaxsning) arizasiga ko‘ra, vasiylik va homiylik organlarining farzandlikka olishning asosligi va farzandlikka olinayotgan bola manfaatlariga to‘g‘ri kelishi haqidagi xulosasi hisobga olingan holda sud tomonidan amalga oshiriladi.

**Homiylik** – o‘n to‘rt yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan yetim bolalarni va ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni, shuningdek sud tomonidan muomala layoqati cheklangan fuqarolarni ularga ta‘minot, tarbiya va ta‘lim berish, ularning mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida joylashtirishning huquqiy shakli. Sog‘lig‘ining holatiga ko‘ra mustaqil ravishda o‘z huquqlarini amalga oshira olmaydigan va o‘z majburiyatlarini bajara olmaydigan voyaga yetgan muomalaga layoqatli fuqarolarga bu shaxslarning iltimosiga ko‘ra homiylik belgilanishi mumkin.

**Er va xotinning xususiy mulki** – nikohga qadar o‘ziga tegishli bo‘lgan mol-mulki, shuningdek, ulardan har birining nikoh davomida hadya, meros tariqasida yoki boshqa bepul bitimlar asosida olgan mol-mulki.

**Er-xotinning birgalikdagi umumiy mulki** – er va xotinning nikoh davomida orttirgan mol-mulklari, shuningdek, nikoh qayd etilgunga qadar bo‘lajak er-xotinning umumiy mablag‘lari hisobiga olingan mol-mulklari.

# 1-MAVZU. OILA HUQUQI TUSHUNCHASI, TAMOYILLARI VA MANBALARI

Oila huquqining predmeti, metodi va tamoyillari. Oila huquqi – xususiy huquqning tarmog‘i sifatida. Oila huquqining manbalari. Oila munosabatlarini huquqiy tartibga solish xususiyati. Oila huquqida “oila” kategoriyasi.


## Oila huquqining predmeti, metodi va tamoyillari

Oila a‘zolari o‘rtasidagi munosabatlar axloq-odob va huquqiy qoidalar bilan tartibga solinadi. Shuning uchun ham oila huquqi huquqning mustaqil sohasi bo‘lib, nikoh, qon-qarindoshlik, bolalarning nasl-nasabini belgilash, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni joylashtirish shakllaridan kelib chiqadigan munosabatlarni huquqiy tartibga soladi.

Oila huquqi – bu er-xotin, qarindoshlar, ota-onalar (farzandlikka oluvchilar) va bolalar o‘rtasidagi shaxsiy nomulkiy va ular bilan bog‘liq mulkiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquq tarmog‘idir.

Oila huquqi fuqarolik huquqi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lish bilan birga, farq qiluvchi xususiyatlarga ham ega. *Birinchi*dan, oilaviy munosabatlar fuqarolik huquqiga xos bo‘lmagan yuridik faktlar (nikoh, qarindoshlik, onalik, otalik, farzandlikka olish va hokazolar) asosida vujudga keladi, *ikkinchi*dan, oilaviy munosabatlar fuqarolik huquqidan farq qilib, ko‘proq shaxsiy-huquqiy mohiyatga ega bo‘ladi, *uchinchi*dan, oilaviy huquq subyektlarining huquq va majburiyatlari ularning o‘zlarigagina tegishli huquq va majburiyatlardir.

Oila huquqi normalari bilan tartibga solinadigan munosabatlar – *oila huquqi predmetidir*.




## ***1-sxema. Oila huquqi bilan tartibga solinadigan munosabatlarning tuzilishi***

Shaxsiy va mulkiy oilaviy munosabatlar oila a'zolari huquqiy munosabatlarning asosini tashkil etadi. Shuning uchun oilaviy huquqiy normalarni sharhlashda tushunchalar bilan cheklanmasdan, oila huquqi normalariga yuridik ahamiyat berish lozim.

Oila huquqi normalari, avvalo, nikohdan o'tish tartibi va shartlarini belgilaydi, er-xotinlar o'rtasidagi shaxsiy nomulkiy va mulkiy munosabatlarni tartibga soladi, ota-onalar bilan bolalar o'rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtiradi. Shuningdek, oila huquqi normalari, farzandlikka olish, vasiylik va homiylik bilan bog'liq ravishda vujudga keladigan munosabatlarni tartibga soladi hamda nikohning tugatilishi tartibi va shartlarini belgilab beradi.

Oilaviy munosabatlar majmuyida shaxsiy nomulkiy munosabatlar ustundir. Chunki ular naslni davom ettirish va bolalarni tarbiyalash bilan bog'liqdir.

Oila huquqi tashkiliy tusda bo'lgan nomulkiy munosabatlarni ham tartibga soladi. Bunday munosabatlar jumlasiga nikohga kirishish (Oila kodeksining 13, 17-moddalari), ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni aniqlash va joylashtirish (Oila kodeksining 149-moddasi) bilan bog'liq munosabatlar kiradi.



## **2-sxema. Oila kodeksi bo'yicha oilaviy-munosabatlarning turlari**

Oila huquqi predmeti doirasiga kiradigan munosabatlarni tartibga soluvchi vositalar, usul va uslublar majmuyi - oila huquqi *metodidir*.

Oila huquqining metodi, ya'ni ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning oila huquqi tomonidan ta'sir etish usullari, avvalo, oila huquqida muayyan xulq-atvorda bo'lish talabini belgilaydigan imperativ normalarining ko'pligi bilan tavsiflanadi.

***Oila huquqi*** nikoh tuzish tartibi va shartlari, nikohning tugatilishi, nikohning haqiqiy emasligi, oilada er va xotin o'rtasida, ota-ona bilan bolalar o'rtasida, oilaning boshqa a'zolari o'rtasida kelib chiqadigan shaxsiy va mulkiy munosabatlarni, farzandlikka olish, vasiylik va homiylik, bolalarni oilaga tarbiyaga olish tufayli kelib chiqadigan munosabatlarni, fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish tartiblarini belgilaydigan huquqiy normalar yig'indisidan iboratdir.

*Oila huquqi tamoyillari* deganda, ushbu huquq sohasining mohiyatini aniqlab beradigan hamda huquqiy mustahkamlanganligi sababli umummajburiy ahamiyatga ega bo'lgan asosiy negiz, rahbariy qoidalar tushuniladi.

Oila huquqi tamoyillarini hisobga olmay uning normalarini to'g'ri sharhlab va qo'llab bo'lmaydi. Oila huquqi tamoyillari nafaqat huquqni qo'llash amaliyoti uchun, balki, amaldagi oila qonunchiligining mohiyatini anglash hamda uning takomillashtirilishi uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Oila huquqining asosiy tamoyillari quyidagilardan iboratdir:

*1. Oilaning jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqi tamoyili.*

Bu tamoyil O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida mustahkamlab qo'yilgan qoidaga asoslanadi. Unga ko'ra, oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega (63-modda).

*2. Barcha fuqarolar, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, qonun oldida tengligi tamoyili.*

Oila huquqida barcha fuqarolar millati, irqidan qat'i nazar teng ekanligi ifodalangan. Nikoh tuzish uchun fuqarolarning turli millatga mansubliklari, har xil dinlarga e'tiqod etishlari to'siq bo'lmaydi.

Shuningdek, bolalarni farzandlikka olish uchun farzandlikka oluvchilarning bolalardan boshqa millatga mansubligi ham monelik qilmaydi. Shu bois hayotimizda turli millatga mansub fuqarolarning bir oilaga birlashganliklarini ko'plab uchratish mumkin.

*3. Oilaviy munosabatlarda ayol bilan erkakning teng huquqliligi tamoyili.*

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasiga binoan, xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar. Bu tamoyil Oila kodeksining 2-moddasida quyidagicha ifodalangan:

Oilaviy munosabatlarni tartibga solish erkak va ayolning ixtiyoriy ravishda nikohlanib tuzgan ittifoqi, er va xotinning shaxsiy hamda mulkiy huquqlari tengligi, ichki oilaviy masalalarning o'zaro kelishuv yo'li bilan hal qilinishi, oilada bolalar tarbiyasi, ularning farovon hayot kechirishi va kamoloti haqida g'amxo'rlik qilish, voyaga yetmagan va mehnatga layoqatsiz oila a'zolarining huquq va manfaatlarini himoya qilish ustuvorligi tamoyillari asosida amalga oshiriladi.

*4. Oilaviy munosabatlarda ishtirok etuvchilarni ma'naviy va moddiy qo'llab-quvvatlash hamda ularning o'zaro bir-biriga g'amxo'rlik qilishi tamoyili.*

Er va xotin, ota-ona va bolalar, bobo-buvi va nabiralar, aka-ukalar va opa-singillar, farzandlikka olganlar va boshqalar o'rtasidagi munosabatlar, avvalo, nikoh, qon-qarindoshlik yoki oilaviy rishtalar bilan bog'liq bo'lgan shaxslar o'rtasidagi shaxsiy munosabatlardir.

*5. Davlat tomonidan onalik, otalik va bolalikni muhofaza etish va ularning manfaatlarini har taraflama himoya qilish tamoyili.*

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 65-moddasining 2-qismi va Oila kodeksi 4-moddasining 1-qismiga binoan oila, onalik, otalik va bolalik davlat himoyasidadir.

*6. Ixtiyoriy va erkin nikoh tuzish tamoyili.*

Oila kodeksining 14-moddasiga muvofiq, nikoh tuzish ixtiyoriydir. Nikoh tuzish uchun bo'lajak er-xotin o'z roziligini erkin ifoda etish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Nikoh tuzishga majbur qilish taqiqlanadi.

*7. Faqat yakka nikohlikni tan olish va uni mustahkamlash uchun yordam berish tamoyili.*

Amaldagi qonunda yakka nikohlik belgilangan va bu qoidaning buzilishi faqat nikohni haqiqiy emas deb hisoblashdan tashqari, qonunni buzgan shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortishga ham asos bo'ladi.


*8. Qonun hujjatlarida belgilangan tartib asosida nikohdan erkin ajralish tamoyili.*

Qonun hujjatlarida belgilangan tartib asosida nikohdan erkin ajralish tamoyili Oila kodeksining 37-moddasida nazarda tutilgan. Nikohdan ajralish er-xotinning shaxsiy huquqi, ammo nikohdan ajralish ijtimoiy manfaatga ta'sir etishini, oilaning buzilishini hisobga olib, davlat nikohdan ajralish tartibi va asoslarini belgilaydi.

### **Oila huquqi – xususiy huquqning tarmog‘i sifatida**

---

Ma'lumki, huquqning ommaviy va xususiy tarmoqlarga bo'linishi qadimgi Rimdan boshlanadi. Biroq bunday bo'linish XIX-XX asrlarga kelib o'z nihoyasiga yetgan.



Huquqning ommaviy va xususiy tarmoqlarga bo'linishi tarafdorlari, asosan, moddiylik mezoni nazariyasiga asoslanadilar va bunda xususiy va ommaviy huquq tomonidan tartibga solinayotgan ijtimoiy munosabatlarning xarakteridan kelib chiqadilar. Ularning bunday talqini uchun asos vazifasini o'z vaqtida Rim yuristi Ulpian tomonidan bildirilgan quyidagi fikr o'taydi: umuman olganda ommaviy huquq Rim davlati manfaatlarini, xususiy huquq esa shaxs manfaatini nazarda tutadi.

Mazkur mezon va asosdan kelib chiqib, aytish mumkinki, oila huquqi xususiy huquq sohasiga oiddir. Oila huquqida alohida inson manfaatlari ustuvorlikka ega bo‘lib, davlat faqatgina ushbu manfaatlarni amalga oshirishga xizmat qilishi va ularni himoyalashi lozim bo‘ladi. Har bir alohida olingan shaxs (individuum) oilaviy-huquqiy tartibga solishning yakuniy va bevosita maqsadi hisoblanadi.

Huquq fani tizimida oila huquqining o‘rni alohidadir. Chunki oila huquqining talabalar tomonidan o‘rganilishi faqat bilim va ta‘lim olish ahamiyatigagina ega bo‘lmay, balki tabiiy va hayotiy muhim axloqiy-tarbiyaviy ahamiyatiga ham molikdir, shu bilan birga, barkamol shaxsni va oqilona ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish vositalaridan biri hamdir.

Oila huquqi tizimi *umumiy* va *maxsus* qismlarni o‘z ichiga oladi.

*Umumiy qism* oila huquqining maxsus qismidagi barcha institutlar uchun ahamiyatga ega bo‘lgan me‘yorlardan iborat. Jumladan, oila huquqining asosiy qoidalari va vazifalari, oila huquqi tomonidan tartibga solinadigan munosabatlar doirasi va ushbu munosabatlar subyektlari va obyektlari, oila huquqi manbalari; oilaviy munosabatlarga nisbatan fuqarolik qonun hujjatlarining qo‘llanilishi, shuningdek, oila to‘g‘risidagi va fuqarolik qonun hujjatlarining o‘xshashlik bo‘yicha qo‘llanilishi; oilaviy munosabatlarda mahalliy urf-odat va an‘analarning qo‘llanilishi (masalan, Oila kodeksining 1-9-moddalari) kabilar shular jumlasidandir.

Umumiy qismga oilaviy huquqlarni amalga oshirish va oilaviy majburiyatlarni bajarish shartlarini, oilaviy huquqlarni himoya qilish tartibi va muddatlarini o‘rnatuvchi me‘yorlar (masalan, Oila kodeksining 10-11-moddalari) kiradi.

*Maxsus qism* bir necha institutlardan tashkil topgan bo‘lib, bu institutlarning har biri ijtimoiy munosabatlarning muayyan turini tartibga soladi. Ular quyidagilardan iborat:

– nikoh (nikoh tuzish shartlari va tartibi, nikohning tugatilishi, nikohning haqiqiy emasligi);

– er va xotinning huquq va majburiyatlari (er va xotinning shaxsiy huquq va majburiyatlari, er-xotin mulkining qonuniy tartibi, er va xotin mol-mulking shartnomaviy tartibi, er va xotinning majburiyatlar bo‘yicha javobgarligi);

– ota-ona hamda bolalarning huquq va majburiyatlari (bolaning nasl-nasabini belgilash, voyaga yetmagan bolalarning huquqlari, ota-onalarning huquq va majburiyatlari);

– oila a‘zolarining aliment majburiyatlari (ota-ona hamda bolalarning aliment huquq va majburiyatlari, qarindoshlar va boshqa shaxslarning aliment majburiyatlari, aliment to‘lash to‘g‘risidagi kelishuv, aliment to‘lash va undirish tartibi);

– ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni tarbiyalash shakllari (ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni aniqlash va joylashtirish, bolalarni farzandlikka olish, vasiylik va homiylik, bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat);

– oila qonunchiligini chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ishtirokidagi oilaviy munosabatlarga nisbatan qo‘llash.

Huquq tizimida oila huquqi huquqning boshqa sohalari bilan turli darajada bog‘liqlikda bo‘ladi. Oila huquqi huquq sohaslarining shunday guruhida joylashganki, u huquqning tartibga soluvchi tarmoq guruhlaridan biri hisoblanadi. Bu guruhning barcha sohaslariga muayyan munosabatlarni subyektlar erk-irodasi asosida vujudga kelishi xosdir. Ushbu xususiyati bilan ular ijtimoiy munosabatlarni muhofaza qilish vazifasini bajaruvchi va shu sababli man etish orqali tartibga soluvchi jinoyat huquqidan farq qiladi. Shu bilan birga, tartibga soluvchi sohaslar orasida oila huquqi ruxsat berish orqali tartibga soluvchi sohaslar guruhiga mansub (fuqarolik, mehnat huquqlari kabi). Bu guruhning barcha sohalari singari, oila huquqi majburlash orqali tartibga soladigan (masalan, ma‘muriy, moliya huquqlari) sohalardan farqlanadi, chunki bu sohaslar asosan bir subyektning ikkinchisiga bo‘ysunishi va boshqaruv organlari hujjatlari asosida shakllanadi. Ruxsat berish orqali tartibga soluvchi huquq sohalari guruhida esa oila huquqi o‘z predmeti va metodi bo‘yicha fuqarolik huquqiga yaqindir.

Oilaviy munosabatlar boshqa ijtimoiy munosabatlar bilan bog‘liqdir. Shu sababli oila huquqi u yoki bu darajada deyarli barcha huquq sohalari bilan o‘zaro aloqadordir. Biroq bu bog‘liqlikning daraja va shakllari turlicha namoyon bo‘ladi.

*Konstitutsiyaviy huquq* bilan oila huquqi o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlikning o‘ziga xos shakli mavjud. Konstitutsiyaviy huquq jamiyatda oilaviy munosabatlar qurilishining bosh va asosiy qoidalarini o‘z ichiga oladi (O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46, 63-66-moddalari). Oila huquqida ushbu qoidalar chuqurlashtiriladi, kengaytiriladi, rivojlantiriladi, aniqlashtiriladi.

O‘zaro bog‘liqlik, aksariyat hollarda, oila huquqi va huquqning sohalari me‘yorlarining birgalikda qo‘llanilishida ifodalanadi.

*Ma‘muriy huquq* bilan oila huquqi yuridik faktlar sohasida yaqin aloqadorlikdadir. Chunki oilaviy-huquqiy munosabatlarning vujudga kelishi va tugatilishi asoslari sifatida ko‘p hollarda boshqaruv organlari hujjatlari (farzandlikka olish va boshqalar) xizmat qiladi. Fuqarolik jarayoni va oila huquqi me‘yorlari nizolarni hal qilish, oilaviy huquqlarni



himoya qilishda qoʻllaniladi. Jinoyat huquqi oilaviy munosabatlarni muhofaza qilishda tatbiq etiladi. Shu sababli oila huquqida jinoyat huquqiga havola qilishlar mavjud boʻlib, ular nikoh tuzishga toʻsqinlik qiluvchi holatlarni yashirganlik uchun, farzandlikka olish siri va hokazolar uchun jinoiy javobgarlikka tortilishni nazarda tutadi.

*Oila va fuqarolik huquqi* meʼyorlari oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlik nisbati yuqori darajadadir. Qonunda toʻgʻridan - toʻgʻri koʻrsatilgan hollarda oʻzaro bogʻliqlik bir soha normalarini ikkinchi soha munosabatlarida qoʻllanilishida ifodalanadi.

Oila huquqi va huquqning boshqa sohalari meʼyorlarining oʻzaro bogʻliqligi ularning birlashib ketishiga olib kelmaydi. Lekin bu holat oila qonunchiligida faqat oila huquqi normalari emas, balki u bilan bogʻliq boʻlgan huquq sohalari normalarining mavjud boʻlishida ham ifodalanadi. Ayniqsa, bunda fuqarolik, maʼmuriy, fuqarolik protsessual huquqi normalarining koʻpligi koʻzga tashlanadi. Bu normalar, oilaviy munosabatlarning xususiyatlarini hisobga olgan holda, sanab oʻtilgan huquq sohaslarining oilaviy munosabatlarni tartibga solishdagi xususiyatlarini aks ettiradi.

## **Oila huquqining manbalari**

---

Har qanday huquq sohasining, shu jumladan, oila huquqining asosiy manbasi Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi hisoblanadi. Konstitutsiya davlatning Asosiy qonuni sifatida nafaqat Konstitutsiyaviy huquqning, balki barcha huquq sohaslarining bosh manbasidir.

Konstitutsiyaning III boʻlim, XIV bobi “Oila” deb nomlanib, 63-66-moddalarda oilaviy-huquqiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan qoidalar, Konstitutsiyaning 46-moddasida esa xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidir, degan oila huquqining prinsipi normalandi.

Yuqorida taʼkidlanganidek, Konstitutsiyada oilaga maxsus bob ajratilgan boʻlib, bu bobning “Jamiyat va shaxs” boʻlimida berilishi ham uning mohiyatini ifodalaydi, chunki oila jamiyatning bir boʻlagi, uning asosiy boʻgʻinidir. Konstitutsiyaning 63-moddasida: “Oila jamiyatning asosiy boʻgʻinidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida boʻlish huquqiga ega,”- deyilgan. Shubhasiz, bu moddaning mazmuni, birinchi navbatda, oila – otalik, onalik va bolalik davlat hamda turli xil nodavlat tashkilotlar va jamgʻarmalar himoyasida boʻlishini bildiradi.

*Darhaqiqat, to'liq va keng ma'nodagi "oila" so'zi ilmiy ma'noda ota, ona va bolani o'z ichiga oladi. Er-xotin o'rtasidagi munosabatning asosida nikoh yotsa, ota-on va bola o'rtasidagi munosabatning asosida qon-qarindoshlik yotadi.*

Binobarin, oila huquqining asosiy tamoyillari Konstitutsiyada o'z ifodasini topgan. Ular jumlasiga oilaning jamiyat va davlat muhofazasida bo'lishi, oilada erkak va ayolning teng huquqliligi, nikohning ixtiyoriy asosda va teng bo'lishi, ota-onalar va bolalarning asosiy huquq va majburiyatlari kiradi.

Oila huquqining maxsus manbasi, keng qamrovli oila qonunchiligining negizi – O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksidir. U 1998-yil 30-aprelda birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining o'n birinchi sessiyasida qabul qilinib, 1998-yil 1-sentyabrdan amalga kiritildi.

Oila kodeksi – 8 bo'lim, 30 bob, 238 moddani o'z ichiga qamrab olgan.

Oila to'g'risidagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinmagan oila a'zolari o'rtasidagi mulkiy va shaxsiy nomulkiy munosabatlarga nisbatan fuqarolik qonun hujjatlari oilaviy munosabatlarning mohiyatiga zid kelmagan taqdirdagina qo'llaniladi.

Qonun hujjatlarida oilaviy munosabatlarni tartibga solishga oid tegishli normalar bo'lmagan taqdirda, O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari tamoyillariga zid bo'lmagan mahalliy urf-odat va an'analar qo'llaniladi.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining oila to'g'risidagi qonun hujjatlaridagidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

Shu bilan birga, oila huquqining manbalari bo'lib, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik, Uy-joy, Mehnat, Yer, Soliq, Fuqarolik protsessual kodekslari hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Vasiylik va homiylik to'g'risida"gi, "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida"gi Qonunlari va bir qator qonunosti hujjatlari oila huquqining manbasi sifatida oilaviy huquqiy munosabatlarni tartibga solish vazifasini bajaradi.

## Oila munosabatlarini huquqiy tartibga solish xususiyati

---

Oila munosabatlarini huquqiy tartibga solishning xususiyati tartibga solish predmeti bilan bevosita bog'liqdir. Chunki, oila o'z-o'zicha va bevosita bunday tartibga solishning predmeti bo'la olmaydi. Shu sababli davlat faqatgina oilada vujudga keladigan munosabatlarnigina qonun hujjatlari orqali tartibga soladi hamda Oila kodeksida nazarda tutilgan huquq va majburiyatlarning vujudga kelish shartlari va tartibini belgilaydi.

Oila munosabatlarini tartibga solishning ta'sir doirasiga quyidagilar kiradi:

- nikoh tuzish, nikohning tugatilishi (tugashi) va uni haqiqiy emas deb topish shartlari va tartibi;

- oila a'zolari: er-xotin, ota-ona va bolalar (farzandlikka oluvchilar va farzandlikka olinganlar) o'rtasidagi, oila to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va doirada esa qarindoshlar hamda o'zga shaxslar o'rtasidagi shaxsiy nomulkiy va mulkiy munosabatlar;

- ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni oilaga olish shakl va qoidalarini, fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish tartibi (Oila kodeksining 5-moddasi).

Oilaviy-huquqiy tartibga solish obyektini bo'lgan mazkur munosabatlar doirasi qat'iy bo'lib, ularni faqatgina maxsus qonun hujjati qabul qilish yo'li bilan o'zgartirish mumkin.

Oila huquqi subyektlari oila huquq layoqatiga ega bo'lishlari, ya'ni oila qonunchiligida nazarda tutilgan huquqlarga ega bo'lishlari va majburiyatlarni zimmalariga olishlari lozim.

Har bir subyekt muayyan huquqqa ega bo'lish bilan birga, o'z zimmasiga muayyan majburiyatlarni ham oladi. Bunda oilaviy-huquqiy munosabat ishtirokchilaridan biriga muayyan majburiyatning yuklanishi ayni paytda ikkinchi tomonda muayyan huquqni yuzaga keltiradi. Biroq, oila huquqida subyektlar barcha holatlarda ham xulq-atvorni tanlash imkoniyatiga ega bo'lmaydilar, chunki oila huquqida dispozitivlik mavjud emas. Jumladan, oila qonunchiligi erkak va ayolning nikoh ahdi ixtiyoriyligiga asoslanadi (Oila kodeksining 14-moddasi). Biroq nikoh tuzish shartlari va tartibi imperativ normalar bilan belgilangan (13, 15,17-moddalar). Qoidaga ko'ra, er-xotindan birining yoki ikkalasining ixtiyori bilan nikohdan ajratiladi. Biroq, bu holat ham bir qator imperativ ko'rsatmalar bilan cheklanadi. Masalan, xotining homiladorlik vaqtida va bola tug'ilganidan keyin bir yil mobaynida er xotining roziligisiz nikohdan ajratish to'g'risida ish qo'zg'atishga haqli

emas (Oila kodeksining 39-moddasi). Sud tartibida nikohdan ajratish, agar sud er va xotinning bundan buyon birgalikda yashashiga va oilani saqlab qolishga imkoniyat yo‘q deb topsa, ularni nikohdan ajratadi (Oila kodeksining 41-moddasi). Bu holatda sud er-xotinni yarashtirish choralarini ko‘radi va nikohdan ajralish to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqishni keyinga qoldiradi va taraflarga yarashish muddatini belgilaydi (Oila kodeksi 40-moddasining 2-qismi). Amaldagi qonunchilikda bu muddat olti oyni tashkil etadi va mazkur muddat davomida er-xotin sudning nazorati ostida bo‘ladi. Oila qonunchiligining nikohning haqiqiy emasligi (Oila kodeksining 49-51-moddalari), er-xotin mol-mulkining qonuniy tartibi (Oila kodeksining 23-28-moddalar) va er-xotinning majburiyatlar yuzasidan javobgarligi (Oila kodeksining 34-35-moddalar) to‘g‘risidagi normalari ham imperativ tus kasb etadi. Bolalarning nasl-nasabini belgilash imperativ normalar (Oila kodeksining 60-64-moddalari) bilan tartibga solinadi.

Oila huquqining ko‘plab normalari xulq-atvorning muayyan holatini belgilaydi va shu orqali oilaviy-huquqiy munosabatlarda subyektlar erk-irodasini cheklaydi. Bir qator holatlarda oila ishlariga sudning, vasiylik va homiylik organlarining, mahallaning aralashishiga yo‘l qo‘yiladiki, bu holatlar xulq-atvor turini tanlash erkinligini cheklaydi. Ayrim oilaviy huquqlar esa bir vaqtning o‘zida mazkur munosabat ishtirokchilarining majburiyatlari ham hisoblanadi. Masalan, ota-onalar farzandlarini tarbiyalash huquq va majburiyatiga ega (Oila kodeksining 73-moddasi).

Umumiy ma’noda, oila huquqining metodini imperativ tusga ega, deb tavsiflash mumkin. Biroq bu holat oila huquqida dispozitiv, ya’ni huquqiy munosabat ishtirokchilarining o‘z xulq-atvorini o‘zi belgilashiga imkon beruvchi normalar mavjudligini inkor etmaydi. Zamonaviy oila qonunchiligining rivojlanishida dispozitiv me’yorlarning ko‘payishi kuzatilmoqda. Jumladan, nikoh shartnomasi, aliment to‘lash to‘g‘risidagi kelishuvlar tuzish imkoniyati paydo bo‘ldi.

## **Oila huquqida “oila” kategoriyasi**

---

Oila tushunchasi oila huquqi fanidagi eng muhim kategoriyalardan biri hisoblanadi. Oila huquqiy tartibga solish obyektidir.

Oila nikoh, qon-qarindoshlik va shu kabi kishilar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikdan hosil bo‘ladigan ijtimoiy tuzilmadir. O‘ziga xos bo‘lgan mazkur ijtimoiy tuzilmadagi jismoniy shaxslar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tartibga solish, ularning huquq va majburiyatlarini belgilash huquqning vazifasi sanaladi.

Oila bo‘lib yashash barcha mavjudotlar orasida faqat inson zotigagina xosdir. Shu bois oila jamiyatning birlamchi bo‘g‘ini hisoblanadi. Oila fuqarolik jamiyatining tayanch nuqtasi, tayanch tuzilmasidir. Oilada inson nafaqat dunyoga keladi, balki u ma‘nan va axloqan tarbiya topadi.

Oila er-xotin, ularning bolalari, eng yaqin tug‘ishganlaridan iborat kishilar guruhi, ya‘ni xonadon hisoblanadi. Ayni chog‘da oila odamlarning tabiiy, iqtisodiy, huquqiy, ma‘naviy munosabatlariga asoslangan ijtimoiy birligi hamdir.

Oila jamiyatning tabiiy hujayrasi, ijtimoiy asosidir. Oila qanchalik mustahkam bo‘lsa, jamiyat ham shunchalik mustahkam bo‘ladi va tez rivojlanadi. Zero, jamiyat asosi – oilaning moddiy va ijtimoiy jihatdan mustahkamlanib borishi g‘oyat muhim ahamiyatga ega.

*Shu jihatdan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi 1994-yildan e‘tiboran har yili 15- may kunini Xalqaro oila kuni sifatida nishonlashga qaror qilgani bejiz emas.*

*Shuningdek, 1993-yildan buyon Vena, Qohira, Kopengagen, Pekin va dunyoning boshqa shaharlarida bo‘lib o‘tgan xalqaro anjumanlar kun tartibiga oila masalasining maxsus kiritilishida ham katta ma‘no bor. Umuman olganda, har yili belgilanayotgan va amalga oshirilayotgan xayrli ishlarning barchasida oila va uning mustahkamligi muammosi umuminsoniy vazifa sifatida e‘tirof etib kelinmoqda.*

Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”ning 16-moddasida shunday deyiladi:

1. Balog‘atga yetgan erkaklar va ayollar irqi, millati va diniga qarab biror-bir cheklashsiz nikohdan o‘tish va oila qurish huquqiga egadirlar. Ular nikohdan o‘tayotganda ham, nikohda bo‘lgan vaqtda ham va nikoh bekor qilinayotganida ham bir xil huquqlardan foydalanadilar.

2. Nikoh nikohdan o‘tayotgan ikkala tomonning xohishi va batamom roziligi bilangina tuzilishi mumkin.

3. Oila jamiyatning tabiiy va asosiy hujayrasidir va u jamiyat, davlat tomonidan muhofaza etilish huquqiga egadir.

*O‘zbekiston Respublikasida bugungi kunda 31 milliondan ortiq aholi 8 milliondan ortiq oilalarga birlashgan bo‘lib, ularning ikki milliondan ortig‘i yosh oilalardir.*

*Aholining o‘rtacha umr ko‘rish yoshi – 74. Ayollar – 75 yosh, erkaklar – 73 yosh.*

Oilaning ijtimoiy mazmuni – bu umumiy turmushda nikoh, qon-qarindoshlik, bolani oilaga tarbiyaga olish, o‘zaro g‘amxo‘rlik va manfaatlar umumiyligi asosida shakllangan shaxslarning ittifoqidir.

Oilaning yuridik mazmuni – nikoh, qon-qarindoshlik, farzandlikka olish yoki bolani boshqa shaklda oila tarbiyasiga olishdan kelib chiqqan huquq va majburiyatlar bilan bog‘langan shaxslarning ittifoqi.

Inson shaxsini shakllantirishda oila dastlabki bosqich vazifasini o‘taydi, ya‘ni oilada odamlarning bir-birlari bilan o‘zaro munosabatlariga hamda, jamiyat va davlatga nisbatan munosabatlariga asos solinadi.

Prezidentimiz Islom Karimov o‘zbek oilasining o‘ziga xos xususiyatlarini e‘tirof etib, shunday deydi: *“Oila – jamiyatning negizi. Bizning davlatimizni ham katta bir oila deb tushunishimiz mumkin va lozim. Bunda o‘zaro hurmat va qattiq tartib bo‘lmasa, oilaning barcha a‘zolari o‘z burchlarini ado etmasa, bir-biriga nisbatan ezgulik bilan mehr-oqibat ko‘rsatmasa, yaxshi va munosib tarzda yashash mumkin emas. Oila turmush va vijdon qonunlari asosiga quriladi, o‘zining ko‘p asrlik mustahkam va ma‘naviy tayanchlariga ega bo‘ladi, oilada demokratik negizlarga asos solinadi, odamlarning talab-ehtiyojlari va qadriyatlari shakllanadi. O‘zbeklarning aksariyati o‘zining shaxsiy farovonligi to‘g‘risida emas, balki oilasining, qarindosh-urug‘lari va yaqin odamlarining, qo‘shnilarning omon-esonligi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishni birinchi o‘ringa qo‘yadi. Bu esa eng oliy darajada ma‘naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir”*<sup>1</sup>.

Oila jamiyatning boshlang‘ich hujayrasini tashkil etib, unda aholining ko‘payishi va yosh avlodni tarbiyalash vazifalari amalga oshiriladi.

<sup>1</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. 1-том. – Т. Ўзбекистон, 1996.-Б. 49.

**Oilaning muhim ijtimoiy vazifalari quyidagilardan iborat:**

- *birinchidan*, u jamiyatning demokratik hujayrasini tashkil etib, odamlar oilada tug'ilib, o'sib, jamiyat tarkibini tashkil etadi;

- *ikkinchidan*, oila muhim boshpana va makon bo'lib, unda biz mehnat jarayonida sarf qilgan kuchlarimizni tiklash imkoniyatiga ega bo'lamiz;

- *uchinchidan*, oila muhim tarbiya o'chog'i;

- *to'rtinchidan*, oila ruhiy muhitdir.

Mutaxassislarning fikricha, odamlar hayotining birdan-bir to'g'ri yo'li oilaviy hayot ekan. Aksincha, yolg'izlikda yashash turli xil falokatlarga va fojialarga sabab bo'lar ekan.

**Nazorat uchun savollar:**

1. Oila huquqi huquqning bir tarmog'i sifatida fuqarolik huquqidan nimasi bilan farq qiladi hamda qaysi hollarda oilaviy-huquqiy munosabatlarni tartibga solishda fuqarolik-huquqiy normalar qo'llaniladi?

Muhokama qiling.

2. Oila huquqi tomonidan tartibga solinadigan munosabatlarda shaxsiy munosabatlar va mulkiy munosabatlarning o'zaro nisbati, ularning ustuvorligi hamda oila huquqi tomonidan tartibga solinadigan munosabatlarning klassifikatsiyasida u yoki bu munosabatning shaxsiy va mulkiy ajratilish mezonlarini tahlil qiling.

3. Iqbolova Nigora turmushga chiqqanidan so'ng uning qaynonasi unga oilaning barcha vazifalarini yuklab qo'ydi. Nigora bunga e'tiroz bildirishiga qaramay, qaynona uni har kuni uy-ro'zg'or ishlarini bajarishga, oilani moddiy ham ma'naviy ta'minlashga majbur qilar edi.

Oradan bir qancha vaqt o'tganidan so'ng Iqbolova Nigora advokatga murojaat qilib, oila huquqi bo'yicha oilaning asosiy vazifalariga nimalar kirishini tushuntirib berishini so'radi. Advokat oilaning asosiy vazifalarini izohlab, sharhlab berdi.

Aytingchi, advokat Iqbolovaga oilaning qanday asosiy vazifalari mavjudligini ko'rsatgan? Oilaning asosiy vazifalari bo'yicha o'z fikr-mulohazalaringizni bildiring.

4. Sharipova Mohinurning onasi Sharipova Gullola qizining singlisining o'g'liga unashtirilishini ma'lum qiladi. Mohinur onasining unashtirish to'g'risidagi taklifini rad qilib, xolasining o'g'liga turmushga chiqmasligini bildiradi. Lekin onasi men seni voyaga yetkazib katta qildim, endi sen menga itoat qilib, xolangning o'g'liga turmushga chiqishing shart deydi. Mohinur oila qurishning ixtiyoriyligi va erkinligiga amal qilish lozimligini bildirganda, onasi uni majburlab jiyaniga unashtiradi va FXDYo idorasiga nikohni rasmiylashtirish haqida ariza yozishga undaydi.

Aytingchi, Mohinurning unashtirish to'g'risidagi e'tirozi o'rinlimi? Oila huquqining asosiy tamoyillaridan biri bo'lgan erkin va ixtiyoriy nikoh tamoyilini asoslab bering.



## **2-MAVZU. OILA QONUNCHILIGINING RIVOJLANISH TARIXI**

O‘zbekistonda oila munosabatlarining tartibga solinishi. Xorijiy mamlakat qonunchiligida oilaviy munosabatlarning tartibga solishi.

### **O‘zbekistonda oila munosabatlarining tartibga solinishi**

Nikoh va oila munosabatlari uzoq tarixga ega. Uning tarixi haqida so‘z ketganda bevosita insoniyat tarixi, ijtimoiy hayot, urf-odat, an’analar, turmush tarzi bilan bog‘liq bo‘lganligini ta’kidlash o‘rinli bo‘ladi.

Zardushtiylik dinining asoschisi va Markaziy Osiyo, Ozarbayjon, Eron hamda yaqin va O‘rta Sharq, ayniqsa, Xorazm xalqlari ko‘p asrlik ijodining mahsuli, bir qancha elatlarning ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-nafosat va axloqiy-ta’limiy qarashlarining vujudga kelishi va rivojlanish tarixini o‘rganishda qimmatli manba bo‘lgan.

“Avesto”da insoniy burch faqat axloqiy yo‘l-yo‘riqlarni o‘zlashtirishdan iborat bo‘libgina qolmay, balki inson oilaviy turmush, yaxshi yor va farzand to‘g‘risida ham o‘ylashi zarurligi ta’kidlanadi. O‘sha davrda erkaklar roppa-rosa 16 yoshida uylanib, bir nechta xotin olish huquqiga ega bo‘lgan. Hamma vaqt birinchi xotin boshqalariga bosh bo‘lgan”. “Avesto”da qayd etilishicha, erkak kishi, avvalo, uylanish uchun moddiy va ma’naviy tomondan to‘q va jismonan baquvvat bo‘lishi lozim. Buning uchun o‘z vaqtida ovqatlanishi zarur, aks holda erkak kishi o‘z xizmat va axloqiy burchlarini bajara olmaydi. “Yeb ichmaydigan insonning toat-ibodat qilishga kuchi bo‘lmaydi, er-xotinlik vazifasini ado etishga quvvati yetmaydi, bola tug‘dira olmaydi” (“Yasna” 33-bob).

“Avesto”da qarindoshlarning o‘zaro oila qurishi man etilgan. Qavm va urug‘ qonini toza, avlodni benuqson saqlash uchun shunday qilingan. Ko‘p bolali oilalarga davlat hisobidan nafaqa tayinlash lozimligi qayd etilgan, bir yo‘la 2-3 ta tuqqan ayollar mukofot olishga sazovor, deb uqtiriladi.

Patriarxal oila Markaziy Osiyo xalqlarida oilaning eng dastlabki paytda tarixiy shakli hisoblangan. Bu oila, ayni paytda, jamiyatning asosiy ishlab chiqarish jamoasi ham bo‘lgan. Shuning uchun oilaviy munosabatlarga, har bir oila a’zolarining xatti-harakatlariga alohida e’tibor berilgan. Markaziy Osiyoda patriarxal oila eramizdan oldingi birinchi ming yilliklarda vujudga kelgan. Uning eng rivojlangan davri eramizning

birinchi asrlariga to'g'ri keladi. Oilaning bo'linib ketishi, o'rniga kichik-kichik oilalarning tarkib topishi eramizning birinchi ming yilligi o'rtalaridan boshlanadi va deyarli XX asrlargacha davom etgan.

Kichik oilalarning vujudga kelishi bilan birga nikohning shart-sharoitlari ham o'zgarib boradi. Patriarxal oila amal qilgan davrda nikoh shartlari ancha qat'iy va cheklangan edi.

Nikoh – bu erkak bilan ayol o'rtasidagi muayyan ittifoqi va bu ittifoqning jamiyat, davlat tomonidan tan olinishi va ma'qullanishining tarixiy shaklidir.

Buyuk alloma Abu Rayhon Beruniyning fikricha, bironta ham xalq nikohdan holi emasdir.

Jamiyat nikoh vositasi bilan erkak va ayol o'rtasidagi tabiiy munosabatlarni tartibga solib turadi, er-xotin, ota-ona va farzandlar o'rtasida axloqiy, huquqiy majburiyatlar o'rnatadi. Nikoh jinsiy ehtirosni maxfiylik pardasiga o'raydi, er-xotin orasidagi tabiiy munosabatga axloqiy, ma'naviy go'zallik, andisha baxsh etadi.

Nikoh (arabcha – qo'shilish) so'zi o'zbek tiliga arab tilidan kirib kelgan. Ayrim tadqiqotlar islomgacha bizda erkak va ayol o'rtasida nikoh degan tushuncha bo'lmagan, deb e'tirof etadilar. Bu fikr haqiqatga to'g'ri kelmaydi. Qadimgi grek tarixchisi Strabonning yozishicha, har bir massagetning o'z xotini bo'lgan. Ana shu tarixchining fikriga qaraganda, erkaklar va ayollar jinsiy hayotda muayyan erkinliklarga ham ega bo'lganlar.

Umuman olganda, Markaziy Osiyoda ayollarga qadimdan katta hurmat bilan qaralgan. Ular jamiyatda erkaklar bilan teng huquqlardan foydalanishgan. Gerodotning "Tarix" nomli asarida vatanparvar ayol To'maris haqida keltirilgan tarixiy ma'lumot bunga yorqin misol bo'la oladi. Bunga ko'ra, Turon aholisi To'maris boshchiligida bosqinchi Kayxusrav armiyasiga qaqshatqich zarba beradi.

Boshqa bir qadimgi grek tarixchisi – Elion qoldirgan ma'lumotga ko'ra, Markaziy Osiyodagi yirik qabilalardan biri bo'lgan saklarning odatlari bo'yicha, uylanishni istagan har bir yigit o'zi uylanmoqchi bo'lgan qiz bilan yerosti uyida kurash tushishi shart bo'lgan. Yigit kurashda g'alaba qilgan taqdirdagina uylanish huquqiga ega bo'lgan. Aks holda, uning o'zi qizning asiriga aylangan. Demak, bu yerda kurash o'ziga xos tarzda nikoh sharti vazifasini bajargan.

Markaziy Osiyo xalqlarining mashhur dostonlari - “O‘g‘uznoma”, “Alpomish” va “Manas”larda nikoh bilan bog‘liq odatlarda yigitning jismoniy qobiliyatlariga va uni sinab ko‘rishga alohida ahamiyat berilgan. Yigitning qizga munosib yoki munosib emasligini aniqlash uchun talabgorlarning o‘zaro ot poygasi, kamonda nishonni urishi, uzoqqa o‘q uzishi, kurash tushishi kabi raqobatchilik shakllaridan ham foydalanilgan. Shuningdek, bu tanlov “Qiz quvlash”, “Tortishmachoq“ singari ko‘rinishda ham o‘z ifodasini topgan, ularning qoldiqlari hozirgacha yetib kelgan. Lekin ana shu kurashlar, qiz quvlashlar chog‘ida qanday so‘zlar, duolar ishlatilganligi haqidagi xabarlar bizgacha yetib kelmagan yoki tarixchilar bunga e‘tibor berishmagan. Lekin so‘g‘d yozma yodgorliklaridan bu xususda ancha ma‘lumotlar topish mumkin.

Eramiz boshlaridan to X-XI asarlarga qadar yozilgan ana shunday noyob so‘g‘d yozma yodgorliklari bizgacha yetib kelgan. Panjikent yaqinidagi Mug‘ tog‘i tepasidagi qadimgi qasr xarobasidan 80 ga yaqin so‘g‘d hujjatlari topilgan. VII asr oxiri — VIII asr boshlariga oid bu hujjatlar So‘g‘d arxivi deb yuritiladi. Ular orasida tadqiqotchilar tomonidan shartli ravishda “Nov. 3” (Navekat nomli shaharda tuzilgan hujjat bo‘lgani uchun) deb belgilangan so‘g‘dcha nikoh guvohnomasi, “Nov. 4” deb belgilangan kuyovning kelin tomon oldidagi majburiyatlari bayon etilgan ikki hujjat bor. Mazkur hujjatlar qadim va ilk o‘rta asrlardagi O‘zbekiston xalqlarining nikoh-oila va u bilan bog‘liq mulkchilik va boshqa ijtimoiy munosabatlari to‘g‘risida hikoya qiluvchi muhim yodgorlikdir.

Islom dini Turkiston o‘lkasida yoyilgandan keyin nikoh-oila huquqiy munosabatlari Qur‘oni Karim, Shariat<sup>1</sup> va Odat<sup>2</sup> qoidalari, shuningdek, payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v) ning hadislar bilan tartibga solingan.

Shariat – bu kishilar amal qilishi uchun islom dini tarafidan buyurilgan hukmlar va nizomlardir. Shariat hukmlarini bilib olish har bir mo‘min-musulmon uchun farz hisoblanadi.

Odat qoidalari, asosan, ko‘chmanchi xalqlarga tatbiq etilgan.

Odat Turkiston o‘lkasida ko‘chmanchi xalqlar (qozoqlar, qirg‘izlar)da nikoh-oila munosabatlarining asosi hisoblangan. Qozoqlarda bir xil huquqiy masalalar mazmuniga ko‘ra har xil asosda hal qilinishi bo‘yicha odat shariat normalaridan ajralib turgan. Odat huquqida turli tushunchalar bo‘lgan. Masalan, “Baranta”. Bu kelinning ota-onasiga

---

<sup>1</sup> Shariat-arabcha “Shar‘a” - yo‘naltirmoq, qonunchilik, to‘g‘ri yo‘l ma‘nosini anglatadi. Unga Qur‘on va sunna asos qilib olingan bo‘lib, musulmonlarning moddiy va ma‘naviy, ijtimoiy va shaxsiy hayotini tartibga soluvchi diniy huquq tizimini tashkil etadi. Shariat qoidalarida nikoh, oila va maishiy masalalarga alohida o‘rin beriladi.

<sup>2</sup> Odat-huquqi yozilmagan qoidalar majmui.

tegishli bo‘lgan chorva mollarni zo‘rovonlik bilan haydab ketishdir. “Alengerlik” – qozoq xalqining odat huquqiga asosan juda og‘ir amal. Alengerlik – bu beva qolgan xotinning erning aka-ukalaridan biriga, qarindoshlariga yoki urug‘iga erga chiqish majburiyati. Bevalik boshlangandan keyin bir yil o‘tgach, mazkur bevaga uylanish huquqiga ega bo‘lgan nomzod o‘z huquqidan foydalanishga kirishishi mumkin bo‘lgan. Alengerlik odatini bajarishdan bosh tortgan beva bolalaridan, chorvasidan, mol-mulkidan mahrum etilib, shundan so‘nggina u o‘z xohishi bo‘yicha erga tegishi mumkin bo‘lgan. Bu qoidalar o‘troq aholi o‘rtasida keng tarqalmagan.

Shariat qoidalarining o‘ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, unda islom dini qoidalari davlat huquqiy normalarida mujassamlashadi.

Musulmon huquqining hamma sohalari, shu bilan birga, nikoh, qon-qarindoshlik, taloq masalalarini qamrab olgan manbalardan biri “Hidoya” asari (to‘liq nomi “Hidoya fifuru’al-fiqh” – “Fiqh sohalari bo‘yicha yo‘llanmasi”) dir.

Bu qo‘llanma to‘rt jildlik, 57 kitob, 165-bob, 152-fasldan iborat bo‘lib, uning muallifi marg‘ilonlik Ali ibn Abu Bakr al-Farg‘oniy al-Rishtoniy Burhoniddin Marg‘inoniydir. U zot 1197-yilda vafot etgan bo‘lib, uning mazkur asarida islomning qator masalalari bilan huquqiy va axloqiy me‘yorlar, nikoh va oila masalalari bilan bog‘liq bo‘lgan qoidalar hamda jinoyat va jazoga oid tatbiq etish lozim bo‘ladigan choralar batafsil yoritilgan. Bulardan tashqari, bu qonun-qoidalar majmuasida mulkiy va moliyaviy munosabatlar, fuqarolik huquqiga, fuqarolik jarayoni huquqiga va boshqa masalalarga o‘rin berilgan.

Hanafiya mazhabi xulosalariga asoslangan bu asardagi qoidalar ham shu mazhab qonunlari kabi nisbatan yumshoqroq va qulayroqligi, xalqlarning mahalliy an‘analari e‘tiborga olinganligi sababli, u aksariyat musulmon davlatlarida keng yoyilgan, chunonchi, qozi (sudya)lar muomala munosabatlaridan kelib chiqadigan (fuqarolik, nikoh, oila) va boshqa nizoli ishlarni ko‘rib hal etishda boshqa manbalar bilan bir qatorda “Hidoya”dan ham unumli foydalanishgan.

Nikoh-oila munosabatlarini tartibga solishda XII asr davomida Turkiston hududida amalda bo‘lgan diniy huquqiy tizim – shariat, musulmon huquqi normalari, hadislarning roli juda katta bo‘lgan. Imom al-Buxoriyning “Al-Adab al-mufrad” (“Adab durdonalari”) nomli hadislar to‘plami shular jumlasiga kiradi. To‘plamda olti yuz hadis ikki yuz oltmish yetti bobga jamlangan bo‘lib, unda ota-onani e‘zozlash, kattaga hurmatda, kichikka izzatda bo‘lish, qo‘shnichilik, insoniylik va mehr-shafqatlilik,

saxiylik va baxillik, yolgʻonchilik, chaqimchilik va maqtanchoqlik, isrofgarchilik va johillik, sharm-hayo va uyatchanlik kabi qator husni odob va goʻzal xulq qoidalari yoritilgan.

Maʼrifatchi olim Rizouddin ibn Faxruddin XIX asrning oxirlaridan boshlab Sharq tarixi va madaniyati hamda taʼlim-tarbiyaga oid oʻnlab asarlar yozgan. U musulmon qonunshunosligi - fiqhga oid asar ham yozgan. Bu borada uning “Qavoidi fiqhiya” - “Fiqh qoidalari” asarini (Qozon, 1910) eslab oʻtishning oʻzi kifoya. Asrimizning boshlarida yozilgan “Oila” asarida odob-axloq, oila masalasiga koʻp eʼtibor qaratadi. Maʼlum boʻlishicha, u mazkur asarida taʼlim-tarbiya sohasiga alohida urgʻu bergan; ota-onaning vazifasi, muallim burchi, ayniqsa, xotinlar vazifasi keng yoritilib, bola tarbiyasida xotinlarning oʻrni muhim ekanligiga muallif katta ahamiyat beradi. Uning mulohazasiga koʻra, yaxshi xotin bolalarini ham yaxshi tarbiyalay oladi. U: “Xotinlar birinchi navbatda murabbiydirlar, xotinning oila tebratishi murabbiylik xamiridan patir qilish-u, uning tandida oʻsha patirni yopish degan soʻz”, - deydi.

“Oila” asari bir necha bor qayta nashr etilgan va koʻpchilikning diqqatiga sazovor boʻlgan.

Nikoh-oila munosabatlarini tartibga solishda olim Ahmadhoji Maqsudiyning 1912-yilda maktab-madrasalar talabalari va barcha moʻmin-musulmonlar uchun qoʻllanma sifatida chop etilgan “Sharʼiy hukmlar toʻplami” muhim ahamiyatga ega. U tatar tilda yozilgan kitobdan tarjima qilingan. Shuningdek, Al-Hakim At-Termiziy ham axloq, nikoh va oila masalalariga bagʻishlab bir qator asarlar yaratgan. Uning “Solnoma”, “Najot” (“Toʻgʻri yoʻl”), “Navodirul usul”, “Kitob al-furuq va manʼ ut-tarozuf” singari oʻlmas asarlari shular jumlasidandir.

Bu manbalar oʻz davrida nikoh-oila munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan qoidalardan iborat boʻlib, diniy aqidalarga asoslangan edi.

## **Xorijiy mamlakatlar qonunchiligida oilaviy munosabatlarining tartibga solinishi**

---

Oilaviy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan xorijiy mamlakatlarning moddiy-huquqiy qonunchiligi oʻziga xos va rang-barangdir.

Qitʼa huquq tizimiga mansub davlatlarda (Germaniya, Shvetsariya, Fransiya) oila munosabatlarini huquqiy tartibga solish manbalari boʻlib Fuqarolik kodekslarining maxsus boʻlimlari xizmat qiladi. Masalan, Germaniya Fuqarolik tuzuklarining 4-kitobi “Oila huquqi” deb nomlanadi

va uning 1297-1921-paragraflaridagi normalar bevosita oila munosabatlarini tartibga solishga bag'ishlangan. Anglo-sakson huquq tizimiga oid mamlakatlarda esa oila munosabatlari alohida normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Xususan, Angliyada oila munosabatlarni tartibga solishning asosiy manbasi 1949-yilda qabul qilingan "Nikoh to'g'risida"gi Qonun hisoblanadi. Mazkur qonun u qabul qilingunicha amalda bo'lgan 40 ta normativ-huquqiy hujjatni birlashtirish yo'li bilan ishlab chiqilgan. Shu bilan birga, anglo-sakson huquq tizimiga oid mamlakatlarda aliment undirish, otalikni sud yo'li bilan belgilash, vasiylik tayinlash alohida qonunlar bilan tartibga solinadi. AQShda oila huquqi nihoyatda rangbaranglik kasb etadi. Chunki oila munosabatlarini tartibga solish shtatlarning vakolatlariga tegishlidir.

Keyingi yillarda xorijiy mamlakatlarda oila huquqining barqaror va noan'anaviy rivojlanishini ko'rish mumkin. Ko'p hollarda oila munosabatlarida er-xotinning tengligi, ular mol-mulkinging shartnomaviy tartibi qonun darajasida belgilangan. Biroq ayrim holatlarda bir davlatda tuzilgan nikohning boshqa davlatlarda tan olinmasligi "oqsoq nikohlar" deb ataladigan nikohlarning vujudga kelishiga asos bo'lib qolmoqda<sup>1</sup>. Bir qator mamlakatlarda esa er-xotinning mulkiy munosabatlari erning shaxsiy qonuni asosida aniqlanadi.

Normativ-huquqiy hujjatlarda nikoh tushunchasining ta'rifi berilmagan. Shuningdek, bugungi kunga qadar huquqshunoslik doktrinasida va qonunchilikda nikoh masalalari tugal o'z yechimini topmagan. Biroq, shunga qaramasdan, xorijiy mamlakatlar qonunchiligi va huquq doktrinasida nikoh tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin:

Nikoh – erkak va ayolning oila qurishga qaratilgan va ular uchun o'zaro shaxsiy va mulkiy huquq va majburiyatlarni vujudga keltiradigan, yuridik rasmiylashtiriladigan ixtiyoriy ittifoqidir.

Nikohning yuridik rasmiylashtirilishi milliy qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda maxsus organlarda amalga oshiriladi.

Bugungi kunga qadar nikoh munosabatlarini tartibga solishning shartnomaviy konsepsiyasi ustuvor tusga ega. Bunda qonunchilik nikoh shartnomasini tuzish tartibi va u bekor bo'lgach yuzaga keladigan oqibatlarga oid bir qator qoidalarni nazarda tutadi. Nikoh-shartnoma konsepsiyasining asosida er-xotin mol-mulkinging shartnomaviy rejimini

<sup>1</sup> Раҳмонкулова Н.Х. Халқаро хусусий ҳуқуқда никоҳ муносабатлари. – Т.: "ARTFLEX", 2011. Б– 5.

oʻrnatish imkoniyatining mavjudligi yotadi. Biroq bu konsepsiyaga qarshi boʻlganlar nikoh shartnoma boʻla olmaydi, chunki er-xotinda faqatgina qonunda nazarda tutilgan huquq va majburiyatlar vujudga keladi va tomonlar ularning oʻz xohish-irodalaridan kelib chiqib oʻzgartira olmaydi, deb hisoblashadi.

Nikoh-shartnomaning ustuvor jihati shu bilan belgilanadiki, er va xotin mol-mulkning oldindan kelishilgan rejimini belgilaydi. Huquqiy nuqtai nazardan nikohning bunday turi nikoh munosabatlari subyektlarining qonunda belgilangan harakatlarni amalga oshirish natijasida qoʻlga kiritilgan mol-mulklarning maqomini belgilaydi.

Xorijiy mamlakatlarda tuziladigan nikoh fuqarolik yoki diniy shaklda boʻlib, bu borada barcha mamlakatlarni uch guruhga boʻlish mumkin:

1) faqat fuqarolik nikohlari huquqiy oqibat tugʻdiradi (GFR, Fransiya, Shvetsariya, Yaponiya, Rossiya va boshqalar);

2) nikoh muqobil tarzda – fuqarolik yoki diniy shaklda tuzilishi mumkin (Angliya, AQShning bir qator shtatlari, Daniya, Ispaniya, Italiya, Kanada va boshqalar);

3) faqat diniy shakldagi nikoh mavjud (Isroil, Iroq, Eron, AQShning ayrim shtatlari, Kanadaning alohida viloyatlari).

Nikohdan oʻtkazish marosimi har doim qonunda belgilangan sondagi voyaga yetgan guvohlar ishtirokida oʻtkaziladi (ikkitadan oltitagacha). MDH mamlakatlarida nikohni qayd etishda guvohlarning ishtiroki majburiy boʻlgan holatlar faqat Gruziya va Litva qonunchiligida belgilangan.

Barcha xorijiy mamlakatlarda nikohdan oʻtish nikoh tuzilishi xususida ommaviy eʼlon qilish bilan birgalikda amalga oshiriladi (masalan, cherkovda eʼlon qilinishi yoxud munitsipalitet uyida bu haqda xabarni osib qoʻyish). Nikohning rasmiylashtirish marosimi oʻtkaziladigan organ nikoh tuzilishi va uning tuzilganligini eʼlon qilish davrida uning tuzilishi xususida eʼtiroz bildirishi mumkin. Agar mazkur eʼtirozlar kelin va kuyov tomonidan tan olinmasa, ular sud tomonidan koʻrib chiqilishi lozim. Angliya va AQShda nikohdan oʻtish eʼlon qilish taomilisiz cherkov va rasmiy hokimiyat tomonidan berilgan ruxsatnoma olish bilan amalga oshirilishi mumkin. Nikohdan oʻtish uchun tomonlar majburiy tartibda diniy xizmatchi oldida qasam ichishi yoki fuqarolik tartibda nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlar yoʻqligi xususida vaʼda berishi lozim. Nikohni eʼlon qilish va nikohdan oʻtishga ruxsatnoma belgilangan muddat mobaynida (bir oydan bir yilgacha) amal qiladi va bu muddat oʻtgach bu taomillarni qaytadan amalga oshirish talab etiladi.

Nikohdan o'tishda tomonlarning ishtiroki majburiydir. Agar nikohdan o'tish paytida nikohlanuvchilardan biri qandaydir sabab bilan marosimda ishtirok eta olmasa (bir-biridan uzoqroq masofada yashashi, kasalligi, harbiy xizmatdaligi), ikkinchisi tomonlarning ikkalasi ham imzo qo'ygan arizani topshirishi zarur. Bunda marosimda ishtirok eta olmayotgan tomonning imzosi vakolatli organ yoki shu shaxs turar joyidagi mahalliy ijro organining mansabdor shaxsi tomonidan tasdiqlangan bo'lishi talab etiladi.

Ayrim hollarda nikoh munosabatlarini rasmiylashtirishga nisbatan taqiqlar belgilanadi. Xususan, quyidagilar taqiqlanadi:

– birinchi nikoh bekor qilinmaguniga qadar ikkinchi nikohdan o'tish; bunday qoida ko'plab davlatlarning qonunchiligida belgilangan va uning buzilishi uchun jinoiy javobgarlik belgilangan;

– yuqoriga va pastga to'g'ri tutashgan (bobo, ota, o'g'il va buvi, ona, qiz) qarindoshlar o'rtasida, tug'ishgan va o'gay aka-uka va opa-singillar o'rtasida nikoh tuzishga yo'l qo'yilmaydi; ayrim mamlakatlarda (Fransiya, AQSh, Shvetsariya) yon qarindoshlik darajasidan kelib chiqib nikoh taqiqlanishi mumkin; GFRda uchinchi darajadagi yon qarindoshlar (amaki, tog'a va qiz jiyan, amma, xola va o'g'il jiyan) o'rtasidagi nikoh taqiqlanadi; Angliya va AQShning bir qator shtatlarida nisbatan uzoqroq, ya'ni to'rtinchi darajadagi qarindoshlar (amakivachcha, tog'avachcha, ammavachcha, xolavachcha) o'rtasidagi nikohlarga ham yo'l qo'yilmaydi;

– farzandlikka oluvchilar va farzandlikka olinganlar o'rtasidagi (Shvetsariya, Fransiya), farzandlikka oluvchi va farzandlikka olinganning qarindoshlari o'rtasidagi nikoh (ayrim hollarda bunday nikohlar uchun maxsus ruxsat olinadi)lar ham taqiqlanadi;

– ikkinchi tomonning sog'lig'iga xavf tug'diradigan kasallikka chalingan shaxs bilan nikoh tuzish (Angliya qonunchiligi va AQShning ayrim shtatlarida ruhiy kasallar bilan nikohlanish taqiqlanadi);

– ayolning nikohdan ajralganidan yoki eri vafotidan keyin nikohga kirishishi qonunda belgilangan muddat mobaynida taqiqlanishi (Germaniyada – 10 oy, Fransiya va Shvetsariyada – 300 kun).

Qonunda belgilangan shartlarga rioya etmasdan tuzilgan nikoh mutlaq haqiqiy bo'lmagan (o'z-o'zidan haqiqiy sanalmaydigan) yoki nisbiy haqiqiy bo'lmagan (nizoli) hisoblanadi.



## Nazorat uchun savollar:

1. Oila huquqi munosabatlarini tartibga solishda xorijiy mamlakatlar qonunchiligining o'ziga xos jihatlarini milliy qonunchilik normalari bilan solishtirib, ularning o'xshash va farqli jihatlarini aniqlang.

2. Qit'a va anglo-sakson huquq tizimi mamlakatlarida oila huquqi manbalarining o'zaro nisbati va oila qonunchiligining o'ziga xosligini muhokama qiling hamda tahlilingizni nikohni shartnomaviy va noshartnomaviy talqin etish yondoshuvi asosida ochib bering.

3. Fuqaro Ergashev va Toshmatova 2005-yil noyabr oyida nikohlarini FXDYo organida qayd ettiradilar. Oradan bir-ikki oy o'tganidan so'ng, Toshmatova Lobar o'zining sevimli kasbini, ya'ni shifokorlikni davom ettirish uchun kasalxonaga ishga tushadi. Biroq kasalxona bosh shifokori Aliyev bundan buyon Toshmatova shifokor bo'lib ishlay olmasligini, uni ishdan bo'shatilganini ko'rsatib o'tadi.

Toshmatova buning sababini so'rganida, bosh shifokor uning turmushga chiqqanligini, endi esa u oila, uy-ro'zg'or ishlari bilan shug'ullanishi shartligini, ishga kela olmay qolish ehtimoli borligi va shunga o'xshash bir qator holatlarni vaj qilib ko'rsatadi.

Ushbu holat bo'yicha fuqaro Toshmatova qanday xatti-harakatni amalga oshirishi lozim?

Konstitutsiyada Toshmatova huquqlarini himoya qilish asoslari nimalardan iborat?

4. Nargiza Mamatova Toshkent viloyati Chirchiq shahar fuqarolik ishlari bo'yicha sudiga eri Mamatov Baxtiyor bilan nikohdan ajratish to'g'risida da'vo arizasi bilan murojaat qiladi. Da'vo arizasida u eri bilan 13 yildan beri yashayotganligini, ularning nikohidan 12 yashar qizlari bor ekanligini ko'rsatib o'tadi. Keyingi 2 yil mobaynida Mamatov Baxtiyor hech qayerda ishlamaydi, har doim spirtli ichimliklarni suuiste'mol qilib, oila ehtiyoji uchun pul ham bermay, onda-sonda uyiga tunash uchun keladi va har safar mast holda bo'lib, qizining oldida xotini bilan janjallashadi. Fuqaro Mamatova oila butunlay barbod bo'layotganligini ko'rsatib, eri Mamatov Baxtiyor bilan nikohdan ajratishlarini va qizining ta'minoti uchun aliment undirish haqida hal qiluv qarori chiqarib berishlarini so'raydi.

Sud majlisida Mamatov o'ziga nisbatan keltirilgan da'voni rad etadi va sudda ularni nikohdan ajratmasliklarini iltimos qilib, bundan keyin u o'z xatti-harakatini xotini va qiziga nisbatan yaxshi tomonga o'zgartirishini ta'kidlab o'tadi. Sud er-xotinlarning yarashishlari uchun 6 oy muddat beradi.

6 oy muddat o'tganidan so'ng, Mamatova yana ularning nikohlarini ajratish yo'li bilan tugatishlarini so'raydi, chunki ushbu 6 oylik muddat davomida Mamatov Baxtiyor o'z xatti-harakatini yaxshi tarafga o'zgartirmaganini va ularning oilasini saqlab qolishning iloji yo'qligini ta'kidlab o'tgan. Lekin er nikohning tugatilishiga qarshi ekanligini va ularning oilasini saqlab qolishni iltimos qiladi.

Mazkur vaziyatda sud oila huquqining qaysi tamoyiliga asoslanib ishni hal qilishi lozim?

### 3-MAVZU. OILAVIY-HUQUQIY MUNOSABATLAR

---

Oilaviy-huquqiy munosabatlar tushunchasi va turlari. Oila huquqida huquq va muomala layoqati. Oilaviy-huquqiy munosabatlarning subyektlari va obyektlari. Oilaviy subyektiv huquq va majburiyatlar. Oilaviy-huquqiy munosabatlarning vujudga kelishi, o'zgarishi va bekor bo'lish asoslari. Oila huquqida qon-qarindoshlik, qayin-bo'yinchilik va quda-andachilik tushunchasi hamda ularning ahamiyati. Oila huquqida da'vo muddati.

#### Oilaviy-huquqiy munosabatlar tushunchasi va turlari

---

Ijtimoiy munosabat tizimida oila alohida o'rin tutadi. Oilaviy-huquqiy munosabatlar nikoh, qon-qarindoshlik aloqalari, huquq normalarida belgilangan o'zaro huquq va majburiyatlar bilan bog'langan shaxslar doirasida vujudga keladi.

Inson tug'ilishi bilan boshqa kishilar muhitida bo'ladi va bir umr shu muhitda yashaydi. Bunda inson boshqa kishilar bilan turli xildagi munosabatlarda bo'ladi. Bu munosabatlar turlicha bo'lib, ular jumlasiga qarindoshlik, do'stlik, qo'shnichilik, vatanparvarlik, ruhiy, iqtisodiy, ishlab-chiqarish, haq evaziga va tekin, axloqiy, diniy, oilaviy munosabatlarni kiritish mumkin. Mazkur munosabatlarning bir qismi davlat tomonidan qonun yordamida tartibga solinganligi sababli ham, bu munosabat huquqiy munosabatlar hisoblanadi.

Huquqiy munosabatlar o'z predmetining tabiatiga ko'ra turli huquq sohalari: konstitutsiyaviy, ma'muriy, fuqarolik, oila va shu kabi tarmoqlar normalari bilan tartibga solinadi.

Nikoh tuzish, oilaning vujudga kelishi va amal qilishi, bolalarning tug'ilishi, ularning moddiy ta'minoti va tarbiyalanishi, tegishli muassasalarda joylashtirilishi faktlaridan kelib chiqadigan va qonun hujjatlari tomonidan tartibga solinadigan munosabatlar – *oilaviy-huquqiy munosabatlar* deb nomlanadi.

Oilaviy-huquqiy munosabatlar jamiyatda juda keng tarqalgan munosabatlardir. Oilaviy munosabatlar muayyan hollarda odob-axloq qoidalari bilan ham tartibga solinadi.

Oilaviy-huquqiy munosabatlar nikoh va oila doirasidagi aniq ijtimoiy munosabatlarni oila qonunchiligi nuqtayi nazaridan tatbiq etishdir.

Oilaviy-huquqiy munosabatlar davomli huquqiy munosabatlar hisoblanadi. Bu xususiyat huquqiy munosabatning maqsadlari bilan belgilanadi. Nikoh tuzishdan maqsad oila qurish bo'lib, u er-xotinning butun umri davomida birga yashashiga mo'ljallanadi. Ota-onalik huquqiy munosabati bolalarning tarbiyasi va ta'minotiga qaratiladi.

Farzandlikka olish, vasiylik, homiylik va boshqa huquqiy munosabatlar ko'p xususiyatlari bilan bir-biriga o'xshab ketadi. Bunday huquqiy munosabatlarda qo'yilgan maqsadlarga uzoq muddat davomida erishish mumkin.

Oilaviy-huquqiy munosabatlar muddatsiz bo'ladi. Er-xotinning huquq va majburiyatlari, nikohdan ajralish holatini hisobga olmaganda, bir umr davom etadi. Ayni paytda shunday oilaviy-huquqiy munosabatlar ham mavjudki, ular ma'lum muddat bilan cheklanadi, biroq belgilangan davrgacha albatta davom etadi. Masalan, ota-onalarning o'z bolalarini tarbiyalash majburiyatlari farzand 18 yoshga to'lganiga qadar davom etadi.

Amaldagi qonunchilik oilaviy-huquqiy munosabatlarni huquqiy munosabatlarning maxsus alohida turi deb hisoblab, uning fuqarolik-huquqiy munosabatlardan farq qilishini ko'rsatadi.

To'g'ri, oilaviy-huquqiy munosabatlar o'zining ba'zi bir belgilari bilan fuqarolik-huquqiy munosabatlarga o'xshab ketadi. Biroq bu o'xshashlik faqat tashqi ko'rinishdadir. Mazmunan oilaviy va fuqarolik-huquqiy munosabatlar o'rtasida muhim sifat farqlari bor.

Fuqarolik-huquqiy munosabatlarning asosiy qismini mulkiy munosabatlar tashkil etsa, oilaviy-huquqiy munosabatlarning asosiy qismini esa, aksincha mulkiy bo'lmagan nomulkiy shaxsiy munosabatlar tashkil etadi. Shunga muvofiq fuqarolik huquqining hamma normalari, barcha institutlari, avvalo, mulkiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan bo'lsa, oila huquqi esa, birinchi navbatda, shaxsiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan.

Fuqarolik huquqida mulkiy munosabatlar, asosan, muayyan ekvivalent barobarida belgilanadigan qiymat, baho bilan ifodalanadigan xarakterga ega. Bu belgilar oilaviy huquqiy munosabatlarga taalluqli emas.

## **Oila huquqida huquq va muomala layoqati**

---

Huquq layoqati deyilganda, barcha fuqarolarning fuqarolik huquq va burchlariga ega bo'lish layoqati tushuniladi. Fuqarolik huquq layoqati tug'ilgan paytdan e'tiboran vujudga keladi va vafot etilishi bilan tugaydi (Fuqarolik kodeksining 17-moddasi).

Muomala layoqati – fuqarolarning o‘z harakatlari bilan fuqarolik huquqlari va burchlariga ega bo‘lishi, ularni o‘zgartirish va bekor qilishi mumkin bo‘lgan layoqatidir.

Oila qonun hujjatlarida huquq layoqati va muomala layoqati tushunchalarining aniq ta’rifi belgilanmagan. Bu tushunchalarni tahlil qilishda Fuqarolik kodeksida mavjud bo‘lgan huquq layoqating va muomala layoqati tushunchalaridan foydalanish mumkin. Fuqarolik muomala layoqatini o‘zgarishi oila munosabatlariga bevosita ta’sir etishi mumkin. Fuqarolik muomala layoqatini cheklash yoki undan mahrum etish oila muomala layoqatini ham cheklash yoki mahrum etishga olib kelishi mumkin. Ko‘rsatilgan huquqiy ko‘rinishda fuqarolik va oila huquqidagi o‘zaro bog‘liqlik shunday yaqinki, ularni, yani fuqarolik va oila huquqidagi huquq layoqati va muomala layoqatini, bir xil tushuncha deb atash ham mumkin.

Oila huquqidagi to‘la muomala layoqati xuddi fuqarolik huquqiga o‘xshab 18 yoshga to‘lish bilan paydo bo‘ladi. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, oila va fuqarolik huquqida to‘la muomala layoqati bir vaqtda vujudga keladi. Bunday o‘xshashlik ularning bir-biriga uzviy aloqadorligida ko‘rinadi. Yoshni kamaytirishi tufayli voyaga yetmagan shaxsning nikoh tuzish oila huquqida uning to‘la fuqarolik muomala layoqatiga ega ekanligini anglatadi.

Fuqarolik huquqida to‘la muomala layoqatiga ega bo‘lish oila huquqida o‘z-o‘zidan to‘la muomala layoqatini vujudga keltirmaydi.

Amaldagi O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 28-moddasiga binoan, o‘n olti yoshga to‘lgan voyaga yetmagan shaxs mehnat shartnomasi bo‘yicha ishlayotgan bo‘lsa yoki ota-onasi, farzandlikka oluvchilari yoxud homiysining roziligiga binoan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan bo‘lsa, belgilangan tartibda vakolatli idora tomonidan u to‘la muomalaga layoqatli deb e’lon qilinishi mumkin. Oila qonuni ushbu hujjat bilan to‘la oilaviy muomala layoqati vujudga keladi deb hisoblamaydi.

Fuqarolik huquqida ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi sababli o‘z harakatlari uchun javob berolmaydigan yoki ularni boshqara olmaydigan muomalaga layoqatsiz shaxs, o‘z-o‘zidan, ba’zi holatlar bo‘yicha oilaviy muomala layoqatini ham yo‘qotadi.

Amaldagi oila qonunlari voyaga yetmagan bolalarning roziligini olishni kengaytirish holatlarini oilaviy-huquqiy munosabatlarning paydo

bo'lishi, o'zgarishi yoki bekor bo'lishi holatlarni (farzandlikka olish, ota-onalar huquqlarini tiklash va boshqalarda) jiddiy kengaytirib yubordi. Hamma holatlarda bolalarning roziligi to'g'risida so'z ketsa, ularda qisman muomala layoqati borligi to'g'risida gap ketadi.

Fuqarolik huquq layoqatini cheklash oilaviy huquq layoqatini ham cheklashga bevosita ta'sir etadi. Bunday shaxslar vasiy, homiy, farzandlikka oluvchi bo'lolmaydilar. Mantiqan ular nikoh shartnomasini va aliment kelishuvini tuzish huquqiga ega bo'lmasligi kerak, chunki fuqarolik qonunlari ularga o'z mulklarini tasarruf etishga ruxsat bermaydi. Biroq nikoh shartnomalari oilaning moddiy holatining yomonlashuviga emas, balki aksincha, uni mustahkamlashga qaratilishi mumkin. Chunki oila qonunchiligi qisman muomalaga layoqatsizlarga bunday cheklashni belgilamaydi. Ular bunday shartnomalarni tuzishlari mumkin.

Fuqarolarda oila huquq va majburiyatlariga ega bo'lish layoqati tug'ilish bilan vujudga kelsa (masalan, ota-onalar va bolalar, aka-uka yoki opa-singillar va boshqalar o'rtasidagi aliment majburiyatlari) ayrim holatlarda esa, fuqarolarning ma'lum yoshga to'lishlari bilan vujudga keladi.

Oila huquqida muomala layoqati, ya'ni o'z harakatlari bilan oilaviy huquq va majburiyatlari paydo bo'lishi ma'lum yoshga to'lish bilan vujudga keladi.

Qoida bo'yicha bunday yosh voyaga yetish yoshi hisoblanadi. Biroq ayrim huquqlarga ega bo'lish ertaroq ham vujudga kelishi mumkin. Masalan, oila qonunchiligi farzandlikka olinayotgan bola o'n yoshga to'lgan bo'lsa, farzandlikka olish uchun uning roziligi talab qilinishini belgilaydi.

Ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi oqibatida o'z harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaydigan yoki ularni boshqara olmaydigan fuqaroni sud qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan tartibda muomalaga layoqatsiz deb topishi mumkin va bunday fuqaroga vasiylik belgilanadi (Fuqarolik kodeksining 30-moddasi). Masalan, muomalaga layoqatsiz shaxs bilan tuzilgan nikoh haqiqiy emas deb topiladi. Muomalaga layoqatsiz shaxs vasiy, homiy bo'la olmaydi va farzandlikka bola ololmaydi. Shaxs muomalaga layoqatsiz deb topilganda oila doirasida unga tegishli bo'lgan shaxsiy va mulkiy huquqlar vasiy tomonidan amalga oshiriladi.

## Oilaviy-huquqiy munosabatlar subyektlari va obyektlari

Oilaviy-huquqiy munosabatlarning subyektlari bo'lib, er-xotinlar, ota-onalar (ularning o'rnidagi shaxslar), oilaning boshqa a'zolari hisoblanadilar. Aynan ushbu shaxslar oila qonunchiligida belgilangan huquq va majburiyatlar bilan o'zaro bog'liq hisoblanadilar va oila a'zolaridan birining huquqi ikkinchisi uchun majburiyat vazifasini o'taydi.

Oilaviy-huquqiy munosabatlarning subyektlari faqat fuqarolar bo'ladi. Bu holat oila huquqining fuqarolik huquqidan farqini ko'rsatadi, chunki fuqarolik huquqining subyekti faqatgina fuqarolar emas, balki yuridik shaxslar va davlat bo'lishi mumkin. Demak, fuqarolar va yuridik shaxslar o'rtasidagi huquqiy munosabatlar, hatto, ular Oila kodeksi bilan tartibga solinsa ham, u oilaviy huquqiy- munosabat bo'lolmaydi.

*Masalan, fuqarolar va fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari bilan bog'liq (tug'ilganlik, nikoh tuzish, nikohdan ajralish, o'lim va boshqalar) FHDYo organlari o'rtasida vujudga keladigan huquqiy munosabatlar. Bu ma'muriy huquqiy munosabatlar turiga kiradi.*

Oilaviy-huquqiy munosabatlar huquqdor jismoniy shaxslar o'zaro nikohga kirishishi istagiga ko'ra nikoh davlat ro'yxatidan o'tkazilganda, nikoh haqiqiy emas deb topilganda, nikohdan ajratilganda vujudga keladi.

Oilaviy-huquqiy munosabatlarning obyekti nikoh instituti hisoblanadi.

Shu bilan birga oilaviy-huquqiy munosabatlar bola tug'ilishi bilan ham vujudga keladi. Bunday munosabatlar jumlasiga bolaning nasl-nasabini belgilash, otalikni belgilash, ota-onalik huquq va majburiyatlarining vujudga kelishi kiradi. Bu holatda esa oilaviy-huquqiy munosabatlarning obyekti yuridik fakt – bolaning tug'ilishi hisoblanadi.

Oilaviy-huquqiy munosabatlar turli xildagi aliment majburiyatlari, ya'ni ota-onalar va bolalar, er-xotinlar va sobiq er-xotinlar, oilaning boshqa a'zolari o'rtasidagi aliment majburiyatlaridan ham vujudga keladi. Bu turdagi oilaviy-huquqiy munosabatlarning obyektlari ham yuridik faktlar: oilaning tarqalib ketishi, er-xotinning ajralishi, oila a'zolarining mehnatga layoqatsizligi, oila a'zosining yoki sobiq er yoki xotinning nomaqbul xulq-atvori hisoblanadi.



Shuningdek, oilaviy-huquqiy munosabatlar ota-ona qaramogʻidan mahrum boʻlgan va qiyin ahvolda qolgan bolalarni aniqlash va joylashtirish boʻyicha ham yuzaga keladi. Bu holatda hodisalar, kishilarning harakati va xulq-atvori obyekt hisoblanadi.

Oilaviy-huquqiy munosabatlarda ashyolar va boshqa mol-mulklar ham obyekt boʻlishi mumkin.

Oilaviy-huquqiy munosabatlarning obyektlariga nomoddiy neʼmatlar: er-xotin va bolalarning familiyalari, onalik, otalik, er-xotinlik, qarindoshlik va shu kabi shaxsdan begonalashtirilmaydigan nomoddiy neʼmatlar kiradi.

Oilaviy-huquqiy munosabatlarda obyekt sifatida bolalar qatnashishi mumkin emas. Oʻzining tashqi koʻrinishi boʻyicha bola obyekt boʻlib koʻrinsa ham, hamma holatda u subyekt boʻlib qatnashadi. Bunda huquqiy munosabat bolalar tarbiyasiga qaratiladi.

### **Oilaviy subyektiv huquq va majburiyatlar**

---

Huquq layoqati va muomala layoqati – bu shaxslarda oilaviy subyektiv huquq va majburiyatlarning vujudga kelishining sharti hisoblanadi.

Oilaviy-huquqiy munosabatlarda subyektiv oilaviy huquq va majburiyatlar uning mazmunini tashkil etadi.

Oilaviy huquqiy munosabatlar doirasida subyektiv huquq va majburiyatlar oʻzining xarakteri boʻyicha shaxsiy va mulkiy huquqlarga boʻlinadi.

Mulkiy huquqlar doirasiga aliment boʻyicha huquqlar ham kiradi. Shaxsiy huquqlar iqtisodiy mazmundan mutlaq ajratilgandir. Mulkiy subyektiv huquq va majburiyatlar muayyan shaxslarning shaxsiyati bilan bevosita bogʻlanganligi orqali xarakterlanadi.

*Masalan, er-xotin oʻzaro bir-biridan aliment talab etish huquqiga ega. Ulardan birining oʻlimi bunday huquq va majburiyatni tugatadi (fuqarolik huquqida esa huquq va majburiyatlar boshqa shaxslarga oʻtishi mumkin, masalan, vorislarga). Bundan ikkinchi xulosa ham kelib chiqadiki, u ham boʻlsa, oilaviy-huquqiy munosabatlar doirasida subyektiv huquq va majburiyatlar boshqa shaxslarga oʻtkazilmaydi. Masalan, oʻzining aliment olish huquqini, bolalarni tarbiyalash majburiyatini boshqa shaxslarga oʻtkazish mumkin emasligidan bu huquqlarni boshqa shaxslarga oʻtkazish ularni oʻz vakillariga topshirish mumkinligi farqini bilish lozim. Agar ota-onalar yoki farzandlikka oluvchilar bolalar ustidan boʻladigan nazoratni bolalarni boquvchi xotonga topshirsalar, u holda boshqa shaxslarga ota-*



*onalik huquqining o'tkazilganligini anglatmaydi. Bu yerda gap bu shaxslarga nisbatan huquqni amalga oshirish yoki himoya qilish majburiyati o'tganligini anglatadi. Modomiki, subyektiv oila huquqlarida qoida bo'yicha huquqiy munosabatlarda amalga oshirilgan ekan u o'zining yuridik tabiatiga ko'ra nisbiy huquqlar sifatida namoyon bo'ladi.*

Har qanday oila huquqining subyektiga qarama-qarshi boshqa subyekt turadi. Er-xotin o'rtasida qayd etilgan nikoh bo'lganligi uchun shaxsiy huquqdan biri mavjud bo'ladi. Nikohning tugatilishi oilaning mavjud emasligini, oila tugatilganligini anglatadi. Demak, subyektiv oila huquqi-bu nisbiy huquqdir.

Ayrim holatlarda oila huquqi nisbiy huquq bo'lsa, ham, absolyut huquq tusiga ega bo'ladi. *Masalan, Oila kodeksining 78-moddasiga binoan, ota-ona bolani qonunga asoslanmasdan ushlab turgan har qanday shaxsdan uning qaytarilishini talab qilishga haqli.*

## **Oilaviy-huquqiy munosabatlarning vujudga kelishi, o'zgarishi va bekor bo'lishi asoslari**

---

Oilaviy-huquqiy munosabatlarni vujudga keltiradigan, o'zgartiradigan va bekor qiladigan asoslar yuridik faktlardir.

Huquqdagi yuridik faktlarga xos bo'lgan muhim asosiy xususiyatlar oila huquqidagi yuridik faktlarga ham tegishlidir. Xususan, ular o'zlarining tabiatlari bo'yicha hodisalar, harakatlar yoki muddatlar sifatida qatnashadilar.

Oila huquqidagi yuridik faktlar ijtimoiy munosabatlarga ta'siri bo'yicha umumiy huquq nazariyasidagi yuridik faktlarga mos kelib, huquqni vujudga keltirish, o'zgartirish va bekor qilishga bo'linadi. Biroq oila huquqiga xarakterli bo'lgan bir guruh yuridik faktlar borki, ular orqali oila huquqidagi subyektlar yo'qolgan huquq va majburiyatlarni tiklaydilar. Yuridik faktlarning bu guruhi mustaqil kategoriyaga ajratilib, huquqni tiklash yuridik faktlari deb yuritiladi. Bu yuridik faktlar ota-onalik huquqini tiklash, farzandlikka olishni bekor qilish yoki uni haqiqiy emas deb topish, bedarak yo'qolgan yoki o'lgan deb e'lon qilingan shaxsning hozir bo'lishida qo'llaniladi.

Oila huquqida huquqiy munosabatni vujudga keltiruvchi asos sifatida ko'pincha, faktik tarkiblar, ya'ni yuridik faktlarning yig'indisi qo'llaniladi. Shu bilan birga, faktik tarkib, ko'pincha, aralash holda ro'y berib, unga hodisa, shuningdek, harakat kirishi mumkin. Masalan, bola tug'ilgach, (hodisa) ota-onalik huquqiy munosabati vujudga keladi, uning tug'ilganligini FHDYoda ro'yxatga olish (harakat) sodir bo'ladi.


Oila huquqiy munosabatni vujudga keltiruvchi faktik yig'indi bo'lib, ko'pincha, uch, bazan undan ortiq faktlar yig'indisidan iborat bo'ladi (masalan, nikohni tuzish vaqtida). Bu faktlardan birortasining yo'qligi faktik yig'indini vujudga keltirish kuchini yo'qotadi.

Oila huquqida yuridik fakt sifatida ko'pincha holat hisoblanadi. Holat – bu mavjud ijtimoiy aloqalardir.

Ularga nikoh, qon-qarindoshlik, qayin-bo'yinchilik va quda - andachilik, farzandlikka olish, vasiylik va homiylik, bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat) va boshqalar kiradi. Ammo holat hodisa va harakatlar qatori yuridik faktlarning maxsus turi emas. Holat hodisaning turi sifatida ko'riladi. Ularning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ular davomli xarakterga egadir.

Ayrim holatlarda huquq va majburiyatlarning vujudga kelishi holatning tugashi bilan belgilanadi: masalan, nikohning tugatilishi bilan avval nikohda bo'lgan er-xotinda moddiy ta'minot olish huquq va majburiyati vujudga keladi, bolalarning doimiy tarbiyaga olishning tugatilishi bilan doimiy tarbiyada bo'lganlarga o'z tarbiyachilariga ta'minot berish majburiyati yuklatilishi mumkin.

Oila huquqida holat boshqa yuridik faktlardan farq qilib, qisqa muddat (darhol) ta'sir etmasdan, aksincha, davomiyligi bilan xarakterlanadi. Masalan, qayd etilgan nikohda bo'lishlik boshqa nikohni tuzishlikka yo'l qo'ymaydi, nikohda bo'lish tug'ilgan bolaga er yoki xotin familiyasini yozish uchun asos bo'ladi, nikohda bo'lish er yoki xotindan moddiy ta'minot talab qilish uchun asos bo'ladi va boshqalar.



3.1. Sxema. Oilaviy-huquqiy munosabatlarning vujudga kelish asoslari

Nikoh va oila doirasida huquq va majburiyatlarning vujudga kelishi, o'zgarishi va bekor bo'lishi uchun hodisa va harakat qonun tomonidan o'rnatilgan tartibda, albatta, rasmiylashtirilishi yoki tegishli organlarning qarori bo'lishi lozim. Shunday nikohni haqiqiy hisoblash uchun uni tuzuvchilarning o'zaro roziligi bo'lishi, shuningdek, FHDYo organlarida qayd etilishi, farzandlikka oluvchi va farzandlikka olinuvchi o'rtasida huquq va majburiyatni vujudga keltirish uchun fuqarolik ishlari bo'yicha tegishli sudning qarori bo'lishi lozim va boshqalar.

### **Oila huquqida qon-qarindoshlik, qayin-bo'yinchilik, quda-andachilik tushunchasi va ularning ahamiyati**

---

Oila kodeksining uchinchi bo'lim, IX-bobi qarindoshlik, qayin-bo'yinchilik va quda-andachilikka bag'ishlanib, o'z ichiga uch moddani oladi. Undagi bu bob qonunchilikka butunlay yangilik bo'lib kirdi. Uning ham o'z oldiga qo'ygan maqsadi bor.

Qon-qarindoshlik – bu shaxslar o'rtasidagi biologik aloqa bo'lib, biri ikkinchisidan yoki umumiy ajdoddan kelib chiqqanligini bildiradi.

Qon-qarindoshlik oila huquqiy munosabatlarining vujudga kelishiga asos bo'ladigan hollardan biri bo'lgani uchun ham qonunchilikda o'z yechimini topishi lozim edi. Undan tashqari, nikohdan o'tishda uni man etadigan holatlardan biri nikoh tuzuvchilarning yaqin qarindoshlikda bo'lishidir. Oila kodeksida qonun bo'yicha kimlarni qarindosh deb ataymiz va ular o'rtasidagi huquq va majburiyatlar qanday vujudga keladi, degan masalalar o'z yechimini topdi.

Yaqin qon-qarindoshlik to'g'ri chiziq, yon, tug'ishgan va o'gay qarindoshlar, aka-ukalar bilan opa-singillar tushunchalarini o'z ichiga oladi.

To'g'ri chiziq qarindosh bo'lib, biri boshqasidan dunyoga kelgan shaxslar ya'ni bobo-ota-o'g'il-nevara-evara-chevara-duboralar tushuniladi.

Odatda, har bir shaxs yetti avlodini bilishi lozim, chunki buni bilishlik o'z avlodiga hurmat va ular o'rtasida nikoh tuzilmaslikni anglatadi.

Yon chiziq qarindosh bo'lib, aka-uka va opa-singillar hisoblanadi.

Umumiy ota-onaga ega bo'lganlar tug'ishgan qarindosh, ota bir ona boshqa yoki ona bir ota boshqalar o'gay qarindoshlar deb tushuniladi.

Aka-uka hamda opa-singillar farzandlarining o‘zaro nikoh tuzishlari, shuningdek, bolalarni emizish tufayli vujudga kelgan sut qarindoshlar, ya’ni ko‘krakdoshlarning ham nikoh tuzishlari maqsadga muvofiq emas. Ahloq me’yorlarida bu bo‘yicha muayyan yondashuv mavjud. Bu haqda O‘.Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romanida bayon etilgan.

Yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi nikohni qonun yo‘li bilan taqiqlash axloqiy hamda biologik nuqtayi nazarga, tibbiyot fani yutuqlari va xulosalariga asoslanadi.

Boshqa qarindoshlar o‘rtasida nikoh tuzish qonun bilan man etilmaydi. Shuning uchun yon chiziq bo‘yicha qarindosh bo‘lgan, amakivachcha, tog‘avachcha, xolavachchalar, ammavachchalar va boshqa uzoq qarindoshlar o‘rtasida nikoh tuzish mumkin. Ammo bu maqsadga muvofiq emas. Chunki qarindoshlar o‘rtasidagi nikoh tufayli, ko‘pincha jismoniy va aqlan nosog‘lom, ya’ni nimjon, kasalmand, aqli zaif, karsoqov, ortiq, qo‘shoq, pakana yoki nuqsonli, mayib bolalar tug‘iladi. Ular o‘shida tengdoshlaridan orqada qoladilar. Bunday oilalarda, ko‘pincha, yurak, buyrak xastaligi kasalligiga yo‘liqqan go‘daklar tug‘ilishi kuzatilmoqda. Biologik tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, nikoh qanchalik begona shaxslar bilan tuzilsa, avlod shuncha sog‘lom bo‘ladi.

Amaldagi oila qonunchiligida aka-ukalar va opa-singillar farzandlarining nikohlanishi taqiqlanmagan, vaholanki, hozirgi zamon genetikasi yutug‘i va xulosalariga ko‘ra, bunday nikoh nomaqbuldir.

Biror genning o‘zgarishi natijasida kelib chiquvchi va nasldan-naslga o‘tuvchi kasalliklar irsiy kasallik hisoblanadi. Kasallik gen kelgusi avlodlarning birida shu xastalikning kelib chiqishiga sababchi bo‘ladi. Qon-qarindoshlar nikohidan tug‘ilgan bolalarda bu xastalik genetik qonuniyatlar asosida osongina yuzaga chiqadi. Bundan ko‘rinadiki, qarindosh-urug‘lar nikohidan xasta bolalar tug‘ilishi ko‘p bo‘ladi.

*Ayni chog‘da qarindoshlar o‘rtasidagi nikoh aholining geografik yashash sharoitiga ham bog‘liq. Tog‘li va orol joylarida yashovchi, tashqi dunyo bilan aloqasi biroz cheklangan ijtimoiy guruhlarning barini, shubhasiz, qon-qarindosh deyish mumkin. Bu yerdagi barcha aholi o‘z xohishidan qat’i nazar, zaruratdan kelib chiqqan holda, qon-qarindoshga aylangan. Olib borilgan kuzatishlar qon-qarindoshli nikohning kelgusi avlodga ta’siri oqibatlarini tasdiqladi. Avvalo, bunday nikohdan tug‘ilgan bolalar kasallikka tez chalinadi. Statistika ma’lumotlariga ko‘ra, AQShda qon-qarindoshlar nikohidan tug‘ilgan bolalarning 22,5 foizi, qarindosh bo‘lmaganlar nikohidan tug‘ilgan bolalarning esa 16 foizi nobud bo‘lgan.*

*Qarindoshlar o'rtasida tuziladigan nikoh, hatto, farzandsizlikka ham olib kelmoqda. Bularning hammasi tibbiyot fanining asosli xulosalaridir. Mutaxassislarning fikricha, yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikohga chek qo'yilsa, aholi o'rtasida kasalga chalinishni teng yarmiga kamaytirish mumkin. Umuman, qarindosh-urug'lar nikohi kelgusi avlodlar salomatligiga putur yetkazishi shubhasizdir.*

*Agar nikoh tuzishga monelik qiladigan hollar chetlab o'tilib oila qurilsa, u mustahkam bo'ladi, kelajak avlod barkamolligiga, qolaversa, kelajagimiz bo'lgan farzandlarimizning sog'lomligini ta'minlashga katta hissa qo'shiladi.*

Oila kodeksining 59-moddasiga binoan, er (xotin) va uning yaqin qarindoshlari bilan xotin (er) qarindoshlarining bir-biriga nisbatan munosabatlari (qayin-bo'yinchilik va quad - andachilik) o'zaro huquq va majburiyatlarni keltirib chiqarmaydi.

Qayin-bo'yinchilik va quda-andachilik qarindoshlikdan farqlanadi. Erning qarindoshlari bilan xotinning qarindoshlari o'rtasidagi munosabatlar quda-andachilik va qayin-bo'yinchilik hisoblanadi. Er-xotinning qarindoshlari bo'lmasa, qayin-bo'yinchilik va quda-andachilik vujudga kelmaydi. Qayin-bo'yinchilik va quda-andachilik shaxsning nasl-nasabiga yoki qarindoshligiga asoslanmasdan balki er-xotinning nikoh ittifoqi va ahdnomasiga asoslanadi.

Er va xotin qarindosh ham emas, qayin-bo'yin ham emas, quda-anda ham emas. Er va xotin o'zaro qonuniy rasmiylashtirilgan nikohda bo'lib, shu asosda ularning o'rtasida alohida huquqiy munosabat bo'lib shaxsiy va mulkiy huquq hamda majburiyatlarni vujudga keltiradi. Qayin-bo'yinchilik va quda-andachilik axloq, odob qoidalari bilan tartibga solinadi.

Oilaviy subyektiv huquqlarni amalga oshirishda huquqda amalda bo'lgan umumiy tamoyillar (prinsiplar) qonunchilik, milliy istiqloq mafkurasi, axloq normalari, jamiyat turmush qoidalari, ijtimoiy va davlat manfaatlari va boshqalarga rioya qilinishi lozim. Biroq oila huquqida ham subyektiv huquqlarni amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Ularning namoyon bo'lishi oilaviy munosabatlarda ifoda etiladi. Amaldagi qonunchilik oilaviy huquqlarni amalga oshirishda subyektlar uning huquqiy oqibatlarini nazarda tutishi kerak, degan umumiy qoidalarni belgilamaydi. Ammo oila qonunining bir qator normalaridan shunday mazmun kelib chiqadi.



*Bu, avvalo, Oila kodeksining “Umumiy qoidalarini”da ko‘zga tashlanadi. Ularda oila to‘g‘risidagi qonun hujjatlari hamda ularning vazifalari, oila manfaatlarini davlat va jamiyat tomonidan ta‘minlash va boshqalar to‘g‘risida fikr yuritiladi. Qonunda oila huquqining aniq qoidalarini amalga oshirish vaqtida oila manfaatlarini nazarda tutish belgilangan. Masalan, Oila kodeksining 28-moddasi, 2-qismiga binoan, sud voyaga yetmagan bolalar manfaatlaridan va (yoki) er va xotindan birining e‘tiborga loyiq manfaatini hisobga olib, jumladan, agar er yoki xotin uzrsiz sabablarga ko‘ra daromad olmagan bo‘lsa yoxud er va xotinning umumiy mol-mulki oila manfaatlariga zarar yetkazgan holda sarflagan bo‘lsa, er va xotinning umumiy mol-mulki ulushlari tengligidan chekinishga haqlidir.*

Qonunchilik ayollarni homiladorlik vaqtida va bola tug‘ilganidan keyin bir yil mobaynida ularning manfaatlarini himoya qilinishini belgilaydi. Ayrim vaqtlarda qonun erining ayrim subyektiv oila huquqlarini amalga oshirishini cheklab qo‘yish ham mumkin. Masalan, Oila kodeksining 39-moddasiga binoan, xotinning homiladorlik vaqtida va bola tug‘ilganidan keyin bir yil mobaynida er xotinning roziligisiz nikohdan ajratish to‘g‘risida ish qo‘zg‘atishga haqli emas.

Voyaga yetmagan bolalar oila huquqining alohida subyektlaridir. Ular ruhiy holatlari bo‘yicha o‘zlarining manfaatlarini har taraflama himoya qila olmaydilar. Shuning uchun ularning huquqlarini himoya qilish va ta‘minlash alohida e‘tibor beriladi. Bu masala bo‘yicha har taraflama umumiy qoida Oila kodeksining 75-moddasi 1-qismida belgilangan. Unga ko‘ra, ota-onalik huquqi bolalar manfaatlariga zid tarzda amalga oshirilishi mumkin emas. Oila kodeksining bir qator moddalari bu moddani aniq qoidalar bilan to‘ldiradi. Masalan, Oila kodeksining 82-moddasi 1-qismiga binoan, ota-ona (ulardan biri) o‘z xulq-atvorini, turmush tarzini va (yoki) bola tarbiyasiga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirgan hollarda ota-onalik huquqi tiklanishi mumkin.

Subyektiv oila huquqi harakat, shuningdek, harakatsizlik natijasida amalga oshirilishi, va majburiyatlarni bajarishi mumkin.

*Masalan, er-xotin o‘zlarining shaxsiy huquqlarini amalga oshirishlarida (uy-joy, kasb-mashg‘ulot va boshqalarda) ikkinchi tomondan bu huquqni amalga oshirishga zid bo‘lgan harakatdan saqlanishini talab etadi.*

Ayrim oila huquqlari faqat harakat natijasida amalga oshiriladi. Shunday huquqlar doirasiga tarbiyalash huquqini amalga oshirishga qaratilgan faol va doimiy ravishda olib boriladigan bir qator harakatlar (bolani maktabga yuborish, ma'lumotini tekshirish, unga yordam berish, dam olish vaqtini tashkil etish, shu vaqtda nazorat qilib turish va boshqalar) ni kiritish mumkin.

Oila qonunchiligida huquqni himoya qiladigan va muhofaza etadigan bir qator tadbirlar belgilangan. Subyektiv oilaviy huquqiy munosabatlarni himoya etishga qaratilgan ta'sirchan choralardan biri huquqbuzarlarga nisbatan jamoat ta'sirini ko'rsatishdir. Oilaviy-huquqiy munosabatlarda ishtirok etayotgan voyaga yetmaganlar, homilador ayollar, ko'p bolali onalarning huquq va manfaatlarini muhofaza etishda jamoat ta'siri alohida o'rin tutadi. Bunday vositalarga aybdor shaxsning huquqini tiklash va himoya etishga qaratilgan materiallarni voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalarga topshirish va boshqalar misol bo'ladi.

Oilaviy-huquqiy ta'sir choralari - bu qonunga zid aybli xatti-harakatlarga nisbatan oila qonuni bilan belgilangan choralardir. Ularga ota-onalik huquqidan mahrum qilish, ota-onalik huquqining cheklanishi, nikohni haqiqiy emas deb topish va qonun bo'yicha undan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar, farzandlikka olishni haqiqiy emas deb topish yoki uni bekor qilish, ota-onani bolalari bilan uchrashish huquqidan mahrum qilish, bobo, buvi, aka-uka, opa-singil va boshqa yaqin qarindoshlarning bola bilan ko'rishib turish huquqini cheklash yoki ulardan mahrum qilishdan iborat.

Oila huquqini himoya qilishni ta'minlashga boshqa qonuniy uslublar orqali ham erishish mumkin.

*Masalan, oila doirasidagi muhim huquq va manfaatlar jinoyat qonunlarini tegishli normalari, ya'ni, oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi qaratilgan jinoyatlarga, shuningdek, shaxsning ozodligi, sha'ni va qadr-qimmatini qo'riqlashga oid normalar bilan ham himoya qilinadi. Ularga ayolni erga tegishga majbur qilish yoki uning erga tegishiga to'sqinlik qilish (136-modda), ko'p xotinli bo'lish (126-modda), jinoiy ravishda homila tushirish (abort), ayolning homilasini sun'iy ravishda tushirishga majburlash (115-modda), voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash (122-modda), ota-onani moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash (123-modda), bolani almashtirib qo'yish (124-modda), farzandlikka olish sirini oshkor qilish, ayolni homiladorligi yoki yosh bolani parvarish qilayotganligini bila turib, uni ishga olishdan g'ayriqonuniy ravishda bosh tortish yoki ishdan bo'shatish (148-modda, 2-qism).*

Oila huquqlari va manfaatlari mehnat va fuqarolik qonunlari bilan ham himoya qilinadi.

*Masalan, Fuqarolik kodeksining 31-moddasiga muvofiq, spirtli ichimliklarni yoki giyohvandlik vositalarini iste'mol qilish natijasida o'z oilasini og'ir ahvolga solib qo'yayotgan fuqaroning muomala layoqati sud tomonidan fuqarolik prosessual qonun hujjatlarida belgilangan tartibda cheklab qo'yilishi mumkin.*

## **Oila huquqida da'vo muddati**

---

Da'vo muddati - bu shaxs o'zining buzilgan huquqini da'vo qo'zg'atish yo'li bilan himoya qilishi mumkin bo'lgan muddatdir (Fuqarolik kodeksining 149-moddasi).

Da'vo muddati sud tomonidan faqat nizodagi tarafning sud qaror chiqargunicha bergan arizasiga muvofiq qo'llaniladi (Fuqarolik kodeksining 153-moddasini 2-qismi).

Da'vo muddati fuqarolik huquqida mulkiy - huquqiy munosabatlarda juda keng qo'llaniladi. Bu ularning barqaror bo'lishi, shartnoma intizomini mustahkamlash, undan tashqari fuqarolik muomalasi qatnashuvchilarini rag'batlantirish, o'zlariga tegishli bo'lgan huquqlarini o'z vaqtida amalga oshirish, sudlarga ish bo'yicha obyektiv haqiqatni o'rnatishni yengillashtirish uchun yordam beradi.

Oila huquqida da'vo muddatiga bunday katta ahamiyat berilmaydi. Oila kodeksi 12-moddasining 1-qismida oilaviy munosabatlardan kelib chiqadigan talablarga nisbatan da'vo muddati joriy qilinmaydi, ushbu kodeks bilan belgilangan hollar bundan mustasnodir, degan umumiy qoida belgilangan. Oilaviy munosabatlardan kelib chiqadigan talablarga nisbatan da'vo muddatini joriy qilmaslik qoidasi har qanday buzilgan oilaviy-huquqiy munosabatni fuqarolik ish yuritish tartibi qoidasiga binoan tiklanishi mumkinligini anglatadi. Bu oila huquqida uzoq muddat davom etadigan shaxsiy huquq bilan bog'liq bo'lib, ularni hamma vaqt himoya qilish tabiatidan kelib chiqadi. Shunday qilib, oila munosabatlari ishtirokchilarining amalda buzilgan oila huquqini himoya qilish o'tkinchi vaqt bilan cheklanmagan. Bunga nikohdan ajralish talabi, nikohni haqiqiy emas deb topish talabi, otalikni belgilash talabi, nikoh shartnomasini haqiqiy emas deb topish talabi, alimentni olish huquqi va uni hamma muddat davomida undirish talabi va boshqalar misol bo'la oladi.

Oila munosabatlarida da'vo muddati qat'iy aniq belgilangan huquqbuzarlik holatlarida tatbiq etiladi. Xususan, buzilgan oila huquqlari turlari Oila kodeksining o'zida ko'rsatilgan bo'lishi lozim. Bunday holatlar bir qancha.

**Birinchi**dan, bir yillik da'vo muddati Oila kodeksining 24-moddasi 3-bandida ko'rsatilgan. Er (xotin) o'zining mol-mulkni tasarruf etish



bo'yicha bitim tuzishi uchun xotin (er) ning notarial tartibda tasdiqlangan roziligini olishi lozim. Ko'rsatilgan bitimni tuzishga notarial tartibda tasdiqlangan roziligi olinmagan er yoki xotin mazkur bitim amalga oshirilganligini bilgan yoki bilishi lozim bo'lgan kundan boshlab bir yil davomida bu bitimni sud tartibida haqiqiy emas deb topishni talab qilishga haqlidir.

***Ikkinchidan,*** uch yillik da'vo muddati Oila kodeksining 27-moddasini 9-bandiga binoan, nikohdan ajralgan er va xotinning umumiy mol-mulkni bo'lish to'g'risidagi talablariga nisbatan qo'llaniladi.

Bunda da'vo muddatining o'tishi ajralgan er yoki xotinning umumiy mol-mulkka bo'lgan huquqining buzilganligini boshqasi tomonidan bilgan yoki bilishi lozim bo'lgan kundan boshlanadi (Oila kodeksining 12-moddasi 2-qismi).

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Amaki va jiyan o'rtasida avtomashinaning hadya shartnomasi tuzildi va ushbu bitimni rasmiylashtirish uchun ular notariusga murojaat qilishdi. Notarius amaki va jiyan yon shajara bo'yicha qarindosh hisoblanishini, shu sababli ular o'rtasida tuzilgan hadya shartnomasini notarial tasdiqlash harakati uchun to'lanadigan davlat bojiga nisbatan qarindoshlar uchun qo'llaniladigan chegirma tatbiq etilmasligi va bu shartnoma umumiy tartibda notarial tasdiqlanishini bildirdi.

Ushbu holatni oilaviy-huquqiy munosabatlar asosida muhokama qiling.

2. Oila kodeksining 10-moddasi 1-qismiga ko'ra, fuqarolar oilaviy munosabatlardan kelib chiqadigan huquqlarini o'z xohishlariga ko'ra tasarruf etadilar. Mazkur normadan kelib chiqib, er o'ziga tegishli uy-joyga nisbatan mulk huquqini tasarruf etmoqchi bo'ldi. Biroq ushbu holatga nisbatan xotin qarshi chiqdi va bunga rozi emasligini bildirdi.

Ushbu holatni tahlil qiling.

3. Uchtepa tumanlararo fuqarolik sudiga da'vogar Esmirov turmush o'rtog'i Esmirovaning muomalaga layoqatsiz bo'lgan qizi Esmirova Nazokatni qalbaki hujjatlar asosida sog'lom deb toptirib, uni erga berganligini ma'lum qiladi hamda qizi Esmirova Nazokat bilan Mallyayev Ne'matlarning nikohlarini haqiqiy emas deb topish to'g'risida da'vo qo'zg'atadi.

Uchtepa tumanlararo fuqarolik sudi Esmirovning da'vosini qanoatlantiradi. Ushbu da'voni qanoatlantirilganligidan xabar topgan Esmirova nikohni haqiqiy emas deb topilishiga qarshilik bildiradi.

Sizningcha, Esmirovaning da'vosi o'rinlimi? Oila huquqida huquq va muomala layoqati nima?

4. Fuqaro Ismoilov va G'aniyevalar o'zaro rasmiy nikohdan o'tmasdan bir necha yil yashashdi. Ular o'rtasida ikki nafar farzand dunyoga keldi. Ushbu farzandlariga tug'ilganlik to'g'risida guvohnoma o'z vaqtida olindi. Birgalikda yashagan davrida uy-joy xarid qilishgan edi. Keyinchalik ular o'rtasida nizo kelib chiqib, uy-joyni bo'lish masalasi vujudga keldi.

Mazkur holatda oilaviy-huquqiy munosabat vujudga kelganmi? Ularning farzandlari va ota-onalari o'rtasida oilaviy-huquqiy munosabat vujudga kelgan bo'lsa, buni qanday huquqiy izohlash mumkin?

## 4-MAVZU. NIKOH

---

Nikoh tushunchasi va uning huquqiy tabiati. Nikohning tuzilishi: tartibi va shartlari. Nikohni haqiqiy emas deb topish. Nikohning tugatilishi

### **Nikoh tushunchasi va uning huquqiy tabiati**

---

Nikoh oilani mustahkamlashning asosi bo'lib, avvalambor, bolalar tarbiyasi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan tarbiya o'chog'idir. Shuning uchun ham qonuniy tuzilgan nikohdan davlat manfaatdor bo'lib, undan ajralish jamiyat manfaatlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu boisdan ham nikoh-oila masalasi er-xotinning shaxsiy ishi doirasidan chetga chiqadi.

Oilada oilaviy munosabatlar qanchalik to'g'ri yo'lga qo'yilgan bo'lsa, uning shunchalik mustahkam bo'lishi, bu, o'z navbatida, jamiyatning ham mustahkamlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatishi amaliyotda sinovdan o'tgan omillardandir.

Ana shu holatlarni e'tiborga olgan davlatimiz nikoh, uni tuzish tartibi va shartlari, nikohdan ajralish, nikohni haqiqiy emas deb topish bilan bog'liq munosabatlarga befarq bo'lmay, ularni tartibga soluvchi huquqiy asoslarni belgilab qo'ygan.

Nikoh oilaning vujudga kelishida birdan-bir asos bo'lgani bois, u faqat axloq normalari bilan emas, balki maxsus qonun hujjatlari bilan tartibga solinishi oila davlat himoyasida bo'lishini huquqiy ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasi 2-qismida: "Nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligiga asoslanadi," — deb belgilangan. Nikoh insonlarga mas'uliyat yuklaydi. Chunki oilada erning ham, ayolning ham o'z vazifalari bor: ularning har biri o'z vazifasini to'la ado etishga mas'uldir. Nikoh ota-ona o'zidan so'ng zurriyod qoldirib, naslning davom etishi mezoni hisoblanadi.


Sotsiologik jihatdan nikoh deganda, "ayol va erkak o'rtasidagi tarixan shakllangan, qonuniylashgan va jamiyat boshqaruvidagi munosabat shakli bo'lib, ularning bir-biriga va bolalarga bo'lgan munosabati aniq belgilangan"ligi tushuniladi. Nikoh va oilaviy munosabatlar o'z rivojlanish tarixi va taraqqiyoti bo'yicha dastlabki qadamlaridanoq nikohning sof, samimiy hamda poklik ramzi asosida oilaning vujudga kelish negizi vazifasini o'taydi.

Nikoh oilaning vujudga kelishida qon-qarindoshlik bilan birga asos bo'lgani bois, u nafaqat axloq normalari, balki maxsus qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi.

Amaldagi Oila kodeksida nikoh tushunchasiga ta'rif berilmaydi. Shu sababli mazkur tushunchaning ta'rifini nikohning huquqiy tabiati, qonunchilikda unga nisbatan belgilangan qoidalar hamda erkak va ayolning o'zaro istak-xohishi natijasi sifatidagi kelishuv ekanligidan kelib chiqib, unga nisbatan quyidagi umume'tirof etilgan ta'rifni berish mumkin:

Nikoh (arabcha so'zdan olingan bo'lib, qo'shilish degan ma'noni anglatadi) – bu fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida tuziladigan, o'zaro muhabbat va hurmatga, o'zaro yordamga va bir-birining oldida javobgarlikka asoslangan erkak va ayolning ittifoqidir.

Nikohning huquqiy tabiati haqida gapirganda, mazkur masalada sivilistikada ikkita yondashuv asosida talqin etilishini ta'kidlash mumkin. Ayrim mualliflar nikohni tomonlarning erk-irodasiga asoslangan va maqsadli yo'naltirilgan dalolatnoma hisoblashsa, boshqalari nikohni odatdagi fuqarolik-huquqiy shartnoma sifatida e'tirof etishadi. Shu sababli nikohning mana shu ikki yondashuv asosidagi huquqiy belgilarini ajratib ko'rsatish mumkin.



Qoidaga ko‘ra nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida tuziladi. Mazkur organlarda nikohni tuzish tartibi quyidagi asosiy qoidalarga ko‘ra amalga oshiriladi:

- nikoh faqat nikohga kirishuvchilarning ishtirokida tuziladi;
- nikohga kirishuvchi shaxslarning fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organiga ariza topshirgan kundan bir oy o‘tgach ro‘yxatdan o‘tkaziladi;

- qoidaga ko‘ra fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organ binosida ro‘yxatdan o‘tkaziladi;

- nikohning ro‘yxatdan o‘tkazilganligi xususidagi ma‘lumot er-xotinning pasportiga kiritiladi.

Biroq ushbu holatlarga nisbatan istisnolar ham mavjud. Jumladan, nikoh tuzish muddati qisqartirilishi yoki uzaytirilishi mumkin. Biroq buning uchun qonunda nazarda tutilgan muayyan sabablar mavjud bo‘lishi talab etiladi.

Ikkinchidan, nikoh har qanday kelishuv sifatida muayyan shartlarga muvofiq tuzilishi lozimki, mazkur shartlarga rioya etmaslik oqibatida u haqiqiy emas, deb topilishi mumkin. Bunday shartlarga quyidagilar kiradi:

- erkak va ayolning nikoh tuzishga ixtiyoriy roziligi;
- erkak va ayolning nikoh yoshiga yetganligi;
- agar nikohlanuvchilardan biri boshqa nikohda turgan bo‘lsa, nikoh tuzishning mumkin emasligi;

- yaqin qarindoshlar, farzandlikka oluvchilar va farzandlikka olinganlar o‘rtasida hamda nikohlanuvchilardan birining loaqal bittasi ruhiyat buzilishi (ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi) sababli sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslar o‘rtasida nikoh tuzishga yo‘l qo‘yilmasligi.

Har qanday bitim kabi nikoh ham tugatilishi mumkin. Bundan tashqari, nikohga nisbatan har qanday bitimga nisbatan qo‘llaniladigan haqiqiy emaslik chorasi tatbiq etiladi.

### **Nikohning tuzilishi: tartibi va shartlari**

---

Nikoh oilani vujudga keltiruvchi muhim asos sanaladi. Fuqarolar oilaviy turmush qurishda amaldagi qonunlarga rioya qilgan holda nikoh tuzsalar, bunday nikohni davlat ham, jamiyat ham qo‘llab-quvvatlaydi.

Oila kodeksi normalari talablariga binoan tuzilgan nikoh, er-xotinlarning shaxsiy va mulkiy huquqlarini, voyaga yetmagan bolalar manfaatlarini, ma'muriy yoki sud tartibida qonunan himoya qilinishi kafolatlanadi. Nikoh davlat ro'yxatiga olingan kundan boshlab er-xotinlar o'rtasida huquq va majburiyatlar vujudga keladi.

Qonuniy asoslarga ko'ra, nikoh tuzish bo'lajak er-xotin uchun ham, jamiyat uchun ham g'oyat muhim ijtimoiy-huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan holat hisoblanadi. Shu sababli, ham Oila kodeksida nikoh tuzish tartibi va shartlari belgilab qo'yilgan. Ushbu talablarga, shartlarga qat'iy rioya qilish vujudga kelayotgan oila mustahkam, haqiqiy va barqaror bo'lishini ta'minlaydi.

Oila erkak va ayolning turmush qurib, nikohlari davlat ro'yxatidan rasmiylashtirilgan kundan vujudga keladi. Shuning uchun nikohning qonuniy asoslarini belgilash muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi 13-moddasiga binoan, nikoh tuzish tartibi normalangan bo'lib, unga ko'ra:

- birinchidan, nikoh tuzish uchun bildirilgan yozma rozilik (ariza nikohlanuvchi shaxslar tomonidan, ya'ni, erkak yoki ayol tomonidan bevosita yoziladi va imzolanadi) asosida namoyon bo'lishi;

- ikkinchidan, nikoh tuzish uchun ariza berilgandan keyin bir oylik muddat belgilanishi. Ushbu qonun bilan belgilangan bir oylik muddatning belgilanishidan ko'zlangan maqsad, nikohlanuvchi shaxslar nikohni erkin, ixtiyoriy, tenglik hamda o'zga shaxslarning majburlovisiz tuzayotganligini aniqlashtirish hamda kelajak oilaning mustahkamligini ta'minlashdan iboratdir;


- uchinchidan, nikoh nikohlanuvchilarning shaxsan ishtiroklarida qayd etiladi. Nikohni vakil yoki ishonchnoma orqali rasmiylashtirishga yo'l qo'yilmaydi.

Oila qonunchiligida nikohdan o'tish uchun ariza bergandan so'ng o'tish lozim bo'lgan bir oylik muddatni zarur hollarda qisqartirish huquqi berilgan. Masalan, bolalarning tug'ilganligi haqidagi guvohnoma, tibbiyot muassasasining kelinning homiladorligi haqidagi ma'lumotnomasi, xizmat safari tog'risidagi hujjat va boshqalar uzrli sabablarni tasdiqlashi mumkin.

**Oila qonunchiligini qo'llash amaliyotidan kelib chiqib nikohni qayd etish muddatini qisqartirish mumkin bo'lgan holatlarga quyidagilarni misol qilish mumkin:**

ariza berganlardan biri uzoq muddatga chet elga yoki kelib-ketish qiyin bo'lgan joyga xizmat safariga ketayotgan bo'lsa

nikohni qayd ettirish uchun ariza berganlarning er-xotinlik munosabatlaridan tug'ilgan bolalari bo'lsa yoki xotin homilador bo'lsa



kuyov yoki kelinning yaqin qarindoshlaridan biri og'ir kasal bo'lsa

nikohni qayd ettirish uchun ariza bergan kuyov muddatli qurolli kuchlar safiga chaqirilgan yoki nikohni qayd etish uchun belgilangan muddatni qisqartirishga asos bo'ladigan boshqa sabablar

Qanday sabablarni uzrli deb hisoblash masalasini hal etish huquqi qonun bo'yicha fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organining mudiriga berilgan.

Turmushda er-xotinning o'zaro bolasi borligi yoki xotinning homiladorligi uzrli sabab bo'lishi izoh talab etmaydi. Huquqiy rasmiylashtirilmagan er-xotinlik munosabatidan homilasi yoki bolasi bo'lgan shaxslar nikohini qayd etishni ham kechiktirib bo'lmaydi.

Nikohni qayd etayotgan mansabdor shaxs uzrli sabab bo'la oladigan holatlarni tasdiqlaydigan hujjatlarni talab qilishi lozim. Jumladan, o'zaro bolalari borligi, bu haqdagi bolaning tug'ilganlik to'g'risidagi guvoynomasi, qarindoshlarining kasalligi – yaqin qarindoshlikni tasdiqlovchi hujjat va kasallik haqida shifokorlarning tegishli ma'lumotnomalari, uzoq muddatga chet elga ketish va boshqa joyga xizmat safariga borish bu haqdagi tegishli hujjatlar bilan isbotlanishi kerak. Harbiy xizmatga chaqirilgan shaxs muddatli qurolli kuchlar safiga ketgunga qadar oila quradigan bo'lsagina, nikohni qayd etish muddati qisqarishiga ruxsat berilishi mumkin.

Ariza va tegishli hujjatlarni qabul qilib olgan fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organi mudiri muddatni qisqartirish yoki rad etishlik, agar qisqartirish lozim bo'lsa, necha kunga qisqartirishni aniq holatga qarab belgilaydi.

Nikohni qayd etish muddatini uzaytirish nikohlanuvchilarning birgalikdagi arizalariga binoan ko‘rib chiqiladi. Ayrim hollarda yetarli asoslar bo‘lgan taqdirda, shuningdek, FHDYo organining tashabbusi bilan uzaytirishi mumkin, lekin bu muddat uch oydan oshmasligi kerak.

Alohida hollar (homiladorlik, bola tug‘ilishi, bir tarafning kasalligi va boshqalar) da nikoh ariza berilgan kuni tuzilishi mumkin.

Nikoh tuzish fuqarolik holati dalolatnomalarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organi nikohni ro‘yxatga olishni rad etganda, shikoyat bilan bevosita sudga yoki bo‘ysunishga ko‘ra yuqori turuvchi organga murojaat qilish mumkin.

Nikohga kirishni xohlovchilar ariza berish chog‘ida o‘z shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarni, ilgari nikohda bo‘lgan shaxslar esa, avvalgi nikoh tugatilganligi haqidagi hujjatlarni ham taqdim etishi lozim.

Agar belgilangan tartib buzilib, shuningdek, g‘arazli maqsad ko‘zlangan nikoh tuzilsa, u vujudga kelmagan nikoh hisoblanib, u sud tomonidan haqiqiy emas deb topiladi. U tuzilgan vaqtdan boshlab nikoh tuzuvchilarda hech qanday huquq va majburiyatni vujudga keltirmaydi.

Oila kodeksining 217-moddasida nikoh tuzilganligini qayd etishning alohida hollari belgilangan. Tergov izolyatorlarida, ozodlikdan mahrum etish tariqasidagi jazoni ijro etuvchi muassasalarda saqlanayotgan shaxslar bilan tuziladigan nikohni qayd etish ushbu muassasa joylashgan yerdagi fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining O‘zbekiston Respublikasi hududida yashovchi, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar bilan nikoh tuzganligini qayd etish umumiy asoslarda amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida, boshqa davlat hududida o‘sha davlatning qonun hujjatlariga rioya qilingan holda O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari o‘rtasida tuzilgan hamda O‘zbekiston Respublikasi bilan chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar o‘rtasida tuzilgan nikohlar, agar respublikamiz qonunida nazarda tutilgan nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlar bo‘lmasa, O‘zbekiston Respublikasida haqiqiy deb e’tirof etiladi. O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida chet el fuqarolari o‘rtasida boshqa davlat hududida o‘sha davlatning qonun hujjatlariga rioya qilingan holda tuzilgan nikohlar O‘zbekiston Respublikasida haqiqiy deb e’tirof etiladi.

Nikoh vujudga kelganligini isbotlaydigan nikohni qayd etish dalolatnomasi er va xotinning hamda nikohdan tug‘ilgan bolalarning



shaxsiy va mulkiy huquqlarini muhofaza qilishni ta'minlaydi. Nikoh to'g'risidagi guvohnoma bola tug'ilishini qayd etishda, aliment undirilishida, meros va pensiyaga bo'lgan huquqlarni rasmiylashtirishda taqdim etiladi.

*Nikoh tuzish shartlari.* Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasining 16-modda, 2-bandida, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 63-modda 2-qismida nikoh tuzish ixtiyoriy ekanligi, nikoh faqat nikohdan o'tayotgan har ikki tomonning erkin va to'liq roziligi asosidagina tuzilishi mumkinligi normalanadi.

Oila huquqining asosiy tamoyillaridan biri– bu *nikoh tuzishning ixtiyoriylik tamoyilidir*. Nikohning erkin tuzilishi uchun berilgan rozilik haqiqiy bo'lishi, u qo'rqitish, zo'rlash, aldash orqali yoki nikohlanuvchilarning biri yoxud har ikkisiga ruhan ta'sir qilish yo'li bilan tuzilishi taqiqlanadi.

Oila kodeksining 14-moddasida bo'lajak er-xotinning o'z roziligini erkin ifoda etish qobiliyatiga ega bo'lishi hamda nikoh tuzishga majbur qilishni taqiqlash kabi qoidalarning kiritilishi oilani mustahkamlashga qaratilgan huquqiy me'yor bo'lib xizmat qiladi.

Nikoh tuzishning ixtiyoriylik tamoyilining buzilishi va bu harakatlarda taraflarning aybdor ekanligi aniqlansa, sud O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 136-moddasi normasini qo'llashga haqli. Ushbu normada “ayolni erga tegishga yoki nikohda yashashni davom ettirishga majbur qilish yoxud ayolning erkiga xilof ravishda u bilan nikohda bo'lish uchun o'g'irlash, shuningdek, ayolni erga tegishiga to'sqinlik qilish eng kam oylik ish haqining yigirma besh baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud olti oygacha qamoq bilan yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum etish” bilan jazolanishi ko'rsatilgan.

Nikoh tuzishning *ixtiyoriylik tamoyili* deganda, nikohlanuvchi shaxslarning o'zga shaxslar tomonidan majbur etilmasdan oila qurish uchun erkin, tenglik va o'zaro ixtiyoriylik asosida nikohni rasmiylashtirishlari, oila qonunchiligi normalarida belgilangan, shuningdek, kelajakda ularning shaxsiy hamda mulkiy huquqlari himoyasini oilaviy-huquqiy normalar bilan mustahkamlaydigan, vijdon va qalb amri bilan nikoh munosabatlariga kirishib, er-xotinlik munosabatida yashashlari tushuniladi.

Nikoh tuzishning navbatdagi sharti – bu nikohlanuvchi shaxslarning qonun doirasida belgilangan *yoshga yetishlari* hisoblanadi.

Nikoh yoshi turli davlatlarda turlicha qilib belgilangan. Masalan, Bolgariyada har ikki jins vakillariga ham – 18 yosh, Angliyada – 16 yosh, Fransiya va Vengriyada erkaklar uchun–18 yosh, ayollar uchun–16 yosh, Polshada – 21 va 18 yosh, Yaponiyada – 18 va 16 yosh, Gruziyada –17 va 16 yosh, Ukraina va Turkmanistonda – 18 va 17 yosh, AQShning turli shtatlarida nikoh yoshi – 16 dan 21 yoshgacha qilib belgilangan.

Nikoh yoshini belgilashda muayyan oqilona mezon quyidagi omillar bilan belgilanishi lozim:

- birinchidan, biologik mezon. Bunday mezon bo‘lajak er-xotinning jismoniy jihatdan voyaga yetganligini belgilab beradi. Jismoniy barkamollik nafaqat jinsiy jihatdan nikohlanuvchi shaxslarning yetilganliklarini, balki nikohlanuvchi shaxslarning salomatliklari, farzand ko‘rishiga, ularni parvarish qilishga tayyorgarlik holatlarini ham anglatadi;

- ikkinchidan, ruhiy-psixologik mezon. Erkak va ayol turmush qurishga ruhiy jihatdan tayyor bo‘lishlari, ularda eng avvalo bolalik va o‘smirlik davridagi xis-hayajonga berilish, psixologik barqarorlik xislatlari o‘rniga muayyan dunyoqarash, erk-iroda, hayotiy ko‘nikmalar shakllanadi, bu esa oilaning mustahkam va barqaror bo‘lishini ta‘minlaydi;

- uchinchidan, aqliy yetuklik. Ushbu mezon kishini faqat muayyan intellektual holati, bilim darajasinigina anglatmaydi. Aqliy holat muayyan bilim, tajriba va uni amalda qo‘llay olish, er-xotin, oila, farzand mas‘uliyati, oilani normal turmush kechirishini ta‘minlash layoqati hisoblanadi;

- to‘rtinchidan, sotsial-ijtimoiy shart-sharoitlar. Ushbu shart-sharoitlar majmuyi yosh oilani moddiy jihatdan turar-joy, maishiy jihatdan o‘zini-o‘zi ta‘minlash, o‘ziga-o‘zi xizmat ko‘rsatish imkoniga ega bo‘lishni anglatadi. Albatta, yosh oila ota-onalar va boshqa qarindoshlar g‘amxo‘rligi ostida bo‘lishi tabiiy. Ammo bu g‘amxo‘rlik yosh oilani mutlaqo boqimandalik darajasida bo‘lish yoxud sotsial-ijtimoiy hujayra sifatida mustaqil bo‘la olmasligiga olib kelmasligi kerak;

- beshinchidan, huquqiy mezon. U yosh kelin-kuyovni huquq subyekti, to‘la muomala layoqatiga ega bo‘lishini anglatadi. Bir qarashda biologik, ruhiy psixologik, sotsial-ijtimoiy, aqliy mezonlardan farqli ravishda, yuridik mezon qonun chiqaruvchining xohishi o‘ziga xos subyektivlikka asoslangan mezonga o‘xshab tuyuladi. Biroq yuqoridagi boshqa omillar kabi, nikoh yoshini belgilovchi yuridik mezon ham muayyan obyektiv asoslarga tayanadi.

Oila kodeksida, agar uzrli sabablar bo'lganida, alohida hollarda tuman, shahar hokimining qaroriga ko'ra, nikoh yoshi ko'pi bilan bir yilga kamaytirilishini quyidagicha asoslash mumkin:

Oila kodeksining 15-moddasi, 2-qismida "uzrli sabablar bo'lganida, alohida hollarda (homiladorlik, bola tug'ilishi, voyaga yetmagan shaxsning to'la muomalaga layoqatli deb e'lon qilinishi (emansipatsiya), nikohga kirishni xohlovchilarning iltimosiga ko'ra nikoh davlat ro'yxatidan o'tkaziladigan joydagi tuman, shahar hokimi nikoh yoshini ko'pi bilan bir yilga kamaytirishi mumkin" ligi belgilangan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga kiruvchi davlatlarning Oila kodekslarida nikoh yoshi turlicha qilib belgilanganligini ko'rish mumkin. Masalan, Rossiya Federatsiyasida belgilangan nikoh yoshi (o'n sakkiz)ni ikki yoshga kamaytirish vakolati qonunda ko'rsatilgan tegishli idoralarga berilgan.

Ayrim xorijiy mamlakatlarda, masalan, Polsha Respublikasida nikoh yoshi erkaklar uchun yigirma bir yosh, ayollar uchun o'n sakkiz yosh; Rumuniya Respublikasida ayollar uchun o'n olti; Xitoy Xalq Respublikasida esa ayollar yigirma yoshdan, erkaklar yigirma ikki yoshdan nikoh tuzishga haqli ekanliklari normalanadi.

Xorijiy mamlakatlar qonunchiligida nikoh tuzish prinsipi masalasi o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turganligi yaqqol ko'rinib turibdi.

Demak, nikoh yoshining qisqartirilishi tufayli oila qurgan er-xotin to'la muomala layoqatiga ega bo'lgan hisoblanib, fuqarolik huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan holatlarda ishlarda tegishli huquq va majburiyatlarga ega bo'ladilar.

Nikoh yoshini qisqartirish to'g'risidagi qoidaning yana bir yangi jihatlari shundaki, nikohlanuvchilarga xohlagan davlat ro'yxatidan o'tkaziladigan joydagi tuman, shahar hokimiga murojaat qilish huquqini bermaydi, balki nikoh davlat ro'yxatidan qayerda o'tkaziladigan bo'lsa, shu joydagi tuman, shahar hokimiga murojaat etish huquqini beradi. Bu qoida amaliy ahamiyatga ega bo'lib, suiiste'molchiliklar yoki turli asossiz harakatlarning oldini olishga imkon beradi.

*Nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlar.* Nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlar Oila qonunchiligi normalarida belgilangan nikoh tuzish shartlariga qo'yiladigan talablarning buzilishi sifatida namoyon bo'ladi.

Nikoh tuzish shartlariga monelik qiladigan holatlarni e'tiborga olmaslik tuzilgan nikohning haqiqiy sanalmasligiga asos bo'ladi. Bu qoida Oila kodeksining 16-moddasida o'z ifodasini topgan.

Nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlar quyidagilardan iborat:

- loaqal bittasi ro'yxatga olingan boshqa nikohda turgan shaxslar o'rtasida;

- nasl-nasab shajarasi bo'yicha to'g'ri tutashgan qarindoshlar o'rtasida, tug'ishgan va o'gay aka-ukalar bilan opa-singillar o'rtasida, shuningdek, farzandlikka oluvchilar bilan farzandlikka olinganlar o'rtasida;

- loaqal bittasi ruhiyat buzilishi (ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi) sababli sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslar o'rtasida yo'l qo'yilmasligi normalanadi.

Nikoh tuzish shartlariga rioya qilinmasdan tuzilgan nikoh haqiqiy emas deb hisoblashdan tashqari, qonunni buzgan shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortishga sabab bo'ladi. Mazkur holat Jinoyat kodeksining 126-moddasida ko'rsatilgan ko'p xotinlik, ya'ni umumiy ro'zg'or asosida ikki yoki undan ortiq xotin bilan er-xotin bo'lib yashash eng kam ish haqining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum etish bilan jazolanishi kabi oqibatlariga olib kelishi belgilangan.

Nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlar qatoriga qonun nasl-nasab shajarasi bo'yicha to'g'ri tutashgan qarindoshlar o'rtasida, tug'ishgan va o'gay aka-ukalar bilan opa-singillar o'rtasida, shuningdek, farzandlikka oluvchilar bilan farzandlikka olinganlar o'rtasidagi munosabatlarni kiritgan.

*Ayrim MDH davlatlarining Oila kodekslarida (Ozarbayjon, Belarus respublikalari) agar qiz va o'g'il bolalarning onalari boshqa-boshqa bo'lib nikohdan o'tmagan, otasi bir bo'lsa-yu, ularning otaligi sud tartibida belgilangan bo'lmasa ham ularning nikoh tuzishiga qonun yo'l qo'ymagan, chunki unda ota qoni bir ekanligi nazarda tutilgan.*

Nikoh tuzishga monelik qiladigan hollardan yana biri, nikohlanuvchilardan birining loaqal bittasi ruhiyat buzilishi (ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi) sababli sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan bo'lsa, nikoh tuzishga yo'l qo'yilmasligi Oila kodeksining 16-moddasi 3-qismida o'z ifodasini topgan.


O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 14-yanvardagi 18-son qaroriga 2-ilova bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi to'g'risida"gi nizomga binoan, mazkur organlar asosan aholi salomatligini saqlash va yaxshilashni,

sogʻlom avlodni tarbiyalash uchun shart-sharoitlarni shakllantirishni, profilaktik sogʻliqni saqlashni rivojlantirishni, sogʻlom turmush tarzini keng ommalashtirishni taʼminlovchi davlat siyosatini amalga oshiradi.

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 25-avgustdagi 365-sonli qarori bilan tasdiqlangan “nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy koʻrikdan oʻtkazish toʻgʻrisida”gi nizom ham yuqoridagi nizom bilan hamohangdir hamda Oila kodeksining 16-moddasida belgilangan ruhiy kasal yoki aqli zaif shaxslar oʻrtasida nikoh tuzishga yoʻl qoʻyilmasligini yanada mustahkamlaydi.

*Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy koʻrikdan oʻtkazish.* Oila kodeksida oilaning yanada mustahkam va barqaror boʻlishi, kelajak naslni sogʻlom dunyoga kelishi uchun muhim omil sifatida 17-modda kiritilgan boʻlib, u nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy koʻrikdan oʻtkazishga bagʻishlangan.

Ushbu nizomda nikohlanuvchi shaxslar qaysi kasallik turi boʻyicha tibbiy koʻrikdan oʻtishlari hamda tibbiy koʻrikdan oʻtishning hajmi va tartibi aniq koʻrsatilgan.



Oila kodeksining 49-moddasiga koʻra, nikohlanuvchi shaxslardan biri tanosil kasalligi yoki odam immuniteti tanqisligi virusi (OIV kasalligi) borligini ikkinchisidan yashirganda, ikkinchi taraf sudga nikohni haqiqiy emas deb topish haqida talab bilan murojaat qilishga haqli.

Oila kodeksining 17-moddasi, 2-qismiga koʻra: “Nikohlanuvchi shaxslar ellik yoshdan oshgan boʻlsa, shuningdek, kodeksning 13-moddasi 5-qismida koʻrsatilgan alohida hollar mavjud boʻlganda, tibbiy koʻrikdan oʻz roziligi bilan oʻtkaziladi”.

Nikohlanuvchi shaxslar diniy rasm-rusumlarga binoan bir necha yillar mobaynida er-xotinlik munosabatlarida yashayotgan bo'lsalar, bir-birlarining sog'liqlari haqida xabardor bo'ladilar. Shuni ham ta'kidlash kerakki, yuqoridagi nizom talablari bo'yicha 50 yoshdan oshgan shaxslarning belgilangan kasallik turlari bo'yicha tibbiy ko'rikdan o'tishlari talab qilinmasligi lozim.

### **Nikohni haqiqiy emas deb topish**

Oila kodeksida belgilangan shartlarning buzilishi sud tomonidan ushbu nikohni haqiqiy emas, deb topish uchun asos bo'lishi mumkin. Oila kodeksining 49-moddasi, 14-16-moddalarida belgilangan shartlar buzilganda (ya'ni, nikoh tuzishning ixtiyoriyligi, belgilangan nikoh yoshi buzilganda, nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlar ro'y berganda), soxta nikoh tuzilganda, ya'ni er-xotin yoki ulardan biri oila qurish maqsadini ko'zlamay nikoh qayd qildirganda, nikohlanuvchi shaxslardan biri tanosil kasalligi yoki odamning immunitet tanqisligi virusi (OIV kasalligi) borligini ikkinchisidan yashirganda, agar ikkinchisi sudga shunday talab bilan murojaat etsa, nikohni haqiqiy emas deb topilishi uchun asos bo'ladi.

Bundan tashqari, nikoh quyidagi holatlar bo'yicha ham haqiqiy emas deb topilishi mumkin:

- a) yakka nikohlilik tamoyilining buzilishi;
- b) nikoh nasl-nasab shajarasi bo'yicha to'g'ri tutashgan qarindoshlar o'rtasida, tug'ishgan va o'gay aka-ukalar bilan opa-singillar o'rtasida tuzilgan bo'lsa;
- v) farzandlikka olgan bilan farzandlikka olingan shaxslar o'rtasida tuzilgan nikoh;
- g) muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxs bilan tuzilgan nikoh;

Ayrim holatlarda nikoh qonunlarining bir qancha shartlarini buzib ham tuzilishi mumkin, bunday hollarda u haqiqiy emas deb topiladi. Masalan, fuqaro oldingi nikohdan ajrashmasdan turib, voyaga yetmagan shaxs bilan nikohdan o'tgan hollar bunga misoldir.

Quyida ushbu asoslarni batafsil tahlil etamiz:

A) Nikoh tuzishning ixtiyoriyligi buzilishi. Nikoh uni tuzuvchi har bir tomonning erkin, o'zaro roziligi asosida tuzilishi lozim. Rozilik o'zga (ota-ona, qon-qarindosh, mansabdor shaxs)larni majbur etishi yoki aldashi oqibatida berilgan bo'lsa, ixtiyoriylik tamoyili buzilgani uchun, bunday nikoh haqiqiy emas, deb topilishi mumkin.

Yuqorida ko'rsatilganidek, nikoh tuzishda nikohga kiruvchilarning o'zaro roziligi yo'qligi nikohni haqiqiy emas deb topish uchun asos bo'ladi. Bunda fuqaro (ko'pincha ayollar) qo'rqitish yoki zo'rlash (majburlash), aldash tufayli nikohdan o'tgan bo'ladi. Fuqaroning erkiga va ongiga qonunsiz ta'sir etish natijasida u nikohga o'tishga majbur bo'ladi, ammo haqiqatda esa u buni mutlaqo xohlamaydi. Natijada nikoh tuzilishining asosi hisoblangan o'zaro xohish va rozilik tamoyili buzilgan bo'ladi. Ko'rsatilgan asos bo'yicha bunday nikoh haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Qo'rqitish uchinchi shaxs hamda mansabdor shaxs tomonidan ham bo'lishi mumkin. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2011-yil 20-iyuldagi 6-sonli "Sudlar tomonidan nikohdan ajratishga oid ishlar bo'yicha qonunchilikni qo'llash amaliyoti to'g'risida"gi qarorida ko'rsatilishicha: "Agar nikohga kiruvchining nikohni qayd etish vaqtida o'z harakatlarining mohiyatini tushunmaganligi va ularni idora qila olmaganligi, shu sababli nikohga kirishga haqiqiy roziligini ifoda eta olmaganligi aniqlansa ham, nikoh haqiqiy emas deb topilishi mumkin".

Ayolni erga tegishga majbur etish yoki uning erga tegishiga to'sqinlik qilish jinoyat hisoblanadi.

B) Nikoh yoshiga qo'yilgan shartning buzilishi. Oila kodeksining 51-moddasiga binoan, nikoh yoshiga yetmagan shaxs bilan tuzilgan nikoh hali nikoh yoshiga yetmay nikohga kirgan shaxsning manfaatlari talab qilgan hollarda haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Bunday nikohni haqiqiy emas deb topishni nikoh yoshiga yetmay nikohga kirgan shaxs, uning ota-onasi yoki homiysi, shuningdek, vasiylik va homiylik organi hamda prokuror talab qilishga haqlidir.

Er-xotindan biri nikoh yoshiga yetmaganligi tufayli nikohni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi ish, agar er-xotin (ulardan biri) ish sudda ko'rilayotgan paytda nikoh yoshiga yetmagan bo'lsa, vasiylik va homiylik organining ishtirokida ko'rib chiqiladi.

Ish sudda hal qilinish paytigacha er yoki xotin nikoh yoshiga yetgan bo'lsa, nikoh faqat uning talabi bilan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Nikoh yoshiga to'lmagan shaxs bilan tuzilgan nikoh hamma vaqt ham sud tomonidan haqiqiy emas, deb topilmaydi. Hali nikoh yoshiga yetmay nikohga kirgan shaxsning manfaatlari talab qilgan hollardagina sud bunday nikohni haqiqiy emas, deb topishi mumkin.

V) Yakka nikohlilik tamoyilining buzilishi ham nikohni haqiqiy emas deb topish uchun asos bo'lishi mumkin. Ayniqsa, hozirgi vaqtda



mamlakatlar o'rtasida migratsiya jarayoni kuchayib bormoqda. Kishilar rasmiy nikohdan ajralmasdan boshqa davlatlarda boshqa rasmiy nikoh tuzish holatlari uchramoqda. Demak, bunday holatlarda sudlar taraflarning maqsadlari va amaldagi holatlarini hisobga olsalar, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Ba'zi hollarda qo'sh nikohdan qaysi birini haqiqiy emas deb topish haqidagi masala sud tomonidan o'rganilishni talab etadi. Bunda sud taraflarning niyat-xohishini, amaldagi faktik oilaviy munosabatlarni hisobga olishi lozim.

Yakka nikohlilik tamoyili buzib tuzilgan nikohni haqiqiy emas, deb topish to'g'risidagi ariza birinchi nikohdan ajratilmagan er yoki xotin, shuningdek, ikkinchi nikohdagi tomonlardan birining talabiga asosan ko'rib chiqiladi. Haqiqiy bo'lmagan nikohda bo'lgan shaxsning o'limidan so'ng sudga da'vo bilan mazkur shaxsning vorislari (vafot etganning birinchi nikohdagi farzandlari, uning aka-ukalari, opa-singillari, otionalari va boshqalar), shuningdek, o'lgan shaxsning nikohini haqiqiy emas, deb topishdan manfaatdor bo'lgan boshqa shaxslar (moliya, ijtimoiy ta'minot organlari) murojaat etishi mumkin. Chunki nikohda bo'lgan shaxs, agar u haqiqiy nikohda bo'lsa, o'ziga pensiya tayinlashni yoki uy-joyga bo'lgan huquqini belgilashni talab qilishi mumkin.

Yakka nikohlilik tamoyilini to'la va har tomonlama ta'minlash maqsadida oila qonunlarida bir qator qoidalar belgilangan. Ilgari nikohda bo'lgan shaxslar qonuniy kuchga kirgan nikohdan ajralish haqidagi sudning hal qiluv qaroridan nusxa yoki nikohni haqiqiy emas deb topish haqidagi sudning hal qiluv qarorini ko'rsatgan holdagina yangi nikohni qayd etishlari mumkin.

G) Nikoh nasl-nasab shajarasi bo'yicha to'g'ri tutashgan qarindoshlar o'rtasida, tug'ishgan va o'gay aka-ukalar bilan opa-singillar o'rtasida tuzilgan bo'lsa ham haqiqiy emas deb topiladi.

Oila qonunlari bilan man etilgan yaqin qarindoshlar o'rtasida nikoh tuzilsa, u haqiqiy emas deb topiladi. Bunday asos bilan nikohni haqiqiy emas deb topish sud amaliyotida juda kam uchraydi. Buni tasdiqlaydigan holat qonunda nikoh tuzish uchun juda cheklangan yaqin qarindoshlik darajasini belgilaydi. Umuman, har xil bosqichdagi quda-andachilik esa nikoh tuzish uchun to'siq bo'lmaydi.

D) Loqaqal bittasi ruhiyat buzilishi (ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi) sababli sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslar o'rtasida nikoh haqiqiy emas deb topiladi.



Ruhiy kasallik yoxud aqli zaiflik kishini ongli harakatlar qilish va o'z harakatlarining yuridik oqibatlarini anglab yetish qobiliyatini buzishi mumkin.

Muomalaga layoqatsiz shaxs shaxsan o'zi fuqarolik muomalasida bitimlar tuzishga haqli emas. Uning nomidan bitimlarni uning vasiysi tuzadi. Demak, muomalaga layoqatsiz shaxs bilan tuzilgan nikoh haqiqiy hisoblanmaydi. Vasiy esa vasiyligi ostidagi shaxs manfaatini ko'zlab uning nomidan nikoh tuzishga haqli emas.

Nikohga o'tish jarayonida nikohlanuvchilarning ruhiy holati qanchalik tiniq bo'lishdan qat'i nazar, mavjud hujjatlar, ularning hayotdagi yurish-turishlari, boshqa shaxslar bilan bo'ladigan muomalasi, ularning aqli zaifligidan dalolat bersa, nikohni qayd etish rad etiladi. Nikoh tuzilgan bo'lsa, nikohni haqiqiy emas deb topilishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bunday hollarda nikohlanuvchilar muomalaga layoqatsiz deb topilmagan holda ham manfaatdor shaxslar nikohning haqiqiy emasligi haqida da'vo talabi bilan sudga murojaat etishlari mumkin.

E) Nikohdan o'tish vaqtida oila qurish maqsadining bo'lmasligi, ya'ni soxta nikoh, haqiqiy bo'lmagan nikoh deb topiladi.

Oila kodeksining 54-moddasiga asosan, er-xotin soxta nikoh qayd qildirgan va oila qurmagan bo'lsalar, nikoh haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Soxta nikohni haqiqiy emas deb topishni prokuror talab qilishga haqli ekanligi, er (xotin) oila qurish maqsadisiz nikohga kirgan hollarda esa, bunday talab xotin (er) tomonidan qo'yilishi mumkinligi belgilangan.

Oila qonunchiligida soxta nikohning legal tushunchasi mavjud emas.

**Soxta nikoh** deganda, oilaviy hayotda yashashni maqsad qilmay, biror-bir mol-mulkka, boylikka, uy-joyga ega bo'lish hamda uy-joyga doimiy ro'yxatdan o'tishni maqsad qilib tuzilgan nikoh tushuniladi.

Soxta nikoh tuzgan shaxslar sud ishni ko'rib chiqquniga qadar haqiqiy oila qursalar, nikoh soxta deb topilmaydi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, nikohga kirgan har ikkala taraf ham soxta nikoh qurgan bo'lsalar, nikohning soxtaligini isbotlash qiyin bo'ladi. Odatda, quyidagi holatlar nikohni soxtaligidan dalolat beradi:

- a) er-xotinning alohida-alohida holda yashashlari;
- b) er yoki xotindan biri yoki har ikkalasi boshqa shaxslar bilan amalda (faktik) nikoh munosabatlariga ega bo'lishlari;
- v) umumiy ro'zg'or bo'lmasligi.

Soxta nikoh tuzishda tomonlar avvaldan kelishgan bo'lishlari va nikoh tuzishdan kelib chiqadigan huquqlardan o'z manfaatlari uchun foydalanishlarini nazarda tutadilar. Bunday hollarda har ikki tarafda ham oila qurish maqsadi bo'lmasligiga ayol va er ixtiyoriy ravishda nikohdan o'tib, bu jarayonda faol ishtirok etishlariga e'tibor berish lozim.

Boshqa hollarda soxta nikoh tuzishda nikohlanuvchi shaxslarning har ikkalasi ham ishtirok etmasliklari mumkin. Nikohlanuvchilardan erkak yoki ayoldan biri soxta nikoh tuzish niyatida bo'lishi, ikkinchi taraf esa, bundan bexabar bo'lib, u qonunda belgilangan tartibda oila qurish maqsadida ixtiyoriy, o'z erkini izhor qilishi bilan nikohni rasmiylashtirishda qatnashadi.

Soxta nikoh tuzish jamiyatdagi mavjud odob-axloq qoidalariga to'g'ri kelmaydigan harakat ekanligi shubhasiz. Qonun soxta nikohni axloqsiz harakat deb hisoblab, uni yuridik jihatdan tan olmaydi.

J) Farzandlikka olgan bilan farzandlikka olingan shaxslar o'rtasida tuzilgan nikoh haqiqiy emas deb topiladi.

Farzandlikka olgan bilan farzandlikka olingan o'rtasida nikoh tuzishni man etish odob-axloq qoidalaridan kelib chiqadi. Chunki ular o'rtasidagi huquqiy munosabatlar kelib chiqishi bo'yicha ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi huquqiy munosabatlarga tenglashtiriladi.

Farzandlikka olish, agar bola amaldagi qonunlarda belgilangan huquqiy munosabatlarni keltirib chiqarmaslik maqsadida (soxta farzandlikka olish) yoki qonunda belgilangan shartlarni buzib farzandlikka olingan bo'lsa, u haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Oila kodeksining 165-moddasiga binoan, farzandlikka olingan shaxsda farzandlikka olgan ota-onaning boshqa farzandlari qatori barcha huquq va majburiyatlar vujudga keladi.

Farzandlikka olish huquqiy rasmiylashtirilgan akt hisoblanadi. Farzandlikka olinganlar oiladagi boshqa farzandlar bilan teng huquq va majburiyatlarga ega bo'ladilar. Bordi-yu, farzandlikka olgan er-xotin ajralishi yoki sud tartibida ularning nikohlari haqiqiy emas deb topilgan hollarda ham, bu holatlar farzandlikka olinganlik to'g'risidagi huquqiy hujjatga ta'sir etmaydi.

Z) Nikohlanuvchi shaxslardan biri tanosil kasalligi yoki odamning orttirilgan immunitet tanqisligi virusi (OIV kasalligi) borligini boshqasidan yashirgan bo'lsa, shu shaxs nikohni haqiqiy emas deb topishni talab qilib sudga murojaat etishga haqlidir.

Nikohni haqiqiy emas deb topish haqidagi ishlarni o'rganish amaliyoti shuni ko'rsatmoqdaki, nikoh tuzishda nikohlanuvchi shaxslardan biri tanosil kasalligi yoki orttirilgan immunitet tanqisligi sindromi borligini boshqasidan yashirgan hollar uchrab turibdi.

O'zida tanosil kasalligi yoki OIV kasalligi borligini boshqasidan yashirgan vaqtda nikohni haqiqiy emas deb topish masalasi bu kasal kimdan yashirilgan bo'lsa, o'shaning tashabbusi bilangina ko'riladi. Bu

bilan davlat, birinchidan, kasallikning oldini olish, taraflardan birini kasallikdan saqlab qolish, ikkinchidan, kelajak avlodni xavfdan saqlash maqsadini qo‘yadi.

*Nikohni haqiqiy emas deb topish tartibi va uning oqibatlari.* Nikohni haqiqiy emas deb topish sud tartibida amalga oshiriladi. Bunday munosabatlardan kelib chiqadigan talablarga nisbatan da’vo muddati joriy qilinmaydi.

Oila kodeksining 50-moddasida “nikohni haqiqiy emas deb topish faqat sud tartibida amalga oshiriladi” degan qoidada “faqat” so‘ziga urg‘u berilishdan maqsad, suddan boshqa birorta bir davlat organlariga, jamoat tashkilotlariga bu turkumdagi ishlarning taalluqli emasligi nazarda tutiladi.

Sud nikohni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rishda nafaqa undirish, er-xotinning o‘zaro munosabati bo‘yicha Oila kodeksining 56-moddasida ko‘rsatilgan boshqa masalalarni ishni mazmunan ko‘rish jarayonida muhokama qilishi lozim.

Agar nikohni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risida vasiylik va homiylik organi tomonidan talab qo‘yilgan bo‘lsa, vasiylik va homiylik organlari ish yuzasidan xulosa bermaydi, balki manfaatdor shaxslarning huquqlarini himoya qilishda qonunda belgilangan protsessual harakatlarni bajarishlari lozim bo‘ladi.

Oila kodeksining 50-moddasi 2-qismiga ko‘ra, “nikohni haqiqiy emas deb topish haqida sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qaroridan nusxa berilayotganida, pasport yoki shaxsini tasdiqlovchi boshqa hujjatga tegishli belgi qo‘yiladi”.

Oila kodeksining 50-moddasi 3-qismida nikohni haqiqiy emas deb topish haqida sud chiqargan hal qiluv qarori qonuniy kuchga kiringach, o‘n kun ichida undan ko‘chirma nikoh tuzilganligi ro‘yxatga olingan joydagi fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organiga yuborilishi ko‘rsatilgan. Hal qiluv qarori qonuniy kuchga kiringach, o‘n kun ichida undan ko‘chirma yuborish lozimligi qonuniy kuchga kirmagan sudning hal qiluv qaroridan ko‘chirma talab qilish hollarining oldini olishga qaratilgan bo‘lsa, ikkinchidan, sud xodimlarini qonunda belgilangan muddatda hal qiluv qaroridan ko‘chirma yuborishga rioya qilish intizomiga chaqirishni nazarda tutadi. Tegishli hal qiluv qarorining ijrosi nikohni qayd qilish idoralarida rasmiylashtiriladi.

Haqiqiy emas deb topilgan nikoh er-xotin uchun shaxsiy va mulkiy huquq hamda majburiyatlarni vujudga keltirmasligi Oila kodeksining 56-moddasida ko‘rsatilgan.

Ayrim hollarda nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlar o'zgarishi mumkin.

*Masalan, er-xotinning nikoh yoshiga to'lishi tuzilgan soxta nikoh oilaviy turmush jarayonida haqiqiy nikohga aylanishini nazarda tutadi. Shuning uchun ham amaliyotda bunday holatlarning uchrab turishini inobatga olib, Oila kodeksiga maxsus huquqiy norma (51- moddasining 2-qismi) kiritilgan. Bu qoidaga ko'ra, agar ish sudda hal qilinish paytigacha er yoki xotin nikoh yoshiga yetgan bo'lsa, nikoh faqat ular talabi bilan haqiqiy emas deb topilishi mumkinligi ko'rsatilgan. Demak, sud vujudga kelgan holatlar asosida nikohni haqiqiy deb topishi mumkin.*

Sud nikohni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi ishlarni ko'rishda to'plangan dalillar asosida tuzilgan nikohni legallashtirish, sog'lomlashtirish, ya'ni nikohni haqiqiy deb topish bilan bog'liq bo'lgan protsessual harakatlarni bajarish bilan nikohni haqiqiy emas deb topish haqidagi asoslarning qaysi turi bartaraf etilganligini aniqlashi lozim.

Nikohni haqiqiy emasligi haqida hal qiluv qarorida sud bu nikohning huquqiy oqibatlari nafaqat shaxsiy huquqlarga, shu bilan bir qatorda, mulkiy huquqlarga ham ta'sir etishini belgilaydi.

Shularni e'tiborga olgan holda Oila kodeksining 56-moddasida, agar insofli er (xotin) nikoh haqiqiy emas deb topilganda, nikoh tuzish davlat ro'yxatiga olingan vaqtida tanlangan familiyasini saqlab qolishga haqli ekanligi ko'rsatilgan.

Bunday huquq faqat "insofli" tomonga berilgan bo'lib, shu bilan ikkinchi tomonni majburiyatlarni bajarishga ham undaydi, jumladan, sud nikohni haqiqiy emas deb topish to'g'risida qaror chiqarishda shunday nikoh tuzilishi bilan huquqi buzilgan insofli er yoki xotinni (soxta nikohdan bexabar bo'lishi, zo'rlash, majburlash bilan nikoh tuzilishi tegishli insofsiz tarafni boshqa nikohda bo'lganlik faktini yashirishi va h. k.), mehnat qobiliyatini yo'qotish sababli da'vo talablari bilan aliment undirish uchun sudga murojaat etishga imkoniyat tug'iladi.

Insofli er yoki xotinning aliment olishga bo'lgan huquqlari qonunda belgilangan. Bunga ko'ra, agar xotin homiladorlik davrida hamda bola tug'ilgan kundan boshlab uch yil davomida ular o'rtasidagi nogiron bola o'n sakkiz yoshga to'lguncha unga qaragan yoki bolalikdan 1-guruh nogironi bo'lgan bola qaramog'ida bo'lgan, yordamga muhtoj sobiq xotin (er), nikohdan ajralgunga qadar yoki nikohdan ajralganidan keyin bir yil davomida mehnatga layoqatsiz bo'lib qolgan, yordamga muhtoj sobiq xotin (er) nikohdan ajralgach, besh yil ichida pensiya yoshiga yetmagan, yordamga muhtoj xotin (er), agar er-xotin uzoq vaqt nikohda turgan

bo'lsalar, sud tartibida aliment talab qilish huquqiga egadir. Oila kodeksining 118-moddasida bulardan tashqari, nikohdan ajralgandan keyin, sobiq er yoki xotinga to'lanadigan aliment miqdori va uni to'lash tartibi sobiq er-xotin o'rtasidagi kelishuv bilan belgilanishi mumkinligi ham ko'rsatilgan.

Nikohni haqiqiy emas deb sud qaror chiqarishda huquqi buzilgan insofli er (xotin)ni moddiy ta'minot olishda bo'lgan aliment miqdorini ham belgilashi lozimligi Oila kodeksining 119-moddasida belgilangan. Ushbu huquqiy me'yorga ko'ra, agar er-xotin (sobiq er-xotin) o'rtasida aliment to'lash to'g'risidagi kelishuv mavjud bo'lmagan hollarda er yoki xotinga (sobiq er-xotinga sud tartibida undirib beriladigan aliment miqdori, sud tomonidan er yoki xotin (sobiq er-xotin)ning moddiy va oilaviy ahvolini hamda taraflarning e'tiborga loyiq boshqa manfaatlaridan kelib chiqib, har oyda pul bilan to'lanadigan qat'iy summada belgilanishi, bu summa eng kam ish haqining uchdan bir qismidan oz bo'lmasligi ham ko'rsatilgan.

Nikohning haqiqiy emas deb topilishi nikohlanuvchilarning nikoh davomida orttirilgan mol-mulklari, umumiy jamg'armalariga ham ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham nikohi haqiqiy emas deb topilgan shaxslarning mulkiy huquqiga oid munosabatlari Oila va Fuqarolik kodekslari bilan tartibga solinadi.

Yuqoridagi qonun talablariga ko'ra, haqiqiy emas deb hisoblangan nikoh davomida jamg'arilgan mulk nikohni qayd qildirgan shaxslar o'rtasida er-xotinning birgalikdagi umumiy mulk sifatida emas, balki fuqarolik qonunlarida belgilangan umumiy hissali mulk sifatida taqsimlanishi kerak.

Oila kodeksining 56-moddasi 5-qismiga binoan, insofli er (xotin) o'ziga yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararni qoplashni fuqarolik qonun hujjatlarida nazarda tutilgan qoidalar bo'yicha talab qilishga haqli.

Insofli tarafga nikohni haqiqiy bo'lmasligi oqibatida quyidagi moddiy zarar

yetkazilishi mumkin:

- nikoh tuzish bilan bog'liq xarajatlar;
- oila qurilganligi, nikoh tuzilganligi sababli amalga oshirilgan urf-odat, marosimlarga sarflangan xarajatlar (to'y xarajatlari, kelin salom, kuyov chaqiruv xarajatlari va h. k.);

- nikoh tuzilishi, er-xotin birgalikda oila bo'lib yashashi zarurati sababli insofli taraf ko'rgan moddiy yo'qotishlar (ishdan bo'shashi, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishni to'xtatganligi va h. k.);

- nikohning haqiqiy emasligi oqibatlarini bartaraf etish bilan bog'liq xarajatlar.

Nikohning haqiqiy emas deb topilishi insofli (tuzuk) taraf uchun nafaqat moddiy zarar keltiradi, balki boshqa qator salbiy oqibatlar, noqulayliklarni vujudga keltiradi. Ulardan biri ma'naviy zarar hisoblanadi. Shu sababli ham Oila kodeksining 56-moddasi 5-qismida insofli er (xotin) o'ziga yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararni qoplashni fuqarolik qonun hujjatlarida belgilangan qoidalar bo'yicha talab qilishga haqli ekanligi ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi 2000-yil 28-aprelda qabul qilgan "Ma'naviy zararni qoplash haqidagi qonunlar qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi qarorida "ma'naviy zarar deganda, jabrlanuvchiga qarshi sodir etiladigan huquqbuzarlik harakati (harakatsizligi) oqibatida u boshidan kechirgan (o'tkazgan) ma'naviy va jismoniy azoblar (kamsitish, jismoniy og'riq, zarar ko'rish, noqulaylik va h. k) tushuniladi", deb ta'rif beriladi.

Ma'naviy zarar jismoniy azoblar natijasida ham kelib chiqishi mumkin. Nikohlanuvchi er (xotin) nikoh tuzayotganda o'zining tanosil kasalligi yoki OIV kasalligini yashirib nikohga kirishi insofli xotin (er) yuqoridagi kasallik bilan kasallanishiga olib keladi. Kasallik bu jismoniy azoblar orqali kechuvchi jarayon. Demak, bunda insofli xotin (er) ma'naviy ziyon va uning pul ko'rinishida qoplanishini talab qilishga haqli.


Ma'naviy zarar to'lanishi lozim bo'lgan mulkiy zarardan qat'i nazar qoplanishi haqidagi me'yor Fuqarolik kodeksiga kiritilgan muhim qoidalaridan hisoblanib, inson manfaatlarini himoya qilishga qaratilgandir (Fuqarolik kodeksining 1021-1022 moddalari).

## **Nikohning tugatilishi**

---

Ma'lumki, nikoh davomiy va doimiy xarakterga ega. Ammo, nikoh muayyan sabablarga ko'ra tugatilishi mumkin. Qonun hujjatlarida nikohni tugatish, bekor qilish va nikohdan ajratish to'g'risida normalar mavjud. Bunda nikohni tugatish umumiy va keng ma'no kasb etadi. Chunki nikohni bekor qilish va nikohdan ajratish natijasida ham nikoh tugatiladi.

*Nikohning tugatilishi deganda, ma'lum yuridik faktlar tufayli er-xotin o'rtasida vujudga kelgan nikoh huquqiy munosabatlarining tugallanishi tushuniladi.*



Vafot etish yuridik fakt bo‘lib, er-xotin o‘rtasidagi nikoh munosabatini tugallaydi. Sudning hal qiluv qaroriga asosan er-xotindan biri vafot etgan deb e‘lon qilinishi, o‘z huquqiy oqibati bo‘yicha o‘limga tenglashtiriladi. Shuning uchun vafot etgan deb e‘lon qilingan shaxs bilan uning eri yoki xotini o‘rtasidagi nikoh ham tugallanadi.

Er-xotindan biri vafot etgan yoki sud tartibida vafot etgan deb e‘lon qilingan hollarda ular o‘rtasidagi nikohning huquqiy munosabati tugallanadi. Bunday holda tirik bo‘lgan tomon yangi nikohga o‘tish huquqiga ega. Fuqaroni qonunda belgilangan tartibda vafot etgan deb e‘lon qilish uni vafot etgan, degan ehtimolga asoslanadi. Ba’zi hollarda bu fuqaro tirik bo‘lishi ham ehtimoldan xoli emas.

Fuqarolik kodeksining 37-moddasiga binoan, “Vafot etgan deb e‘lon qilingan fuqaro qaytib kelgan yoki uning qayerda turganligi ma’lum bo‘lgan taqdirda, uni vafot etgan deb e‘lon qilish haqidagi qaror sud tomonidan bekor qilinadi”. Ushbu norma oila-huquqiy munosabatlar uchun ham oqibat tug‘dirishi mumkin. Shunday holatni hisobga olib, Oila kodeksining 48-moddasida “Sud tomonidan vafot etgan deb e‘lon qilingan yoki bedarak yo‘qolgan deb topilgan er (xotin) qaytib kelgan va tegishli sud qarorlari bekor qilingan hollarda, nikoh er-xotinning birgalikdagi arizasiga ko‘ra fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organi tomonidan tiklanishi mumkin.

Agar er (xotin) yangi nikohga kirgan bo‘lsa, nikohni tiklash mumkin emas”.

Nikohdan ajralish yuqorida keltirilgan ikki asosdan farq qilib, faqat er-xotinning hayotligida ro‘y beradi.

*Nikohdan ajralish uchun asoslar.* Ma’lum holatlarda, agar oila amalda buzilgan, uni tiklash uchun asos yo‘q deb topilsa, u ajralish asosida tugatiladi. Nikohdan ajralish er-xotin o‘rtasidagi huquqiy munosabatlarni

kelajak vaqt uchun tugatishga asos bo‘ladi. Bunday ajralish nikohni haqiqiy emas deb topishdan farq qiladi. Nikohni haqiqiy emas deb topishda nikoh vujudga kelgan vaqtdan boshlab huquqiy munosabatlar tugallanadi.

Oila kodeksida nikohdan ajralish uchun aniq asoslar ko‘rsatilmagan va buni ko‘rsatish mumkin ham emas, chunki er yoki xotin keltirgan bir asos, ayrim hollarda, nikohdan ajratish uchun yetarli bo‘lishi mumkin, alohida holatlarda esa, ajratish uchun asos bo‘lmasligi ham mumkin. Shuning uchun sud amaliyotini hisobga olib, Oila kodeksi amalda bo‘lgan qoidani saqlab qolib, uni quyidagicha belgiladi: “Agar sud er va xotinning bundan buyon birgalikda yashashiga va oilani saqlab qolishga imkoniyat yo‘q deb topsa, ularni nikohdan ajratadi” (Oila kodeksining 41-moddasi).

Amaliyotda nikohdan ajralish uchun er-xotinlar ko‘pincha quyidagi vajlarni sabab qilib keltiradi:

- spirtli ichimlik suiiste‘mol qilish;
- er-xotinlik munosabatiga xiyonat qilish;
- befarzandlik;
- oilaviy ishlarga qarindoshlarning aralashib janjal chiqarishi (ayniqsa, qaynona-kelin mojarolari) va boshqalar.

*Nikohdan sud tartibida ajratish.* Oila kodeksi nikohdan ajralishning asosiga qarab, ajralishning quyidagi tartibini belgilaydi:

1) er-xotinlar o‘rtasidagi mulkiy nizolar mavjud bo‘lgan hollarda, sud tartibida (masalan, mol-mulkni bo‘lish, er-xotinlar o‘rtasidagi hamda voyaga yetmagan bolalarga moddiy ta‘minot bilan bog‘liq bo‘lgan holatlar yuzasidan (aliment undirish masalasida) va boshqalar) ajratiladi;

2) nizo bo‘lmagan taqdirda ma‘muriy tartibda (FHDYo organi orqali), jumladan, agar:

a) er-xotin o‘rtasida voyaga yetmagan farzandlari bo‘lmasa va ular ajralishga o‘zaro rozi bo‘lgan taqdirda;

b) taraflar (er yoki xotin) sud tomonidan bedarak yo‘qolgan, ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi sababli muomalaga layoqatsiz deb topilgan bo‘lsa;

v) Oila kodeksining 42-43-moddalarida belgilanganidek, sodir etgan jinoyati uchun eri yoki xotini uch yildan kam bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilingan bo‘lsa.

Nikoh er-xotinning vafoti yoki sud ulardan birini vafot etgan deb e‘lon qilishi sababli hamda er-xotindan biri yoki har ikkisining arizasiga muvofiq, nikohdan ajratish yo‘li bilan, shuningdek, sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan er-xotinning vasiysi bergan arizasiga muvofiq tugatilishi mumkin.



Nikohdan umumiy tartibda ajratish sud orqali hamda Oila kodeksining 42-43-moddalarida ko'rsatilgan hollarda ma'muriy tartibda, ya'ni fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida amalga oshiriladi.

Nikohdan ajralish to'g'risidagi da'vo er-xotin yashab turgan joydagi tuman (shahar) sudida qo'zg'atiladi. Agar er-xotin alohida yashasa, da'vo javobgar er yoki xotinning turgan joyidagi sudda qo'zg'atiladi, uning turadigan joyi noma'lum bo'lsa, nikohdan ajralish to'g'risidagi ariza javobgar oxirgi yashab turgan joydagi sudga topshiriladi.

Arizada nikohdan ajralish uchun asos ko'rsatilishi kerak. Ajralishni keltirib chiqargan sabablarni batafsil keltirish lozim. Nikohdan ajralish ishlari ochiq sud majlisida ko'riladi. Ajralish to'g'risidagi ish er-xotinning arizasiga muvofiq, zarur hollarda sudning ajrimiga asosan yopiq sud majlisida ko'rilishi ham mumkin.

Nikohdan ajralish ishlarini ko'rishda, sud o'z faoliyatini er-xotinni yarashtirishga va oilaviy vaziyatni sog'lomlashtirish choralari ko'rishga qaratishi lozim.

Oila kodeksining 40-moddasiga binoan, sud ishning ko'rilishini keyinga qoldirib, er-xotingga yarashish uchun olti oy muhlat tayinlashga, ajrim chiqarishga haqli.

Sud yarashtirish uchun berilgan muddatni er-xotinni yarashtirish maqsadida, zarur holatlarda, ajrim nusxalarini ular yashaydigan joydagi xotin-qizlar qo'mitalariga, o'zini o'zi boshqarish organi - mahalla oqsoqollari kengashiga, ular huzuridagi yarashtirish komissiyalariga muhokama qilish va yarashtirish uchun yuborishi mumkin.

Quyidagi hollarda nikohdan ajratish sud tartibida ko'riladi:

- er-xotindan biri nikohdan ajralishga rozi bo'lmasa;
- ular o'rtasida voyaga yetmagan umumiy bolalari bo'lib, ularni kimda qoldirish va ta'minoti uchun aliment undirish to'g'risida nizo bo'lsa;
- er-xotin o'rtasida mehnatga layoqatsiz, muhtoj er yoki xotingga aliment undirish va uning miqdori haqida masala tug'ilsa;
- birgalikdagi umumiy mol-mulkni bo'lish bo'yicha nizo bo'lsa.

Uch yildan kam bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan va Oila kodeksining 44-moddasida ko'rsatilgan boshqa nizolari bo'lmagan shaxslar bilan nikohdan ajratish Oila kodeksining 43-moddasida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Oila kodeksining 39-moddasiga muvofiq, er xotining homiladorligi vaqtida va bola tug‘ilganidan keyin bir yil mobaynida xotining rozilgisiz nikohdan ajratish to‘g‘risida ish qo‘zg‘atishga haqli emas.

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2011-yil 20-iyuldagi 6-sonli qarorida ko‘rsatilishicha, “Bolaning otasi deb qayd etilmagan hollarda ham, er bola tug‘ilganidan keyin bir yil mobaynida xotining rozilgisiz nikohdan ajralish to‘g‘risida da’vo qo‘zg‘atishga haqli emas. Ushbu qoida bola o‘lik tug‘ilgan yoki bir yoshgacha yashamay, vafot etgan hollarda ham tatbiq qilinishi lozim. Nikohdan ajralish to‘g‘risidagi ishni qo‘zg‘atish uchun xotining roziligi bo‘lmasa, sud eridan da’vo arizasini qabul qilishni rad etadi, agar qabul qilingan bo‘lsa, ish yurgizishni tugatadi. Xotin sudda ish qo‘zg‘atishdan oldin erining arizasi bo‘yicha nikohdan ajralishga rozilik berib, ishni ko‘rishda unga qarshilik bildirsa ham ishni yurgizishni tugatish lozim bo‘ladi. Ko‘rsatilgan holatlar xotinning o‘zi nikohdan ajratish masalasini qo‘yishiga to‘sqinlik qilmaydi”. Bu ko‘rsatmadan ko‘zlangan asosiy maqsad ona va bolaning sihat-salomatligini muhofaza qilishdir. Shuningdek, ayolning boshqa erkakdan homilador bo‘lishi va undan bola tug‘ilishi ham erkakka bu xotindan ajralish uchun da’vo qilishga to‘siq bo‘lishi mumkin. So‘zsiz, bunday holatda er otalik to‘g‘risida hamma vaqt da’vo qilishi mumkin. Agar xotin homiladorlik vaqtida yoki bola tug‘ilganidan keyin bir yil mobaynida ajralish haqida da’voga rozi bo‘lsa, erga da’vo qilishga haqli. Xotin homiladorlik vaqtida yoki bola tug‘ilganidan so‘ng bir yil mobaynida erning nikohdan ajralish to‘g‘risidagi da’vosiga xotinning roziligini olishning bir qancha usullari mavjuddir. Bu - nikohdan ajralish uchun birgalikda ariza berish, erning arizasiga uning rozi bo‘lishi va nihoyat, bunday arizaning xotin tomonidan berilishidir.*

*Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida nikohdan ajratish.* Nikohdan ajralishning sud tartibi bilan birga ma’muriy tartibi mavjud. Mazkur tartib er-xotinlik munosabatlarini bekor qilishning nisbatan oddiy va soddalashtirilgan tartibi hisoblanadi. Bunda nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organida nikohdan ajratiladi va sud jarayoni bo‘lmaydi.

Oila kodeksining 42-moddasiga muvofiq, voyaga yetmagan bolalari bo‘lmagan er-xotin nikohdan ajralishga o‘zaro rozi bo‘lsalar, ular nikohdan fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida ajratiladi.

Er-xotin o‘rtasida mehnatga layoqatsiz, muhtoj er yoki xotinga moddiy ta‘minot berish to‘g‘risida yoki ularning birgalikdagi umumiy mol-mulkini bo‘lish to‘g‘risida nizo chiqqan taqdirda, er-xotin yoki ulardan biri nikohdan ajratish to‘g‘risidagi ariza bilan sudga murojaat etishga haqli.

Nikohdan ajralish ariza beruvchilarning yashash joyidagi Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organiga ariza berilgan kundan boshlab uch oy muddat o'tgach qayd etiladi.

Oila kodeksining 43-moddasiga muvofiq, agar er-xotindan biri:

- sud tomonidan bedarak yo'qolgan deb topilgan bo'lsa;

- sud tomonidan ruhiyati buzilishi (ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi) sababli muomalaga layoqatsiz deb topilgan bo'lsa;

- sodir qilgan jinoyati uchun uch yildan kam bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilingan bo'lsa, o'rtada voyaga yetmagan bolalari borligidan qat'i nazar, er-xotindan birining arizasiga ko'ra ular fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida nikohdan ajratiladi.

Agar bolalar haqida, er-xotinning birgalikdagi umumiy mol-mulkini bo'lish haqida yoki yordamga muhtoj, mehnatga layoqatsiz er (xotin)ga ta'minot berish uchun mablag' to'lash haqida nizo mavjud bo'lsa, ular nikohdan sud tartibida ajratiladi.

Bunda quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- er (xotin)ning bedarak yo'qolgan deb topilganligi yoki muomalaga layoqatsizligi to'g'risida sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori;

- er (xotin) uch yildan kam bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilinganligi to'g'risida sudning qonuniy kuchga kirgan hukmidan ko'chirma, shuningdek sudlangan er (xotin)ning o'rtadagi bolalari va mol-mulki yuzasidan nizosi yo'qligi to'g'risidagi tilxat.

Nikohdan ajralishga er-xotinning o'zaro roziligi ularning har ikkalasi tomonidan berilgan yoki har biri mustaqil bergan arizalarida ifodalanishi mumkin.

Nikohdan ajralish to'g'risidagi arizani qabul qilgan fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari ajralish to'g'risida ariza bergan kundan uch oy o'tgandan keyin ajralishni rasmiylashtirib, ularga nikohdan ajralish to'g'risida guvohnoma beradi. Uch oylik muddatni belgilashda ham xuddi sudda er-xotinning yarashib ketishi uchun berilgan muddatdan ko'zda tutilgan maqsad bo'ladi. Shu davr mobaynida er-xotin o'z xatti-harakatlarini yana bir o'ylab ko'rib, uning to'g'ri-noto'g'riligini aniqlab olishi mumkin.

Bu uchta asos bo'yicha nikohdan ajratish soddalashtirilgan tartibda amalga oshiriladi, chunki bunda ajralish uchun ikkinchi tomonning roziligi talab etilmaydi va er-xotinda voyaga yetmagan bolalar bor-yo'qligi FHDYoga murojaat uchun to'siq bo'lmaydi.

Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalarining 113-bandiga binoan nikohdan ajratishni qayd etishda er va xotinning o'zaro kelishuviga ko'ra, ularning biridan yoki ikkalasidan belgilangan tartibda davlat boji undiriladi.

Suddan farqli o‘laroq, FHDYo organlari nikohdan ajraluvchilarning moddiy va oilaviy ahvoriga qarab davlat boji miqdorini kamaytira olmaydilar yoki uni to‘lash majburiyatidan ozod etolmaydilar. Nikohdan ajraluvchi shaxslarning o‘zlari bu summani to‘lashlari lozim.

Ajralishni rasmiylashtirish va er-xotiga nikohdan ajralish to‘g‘risidagi guvohnoma ariza bergan kundan boshlab uch oy o‘tgandan keyin beriladi. Shu vaqtdan boshlab nikohi tugallangan hisoblanadi va er-xotin yangi nikohga o‘tish huquqiga ega.

*Nikohdan ajralishning huquqiy oqibatlari.* Nikohdan ajralish bir qator huquqiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Mazkur huquqiy oqibatlar mulkiy va shaxsiy nomulkiy bo‘ladi.

Nikohlanuvchilar nikohga kirish vaqtida o‘z familiyasini o‘zgartirgan er (xotin) nikohdan ajratilgandan keyin ham shu familiyada qolishga haqli yoxud uning xohishiga binoan sud tomonidan nikohdan ajratish to‘g‘risidagi hal qiluv qarorini chiqarayotganda unga nikohgacha bo‘lgan familiyasi qaytarilishi mumkin (Oila kodeksining 46-moddasi).

Oila kodeksining 44-moddasiga binoan, nikohdan sud tartibida ajratilayotganda er va xotin voyaga yetmagan bolalar kim bilan yashashi, bolalarga va (yoki) mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj er yoki xotiga ta‘minot berish uchun mablag‘ to‘lash tartibi, bu mablag‘ning miqdori yoxud er-xotinning umumiy mol-mulkini bo‘lishga doir kelishuvni ko‘rib chiqish uchun sudga taqdim qilishlari mumkin.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan masalalar bo‘yicha er va xotin o‘rtasida kelishuv bo‘lmagan taqdirda, shuningdek, ushbu kelishuv bolalar yoki er-xotindan birining manfaatlariga zid ekanligi aniqlangan taqdirda sud:

- nikohdan ajratilgandan keyin voyaga yetmagan bolalar ota-onasining qaysi biri bilan yashashini aniqlashi;
- voyaga yetmagan bolalarga ta‘minot berish uchun ota-onaning qaysi biridan va qancha miqdorda aliment undirilishini aniqlashi;
- er va xotinning (ulardan birining) talabiga ko‘ra ularning birgalikdagi mulki bo‘lgan mol-mulkni bo‘lishi;
- er (xotin)dan ta‘minot olishga haqli bo‘lgan xotin (er)ning talabiga ko‘ra shu ta‘minot miqdorini belgilashi shart.

Oila kodeksi 44-moddasining oxirgi bandida o‘z ifodasini topgan, mahalliy urf-odat va an‘analardan kelib chiqqan muhim qoidalardan biri nikohdan ajratish ishi ko‘rib chiqilayotganda to‘yni o‘tkazishga ketgan sarf-xarajatlarni undirish haqidagi talablar qondirilmaydi.

Qonunda sud er-xotinning har ikkalasi yoki ulardan biri to'laydigan davlat boji miqdorini belgilashi lozim. Agar sud bu bojni er-xotinning har ikkalasidan undirish lozim deb topsa, ularning har biri to'laydigan boj miqdorini belgilaydi.

Sud ularning har birining moddiy ahvolini, oilaning barbod bo'lishidagi aybi darajasini va boshqa muayyan holatlarni, jumladan, voyaga yetmagan bolalarning er-xotindan qaysi biri bilan yashash uchun qolayotganligini hisobga oladi.

Yuqorida ko'rsatilgan nizolar nikohdan ajralish jarayonida er-xotindan bittasi yoki ikkalasining talabiga muvofiq sudning tashabbusiga asosan, agar buni voyaga yetmagan bolalarning yoki mehnatga layoqatsiz er yoki xotinning manfaatlarini muhofaza qilish taqozo etsa, ko'riladi.

Biroq bu nizolar sud nikohdan ajralish to'g'risida hal qiluv qarorini chiqargan holdagina ko'riladi. Agar sud nikohdan ajralishni rad etsa, ko'rsatilgan nizolar mustaqil ish tartibida ko'rilishi lozim.

Taraflarning xohishiga binoan, sanab o'tilgan talablarning har biri, agar nikohdan ajralish to'g'risidagi da'vo sud tomonidan qanoatlantirilsa, u mustaqil masala sifatida ko'rilishi mumkin.

Nikohdan ajralish er-xotinning shaxsiy, shuningdek, mulkiy huquqiy munosabatlarning kelajak vaqt uchun tugallanganligini anglatadi. Nikoh faqat oila huquqi bilangina tartibga solinadigan huquqiy munosabatlarni keltirib chiqarmaydi. Nikoh tuzilishi bilan ma'lum yuridik faktlarning mavjudligi tufayli fuqarolik, mehnat huquqi bilan tartibga solinadigan huquqiy munosabatlar vujudga keladi. Nikohdan ajralish er-xotinlik o'zaro munosabatlarni tugallanishiga qaratilganidir.

2010-yil 14-sentabrda Oila kodeksining 47-moddasiga qo'shimcha kiritilib, unga ko'ra, nikoh Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organida nikohdan ajratilganlik ro'yxatga olingan kundan boshlab tugatiladi. Bunda mazkur qoida nikoh tugatilishi payti, qonunga ko'ra, sudning hal qiluv qarori kuchga kirgan paytdan boshlanishi tan olingan (1998-yil 30-apreldan 2010-yil 15-sentabrgacha) davrga nisbatan tatbiq etilmaydi<sup>1</sup>.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Nikoh tuzish yoshi: milliy va xorijiy tajriba nuqtai nazaridan qiyosiy tahlil qiling.

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2011 йил 20 июлдаги 06-сонли «Судлар томонидан никоҳдан ажратишга оид ишлар бўйича қонунчиликни қўллаш амалиёти тўғрисида»ги қарори

2. Nikoh tuzishga monelik qiladigan holat sifatida farzandlikka olgan bilan farzandlikka olingan shaxslar o'rtasida tuzilgan nikoh haqiqiy emas deb topiladi, ammo bir er-xotin tomonidan farzandlikka olingan o'g'il va qiz o'rtasida nikoh munosabatlari vujudga kelishi mumkinmi? Fikrlaringizni asoslantiring.

3. Ermatov va Boboyevalar FHDYo organiga ularning nikohini qayd etishlarini so'rab murojaat qiladilar. Shundan bir necha kun o'tganidan so'ng, FHDYo bo'limi mudiriga Ermatov va Boboyevalarning nikohga kirish uchun ariza berganliklaridan xabar topgan Mirobidova ularning nikohini rasmiylashtirmasliklarini, chunki Mirobidova bir necha yildan beri Ermatov bilan birga yashayotganligini, ushbu davr ichida ular o'rtasida hech qanday nizo yo'qligi, ular o'rtasida 5 yoshli o'g'illari borligini, lekin ular qonuniy nikohda emasliklarini bildiradi. Ermatov o'zini o'g'lining otasi ekanligini tan olganligini Mirobidova ta'kidlab o'tadi.

FHDYo bo'limi mudirasi Mirobidovaga qanday tushuntirish berishi lozim? FHDYo organi Ermatov va Boboyevalarning nikohini rasmiylashtirmaslikka haqlimi?

4. Gulnora Rajapova turmushga chiqquniga qadar og'ir jarrohlik operatsiyasini boshidan o'tkazadi va shifokorlarning tibbiy xulosasiga ko'ra u kelajakda farzand ko'ra olmasligi aniqlanadi. Kamolov Yashar bilan nikoh munosabatiga kirishib, Rajapova o'zining farzand ko'ra olmasligini yashiradi, lekin Kamolov Yashar esa kelajakda farzandlari bo'lishini xohlar edi.

Ularning nikohlari qayd etib o'tilganidan bir necha oy o'tganidan so'ng Kamolov Yashar xotiniining farzand ko'ra olmasligini bilib qoladi va FHDYo organlarini nazorat qiluvchi yuqori organga tuman FHDYo bo'limi mudirining ustidan shikoyat yozmoqchi ekanligini, chunki ularning nikohini qayd etgan FHDYo bo'limi mudiri, Kamolovning fikricha, o'z vazifasini bajarmay, Rajapova Gulnoraning salomatligi xususida bo'lajak erini ogohlantirmagan.

Kamolov Yasharning arzi o'rinlimi? Rajapova Gulnora va Kamolov Yashar o'rtalaridagi nikohni haqiqiy emas deb topish uchun asos bormi?

## **5-MAVZU. ER VA XOTINNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI**

---

Er-xotinning shaxsiy-nomulkiy huquq va majburiyatlari. Er-xotinning mulkiy munosabatlari. Er-xotinning majburiyatlar bo'yicha javobgarligi

### **Er-xotinning shaxsiy-nomulkiy huquq va majburiyatlari**

---

Er-xotin o'rtasidagi munosabat qanchalik barqaror bo'lsa, oila ham shunchalik mustahkam bo'ladi, bolalarni tarbiyalash ishi to'g'ri olib boriladi. Binobarin, mamlakatimizda insonparvar, demokratik huquqiy davlat qurishda hamda nikoh munosabatlarini tartibga solishda huquqiy normalarning ahamiyati yuqoridir. Qonunda belgilangan qoidalarga binoan tuzilgan nikoh er va xotin uchun huquq va majburiyatlarni keltirib chiqaradi, boshqacha qilib aytganda er-xotin munosabatlari vujudga keladi. Nikoh qayd etilgan paytdan boshlab shaxsiy huquqlar er va xotindan har birining subyektiv oila huquqini tashkil etadi hamda faqat oilaviy-huquqiy munosabatda namoyon bo'ladi. Demak, u faqat shu ma'noda oilaga oid qonun hujjatlari bilan himoya qilinadi. Er-xotinning har biriga tegishli bo'lgan shaxsiy huquq va majburiyatlar faqat oila huquqi bilan emas, balki huquqning boshqa sohalari bilan ham tartibga solinadi.

Bunda xotin-qizlar siyosiy masalalarda erkaklar bilan teng huquqqa ega bo'lganlaridek, oilada ham barcha shaxsiy va mulkiy masalalarda erkaklar bilan teng huquqlardan foydalanadilar va bab-baravar majburiyatlarga egadirlar. Bu qoida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasida mustahkamlab qo'yilgan. Er-xotinning qayd etilgan nikohi natijasida vujudga kelgan huquq va majburiyatlari ikki xil — shaxsiy va mulkiy bo'ladi. Shaxsiy huquqlarning ko'pi er-xotinning nikohi tufayli yuzaga keladigan huquqi kabi, nikohga o'tgunga qadar ham ularga tegishli bo'ladi. Masalan, familiya tanlash huquqi, bolalar tarbiyasi va oila-turmush masalalarini hal qilish, mashg'ulot turi, kasb va turarjoy tanlash huquqlari shular jumlasidandir. Bunday holatlar ularning mehnat va fuqarolik huquqi muomala layoqatining elementi bo'lib, oila huquqi sohasiga kirmaydi. Nikoh qayd etilgan paytdan boshlab shaxsiy huquqlar er va xotindan har birining subyektiv oila huquqini tashkil etadi hamda faqat oilaviy-huquqiy munosabatda namoyon bo'ladi. Demak, u, faqat shu ma'noda oilaga oid qonun hujjatlari bilan himoya qilinadi. Er-xotinning har biriga tegishli bo'lgan shaxsiy huquq va majburiyatlar faqat oila huquqi bilangina emas, balki huquqning boshqa sohalari bilan ham tartibga solinadi.

Fuqarolarning sha'ni va qadr-qimmatini O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 20-100-moddasiga muvofiq himoya qilinadi.

Oilaviy munosabatlarda er-xotinning shaxsiy huquqlari mulkiy huquqlariga nisbatan ustuvor ahamiyatga ega bo'lib, ularning hajmi, mazmuni, xarakteri er va xotinning oilaviy huquqiy munosabatlarda qatnashuvchi sifatidagi huquqiy holatini belgilab beradi.

*Oilada er va xotinning teng huquqliligi.* Konstitutsiyaning 18-moddasiga asoslangan va tenglik tamoyilidan kelib chiqib, Oila kodeksining 19-moddasida oilada er va xotinning teng huquqliligi belgilab qo'yilgan. Barcha huquqiy munosabatlarda er-xotin huquqning teng subyekti hisoblanib, ularga bab-baravar huquqlar beriladi va tegishli majburiyatlar ham yuklanadi. Bu tamoyil to'la amalga oshiriladi va moddiy ta'minlangan. Er-xotin mulkiy huquqqa tegishli bo'lmagan shaxsiy huquqlariga oid barcha masalalarni birgalikda hal qiladilar. Ular oilada hamma shaxsiy huquqlarda tengdirlar.

Amaldagi qonunlar turmushga chiqqan ayolni muomala layoqatini hech qanday cheklamaydi, uni eriga bo'ysundirib, qaram qilib ham qo'ymaydi. Barcha huquqiy munosabatlarda er-xotin huquqning teng subyekti hisoblanib, ularga bab-baravar huquqlar beriladi va tegishli majburiyatlar ham yuklanadi. O'zbekistonda er va xotin rasmiy jihatdangina emas, balki oilada ham teng huquqqa egadir. Oila huquqiga asosan, er-xotin umumiy xo'jalik ishlarini birgalikda, o'zaro hamjihatlik asosida olib boradilar. Ular bir-birlariga ma'naviy yordam berib, ko'makdosh bo'lib yashaydilar, hamma masalalarni bamaslahat hal qiladilar. Biroq er-xotindan birining shaxsiy huquqini amalga oshirishga muntazam xalaqit berish (masalan, erning yoki xotinning mashg'ulot turi, kasb tanlashiga), shaxsiy huquqlarni amalga oshirishni suiiste'mol qilish, oila manfaatlariga qarshi qaratilgan xatti-harakatlar nikohdan ajralishga olib kelishi mumkin.

Familiya tanlash huquqi er-xotining muhim shaxsiy huquqlaridan hisoblanadi.

Oila kodeksining 20-moddasiga binoan, "Nikoh tuzish vaqtida er va xotin o'z xohishi bilan eri yoki xotining familiyasini umumiy familiya qilib tanlaydi yoki ularning har biri nikohgacha bo'lgan o'z familiyasini saqlab qoladi.

Er va xotindan birining o'z familiyasini o'zgartirishi boshqasining ham familiyasi o'zgarishiga olib kelmaydi".

Keyinchalik familiyani o'zgartirishga faqat umumiy asoslarda, qonunda belgilangan hollarda yo'l qo'yiladi.



Agar nikohni ro'yxatdan o'tkazish vaqtida nikohga o'tuvchilar o'zlarining nikohga qadar bo'lgan familiyalarida qolgan bo'lsalar, keyinchalik esa ular eri yoki xotining familiyasiga o'tishni xohlasalar, bu masala qonunda belgilangan tartibda -fuqarolarning familiyasi, ismi va otasining ismini o'zgartirish tartibida hal qilinadi .

Nikohga o'tuvchilarga ularning familiya tanlash huquqlarini tushuntirib berish nikohni qayd etuvchi mansabdor shaxsning majburiyati hisoblanadi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi tarkibiga kirgan davlatlar qonunchilik tajribasida er-xotinlar qo'sh familiyada, ya'ni er va xotinning familiyasida bo'lishi amaliyoti ham bor.

Biroq Respublika hududida nikohni qayd etuvchi fuqarolar er-xotinning qo'sh familiyasini umumiy familiya qilib tanlab olmaydilar, chunki amaldagi qonunda bunday qoida mavjud emas.

*Er va xotinning bolalar tarbiyasi va oila turmushi masalalarini hal qilishi.* Oila kodeksining 21-moddasida "Bolalar tarbiyasi va oilaviy turmush masalalarini er va xotin birgalikda hal qiladilar,"- deb belgilangan.

Ota-onaning asosiy vazifalaridan biri — farzand ko'rish va tarbiyalashdan iborat. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida "Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar,"- deb belgilab qo'yilgan.

Huquqiy nuqtai nazardan oilaning asosiy belgilaridan biri oila a'zolarining birgalikda yashashidir. Shuning uchun oilaviy turmushning hamma masalalari, umuman, oila manfaatlari va ayniqsa, voyaga yetmagan bolalar manfaatlarini inobatga olgan holda, er-xotin tomonidan o'zaro rozilik asosida birgalikda hal qilinadi.

Bolalar tarbiyasi va oilaviy turmushning ayrim masalalarini hal qilishda rozilik bo'lmasa, er-xotindan har biri yoki ularning ikkalasi birgalikda vujudga kelgan nizoni hal qilish uchun tegishli davlat organiga murojaat etish huquqiga egadirlar. Vujudga kelgan nizoning qaysi organ tomonidan hal qilinishi qonunda belgilangan. Nizoning xarakteriga qarab, bunday organlar tarkibiga sud, vasiylik va homiylik organi kiradi.

Er-xotin o'rtasida bolalar tarbiyasiga oid nizolar, bolalarga familiya yoki ism berish masalasidagi kelishmovchilik vasiylik va homiylik organi tomonidan hal qilinadi.

*Respublika sudlari ota-onalar o'rtasidagi bolalarga doir nizolarni to'g'ri hal qilishga amaldagi oila qonunlari bilan bir qatorda, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2013-yil 6-sentyabrdagi 19-sonli "Bolalar tarbiyasi bilan bog'liq bo'lgan nizolarni hal qilishda sudlar*

*tomonidan qonunlarni qo'llash amaliyoti to'g'risida"gi qarori dasturiy ko'rgazmasiga asoslanishi lozim. Bu hujjat bolalarning tarbiyasi bilan bog'liq nizolarning sudlar tomonidan to'g'ri hal etilishini, ota-onalar va bolalar huquqlarining muhofazasini, ota-onalarning o'z bolalarini tarbiyalashdagi mas'uliyatlari oshirilishini ta'minlashga imkoniyat tug'diradi, ota-onalarning bolalari manfaatlariga zid kelishi mumkin bo'lgan xatti-harakatlardan foydalanishlariga barham beradi, voyaga yetmaganlarning qonunbuzarliklari oldini olish choralaridan hisoblanadi.*

Er va xotinning mashg'ulot turi, kasb va turar joy tanlash huquqlari. "Er va xotinning har biri mashg'ulot turi, kasb va turar joy hamda yashash joyini tanlashda erklidir".

Oila kodeksining 22-moddasida belgilab qo'yilgan mazkur qoida er-xotinning birgalikda oilaviy masalalarni hal qilishdagi huquqlarini ta'minlashga qaratilgan. Oilada mashg'ulot turi, kasb tanlash masalalari kelishilgan holda hal qilinadi. Ammo bu masalalarni uzil-kesil hal qilish huquqi er-xotinning har biriga tegishli bo'ladi.

Er-xotindan har biri qiziqishi, xislati, ijodiy qobiliyati, jismoniy rivojlanishiga qarab, o'ziga mos keladigan faoliyat turini tanlaydi. Er yoki xotin tanlagan kasb uni qanoatlantirib, oila ta'minoti uchun mablag' topishga xizmat qilishi lozim. Er-xotindan birining tekinxo'rlik bilan kun kechirishi, oilaning moddiy ta'minotida o'z mehnati bilan ishtirok etmasligi ham nikohdan ajralish uchun asos bo'lishi mumkin.

Er-xotinning erkin kasb tanlash huquqi qonun bilan mustahkamlangan. Bu er-xotin o'z kasbi masalalarini (o'quv yurtida va kurslarda o'qishi, to'garaklarda ishtirok etishi va boshqalar) mustaqil ravishda hal qilishni anglatadi. Bu masalalar voyaga yetmagan bolalar manfaatlarini hisobga olib hal qilinadi.

Er-xotinning birga yashashi bolalarni tarbiyalash, mustahkam oila qurish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Qonun har bir er-xotinga qayerda yashashni erkin hal qilish huquqini berib, bir yo'la ularni rag'batlantiradi. Qonunchilik bunday maqsadlarga ko'maklashib, ulardan birortasi asosiy ish joyidan ko'chadigan bo'lsa, yo'l puli to'lash, o'quv yurtini tamomlagan mutaxassislarni ishga taqsimlashda ularni yashab turgan joyida ishda qoldirish va boshqa masalalarni hal etish tartibini belgilaydi.

Er-xotinning turar joyiga qarab, ularning voyaga yetmagan farzandlari turar joylari belgilanadi.

## Er-xotinning mulkiy munosabatlari

---

Oila nafaqat ruhiy - ma'naviy muhit manbai bo'libgina qolmasdan, balki u o'z a'zolarini moddiy jihatdan ta'minlash bilan oila a'zolarining iqtisodiy muammolarini bartaraf etishga ko'maklashadi, har bir oila a'zosining o'z mulkiga, o'zining iqtisodiy ma'nodagi mulkiy holatga ega bo'lishiga yordam beradi. Shu ma'noda olganda, oilaning bir butunligini tashkil qiluvchi er-xotinlar ham o'zlarining xususiy, umumiy, umumiy birgalikdagi ulushli hamda shaxsiy foydalanishdagi buyumlariga ega bo'ladilar.

Oila kodeksining 23-moddasiga binoan, "Er va xotinning nikoh davomida orttirgan mol-mulklari, shuningdek, nikoh qayd etilgunga qadar, bo'lajak er-xotinning umumiy mablag'lari hisobiga olingan mol-mulklari, agar qonun yoki nikoh shartnomasida boshqacha hol ko'rsatilmagan bo'lsa, ularning birgalikdagi umumiy mulki hisoblanadi.

Er va xotinning nikoh davomida orttirgan mol-mulklariga (er va xotinning umumiy mol-mulkiga) turli asoslarga ko'ra olingan masalan, mehnat faoliyatidan, tadbirkorlik faoliyatidan va intellektual faoliyat natijalaridan orttirgan daromadlari, ular tomonidan olingan pensiyalar, nafaqalar, shuningdek, maxsus maqsadga mo'ljallanmagan boshqa pul to'lovlari (moddiy yordam summasi, mayib bo'lish yoki salomatligiga boshqacha zarar yetkazish oqibatida mehnat qobiliyatini yo'qotganlik munosabati bilan yetkazilgan zararni qoplash tarzida to'langan summalar va boshqalar) kiradi. Er va xotinning umumiy daromadlari hisobiga olingan ko'char va ko'chmas ashyolar, qimmatli qog'ozlari, paylari, omonatlari, kredit muassasalariga yoki boshqa tijorat tashkilotlariga kiritilgan ustav kapitaldagi ulushlari hamda er va xotinning nikoh davomida orttirgan boshqa har qanday mol-mulklari, ular er yoki xotindan birining nomiga rasmiylashtirilgan yoxud pul mablag'lari kimning nomiga yoki er va xotinning qaysi biri tomonidan kiritilgan bo'lishidan qat'i nazar, ular ham er va xotinning umumiy mol-mulki hisoblanadi.

Er va xotindan biri uy-ro'zg'or ishlarini yuritish, bolalarni parvarish qilish bilan band bo'lgan yoki boshqa uzrli sabablarga ko'ra mustaqil ish haqi va boshqa daromadga ega bo'lmagan taqdirda ham, er va xotin umumiy mol-mulkka nisbatan teng huquqqa ega bo'ladi".

Er-xotindan har birining sovg'a sifatida nikoh tuzishdan keyin olgan mulklari, jumladan, to'y munosabati bilan yoki to'ydan keyin olgan sovg'alari, agar ular umumiy foydalanish buyumlaridan iborat bo'lsa, er-xotinning birgalikdagi umumiy mulki tarkibiga kiradi.

Nikohni tegishli tartibda qayd ettirmasdan turib er-xotin bo'lib yashash ularning mulkini er-xotinning birgalikdagi umumiy mulk deb topish uchun asos bo'lmaydi.

Nikohni qayd etmagan holda birga yashagan shaxslarning mulkiy munosabatlari fuqarolik qonunlari normalari bilan tartibga solinadi.

Agar er-xotinning har biriga tegishli bo'lgan mulkiga nikohlari davomida shu mulkning qiymatidan ancha oshiq mablag' sarflanganligi (qayta ta'mirlash, qo'shimcha qurilish qilish, qayta o'zgartirish va h. k.) aniqlansa, bu mulk er-xotinning birgalikdagi umumiy mulki deb topilishi mumkin.

Fermer xo'jaligi yoki dehqon xo'jaligi a'zolarining birgalikdagi mulki bo'lgan mol-mulkka nisbatan er va xotinning egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish huquqlari "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi va "Dehqon xo'jaligi to'g'risida"gi qonunlar bilan tartibga solinadi.

Fermer xo'jaligi yoki dehqon xo'jaligining mol-mulkini bo'lish O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 223 va 225-moddalarida nazarda tutilgan qoidalar asosida amalga oshiriladi.

Er va xotinning majburiyatlari bo'yicha haq undirish faqat uning mol-mulkiga qaratilishi mumkin.

Er va xotinning umumiy mol-mulki hisobidan o'rtadagi voyaga yetmagan bolalar nomiga qo'yilgan omonatlar o'sha bolalarga tegishli hisoblanib, er-xotinning umumiy mol-mulkini bo'lish paytida e'tiborga olinmaydi.

*O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2011-yil 20-iyuldagi 6-sonli "Sudlar tomonidan nikohdan ajratishga oid ishlar bo'yicha qonunchilikni qo'llash amaliyoti to'g'risida"gi qarorida ko'rsatishicha, "Er va xotinning umumiy mol-mulkini bo'lishda hamda ularning shu mol-mulkdagi ulushlarini aniqlashda, agar er va xotin o'rtasidagi nikoh shartnomasida boshqacha hol nazarda tutilmagan bo'lsa, er va xotinning ulushlari teng hisoblanadi.*

*Sud voyaga yetmagan bolalarning manfaatini yoki er-xotindan birining e'tiborga sazovor manfaatlarini hisobga olib, jumladan, agar er yoki xotin uzrsiz sabablarga ko'ra daromad olmagan bo'lsa yoki er va xotinning umumiy mol-mulkini oila manfaatlariga zarar yetkazgan holda sarflagan bo'lsa, er va xotinning umumiy mol-mulkidagi ulushlari tengligidan chekinishga haqlidir".*

*Er va xotinning har birining xususiy mulki.* Oila kodeksining 25-moddasiga muvofiq, er va xotinning nikohga qadar o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulki, shuningdek, ulardan har birining nikoh davomida hadya, meros tariqasida yoki boshqa bepul bitimlar asosida olgan mol-mulki ulardan har birining o'zining xususiy mulki hisoblanadi.

Nikoh davomida er va xotinning umumiy mulki yoki ulardan har birining mol-mulki yoki er va xotindan birining mehnati hisobiga mol-mulkning qiymati ancha oshishiga olib kelgan mablag'lar (kapital ta'mirlash, qayta qurish, qayta jihozlash va boshqalar) qo'shilgani aniqlansa, er yoki xotindan har birining mol-mulki ularning birgalikdagi mulki deb topilishi mumkin".

Er yoki xotindan faqat bittasiga tegishli bo'lgan va u tomonidan tasarruf etiladigan mulk xususiy mulk hisoblanadi. Ular qatoriga quyidagilar kiradi:

- er yoki xotinning nikohga qadar o'zlariga tegishli bo'lgan mulki (masalan, uy, uy jihozlari, omonat kassasiga qo'yilgan pul, qimmatbaho qog'ozlar va boshqalar);

- nikoh davomida hadya yoki meros tariqasida olgan mulklari;

- to'y sovg'alari, agar ular er yoki xotindan birining shaxsiy foydalanishi uchun mo'ljallangan bo'lsa (qimmatbaho va serhasham buyumlar bundan mustasno);

- er yoki xotin tomonidan olingan Davlat mukofotlari va sovg'alar (masalan, oltin soat, mototsikl, mashina va boshqalar);

- er-xotinning nikoh tuzishga qadar olgan hadyalari (kelinning sepi va hokazolar), bu buyumlardan turmushda birgalikda foydalanishdan qat'i nazar, ularning birgalikdagi umumiy mulki tarkibiga kirmaydi;

- er-xotinning biriga nikohga qadar tegishli bo'lgan yoki u nikoh davomida hadya yoxud meros tarzida olgan ko'chmas mol-mulk, jumladan, uy-joy nikoh davomida er-xotindan birining yoki ikkalasining mablag'lari hisobiga kapital ravishda ta'mirlanganligi yoki qayta qurilganligi sud tomonidan aniqlangan taqdirdagina, er-xotinning birgalikdagi umumiy mulki deb hisoblanishi mumkin.

*Er va xotinning umumiy mol-mulkini bo'lish.* Oila kodeksining 27-moddasiga ko'ra, er va xotinning umumiy mol-mulkini bo'lish er va xotindan birining talabiga ko'ra, ular nikohda bo'lgan davrda ham, nikohdan ajralishgandan keyin ham, shuningdek, kreditor er va xotindan birining umumiy mol-mulkdagi ulushiga undiruvni qaratish uchun umumiy mol-mulkni bo'lish talabi bilan arz qilingan hollarda amalga oshirilishi mumkin.

Umumiy mol-mulkni bo'lishda sud er va xotinning har biriga mulkning qaysi qismi berilishi lozimligini aniqlaydi. Er (xotin)ga unga qarashli ulushdan oshiq qiymatga ega bo'lgan mol-mulk beriladigan hollarda, xotin (er)ga tegishli pul yoki o'zga kompensatsiya belgilanishi mumkin. Qonun sudni masalani bunday asosda hal qilishga majbur etmaydi. Pul summasini undirib berish masalasini ko'rayotganda sud ishning aniq sharoitiga qarab (er-xotin har birining moddiy va boshqa oilaviy holatlarini inobatga olib) hal qiladi. Bunday holatda er-xotindan bittasiga birgalikdagi umumiy mulk tarkibiga kirgan uyning qismi uchun pul to'lash belgilansa, u egallagan xonani bo'shatib berishi lozim.

Mulkdor o'z mulkiga nisbatan egallash, foydalanish va tasarruf qilish huquqlariga ega. Agar er-xotinning birgalikdagi umumiy mulki nikohdan ajralish vaqtida bo'linmagan bo'lsa, bunda er-xotindan biri amalda faqat mol-mulkka nisbatan egalikdan mahrum bo'lmasdan, undan foydalana olmasligi ham mumkin. Shunday qilib, ajralish er-xotinlarga yoki ulardan biriga ularning qonuniy huquqini amalga oshirishga muqarrar ravishda ta'sir qilishi mumkin.

Nikohdan ajralgan er va xotinning umumiy mol-mulkini bo'lish to'g'risidagi talablariga nisbatan uch yillik da'vo muddati qo'llaniladi.

### **Er-xotinning majburiyatlar bo'yicha javobgarligi**

---

Er-xotindan birining qarzi uchun haq uning o'z xususiy mulkidan, er-xotinning birgalikdagi umumiy mulki bo'lganida esa unga tegishli bo'lgan hissadan undirilishi mumkin.

Umumiy qarz er-xotinning ikkalasi yoki ulardan bittasi (ikkinchi tomon bilan kelishilmagan bo'lsa-da), yoki butun oila manfaatiga qaratilgan bo'ladi.

Shaxsiy qarzlار esa bunday belgilarga ega bo'lmaydi. Qarzlار bo'yicha javobgarlik er-xotinning umumiy mulkini bo'lishda, undan tashqari ham qo'llanishi mumkin.

Er-xotinning voyaga yetmagan bolalari harakatlari tufayli zarar ko'rgan tomonning talabi er-xotinning mulkidan haq undirishning alohida turi hisoblanadi. Ota-onalarning moddiy javobgarlik masalasi fuqarolik qonun hujjatlari normalari asosida hal qilinadi.

Yetkazilgan zararni er-xotindan bittasining xususiy mulkidan, shuningdek, ularning birgalikdagi umumiy mulkidan ham undirish mumkin.

Masalan, agar er-xotin qayd etilgan nikohda bo‘lib, alohida yashayotgan bo‘lsalar, ularning voyaga yetmagan bolalari moddiy zarar keltirsa, bu holat ulardan birining aybi bilan bevosita bog‘liq bo‘lsa, uning xususiy mulkidan yoki unga tegishli umumiy mulkidan haq undirish mumkin. Biroq er-xotinning nikohdan ajralib alohida yashashi yoki ota-onalarning bolalardan alohida yashashi er-xotinning yoki ulardan birining voyaga yetmagan o‘z bolalari keltirgan zararni to‘lashdan ozod qilish uchun asos bo‘lmaydi. Agar nizo chiqsa, sud bolaga yetkazilgan zarar uchun ota-onaning har ikkalasini ham javobgar qilib, yetkazilgan moddiy zararni ularga to‘latishi mumkin. Aksariyat hollarda esa, bola yetkazgan zarar uchun bola bilan birga yashaydigan ota yoki ona javobgar hisoblanadi.

Er-xotinning birgalikdagi umumiy mulki hisoblangan mulkidan haq undirishga, ulardan bittasi tomonidan sodir qilingan jinoyat tufayli keltirilgan zararni undirishga, agar bu mol-mulk jinoyat sodir qilish yo‘li bilan topilgan mablag‘ga olinganligi aniqlansa va bu boyicha jinoyat ishi materiallari, sud hujjatida (qaror, ajrim) mavjud bo‘lsa, yo‘l qo‘yiladi.

Zararni undirish to‘g‘risidagi da‘voni ko‘rayotgan sud er-xotindan har biri yetkazgan zararining aniq miqdorini belgilash masalasini hal qiladi.

Sud bunday ishlarni ko‘rishda, avvalo, er-xotinning birgalikdagi umumiy mulkdagi tegishli qismini aniqlab, qarzdorga tegishli bo‘lgan mulkni belgilaydi. Shundan so‘ng, agar bunga yetarli asos bo‘lsa, ikkinchi tomonga tegishli mol-mulklar taqiqdan chiqariladi.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Er va xotinning umumiy mulki, har birining mulki: vujudga kelish asoslari va ularga nisbatan huquqlarni amalga oshirishni tahlil qiling.

2. Er va xotinning umumiy mol-mulkini bo‘lishda ulushlarni aniqlash: nazariya va sud amaliyoti.

3. Bo‘lajak er-xotinlar Ahrorov va Yangiboyevalar Yunusobod tumani 1-sonli FHDYo organiga nikohlarini rasmiylashtirishni so‘rab ariza bilan murojaat qiladilar. Ular o‘zlarining arizalarida Ahrorov va Yangiboyevalar familiyasida umumiy familiya qilib qoldirishlarini so‘raganlarida, FHDYo mudirasi ularga faqatgina bitta familiyani umumiy familiya qilib tanlash yoki har biri o‘zining turmushga qadar bo‘lgan familiyasida qolishi mumkinligini tushuntirganda, ular o‘z e‘tirozlarini bildirib, FHDYo bo‘limi mudirasi ustidan shikoyat qilishlarini ma‘lum qiladilar.

Aytingchi, Oila huquqida nikoh munosabatlariga kirishayotgan shaxslarga ikkita familiyani umumiy familiya qilib tanlash huquqi beriladimi? Ahrorov va Yangiboyevalarning e‘tirozlari asoslimi?

4. Manzura Tilavova turmush o'rtog'i Tilavov bilan nikohdan ajratish to'g'risida va ularning umumiy birgalikdagi mol-mulklarini bo'lib berish haqida da'vo arizasi bilan sudga murojaat qiladi.

Javobgar o'z arizasida keltirilgan mol-mulklar ro'yxati qatoriga ularga nikoh to'ylariga Tilavovning ota-onasi tomonidan sovg'a qilingan yumshoq mebellar to'plami va gilam borligini ko'rsatadi. Biroq Manzura Tilavovning sudga tushuntirishicha, ota-onasi tomonidan sovg'a qilingan buyumlar uning xususiy mulki bo'lib hisoblanishini bildiradi.

Yumshoq mebellar va gilam er-xotinlarga ularning nikoh to'yi kunida sovg'a qilinganligi aniqlangan, lekin Tilavovning ota-onasi hech qanday hadya shartnomasini rasmiylashtirmagan.

Ishni hal qiling.



## 6-MAVZU. NIKOH SHARTNOMASINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH

---

Nikoh shartnomasi tushunchasi. Nikoh shartnomasining shakli va mazmuni. Nikoh shartnomasining o'zgartirilishi va bekor qilinishi, uni haqiqiy emas deb topish

### **Nikoh shartnomasining tushunchasi**

---

Ilgari amalda bo'lgan oila-nikoh qonunchiligi bo'yicha er-xotinning mulkiy munosabatlari faqat qonun bilan tartibga solinar edi. Er-xotinning birgalikdagi mol-mulkini boshqarish va tasarruf etishga oid har qanday kelishuv qonunga zid hisoblanar va haqiqiy emas, deb topilar edi. Bunda oilada ma'naviy negizlari moddiy asoslardan ustun, deb hisoblanar edi. Er-xotinning mol-mulki asosan maishiy ehtiyoj ashyolari (kiyim-kechak, mebel)dan tashkil topgan edi va shu sababli qoida bo'yicha bo'ladigan narsaning o'zi ham mavjud emas edi. Zero, sobiq ittifoq davrida birgalikdagi mol-mulkning qonun bilan belgilangan rejimi ko'plab oilalarning manfaatlariga mos kelar edi. Er-xotin mulkiy munosabatlarni boshqacha tarzda tartibga solishga muayyan ehtiyoj ham mavjud emas edi. Biroq xususiy mulkchilikning rivojlanishi, unga keng imkoniyatlar va huquqiy kafolatlarning berilishi er-xotinning birgalikdagi umumiy mol-mulkini taqsimlashga bo'lgan vaziyatni ham tubdan o'zgarishiga olib keldi. Endilikda o'zining boyligini, o'z sarmoyasini himoya qilish ehtiyojiga ega bo'lgan darajada daromad qiladigan oilalar paydo bo'ldi.

Qolaversa, bugungi voqeliklar shu narsadan dalolat beradiki, o'rta hol qatlam vakillarining ko'pchiligi nikohga kirishar ekan, nikoh shartnomasi tuzish istagida bo'lishadi. Buning asosiy sabablaridan biri ajralishlar sonining ko'pligi va o'zini omadsiz nikoh natijasidagi ma'naviy yo'qotishlardan bo'lmasa-da, moddiy yo'qotishlardan himoyalash istagida bo'lgan kishilarning mavjudligi hisoblanadi. Shu bois nikoh shartnomasi nikoh tuzish vaqtida yoki nikoh davomida er-xotinning mulkiy huquq hamda majburiyatlarni belgilaydigan bitim sifatida ahamiyatlidir. Nikoh shartnomasi tuzish yo'li bilan taraflar kelgusida vujudga kelishi mumkin bo'ladigan turli nizolarning oldini olish bilan birga, o'zaro mulkiy munosabatlarning yuridik taqdirini ham oldindan belgilab oladilar.

Nikoh shartnomasi ko'p asrlardan beri xorijiy va milliy amaliyotda amal qilib kelmoqda. Qadimgi Rimdayoq bo'lg'usi er-xotinlarning mol-mulkiga oid bitimlar tuzilgan. Sharqiy va G'arbiy Yevropa mamlakatlarida XVI-XIX asrlarda aholining turli qatlamlari o'rtasida keng tarqalgan nikohdan oldingi kelishuvlar mashhur bo'lgan.

O'rta Osiyo xalqlarida tarixda mavjud bo'lgan davlatlarning amaliyotida ham bunday kelishuvlar ma'lum bo'lgan. XX va XXI asrlar oralig'ida Samarqand viloyatida arxeologlar tomonida 4 ming yillik tarixga ega bo'lgan, bo'lg'usi er-xotinlarning mulkiy huquqlarini belgilovchi yozuvlar topilgan. Bu yozuvlarda nikoh tugatilganda er-xotindan har birining mulkiy huquqlari haqida qaydlar o'z ifodasini topgan.

Er-xotin mol-mulkingining shartnomaviy rejimini tartibga soluvchi huquqiy vosita sifatida nikoh kontrakti institutining shakllanishi XVIII asrning oxiri – XIX asrning dastlabki yillarda Fransiya, Angliya, Germaniya, Avstriya va boshqa davlatlarda boshlangan. Adabiyotlarda qayd etilishicha, xorijiy mamlakatlar qonunchiligida nikoh shartnomasining paydo bo'lishi, birinchi navbatda, o'sha paytdagi ijtimoiy rivojlanish tusi bilan, ya'ni turli qatlamlar o'zlarining mulkiy muammolarni har xil yechimlariga ehtiyoj sezishganligi bilan asoslanadi. Fransiya va Angliyada uning paydo bo'lishi nikohga kirishayotgan xotin va uning qarindoshlariga nikohgacha bo'lgan mol-mulkni boshqarish va mazkur mol-mulkdan olingan daromadlardan foydalanish huquqini saqlab qolish zaruriyatidan kelib chiqqan. Aynan ana shu maqsadda “adolat sudlari” xotin mol-mulkingining bir qismi erning hukmronligidan tashqarida qolgan nikoh shartnomalarini haqiqiy deb topa boshlashdi. “Adolat sudlari” tomonidan ishlab chiqilgan barcha qoidalar oilaning odatdagi mol-mulki tarkibiga kirmaydigan, faqat sarmoyaning u yoki bu ko'rinishi bo'lgan mulkka nisbatan qo'llanilgan. Shu sababli XIX asr oxirigacha Angliyada er-xotin mol-mulkingining amalda ikki tartibi: aholining katta qismi uchun – “common law” va yuqori qatlam mulkdorlar sinfi uchun – “equity” mavjud bo'lgan<sup>1</sup>.

AQSh qonunchiligi bo'yicha nikoh kontraktida amalda hamma narsa, nafaqat er-xotinning mulkiy huquqlari, balki majburiyatlari ham nazarda tutilishi mumkin. Faqat bolalar tarbiyasida ishtirok etish va ajralishdan so'ng bolalar er-xotindan qaysi biri bilan qolishini belgilash mumkin emas, xolos. Binobarin, adabiyotlarda qayd etilishicha, Amerika sudlari nikoh kontrakti shartlari qanchalik adolatli ekanligini hal qilish huquqiga ega<sup>2</sup>.

Zamonaviy tushunishda nikoh shartnomasi (kontrakt) atamasi ko'pchilik holatlarda, birinchi navbatda, aholining iqtisodiy jihatdan yaxshi ta'minlangan qatlami o'rtasida keng tarqalgan oilani, er-xotinlar o'rtasidagi munosabatlarni tashkil etishning g'arbcha (Yevropacha) uslubi

<sup>1</sup> Douglas G., Lowe N. Bromley's family law. -9<sup>th</sup> ed. – Butterworth.-London, Edinburg, Dublin,1998.

<sup>2</sup> Sullivan B.K. Do you need a Prenuptial Agreement. [://www.womenof.com](http://www.womenof.com)

sifatida ko‘riladi. Darhaqiqat, nikoh shartnomasi ko‘pchilik holatlarda iqtisodiy jihatdan yaxshi ta‘minlangan aholining unchalik ko‘p bo‘lmagan qatlami uchun mo‘ljallangan va shu sababli aholining ko‘pchilik qismi uchun unchalik qiziqish uyg‘otmaydi.

Biroq xususiy mulkka bo‘lgan munosabatlarning o‘zgarishi, tadbirkorlikka keng yo‘l berilishi, xususiy mulkdorlar sinfining ko‘payib borishi natijasida nikoh shartnomasiga bo‘lgan ehtiyoj ham ortib borishi kuzatiladi. Shu sababli amaldagi qonunchilikka er-xotin mol-mulkining shartnomaviy tartibi, ya’ni nikoh shartnomasiga oid qoidalar kiritildi.

Nikoh shartnomasi tushunchasi Oila kodeksining 29-moddasida belgilangan. Unga ko‘ra, nikohlanuvchi shaxslarning yoki er va xotinning nikohda bo‘lgan davrida va (yoki) er va xotin nikohdan ajratilgan taqdirda ularning mulkiy huquq hamda majburiyatlarini belgilovchi kelishuvi nikoh shartnomasi deb hisoblanadi.

Nikoh shartnomasi nafaqat er va xotin o‘rtasidagi mulkiy huquq va majburiyatlarni nazarda tutuvchi kelishuv, balki er va xotinning uchinchi shaxslar oldidagi mulkiy huquq va majburiyatlari yuridik taqdirini belgilovchi kompleks yuridik faktdir.

Nikoh shartnomasi quyidagi o‘ziga xos xususiyatlari bilan boshqa fuqarolik-huquqiy shartnomalardan farq qiladi: birinchidan, subyektlari nikoh munosabatlari bilan bog‘langanligi; ikkinchidan, odatda ularning mol-mulkiga nisbatan umumiy tartib qo‘llanilishi; uchinchidan, o‘ta qat’iy ravishda shaxsiy munosabatlar bilan uzviy bog‘liqligi; to‘rtinchidan, har doim ikkilamchi tUSDagi huquqiy munosabat ekanligi (zero, nikoh shartnomasi nikoh amal qilganda mavjud bo‘ladigan huquqiy munosabat bo‘lib, nikohning bekor bo‘lishi nikoh shartnomasining bekor bo‘lishiga olib keladi); beshinchidan, qo‘llanish doirasi shartnoma tuzuvchilar o‘rtasidagi barcha munosabatlarni emas, faqat mulkiy munosabatlarni qamrab olishi.

Nikoh shartnomasini tuzish nikohga kirish uchun zaruriy shart hisoblanmaydi, binobarin, mazkur shartlarning ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi 3-bo‘limida ifodalangan va qat’iy hisoblanadi. Shu sababli nikoh shartnomasini tuzish yoki uni tuzishni rad etish masalasini er yoki xotin va nikohlanuvchi shaxslar ixtiyoriy va mustaqil hal qiladilar, binobarin, bu ularning majburiyati emas-huquqidir. Ayni paytda, nikoh shartnomasini tuzish erkinligi tamoyili amal qiladi, ya’ni nikoh shartnomasida er-xotinning umumiy xohishi, ya’ni ularning yagona erki ifodalanishi lozim. Mazkur tamoyil nikoh shartnomasini tuzishda erk kategoriyasi mavjud bo‘lishini tavsiflaydi hamda fuqarolik

qonunchiligi normalarini nikoh shartnomasiga qo'llanilishi tamoyilini asoslaydi. Xususan, fuqarolik qonunchiligiga muvofiq, aldash, zo'rlik ishlatish, qo'rqitish, shuningdek, fuqaro og'ir holatlar yuz berishi tufayli o'zi uchun o'ta noqulay shartlar bilan tuzishga majbur bo'lgan, ikkinchi taraf esa bundan foydalanib, qolgan bitim (asoratli bitim)ga nisbatan bitimning haqiqiy emasligi qoidasi qo'llaniladi, bunday bitim jabrlanuvchining da'vosi bo'yicha sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin (Fuqarolik kodeksining 123-moddasi).

Mazkur holat nikoh shartnomasini ikki tomonlama bitim sifatida tan olishni nazarda tutadi va uning qonuniyligi fuqarolik qonunchiligidagi bitimlarga, shuningdek, ularning shakliga nisbatan qoidalariga asoslanadi.

Nikoh shartnomasining huquqiy tabiatini er va xotin o'rtasidagi mulkiy munosabatlarni oilaviy-huquqiy tartibga solishning fuqarolik-huquqiy vositasi sifatida tushunish mumkin. Bunda er va xotin o'rtasidagi mulkiy munosabatlarni shartnomaviy tartibga solish sohasiga bevosita fuqarolik qonunchiligidagi shartnomaviy mexanizmlar va alohida shartnomalarni mexanik ko'chirib o'tkazishga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Bu o'z navbatida, nikohga kirishuvchi shaxslarning umumiyligiga asoslanadigan er-xotin o'rtasidagi (mulkiy) munosabatlarning oilaviy-huquqiy xususiyatlaridan kelib chiqadigan muayyan shartlar va cheklashlarga, shuningdek, har qanday ijtimoiy tuzum bola tug'ish va tarbiya qilish asosiy vazifa hisoblangan oilaning asosiy ijtimoiy tayinlanish maqsadiga rioya etilganda mumkin bo'ladi. Shu ma'noda er-xotin o'rtasidagi alohida munosabatlar (shu jumladan, mulkiy munosabatlar)ni fuqarolik muomalasidagi mustaqillikka ega va erk muxtoriyati asosida harakat qiladigan ishtirokchilar o'rtasidagi odatdagi tovar-pul munosabatlariga aylantirishga yo'l qo'yilmasligi lozim.

### **Nikoh shartnomasining shakli va mazmuni**

---

Oila kodeksining 30-moddasiga muvofiq, nikoh shartnomasi yozma shaklda tuziladi va notarial tartibda tasdiqlanishi lozim.

Nikoh shartnomasi ikki tomonlama shartnomaning bir turi hisoblanadi va unga nisbatan fuqarolik qonunchiligida amalda bo'lgan bitimlarga, shu jumladan, ularning shakliga oid qoidalar qo'llaniladi. Yozma shakldagi bitim uning mazmunini ifodalaydigan hujjat tuzish yo'li bilan amalga oshiriladi. Shartnoma matni tushunarli va aniq yozilishi, yozuvlarning o'chirilishi, qayta yozilishi va shartnoma mazmuniga oid shartli tuzatishlar kiritilmasligi lozim. Raqamlar va muddatlar kamida bir

marta soʻz bilan yozilishi, fuqarolarning familiyasi, ismi va sharifi, ularning manzili va turarjoyi turli xil tushunmovchiliklarning oldini olish uchun toʻliq koʻrsatilishi, shartnoma uni tuzuvchilarning imzolari bilan tasdiqlanishi zarur.

Qonunning mazkur talablarini soʻzsiz bajarish er va xotin uchun ham, uchinchi shaxslar uchun ham majburiydir. Qoidaga koʻra, nikoh shartnomasining harakati uzoq muddatga moʻljallangan, bu holat nikoh shartnomasining notarial tasdiqlanishi bilan taʼminlanadigan er va xotinning mulkiy huquq va majburiyatlarini belgilashda tushunarlik va aniqlikni talab qiladi. Nikoh shartnomasining notarial shakliga rioya qilmaslik uning haqiqiy emasligiga olib keladi. Bunday shartnoma oʻz-oʻzidan haqiqiy emas hisoblanadi va yuridik oqibatlar tugʻdirmaydi. Binobarin, nikoh shartnomasining subyektiv tarkibi va oila-nikoh munosabatlarining oʻziga xosligi bilan asoslanadigan oʻzining xususiyatiga qaramay, fuqarolik-huquqiy shartnomalarning bir turi hisoblanadi, uni tasdiqlashda notarius boshqa bitimlarni tasdiqlashdagi qoidalarga rioya qilishi lozim.

Nikoh shartnomasini notarial tasdiqlash uning qonuniyligini kafolatlaydi. Notarial shakl shartnomaning ishonchliligini anglatadi, taraflarning oʻzaro munosabatlariga aniq-ravshanlik kiritadi, nikoh shartnomasi tuzilganligi fakti va uning mazmuni boʻyicha nizolar vujudga kelishi imkoniyatini istisno etadi. Nikoh shartnomasini tasdiqlashdan oldin notarius yuridik faktlarning zaruriy tarkibini tekshiradi. U tomonlarning shaxsi, huquq layoqati, muomala layoqatini, ularning biridan ikkinchisiga oʻtayotgan subyektiv huquqlarga egaligini aniqlashi lozim. Guvohlantirilgan nikoh shartnomasi notarial idoraning ish hujjatlarida saqlanishi ham muhim ahamiyatga ega boʻladi va agar taraflarga berilgan nusxalar yoʻqotilsa, ular oʻzlarining huquqlarini tasdiqlash uchun notarial arxivga murojaat qilishlari va nikoh shartnomasining dublikatini olishlari mumkin.

Notarial amaliyotda tuzilishi koʻchmas mol-mulkka nisbatan er-xotinning mol-mulki rejimini oʻzgartiradigan nikoh shartnomasi davlat roʻyxatidan oʻtkaziladimi, degan savol bir necha marotaba yuzaga keladi. Binobarin er-xotin mol-mulkining tartibi oʻzgarishi koʻchmas mol-mulkka huquqlar oʻzgarishiga (mulkdorlar soni va ulardan ham birining huquqlar hajmi almashishi mumkin) olib kelar ekan, davlat roʻyxatidan oʻtkazish bu oʻrinda, Oʻzbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 8-moddasi 2-qismi va 84-moddasiga muvofiq majburiydir. Koʻchmas mol-mulkka

nisbatan huquqlar va ularga oid bitimlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organda ko'chmas mulkka nisbatan huquqlar bilan birga, egalar o'rtasidagi nikoh shartnomasi xususidagi qaydlar ham kiritilishi zarur.

Nikoh shartnomasining mazmuni – tomonlar er va xotinning mol-mulki huquqiy tartibini belgilaydigan uning shartlaridir. Nikoh shartnomasining shartlarida tomonlarning nikoh va uning bekor bo'lishida er va xotinning mulkiy munosabatlarining muhim jihatlari bo'yicha qarori qayd etiladi. Mohiyatiga ko'ra, nikoh shartnomasi – bu mulkiy munosabatlar sohasida er-xotinning shartnomaga kirishganidan keyingi xulq-atvorining irodali modelidir. Nikoh shartnomasi yordamida er-xotinning qonunda belgilangan birgalikdagi mulki rejimini ular o'zlarining xohishlaridan kelib chiqib o'zgartirish huquqlarini amalga oshirishlari mumkin bo'ladi.

Oila kodeksining 31-moddasi, 1-qismiga ko'ra, er va xotin nikoh shartnomasiga ko'ra birgalikdagi umumiy mulkning qonunda belgilangan tartibini o'zgartirishga, er va xotinning barcha mol-mulkiga, uning ayrim turlariga yoxud er va xotindan har birining mol-mulkiga nisbatan birgalikdagi, ulushli yoki alohida egalik qilish tartibini o'rnatishga haqlidir.

Qoidaga ko'ra, nikoh shartnomasi er va xotinning mavjud mol-mulkiga nisbatan ham, bo'lg'usi mol-mulkiga nisbatan ham tuzilishi mumkin.

Nikoh shartnomasida er va xotin quyidagi qoidalarni kiritishga haqlidirlar:

- o'zaro moddiy ta'minot berish;
- oila xarajatlarini taqsimlash;
- bir-birining daromadida ishtirok etish;
- boshqa shaxslar bilan mulkiy shartnomalar tuzish;
- birgalikda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini belgilab olish;
- nikohdan ajralganda er va xotindan har biriga beriladigan mol-mulkni aniqlab olish;
- er va xotinning mulkiy munosabatlariga oid boshqa qoidalar.

Nikoh shartnomasida bir-birini ta'minlash bo'yicha huquq va majburiyatlarni belgilar ekan, er-xotin nikoh shartnomasida Oila kodeksining 117-118-moddasida nazarda tutilgan er va xotin (sobiq er-xotinlar)ning bir-biriga moddiy ta'minot berishini rad etish haqida emas, balki to'ldirish haqida shartni belgilashlari mumkin. Jumladan, nikoh shartnomasi bo'yicha qonunga muvofiq, ta'minot olish huquqiga ega

bo‘lmagan (Oila kodeksining 117-moddasiga ko‘ra, mehnatga layoqatsiz, muhtoj er-yoki xotin ta‘minot olish huquqiga ega) er yoki xotin ta‘minot olishi mumkin. Nikoh shartnomasida er va xotin bir-biriga nikoh davrida ham u bekor bo‘lgandan keyin ham ta‘minot berish asoslari, miqdori, tartibi va muddatlarini nazarda tutishlari mumkin.

Nikoh shartnomasida nazarda tutilgan huquq va majburiyatlar muayyan muddat bilan cheklanishi yoki muayyan shart-sharoitning yuzaga kelishi yoxud kelmasligiga bog‘liq qilib qo‘yilishi mumkin. *Masalan, er va xotin nikoh shartnomasining muddatini farzand ko‘rish yoki nevarali bo‘lish paytigacha belgilashlari mumkin.*

Oila qonunchiligida nikoh shartnomasiga kiritilishi mumkin bo‘lmagan shartlar to‘g‘risidagi qoida belgilangan. Xususan, Oila kodeksining 31-moddasi 5-qismiga binoan, nikoh shartnomasida quyidagi shartlar belgilanishi mumkin emas:

- er-xotinning huquq layoqati yoki muomala layoqatini, ularning o‘z huquqlarini himoya qilish uchun sudga murojaat qilish huquqlarini cheklashni;

- er-xotin o‘rtasidagi shaxsiy nomulkiy munosabatlarni;

- er-xotinning bolalarga nisbatan bo‘lgan huquq va majburiyatlarini tartibga solishni;

- mehnatga layoqatsiz ta‘minot olishga muhtoj er yoki xotinning huquqini cheklovchi qoidalarni;

- er va xotindan birini o‘ta noqulay holatga solib qo‘yuvchi yoxud oila to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining normalariga zid keluvchi boshqa shartlarni.

Nikoh shartnomasida er-xotinning majburiyatlariga oid muayyan qoidalar ham nazarda tutilishi mumkin. Agar nikoh shartnomasida majburiyatlar bo‘yicha haq undirish er-xotindan har birining mol-mulkiga alohida qaratilishi nazarda tutilgan bo‘lsa, er (xotin)ning majburiyatlari bo‘yicha haq undirish faqat uning mol-mulkiga qaratilishi mumkin. Ushbu mol-mulk yetarli bo‘lmagan taqdirda haq undirishni er-xotinning mol-mulkiga qaratish uchun kreditor qarzdor er (xotin) ulushini er-xotinning umumiy mol-mulkidan ajratib undirib berilishini talab qilishga haqlidir.

Agar sud er (xotin)ning majburiyatlari bo‘yicha orttirilgan barcha ashyolar oila ehtiyojlari uchun ishlatilganligini aniqlasa, er-xotinning umumiy majburiyatlari bo‘yicha, shuningdek, er (xotin)ning majburiyatlari bo‘yicha haq undirish er-xotinning umumiy mol-mulkiga qaratiladi. Bu mol-mulk yetarli bo‘lmagan taqdirda er-xotin ko‘rsatib o‘tilgan majburiyatlar yuzasidan ularning har biriga qarashli mol-mulk bilan sherik javobgar bo‘ladilar.



Agar er-xotinning umumiy mol-mulki ularning biri tomonidan jinoiy yo‘l bilan topilgan mablag‘ hisobiga orttirilgani yoki ko‘paygani sud hukmi bilan aniqlangan bo‘lsa, haqni undirish tegishli ravishda er-xotinning umumiy mol-mulkiga yoki uning bir qismiga qaratilishi mumkin.

Er-xotinning voyaga yetmagan bolalari yetkazgan zarar uchun javobgarligi fuqarolik qonun hujjatlari bilan belgilanadi (Oila kodeksining 34-moddasi).

### **Nikoh shartnomasining o‘zgartirilishi va bekor qilinishi, uni haqiqiy emas deb topish**

---

Oila kodeksining 32-moddasiga muvofiq, nikoh shartnomasi er-xotinning kelishuviga ko‘ra istalgan vaqtda o‘zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin. Bunda nikoh shartnomasini o‘zgartirish va bekor qilish to‘g‘risidagi kelishuv nikoh shartnomasi qanday shaklda tuzilgan bo‘lsa shu shaklda amalga oshirilishi kerak, ya‘ni majburiy ravishda notarial guvohlantiriladigan yozma shaklda tuzilishi lozim. Agar kelishuvdan yoki shartnomani o‘zgartirish xususiyatidan boshqacha tartib anglashilmasa, nikoh shartnomasini o‘zgartirish yoki bekor qilishga kelishgan paytdan boshlab, er-xotinning majburiyatlari o‘zgartirilgan yoki bekor qilingan hisoblanadi (Fuqarolik kodeksining 385-moddasi 3-qismi).

Oila kodeksining 32-moddasi 2-qismiga ko‘ra, nikoh shartnomasi er-xotindan birining talabi bilan o‘zgartirish asosi va tartibi shartnomani o‘zgartirish va bekor qilish to‘g‘risidagi fuqarolik qonunchiligining tegishli normalari, ya‘ni O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 382-385-moddalari bilan belgilanadi. Sudning qaroriga ko‘ra nikoh shartnomasini o‘zgartirish yoki bekor qilishning majburiy sharti bo‘lib, nikoh shartnomasi tomonlari, ya‘ni er va xotin o‘rtasida bevosita sudgacha nizoni hal etish taomiliga rioya etilganligi hisoblanadi. Nikoh shartnomasini o‘zgartirish yoki bekor qilish to‘g‘risidagi talab er yoki xotindan biri tomonidan faqat ikkinchi tomon nikoh shartnomasini o‘zgartirish yoki bekor qilishni rad etganda yoxud taklifda yoki nikoh shartnomasida belgilangan, agar belgilanmagan bo‘lsa, o‘ttiz kunlik muddatda (Fuqarolik kodeksining 384-moddasi 2-qismi) javob qaytarmaganda sudga berilishi mumkin.

Amaliyotda sudlar tomonidan fuqarolik kodeksida belgilangan, nikoh shartnomasini bekor qilish yoki o‘zgartirish to‘g‘risidagi qaror qabul qilish uchun asoslarni belgilash qiyinchiliklar tug‘dirayotgan holatlar ko‘plab



uchraydi. Shunday asoslardan biri er yoki xotindan birining nikoh shartnomasini jiddiy buzishi hisoblanadi (Fuqarolik kodeksining 382-moddasi 1-qismi 2-bandi). Bunda shunday buzilish tushunilishi lozimki, uning natijasida er yoki xotin nikoh shartnomasi tuzish paytida olishni koʻzda tutgan manfaatdan sezilarli darajada mahrum boʻlishi lozim. *Masalan, nikoh shartnomasini jiddiy buzish deganda er-xotindan birining ikkinchisini normal yashash sharoitlarini taʼminlamaganligi (turar-joyni bermaganligi, pul taʼminotini toʻlamaganligi va shu kabilar) bilan bogʻliq shartnoma shartlarining bajarmasligini tushunish mumkin.*

Nikoh tugatilgan paytdan boshlab nikoh shartnomasining amal qilishi ham tugaydi, nikoh shartnomasida nikoh tugatilganidan keyingi davr uchun nazarda tutilgan majburiyatlar bundan mustasno. Yaʼni, nikoh tugatilgandan soʻng er yoki xotindan birining ikkinchisiga toʻlashi lozim boʻlgan moddiy taʼminoti masalasiga oid nikoh shartnomasining shartlari amal qilishda davom etaveradi.

Nikoh shartnomasi sud tomonidan Oʻzbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida nazarda tutilgan asoslar boʻyicha toʻla yoki qisman haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Fuqarolik kodeksining IX bobi 2-§i da belgilangan bitimning haqiqiy emaslik asoslaridan kelib chiqib, nikoh shartnomasining qonun talab qiladigan shakliga rioya etmaslik, voyaga yetmagan shaxs bilan, yanglishish, aldash, zoʻrluk, qoʻrqitish, bir taraf vakilining ikkinchi taraf bilan yomon niyatda kelishishi yoki ogʻir holatlar yuz berishi taʼsirida tuzilgan nikoh shartnomasi sud tomonidan haqiqiy emas deb hisoblanadi yoki oʻz-oʻzidan haqiqiy emasdir.

Shu bilan birga nikoh shartnomasi Oila kodeksining 31-moddasi 5-qismida belgilangan, nikoh shartnomasiga kiritilishi mumkin boʻlmagan shartlar kiritilganda toʻliq yoki qisman haqiqiy emas, deb topilishi mumkin.

Oila kodeksining 35-moddasiga muvofiq, er (xotin) nikoh shartnomasi tuzayotgani, uni oʻzgartirayotgani yoki bekor qilayotgani toʻgʻrisida oʻz kreditorini (kreditorlarini) xabardor qilishi shart. Ushbu majburiyatni bajarmagan taqdirda er yoki xotin, nikoh shartnomasi mazmunidan qatʼi nazar, oʻz majburiyatlari boʻyicha javobgar boʻladi.

Qarzdor er (xotin)ning kreditori (kreditorlari) sharoit jiddiy oʻzgargani tufayli nikoh shartnomasining shartlarini qonunda belgilangan tartibda oʻzgartirish yoki bekor qilishni talab qilishga haqli.

Er-xotin qonunda yoʻl qoʻyiladigan barcha mulkiy-shartnomaviy munosabatlarga oʻzaro kirishishga haqlidir. *Masalan, er xotiniga muayyan bir mol-mulkni hadya qilishi va uning nomiga rasmiylashtirib berish, avtomashinani boshqarishga doir ishonchnoma berishi mumkin.*

Er-xotin o'rtasida tuzilgan, ulardan birining huquqlarini cheklashga qaratilgan kelishuvlar haqiqiy hisoblanmaydi.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Nikoh shartnomasi oilaviy-huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi bitim hisoblanadi. Shu sababli unda oila huquqida markaziy o'rinni egallovchi shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga soluvchi qoidalarni nazarda tutish va nikoh shartnomasiga nisbatan Fuqarolik kodeksi normalarini qo'llash masalasini tahlil qiling.

2. Nikoh shartnomasining fuqarolik huquqidagi boshqa shartnomalar bilan nisbatini va nikoh shartnomasiga kiritilishi lozim bo'lgan hamda kiritilishi mumkin bo'lmagan shartlarning o'zaro farqini tahlil qiling.

3. Qobilov va Sharipovalar erta turmush qurdilar. Nikohga kirishish vaqtida Qobilov 17 va Sharipova 16 yoshda bo'lib, Oila kodeksining 15-moddasi 2-qismiga binoan, tegishli tartibda tuman hokimining qarori bilan ularning nikoh yoshi bir yilga kamaytirilgan edi.

Qobilov 16 yoshligidan emansipatsiya holatida muomala layoqatiga ega bo'lib, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanib kelar edi. Shu sababli Qobilov nikohga kirishish vaqtida Sharipovaga nikoh shartnomasi tuzishni taklif qildi. Er va xotin nikoh shartnomasi tuzish va uni rasmiylashtirish maqsadida notarial idoraga murojaat qilganlarida, notarius ularning hali voyaga yetmaganliklarini, notarial tasdiqlangan bitim tuzishda tomonlar voyaga yetgan bo'lishlari lozimligini, nikoh shartnomasini tuzish uchun oradan 2 yil o'tgandan so'ng kelishlari mumkinligini ta'kidlab, nikoh shartnomasini notarial tasdiqlashni rad etdi.

Er-xotin Qobilov va Sharipova notariusning bu harakatlari ustidan sudga shikoyat bilan murojaat qilishdi.

Sud qanday qaror chiqarishi lozim.

4. Er-xotin Salimovlar o'zaro munosabatlariga oydinlik kiritib olish maqsadida nikoh shartnomasi tuzishdi. Nikoh shartnomasida mol-mulklarining taqsimoti, mabodo nikohdan ajralishganida mol-mulkning qaysi qismi kimga tegishi, er xotiniga qancha ta'minot ajratishi, shuningdek bolalar tarbiyasi bilan bevosita xotini shug'ullanishi, uy-ro'zg'or ishlarini to'liq zimmasiga olishi, xotinning qarindoshlari faqat bir marotaba uning tug'ilgan kuniga mehmonga kelishi xususidagi shartlarni ham kiritishdi.

Mazkur nikoh shartnomasining mazmuni bilan tanishar ekan, notarius bunday shartlarni nikoh shartnomasiga kiritish mumkin

emasligini, keyinchalik bu shartnoma haqiqiy emas deb topilishi mumkinligini er-xotin Salimovlarga tushuntirdi. Biroq er-xotin nikoh shartnomasining keyingi taqdiri ularning ishi ekanligini aytib, notariusdan bitimni notarial rasmiylashtirib berishni talab qilishdi va notarius nikoh shartnomasini aynan shu mazmunda tasdiqladi.

Keyinchalik Salimovning qarindoshlari uning uyiga bir necha marotaba mehmonga kelishganda, Salimov xotini nikoh shartnomasini buzganligi sababli unga ta'minot bermasdan nikohdan ajralishni talab qildi va sudga da'vo arizasi berdi.

Ishni hal qiling.

## **7-MAVZU. OTA-ONA VA VOYAGA YETMAGAN BOLALARNING HUQUQ HAMDA MAJBURIYATLARI**

---

Bolaning nasl-nasabini belgilash. Voyaga yetmagan bolalarning huquqlari. Ota-onalarning huquq va majburiyatlari. Ota-onalik huquqidan mahrum qilish.

### **Bolaning nasl-nasabini belgilash**

---

Oilaviy huquqiy munosabatlar, xususan, bolalar va ota-onalar o'rtasidagi mulkiy va nomulkiy shaxsiy huquqiy munosabatlar umumiy huquqiy ta'limotga muvofiq, yuridik faktlarning yuz berishi natijasida vujudga keladi. Bolalar va ota-onalar o'rtasidagi shaxsiy nomulkiy munosabatlarning vujudga kelishi uchun bolaning muayyan shaxslardan dunyoga kelishi asos hisoblanadi.

O'z navbatida, bolaning nasl-nasabini belgilash bola huquqlariga rioya etilishining va ota-ona tomonidan uning tarbiyasi borasidagi majburiyatlar bajarilishining qonun bilan kafolatlangan obyektiv omillarini yaratadi.

Xalqaro huquqiy hujjatlarda, xususan, "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyaning 7-moddasida: "Bola tug'ilgan zahoti ro'yxatga olinadi va tug'ilgan daqiqasidan boshlab ism bilan atalish va fuqarolikka ega bo'lish, shuningdek, iloji boricha, o'z ota-onasini bilish va ularning g'amxo'rliklaridan bahramand bo'lish huquqini olishga haqli hisoblanadi", -deb belgilangan.

Oila kodeksining 60-moddasida bolaning shu onadan tug'ilganligi (onalik) Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish organi tomonidan tibbiy muassasaning hujjatlariga ko'ra, bola tibbiy muassasada tug'ilmagan holda esa, boshqa dalillarga asosan belgilanadi.

Ayolning nikoh tuzilgandan keyin erining o'limi, nikohdan ajratilganligi yoki nikoh haqiqiy emas deb topilganligi tufayli nikoh tugaganidan so'ng uch yuz kun ichida tug'ilgan bolasi nikohda tug'ilgan bola hisoblanadi.

Bolaning tug'ilishi tibbiy muassasada sodir bo'lmagan va u tug'ilayotganda tibbiy yordam ko'rsatilmagan bo'lsa, tug'ilish guvohlarning ko'rsatmalariga asoslangan holda qayd etilishiga yo'l qo'yiladi. Bolaning muayyan ota-onadan tug'ilganligini tasdiqlashda asoslaniladigan dalillar qatoriga irsiy (genetik) daktiloskopiya yo'li bilan olinadigan natijalarni ham kiritish mumkin.

Bola bilan uning onasi o'rtasida huquqiy munosabat onaning qonuniy nikohda bo'lgan yoki bo'lmasligidan qat'i nazar tug'ilish faktiga asoslanadi.

Agar bola qayd etilgan nikohda tug'ilgan bo'lsa, onasi bilan nikohda bo'lgan shaxs uning otasi degan ehtimolga asoslaniladi. Bu shaxsning otaligi ehtimollikka asoslanib, ushbu faktni isbotlash shart emas.

FHDYo organi tomonidan berilgan bolaning tug'ilganligi to'g'risidagi guvohnoma bolaning unda ko'rsatilgan ota-onadan paydo bo'lganligini isbotlovchi hujjat hisoblanadi.

Bolaning otasi otalikni o'z xohishi bilan tan olishi mumkin, agar u buni inkor etsa, u holda otalik sud tartibida belgilanadi.

Otalikni tan olish fakti alohida sud tartibida belgilanadi. Manfaaddor shaxs otalikni tan olish maqsadida ariza bilan sudga murojaat etishi mumkin. Manfaaddor shaxslar bolaning onasi, uning vasiysi (homiysi), voyaga yetgandan so'ng bolaning o'zi hamda prokuror hisoblanadi. Ariza boshqa manfaaddor shaxslar tomonidan ham berilishi mumkin.

Otalikni tan olish faktini belgilash to'g'risidagi ishda muayyan faktni belgilash qanday maqsadlar uchun zarur ekanligi arizada ko'rsatilishi lozim. Qoida bo'yicha, otalikni tan olish fakti boquvchisini yo'qotgan vaqtda unga pensiya tayinlash, meros olish, ya'ni mulkiy huquqlarni amalga oshirish maqsadida belgilanadi.

Sudning otalikni tan olish to'g'risidagi ajrimiga asosan, bolaning tug'ilganligi to'g'risidagi dalolatnoma yozuviga ota to'g'risidagi ma'lumot yozilib, bolaga tug'ilganlik to'g'risida guvohnoma beriladi.

*Ota-onaning arizasi bo'yicha bolaning nasl-nasabini belgilash.* Amaldagi qonunchilikka asosan, ota-onalar o'zaro yuridik jihatdan rasmiylashtirilgan nikohda bo'lmasalar, u holda qonun bilan belgilangan tartibda o'z huquq va majburiyatlarini ixtiyoriy ravishda bajara olishlari mumkin.

Oila kodeksi 61-moddasining 1-qismiga muvofiq bolaning onasi bilan nikohda bo'lmagan shaxsning otaligi o'zini bolaning otasi deb tan olgan shaxs va onaning Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organiga birgalikda topshirgan arizasiga binoan belgilanadi.

Otalikni tan olish bolaning onasi bilan nikoh tuzish vaqtida ham bo'lishi mumkin. Bunday holatda, otalikni qayd etishga faqat uning roziligi bo'lgandagina yo'l qo'yiladi. Bolaning ota-onasining boshqa shaxslar bilan nikohda bo'lishi otalikni ixtiyoriy tan olish uchun to'siq bo'lmaydi.

Nikohdan tashqari tug‘ilgan bolaga nisbatan faqatgina muomala layoqatiga ega bo‘lgan fuqaro tomonidan emas, voyaga yetmagan shaxs tomonidan ham otalik tan olinishi mumkin. Agar voyaga yetmagan ota bola undan dunyoga kelganini ixtiyoriy ravishda tan olsa va bu haqida ariza bilan Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish organiga murojaat qilgan bo‘lsa, ushbu organ voyaga yetmagan ota arizasi haqida uning ota-onasini xabardor qilishlari zarur. Chunki bunday ixtiyoriy ravishda tan olishlik faqat voyaga yetmagan ota uchun emas, balki uning ota-onasi uchun ham ma’lum huquqiy oqibatlar keltirib chiqaradi.

Qonun oldiga qo‘yilgan maqsad voyaga yetmaganlarning otaligi va onaligini belgilab, favqulodda hollarda ularga nikoh tuzish uchun yo‘l qo‘yib, alohida holatlarda ularga nikoh yoshini kamaytirish uchun imkon yaratishdan iboratdir. Otalikni tan olish qat’iy hisoblanadi. U to‘g‘risida nizolashishga faqat sud tartibida yo‘l qo‘yiladi.


Otalikni ixtiyoriy tan olishda faqat otaning roziligi yetarli emas. Odatda, buning uchun ona ham o‘z roziligini bildirsa, ota va bola o‘rtasida huquqiy munosabat vujudga keladi.

Oila kodeksi 61-moddasining 3-qismiga asosan, bolaning otasi sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan bo‘lsa, vasiylik va homiylik organining ruxsati bilan, otalikni belgilash to‘g‘risidagi arizani uning nomidan vasiysi berishi mumkin.

Otalikni belgilash to‘g‘risidagi ariza bolaning tug‘ilganligini qayd etish vaqtida, shuningdek, bola tug‘ilganligi qayd etilgandan keyin ham berilishi mumkin.

Otalikni belgilash rad etilganda, o‘zini bolaning otasi deb tan olgan shaxs sudga shikoyat qilishi mumkin.

*Otalikni sud tartibida belgilash.* Otalik hamma vaqt ham ixtiyoriy ravishda belgilanavermaydi. Nikohsiz tug‘ilgan bolaning otasi undan voz kechib, otalikni qayd etishni inkor etadigan hollar ham bo‘ladi. Bunday holatda bolalar manfaatini himoya qilib, sud tartibida otalikni belgilashga yo‘l qo‘yiladi. Oila kodeksining 62-moddasiga binoan otalikni sud tartibida belgilash ota-onadan birining yoki bolaning vasiysi (homiysi)ning yoxud bola kimning qaramog‘ida bo‘lsa, shu shaxsning arizasiga, shuningdek, bola voyaga yetganidan keyin uning o‘zi bergan arizasiga muvofiq amalga oshiriladi.



Otalikni belgilash bilan bog'liq masalalar da'vo ishini yuritish tartibida ko'riladi. Sud otalikni belgilash vaqtida javobgarning bolaning otasi ekanligini aniq tasdiqlovchi dalillarga asoslanadi.

*Otalikni belgilashda sudlar tomonidan amaldagi qonunlar bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2011- yil 25- noyabrdagi "Sudlar tomonidan otalikni belgilashga oid ishlarni ko'rishda qonunchilikning qo'llanilishi to'g'risida" gi Plenum qarori ham hisobga olinmog'i lozim.*

*Qarorda ko'rsatilishicha, "Otalikni belgilash, otalik fakti va otalikni tan olganlik fakti tushunchalarini sud amaliyotida farqlay olish zarur.*

*Otalikni sud tartibida belgilash deganda – 1968- yilning 1- oktabridan keyin tug'ilgan bolalarga nisbatan otasi deb taxmin qilinayotgan shaxs hayot bo'lgandagina yo'l qo'yilishi tushuniladi va bunday talablar da'vo yuritish tartibida hal etiladi.*

*Otalik faktini belgilash deganda, - 1968- yilning 1-oktabridan keyin tug'ilgan bolalarga nisbatan bolaning otasi deb taxmin qilinadigan shaxs vafot etgan taqdirda manfaatdor shaxsning arizasi bilan qo'zg'atilgan ish tushuniladi va bunday talab alohida ish yurituv tartibida ko'riladi. Mazkur fakti belgilash jarayonida manfaatdor shaxslar o'rtasida nizo (meros, boquvchisini yo'qotganlik hollarida) kelib chiqsa, u holda ariza sudda ko'rilmadan qoldiriladi va manfaatdor shaxslarga umumiy asoslarda da'vo qo'zg'atish huquqlari tushuntiriladi.*

*Bunday fakt aniq ish holatlarini inobatga olgan holda bolaning onasi homilador bo'lgan davrda o'zini tug'ilajak farzandining otasi deb tan olgan shaxs vafotidan so'ng tug'ilgan bolaga nisbatan ham belgilanishi mumkin.*

*Otalikni tan olganlik fakti deganda – 1968- yilning 1- oktabrigacha tug‘ilgan bolalarga nisbatan bolaning otasi deb taxmin qilinadigan shaxs vafot etgan taqdirdagina, manfaatdor shaxsning arizasiga binoan qo‘zg‘atilgan ish tushuniladi va bunday ariza alohida ish yuritish tartibida ko‘riladi. Bunday bolalarga nisbatan otalik sud tartibida belgilashga yo‘l qo‘yilmaydi.*

Oila kodeksining 62-moddasiga muvofiq, bunday dalillarga quyidagilar kiradi: bolaning onasi bola tug‘ilishiga qadar javobgar bilan birga yashaganligi va umumiy ro‘zg‘or yuritganligi, ular bolani birgalikda tarbiyalaganliklari yoki ta‘minlab turganliklari, shuningdek, javobgarning otalikni tan olganligini aniq tasdiqlovchi boshqa dalillar.

Shuni ta‘kidlab o‘tish kerakki, otalikni belgilashda sanab o‘tilgan barcha holatlarning birgalikda bo‘lishi talab etilmaydi, balki ulardan faqat birortasi bo‘lsa ham kifoya qiladi.

Quyida otalikni belgilashga asos bo‘luvchi holatlarga alohida - alohida to‘htalib o‘tamiz.

A) bolaning onasi bola tug‘ilishiga qadar javobgar bilan birga yashaganligi va umumiy ro‘zg‘or yuritganligi. Ushbu holatda bolaning ota-onasi doimo birga turganligi e‘tiborga olinib, qoida bo‘yicha, onaning homiladorlik davrida umumiy ro‘zg‘or ishlarini birgalikda olib borganliklari nazarda tutilib, birgalikdagi daromadlar va xarajatlar, uy-ro‘zg‘or buyumlarini olish, turmushda o‘zaro yordam va boshqalar tushuniladi (ba‘zi vaqtda ular bir turarjoyda yashamasliklari ham mumkin). Masalan, talabalar yoki yosh xodimlar har xil yotoqxonalarda yoki xonalarda yashasalar-da, katta bo‘lmagan umumiy “uy xo‘jaligiga” ega bo‘lishlari mumkin. Muhimi shundaki, bolaning onasi va javobgar o‘rtasidagi oilaviy-maishiy aloqalar bola tug‘ilganiga qadar, aniqrog‘i, ona homilador bo‘lishi davrida bo‘lishi lozim. Agar bu aloqalar bola paydo bo‘lguniga qadar tugagan bo‘lsa, ular otalikni o‘rnatish uchun asos bo‘la olmaydi.

B) ular bolani birgalikda tarbiyalaganliklari yoxud ta‘minlab turganliklari. Agar birinchi shart ikki zarur fakt - birga yashash va umumiy ro‘zg‘or yuritishning qo‘shilishidan tarkib topgan bo‘lsa, ikkinchi shart esa faqat bolani birgalikda tarbiyalaganlik yoxud ta‘minlab turganlik holatlarini o‘z ichiga oladi. Bolani tarbiyalash uni ta‘minlash bilan birga bo‘lmasligi ham mumkin. Bu faqat otasi tomonidan bo‘lmasdan (masalan, u oliy o‘quv yurtida o‘qiydi), onasi tomonidan ham bo‘lishi mumkin, masalan, agar onani va uning bolasini ota-onasi ta‘minlab turgan bo‘lsa



(buva va buvi). Otalikni belgilash nizosini ko'rishda sud uchun otaning bolani tarbiyalashda ishtirok etganligi yetarlidir. Teng asosda faqat ta'minotni berishlik (tarbiyalashda ishtirok etmasa ham) otalikni belgilash uchun yetarlidir. Biroq bolaning onasi uchun berilgan har qanday moddiy yordam ham otalikni isbotlash uchun tegishli asos bo'la olmaydi (moddiy yordam bolaning onasi bilan samimiy munosabatda bo'lgan do'stining xotirasi uchun berilgan yordam ham bo'lishi mumkin). Moddiy jihatdan ta'minlab yurgan shaxs bola o'ziniki ekanligini bilishi va bolaning otasi sifatida harakat qilishi lozim. Ta'minot berayotgan shaxs bola o'z farzandi va u ota sifatida harakat qilayotganligini bilishi lozim.

Qoida bo'yicha, ta'minot deganda, bolaning doimiy ta'minoti uchun vaqti-vaqti bilan berib turilgan moddiy yordam tushuniladi.

Otalikni sud tartibida belgilash uchun sudga murojaat qilishda da'vo muddati qo'llanilmaydi.

D) javobgarning otalikni tan olganligini aniq tasdiqlovchi boshqa dalillarni e'tiborga olish.

Bu asosning oldingilaridan farqi shundan iboratki, javobgar otalikni rad etsa ham, otalikni tasdiqlovchi obyektiv faktlar mavjud bo'ladi. Javobgar tomonidan otalikni tan olishlik subyektiv holat bo'lib, ma'lum harakatlarda ifodalanadi: so'zlab berish, xatlar va hujjatlarda (bunda taxmin qilinayotgan ota o'z bolasi ekanligini tan oladi). Bunday tan olishlik onaning homiladorlik davrida, shuningdek, bola tug'ilgandan keyin ham bo'lishi mumkin. Uning qarindosh-urug'lar, do'stlar, qo'ni-qo'shnilar, birga ishlovchilar va mansabdor shaxslar bilan bo'lgan suhbatlarda bolaning otasi ekanligini tan olishi javobgar tomonidan otalikni tan oluvchi dalil hisoblanadi.

Otalikni belgilash ishlari da'vo ishini yurgizish va alohida tartibda ko'riladi.

Ishda ishtirok etish uchun ariza beruvchi, bolaning onasi yoki uning vasiysi, manfaatdor fuqarolar hamda tashkilotlar jalb etilishi mumkin. Vafot etgan shaxsning xotini va qarindosh-urug'lari manfaatdor shaxslar hisoblanadi.

*O'zaro nikohda bo'lmagan shaxslardan tug'ilgan bolalarning huquq va majburiyatlari.* Amaldagi oila kodeksining 61 va 62-moddalarida nazarda tutilgan tartibda otalik belgilanganda, bolalar ota-onasi va ularning qarindoshlariga nisbatan o'zaro nikohda bo'lgan shaxslardan tug'ilgan bolalar bilan teng huquq va majburiyatlarga ega bo'ladi.

Nikohsiz tug'ilgan bolalarning huquqlari bilan nikohda tug'ilgan bolalarning huquqlarini tenglashtirishga intilish qonunchilik siyosatining

eng to'g'ri va demokratik yo'nalishidir. Biroq ijtimoiy taraqqiyot sharoitidagi tabiiy sabablar oqibatida bunday bolalarning barcha huquq va majburiyatlarining to'la tengligini ta'minlash imkoniyati cheklangan.

Otalikni sud tartibida belgilashning moddiy-huquqiy oqibatlari bo'lsa ham, ammo bu uch turkumdagi ishlarning har qaysisi o'ziga xos protsessual va moddiy-huquqiy mazmunga egadir. Ularning sudga ko'rilishida har xil faktik holatlar belgilanadi va shu bilan birga, sudga murojaat qilish uchun bo'lgan huquq asoslari, isbotlash predmeti, sud qarori har xil bo'ladi.

Maxsus huquqiy adabiyotlarda ta'kidlab o'tilganidek, yolg'iz onadan tug'ilgan bolalarning huquqiy holati birgina alohida xususiyatga ega: bunday bolalar faqat onaning qarindoshlari sirasiga kiradilar, biologik ota va uning qarindoshlari esa ularning noma'lumligi yoxud huquqiy bog'lanish rasmiylashtirilmaganligi sababli, hech qanday huquq va majburiyatlarga ega bo'lmaydilar.

Nikohda bo'lgan va sun'iy homila hosil qilish yoki embrionni ko'chirishga yozma rozilik bergan shaxslarda shu usullarni qo'llash natijasida bola tug'ilsa, tug'ilish to'g'risidagi yozuvlar daftoriga ular shu bolaning ota-onasi deb yozilganda bir qator muammolar yuzaga keladi. Ushbu masalalar qonunlarda batafsil tartibga solinmagan.

## **Voyaga yetmagan bolalarning huquqlari**

---

Voyaga yetmagan bolalar deyilganda, o'n sakkiz yoshga to'lmagan bolalar tushuniladi. Amaldagi qonunchilikka ko'ra, bolalar huquqlari ularning tug'ilishi bilan vujudga keladi.

Fuqaroning o'z harakatlari bilan fuqarolik huquqlariga ega bo'lish va ularni amalga oshirish, o'zi uchun fuqarolik burchlarini vujudga keltirish va ularni bajarish layoqati (muomala layoqati) u voyaga yetgach, ya'ni o'n sakkiz yoshga to'lgach to'la hajmda vujudga keladi.

Bolalar huquqi deyilganda Oila kodeksi, Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyasida ifodalangan qoidalar tushuniladi. Voyaga yetmaganlarning shaxsiy huquqlari birinchi darajadagi va mustaqil quyidagi shaxsiy huquqlarga bo'lish mumkin: oilada yashash va tarbiyalanish huquqi; ota-onasi va boshqa qarindoshlari bilan ko'rish huquqi; o'zini himoya qilishga bo'lgan huquqi; o'z fikrini erkin ifoda etish huquqi; ism, ota ismi va familiya olish huquqi.

Sanab o'tilgan huquqlar Oila kodeksining XI-bobida belgilangan bo'lib, davlat o'z navbatida, birinchidan, ularning ahamiyatini ko'rsatadi,

ikkinchidan, ularning amalga oshirilishini kafolatlaydi. Ammo, voyaga yetmaganlarning har qanday shaxsiy huquqlari o'z mazmuniga ega bo'lib, Oila kodeksining tegishli moddalarida aniq ifodalangan.

Oila kodeksining 65-moddasida belgilangan bolaning yashash va tarbiyalanish huquqi, avvalo, bola o'z ota-onasi bilan birga yashashi imkoniyatini anglatadi.

Fuqarolik kodeksining 21-moddasiga binoan, o'n to'rt yoshga to'lmagan voyaga yetmaganlarning (kichik yoshdagi bolalarning) yoki vasiylikda bo'lgan fuqarolarning qonuniy vakillari – ota-onalari, farzandlikka oluvchilari yoki vasiylari yashaydigan joy voyaga yetmaganlar yoki vasiylikda bo'lgan fuqarolarning yashash joyi hisoblanadi.

Oila kodeksi 66-moddasi birinchi qismiga binoan, bola otasi, onasi, bobosi, buvisi, aka-ukalari, opa-singillari va boshqa qarindoshlari bilan ko'rishish huquqiga ega. Ota-onasining nikohdan ajralishi, nikohning haqiqiy emas deb topilishi yoki ota-onaning alohida-alohida yashashi bunga ta'sir etmaydi.

Ota va ona alohida yashayotgan bo'lsalar u holda bola ularning har biri bilan ko'rishish huquqiga ega.

Ota-ona turli davlatlarda yashayotgan bo'lsalar ham, bola ular bilan ko'rishish huquqiga ega.

Oila kodeksi 66-moddasi 3-qismida favqulodda vaziyatlarga tushib qolgan bolaning o'z ota-onasi va boshqa qarindoshlari bilan uchrashish huquqini amalga oshirish muammosi masalasiga alohida to'xtalib o'tilgan. Oila kodeksi bolalarga qarab turish, qamoqqa olish, hibsga olish, davlat mussasasida bo'lish va boshqa hollarni nazarda tutadi. Bu sanab o'tilgan hollar mutlaq hisoblanmaydi. Har qanday holatda ham, bu favqulodda holatlar voyaga yetmaganni tashqi dunyodan, oiladan, ota-onadan, yaqin qarindoshlardan ajratilganligi bilan bog'liqdir. Ular bilan uchrashish huquqi nafaqat o'z mazmuni bo'yicha insonparvarlik, shu bilan birga, tarbiyalashga, zarur hollarda esa, qayta tarbiyalashga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 37-moddasi voyaga yetmagan mahkumlarga yaqin qarindoshlari bilan har oyda bir marta muddati uch soatgacha bo'lgan qisqa muddatli uchrashuv imkoniyatini beradi.

Oila kodeksining 67-moddasiga binoan, bola o'z huquqi va qonuniy manfaatlarini himoya qilish huquqiga ega.

Bolaning huquqi va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uning ota-onasi (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar), amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda esa, vasiylik va homiylik organi, prokuror va sud tomonidan amalga oshiriladi.

Voyaga yetmagan bola qonunga muvofiq, to'la muomala layoqatiga ega deb e'tirof etilsa, u o'z huquqi va majburiyatlarini, shu jumladan, himoyaga bo'lgan huquqini mustaqil amalga oshirishga haqlidir.

Endilikda voyaga yetmagan bola ota-ona (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar) tomonidan qilinadigan suiiste'molliklardan himoyalanih huquqiga ega bo'ladi.

Ma'lumki, har bir fuqaroning huquqi, shu bilan birga, voyaga yetmagan bolalarning huquqi, sud tartibida himoya qilinadi.

Oila kodeksining 68-moddasi bolaning o'z fikrini ifoda etish huquqini belgilaydi, bu huquqning harakat doirasini aniqlaydi, qanday holatlarda voyaga yetmaganlarning fikri hisobga olinishini belgilab beradi.

Oila kodeksining 69-moddasiga binoan, bola ism, ota ismi va familiya olish huquqiga ega.

Bolaga ism ota-onaning kelishuviga binoan, ota ismi esa otasining ismiga ko'ra beriladi.

Bolaning familiyasi ota-onaning familiyasiga qarab belgilanadi. Ota-ona turli familiyalarda bo'lsalar, ota-onaning kelishuviga binoan, bolaga otasining yoki onasining familiyasi beriladi. Ota-onaning xohishiga ko'ra, bolaga ota yoki ona tomonidan, milliy an'analarga binoan, boboning ismi bo'yicha familiya berilishi mumkin. Ota-ona o'rtasida bolaning ismi va (yoki) familiyasi bo'yicha kelishuv bo'lmaganda, kelib chiqqan nizo vasiylik va homiylik organi tomonidan hal etiladi.

*Voyaga yetmagan bolalarning mulkiy huquqlari.* Voyaga yetmagan bolalarning mulkiy huquqlari ilgari amalda bo'lgan qonunlarda o'z ifodasini topmagan edi. Endilikda ular Oila kodeksining 90-moddasida o'z aksini topdi. Bu holat yana bir bor bolaning huquq subyekti sifatida keng huquqlarga ega bo'la olishining isbotidir.

Amaldagi qonunchilik voyaga yetmagan bolalarning mulkiy huquqlarini majmua xarakteriga ega ekanligini inobatga olib, ularning har biriga alohida e'tibor beradi.

Oila kodeksining 90-moddasiga binoan, voyaga yetmagan bolalar o'z ota-onasidan va boshqa shaxslardan qonunda nazarda tutilgan miqdorda va tartibda ta'minot olish huquqiga egalar. Voyaga yetmagan bolalar ta'minoti uchun olingan mablag', pensiya, aliment uning otasi yoki onasi tasarrufida bo'lib, bolaning ta'minoti, tarbiyasi va ta'lim olishi uchun sarflanishi kerak.

Voyaga yetmagan bolalarning mol-mulkini tasarruf etishga doir vakolatlar amalga oshirilayotganda, fuqarolik qonun hujjatlarida belgilangan qoidalar qo'llaniladi.

Bulardan tashqari, bolalar: 1) Sovg'a (hadya) olish natijasida vujudga keladigan mulkiy huquqlarga ega. Bu an'anaviy va juda ko'p tarqalgan mol-mulk olish usuli hisoblanadi. Bunday mol-mulk nafaqat qarindoshlardan, shuningdek, boshqa jismoniy shaxslar, hatto, yuridik shaxslardan ham olingan mol-mulk bo'lishi mumkin.

2) Fuqarolik kodeksi tomonidan belgilangan meros tartibida (meros qonun yoki vasiyatnoma tartibida olinishidan qat'i nazar), shuningdek, mol-mulk olishga bo'lgan huquqlar.

Fuqarolik kodeksining 29-moddasiga binoan, o'n to'rt yoshga to'lmagan voyaga yetmaganlar (kichik yoshdagi bolalar) uchun bitimlarni, ushbu moddaning ikkinchi qismida ko'rsatilganlardan tashqari, ularning nomidan faqat ota-onasi, farzandlikka oluvchilari yoki vasiylari tuzishlari mumkin.

Olti yoshdan o'n to'rt yoshgacha bo'lgan kichik yoshdagi bolalar quyidagilarni mustaqil ravishda amalga oshirishga haqlidirlar: mayda maishiy bitimlar; tekin manfaat ko'rishga qaratilgan, notarial tasdiqlanishi yoki davlat ro'yxatidan o'tkazishni talab qilmaydigan bitimlar; qonuniy vakil yoki uning roziligi bilan uchinchi shaxs tomonidan muayyan maqsad yoki erkin tasarruf etish uchun berilgan mablag'larni tasarruf etish borasidagi bitimlar.

Kichik yoshdagi bolaning bitimlari bo'yicha, shu jumladan, o'zi mustaqil tuzgan bitimlar bo'yicha uning ota-onasi, farzandlikka oluvchilari yoki vasiysi, agar ular majburiyatning buzilishida o'zlarining ayblari yo'qligini isbotlay olmasalar, mulkiy javobgar bo'ladilar. Ushbu shaxslar qonunga muvofiq kichik yoshdagi bolalar yetkazgan zarar uchun ham javobgar bo'ladilar.

*Voyaga yetmagan bolalarning huquqlarini himoya qilish.* O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 45-moddasiga binoan, voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg'iz keksalarning huquqlari davlat himoyasidadir.

Voyaga yetmagan bolalar o'zlarining jismoniy, ruhiy va ijtimoiy rivojlanishiga ko'ra hamma vaqt ham u yoki bu boshqa hayotiy vaziyatni to'g'ri baholay olmasliklari mumkin.

Shuning uchun Oila kodeksi 67-moddasining 2-qismiga binoan, bolaning huquqi va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni uning ota-onasi (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar) amalga oshiradilar.

Bolaning buzilgan huquqlarini himoya etishga doir qonunda nazarda tutilgan choralarni ko'rish yoki bunday choralarga murojaat qilmaslik to'g'risidagi masalani hal etishda ota-ona bolaning manfaatlaridan kelib chiqib ish tutishi, agar bola o'n yoshga to'lgan bo'lsa, albatta, uning fikrini inobatga olgan holda harakat qilishi lozim.

Agar bolaning subyektiv huquqlari uning qonuniy vakillari, shu jumladan, ota-onasi tomonidan buzilayotgan bo'lsa, masalan, ular bolaning tarbiyasi va ta'limi borasidagi o'z majburiyatlarini bajarmayotgan yoki ota-onalik huquqini suiiste'mol qilayotgan bo'lsa, bola o'z huquq va qonuniy manfaatlarining himoya qilinishini so'rab, vasiylik va homiylik organiga, o'n to'rt yoshga to'lgan bo'lsa, mustaqil ravishda sudga murojaat qilishi mumkin.

Qonunda oilaviy huquqiy munosabat ishtirokchilarining buzilgan huquqlari va qonuniy manfaatlarini vasiylik va homiylik organlari himoya qilishi mumkin bo'lgan hollar ham nazarda tutilgan. Bolalar to'liq davlat ta'minotida bo'ladigan muassasalardagi tarbiya, davolash, aholini ijtimoiy muhofaza qilish muassasalaridagi bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish ham vasiylik va homiylik organlari zimmasiga yuklatiladi (Oila kodeksi 148-moddasi).

### **Ota-onalarning huquq va majburiyatlari. Ota-onalik huquqidan mahrum qilish**

---

Ota-ona bilan bolalar o'rtasida yuzaga keluvchi huquqiy munosabatlar tarkibida shaxsiy nomulkiy huquqiy munosabatlar ajralib turadi. Bola tarbiyasi ota-onaning shaxsiy huquqiy munosabatlarining asosiy obyektlaridan biri hisoblanadi. Ota-ona huquqining mohiyatiga va vazifalariga yaxlit majmua sifatida qaraydigan bo'lsak, unda bola tarbiyasiga bo'lgan huquq va burch ustuvor o'rin egallaydi.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi ota-onalik huquqlarini voyaga yetmagan ota-onalarga ham berilishini belgilaydi. Ular ham ota-ona huquqiy maqomiga ega bo'lib o'z bolalariga nisbatan huquq va majburiyatlarga egadirlar. Har bir ota-ona o'z farzandlariga ism berish, ularni tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish, shuningdek, ularning shaxsiy hamda mulkiy huquqlarini himoya qilishda teng huquq va majburiyatlarga egadirlar.

Voyaga yetmagan ota-ona o'z bolasi bilan birga yashash va uning tarbiyasida ishtirok etish huquqiga ega.

O'zaro nikohda bo'lmagan voyaga yetmagan ota-ona ulardan bola tug'ilganda hamda ularning onaligi va (yoki) otaligi belgilanganda, o'n olti yoshga to'lishlari bilan ota-onalik huquqlarini mustaqil ravishda amalga oshirishga haqlidirlar. Voyaga yetmagan ota-ona bilan birgalikda tarbiyalash uchun bolaga vasiy tayinlanishi mumkin. Bolaning vasiysi bilan voyaga yetmagan ota-ona o'rtasida kelib chiqadigan kelishmovchiliklar vasiylik va homiylik organi tomonidan hal etiladi.

Voyaga yetmagan ota-ona o'z otaligi va onaligini umumiy asoslarda e'tirof etish yoki unga e'tiroz bildirish huquqiga ega.

Ota-onaning asosiy vazifalaridan biri farzandini tarbiyalash bo'lib, bu haqida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 64-moddasida shunday deyiladi: "Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar. Davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlaydi, bolalarga bag'ishlangan xayriya faoliyatlarini rag'batlantiradi". Shundan kelib chiqib, Oila kodeksining 73-moddasida mazkur Konstitutsiyaviy qoida yanada mustahkamlandi. Unda ota-onalarning o'z bolalarini tarbiyalash huquqlari, shu bilan birga, ota-onalarning o'z bolalarini tarbiyalash majburiyati ham belgilangan.

Shunday qilib, ota-onalik huquqlari bir yo'la bolalarni tarbiyalash majburiyati ham hisoblanadi.

Ota-ona o'z bolalarini tarbiyalash huquqiga ega va tarbiyalashi shart. Ota-ona o'z bolalarining tarbiyasi va kamoloti uchun javobgardir. Ular o'z bolalarining sog'lig'i, jismoniy, ruhiy, ma'naviy va axloqiy kamoloti haqida g'amxo'rlik qilishlari lozim.

Ota-ona o'z bolalarini tarbiyalashda boshqa barcha shaxslarga nisbatan ustunlik huquqiga egadirlar.

Ota-ona bolalarining qonun hujjatlarida belgilangan zarur darajada ta'lim olishini ta'minlashi kerak.

*Bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha ota-onaning huquq va majburiyatlari.* Oila kodeksining 74-moddasi ota-onalar zimmasiga bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish majburiyatini yuklaydi.

Ota-onalar o'z bolalarining qonuniy vakillaridir. Ularning har biri shunday huquqdan foydalanadi.

Ota-ona o'z bolalarining vakillari bo'lganligi uchun har qanday jismoniy va yuridik shaxslar bilan bo'lgan munosabatlarda, shu jumladan, suda alohida vakolatsiz ularning huquq va manfaatlarini himoya qiladilar. Voyaga yetmagan bolalarning fuqarolik va boshqa huquqlarini, qolaversa, qonuniy manfaatlarini har qanday suiiste'molliklardan saqlash vazifasi qonun yo'li bilan bolalarning ota-onasi zimmasiga yuklatilgan, bu majburiyatni bajarish uchun ulardan alohida vakolatnoma talab qilinmaydi. Buning uchun bolaning tug'ilganligi to'g'risidagi guvohnoma yoki pasportini ko'rsatishi yetarli, chunki bundan bolaning haqiqiy otasi yoki onasi ekanligi bilinib turadi.

Nikohsiz tugʻilgan bolaning huquqini himoya qilish, qoidaga koʻra, ona tomonidan amalga oshiriladi. Bunday bolaning huquqini himoya qilish amaldagi otaga agar ota oʻz otaligini oʻz xohishi bilan tan olsa yoki otalik sud tartibida belgilangan boʻlsa yuklatiladi.

Bolaning yoshi kattalashib borgan sari fuqarolik muomala layoqati ham kengayib boradi. Masalan, Fuqarolik kodeksining 27-29-moddalarida oʻn toʻrt yoshdan oʻn sakkiz yoshgacha boʻlgan, shuningdek, oʻn toʻrt yoshga toʻlmagan voyaga yetmaganlar (kichik yoshdagi bolalar)ning muomala layoqatini aniq belgilab beradi.

Bularni hisobga olib oʻn toʻrt yoshga toʻlmagan voyaga yetmaganlar uchun fuqarolik-huquqiy bitimlarni (Fuqarolik kodeksining 28-moddasi 2-qismida koʻrsatilgan hollardan tashqari ular nomidan faqat ularning ota-onalari, yaʼni oʻz bolalarining qonuniy vakili sifatida tuzadilar.

Oʻn toʻrt yoshga toʻlmagan voyaga yetmaganlarning fuqarolik huquq va majburiyatlarini belgilash, oʻzgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan harakatlari haqiqiy emas deb topiladi. Biroq agar bitim kichik yoshdagi bolalar manfaatini koʻzlab tuzilgan boʻlsa, uning ota-onasi, farzandlikka oluvchilari yoki vasiyning talabi boʻyicha u sud yoʻli bilan haqiqiy deb topiladi. 14 yoshga toʻlgan bolalar uchun fuqarolik-huquqiy munosabatlarda ota-onalar oʻz bolalarining homiylari sifatida qatnashadilar (Fuqarolik kodeksining 32-moddasiga qarang).

Voyaga yetmagan bolaning oʻn sakkiz yoshga toʻlishi yoki uning nikoh tuzishi va boshqa hollarda voyaga yetganning toʻla muomalaga ega boʻlishi alohida qarorsiz voyaga yetmagan ustidan boʻlgan homiylikni tugatadi.

*Ota-onalik huquqini amalga oshirish.* Oʻz bolalariga nisbatan (Oila kodeksining 75-78-moddalariga qarang) ota-onalarga davlat keng huquqlar berib, umumiy qoida boʻyicha ularni amalga oshirish jarayoniga aralashmaydi. Biroq bunda davlat oʻz shartlarini qoʻyadi. Shunga alohida eʼtibor qilish lozimki, ota-onalik huquqi bolalar manfaatlariga zid tarzda amalga oshirilishi mumkin emas (Oila kodeksini 75-moddasining 1-bandi).

Amaldagi qonunchilikka asosan, ota-onalik huquqini amalga oshirishda ota-ona bolalarning jismoniy va ruhiy sogʻligiga, axloqiy kamolotiga zarar yetkazmasliklari lozim. Bolalarni tarbiyalash usullarini mensimaslik, shafqatsizlik, qoʻpollik, insoniy qadr-qimmatini kamsituvchi harakatlardan bolalarni haqoratlash yoki ularga tazyiq oʻtkazishdan holi boʻlishlari belgilangan.

Agar ota-onalar oʻzlarining ota-onalik huquqlarini bolalarning huquq va manfaatlariga qarshi qaratib amalga oshirsalar, buning uchun ularning



javobgarligi qonun tomonidan belgilangan tartibda vujudga keladi. Javobgarlik fuqarolik-huquqiy, jinoiy, ma'muriy bo'lishi mumkin. Bunda javobgarlik turini belgilash ota-onaning o'z bolasiga nisbatan qanday huquqni buzganligiga bog'liq bo'ladi.

Ota yoki ona tomonidan voyaga yetmagan bolani tilamchilikka, spirtli ichimliklar iste'mol qilishga, giyohvandlik yoki psixotrop hisoblanmagan, lekin kishining aql-idrokiga ta'sir qiladigan vosita va moddalarni iste'mol etishga jalb qilish, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin yana sodir etilgan bo'lsa, jinoiy oqibatni keltirib chiqaradi (Jinoyat kodeksi 127-moddasining 1-bandi).

Ota-onalarning javobgarligi oila qonunchiligi normalari asosida ham vujudga kelishi mumkin. Ma'lum shartlarning mavjud bo'lishi ota-onani ota-onalik huquqidan mahrum etish uchun asos bo'lishi mumkin (Oila kodeksini 79-moddasiga qarang).

Oila kodeksining 75-moddasi 4-qismiga muvofiq, bolalarning ta'lim-tarbiyasiga taalluqli barcha masalalar bolalar manfaatidan kelib chiqadi va ularning fikrini hisobga olgan holda ota-ona tomonidan o'zaro kelishuv asosida hal etiladi. Agar ota-ona o'rtasida kelishmovchiliklar mavjud bo'lsa, ular (ulardan biri) bu kelishmovchiliklarni hal qilish uchun vasiylik va homiylik organiga yoki sudga murojaat qilishga haqlidir.

Ota-onalik huquqlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun bolalar o'zlarining ota-onalari yoki ulardan biri bilan yashashlari maqsadga muvofiq hisoblanadi. Agar ota-onalar alohida yashasalar, bolaning yashash joyi ota-onalarning kelishuvi bilan hal qilinadi. Agar ota-onalar o'rtasida kelishuv bo'lmasa, u holda nizo bolalar manfaatlaridan kelib chiqib, ularning fikrini hisobga olgan holda hal etiladi. Bunda sud bolaning ota-onadan, aka-uka, opa-singillaridan qaysi biriga bog'lanib qolganligini, bolaning yoshini, ota-onasining axloqiy va boshqa shaxsiy fazilatlarini, ota-onaning har biri bilan bola o'rtasidagi munosabatlarni, bolani tarbiyalash va uning kamoloti uchun shart-sharoitlar (ota-onasining mashg'ulot turi, ish tartibi, moddiy hamda oilaviy ahvoli va boshqalar) yaratish imkoniyatini hisobga oladi.

*Boladan alohida yashayotgan ota (ona)ning ota-onalik huquqini amalga oshirishi.* Oila kodeksining 76-moddasida boladan alohida yashayotgan ota (ona)ning ota-onalik huquqini amalga oshirishning asosiy tamoyillari mustahkamlangan. Boladan alohida yashayotgan ota (ona) bola bilan ko'rishishi, uning tarbiyasida ishtirok etish va ta'lim olish masalasini hal etishda qatnashish huquqiga ega.

Bunda bola bilan yashayotgan ota(ona) bolaning ona (ota)si bilan ko‘rishishga, agar bunday ko‘rishish bolaning jismoniy va ruhiy holatiga, axloqiy kamolotiga zarar keltirmasa, qarshilik qilmasligi kerak.

Ota-ona boladan alohida yashaydigan ota (ona)ning ota-onalik huquqlarini amalga oshirish tartibi to‘g‘risida yozma ravishda kelishuv tuzishga haqlidir. Agar ota-ona kelisha olmasalar, nizo ota-ona (yoki ulardan biri)ning talabiga binoan, sud tomonidan vasiylik va homiylik organi ishtirokida hal qilinadi. Sudning hal qiluv qarori bajarilmaganda aybdor ota-onaga nisbatan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan choralar qo‘llaniladi. Sudning hal qiluv qarori qasddan bajarilmagan taqdirda, sud boladan alohida yashayotgan ota(ona)ning talabiga binoan bola manfaatlarini va uning fikrini hisobga olgan holda, bolani unga berish to‘g‘risida hal qiluv qarori chiqarishi mumkin.

Ota (ona) bilan ko‘rishish tartibi muddatlari, vaqti va boshqalar har xil bo‘lishi mumkin. Biroq har qanday holatda ham bolaning huquq va manfaatlarini ishonchli himoya qilinishi lozim. Alohida yashayotgan bola bilan ko‘rishish bolaga salbiy ta‘sir etishi ham mumkin.

Boladan alohida yashayotgan ota (ona) tarbiya, davolash, aholini ijtimoiy muhofaza qilish muassasalaridan va boshqa shunga o‘xshash muassasalardan o‘z bolasi to‘g‘risida axborot olish huquqiga ega bo‘ladi.

Bunday axborot berish rad etilishi uchun faqat asosli sabab bo‘lishi shart, ya‘ni ota (ona) tomonidan bolaning hayoti va sog‘lig‘i uchun xavf-xatar bo‘lgandagina, bunday axborot berish rad etilishi mumkin. Axborot berishning rad etilishi ustidan manfaatdor ota yoki ona tegishli tartibda sudga shikoyat bilan murojaat qilishga haqlidir.

Oila kodeksining 77-moddasiga binoan, bola bilan ko‘rishib turish huquqi bobo, buvi, aka-uka, opa-singil va boshqa yaqin qarindoshlarga ham beriladi. Ota-ona yoki ulardan biri yaqin qarindoshlarning bola bilan ko‘rishishiga imkon bermasa, bunday qilishdan bosh tortsa, vasiylik va homiylik organi ota-onaga (ulardan biriga) bunday ko‘rishish va muloqotga monelik qilmaslik vazifasini yuklashi mumkin. Basharti, ota-ona (ulardan biri) vasiylik va homiylik organining qarorini bajarmasa, bolaning yaqin qarindoshlari yoki vasiylik va homiylik organi bola bilan ko‘rishib turishga to‘sqinlik qilish hollarini bartaraf etish haqidagi da‘vo bilan sudga murojaat qilishga haqli bo‘ladi. Sud bolaning manfaatlaridan kelib chiqib va uning fikrini hisobga olgan holda nizoni hal qiladi.

## Ota-onalik huquqidan mahrum qilish

---

Oila kodeksining 79-moddasiga binoan, ota-ona o'zlarining ota-onalik majburiyatlarini bajarmasalar, ular ota-onalik huquqidan mahrum etiladilar. Ota-onalik huquqidan mahrum etish so'nggi chora bo'lib hisoblanadi. Ota-onalik huquqidan mahrum qilish ularga ta'sir qiladigan hamma chora-tadbirlar tegishli natija bermaganidan so'ng qo'llaniladi.

Oila kodeksining 79-moddasida ota-onalik huquqidan mahrum qilish asoslari doirasi sanab o'tilgan.

Ota-ona (ulardan biri) quyidagi hollarda: ota-onalik majburiyatlarini bajarishdan bosh tortsa, shu jumladan, aliment to'lashdan bo'yin tovlasa; uzrsiz sabablarga ko'ra o'z bolasini tug'ruqxona yoki boshqa davolash muassasasi va shunga o'xshash boshqa muassasalardan olishdan bosh tortsa; ota-onalik huquqini suiiste'mol qilsa, bolalarga nisbatan shafqatsiz muomalada bo'lsa, jumladan, jismoniy kuch ishlatsa yoki ruhiy ta'sir ko'rsatsa; muttasil ichkilikbozlik yoki giyohvandlikka muhtalo bo'lgan bo'lsa, o'z bolalarining hayoti va sog'lig'iga yoxud eri (xotini)ning hayoti yoki sog'lig'iga qarshi qasddan jinoyat sodir qilgan bo'lsa, ota-onalik huquqidan mahrum qilinishi mumkin.

Amaldagi Oila kodeksining 80-moddasi ota-onalik huquqidan mahrum qilish tartibini belgilaydi.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilish sud tartibida amalga oshiriladi.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilish to'g'risidagi ishlar ota (ona)ning (ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning) prokurorning, shuningdek, voyaga yetmagan bolalarning huquqlarini himoya qilish majburiyati yuklatilgan organ yoki muassasalarning (vasiylik va homiylik organi, voyaga yetmaganlar ishlari bilan shug'ullanuvchi komissiyalar, yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar muassasalari hamda boshqa muassasalarining) da'vosiga binoan ko'riladi.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilish to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqishda bolaning ta'minoti uchun ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota-onadan (ularning biridan) aliment undirish masalasi hal qilinadi.

Agar sud ota-onalik huquqidan mahrum qilish haqidagi ishlarni ko'rishda ota-ona (ulardan biri)ning harakatida jinoyat alomatlari mavjudligini aniqlasa, bu haqida prokurorga xabar berishi lozim.

Sud ota-onalik huquqidan mahrum qilish haqidagi sudning hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgandan keyin uch kun ichida ushbu qarorning ko'chirmasini bolaning tug'ilganligi davlat tomonidan ro'yxatga olingan fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organiga yuborishi shart.

Sudning qaroriga asosan ota-onalik huquqidan mahrum bo'lgan ota-ona qaysi bolaga (bolalariga) nisbatan ota-onalik huquqidan mahrum qilingan bo'lsa, shu bolaga (bolalariga) nisbatan bo'lgan qarindoshlik faktiga asoslangan barcha huquqlar va imtiyozlardan, jumladan, bolasini (bolalarini) shaxsan tarbiyalashdan, ko'rishib turishdan, kelajakda bolasi (bolalari) voyaga yetganda undan (ulardan) ta'minot olish huquqidan, bolasi (bolalari) vafot etgan taqdirda, meros qoldiruvchining merosxo'ri sifatida qonun bo'yicha meros olish huquqidan, dam olish kunlari mehnatga jalb qilinish cheklanishi imtiyozidan, bola 14 yoshga to'lgunga qadar belgilangan tartibda to'liqsiz ish kuni yoki to'liqsiz ish haftasidan foydalanish huquqidan va boshqalardan mahrum bo'ladi.

Sud bolaning manfaatlarini hisobga olgan, holda ota-onani ota-onalik huquqidan mahrum qilmay turib, bolani ota-onadan (ularning biridan) olish to'g'risida hal qiluv qarori chiqarishi (ota-onalik huquqini cheklashi) mumkin.

Bolani ota-ona (ulardan biri) bilan qoldirish ota-onaga (ulardan biriga) bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra (ruhiyatning buzilishi yoki boshqa surunkali kasallik, og'ir holatlarni boshdan kechirish va boshqalar) bola uchun xavfli bo'lsa, ota-onalik huquqini cheklashga yo'l qo'yiladi.

Agar bolani ota-ona (ulardan biri) bilan qoldirish oqibatida ota-onaning xulq-atvori bola uchun xavf tug'dirsa, ota-onani (ulardan birini) ota-onalik huquqidan mahrum qilish uchun esa yetarli asoslar aniqlanmagan taqdirda ham ota-onalik huquqini cheklashga yo'l qo'yiladi. Agar ota-ona (ulardan biri) o'z xulq-atvorini o'zgartirmasa, vasiylik va homiylik organi sud tomonidan ota-onalik huquqini cheklash to'g'risidagi hal qiluv qarori chiqarilgandan keyin olti oy o'tgach ota-onalik huquqidan mahrum qilish to'g'risida da'vo taqdim etishi shart. Vasiylik va homiylik organi bolaning manfaatlarini e'tiborga olib, ota-onani (ulardan birini) bu muddat o'tmasdan turib, ota-onalik huquqidan mahrum qilish haqida da'vo taqdim etishga haqli.

Ota-onalik huquqini cheklash to'g'risidagi da'vo bolaning yaqin qarindoshlari, voyaga yetmagan bolalar huquqlarini himoya qilish majburiyati qonun bilan zimmasiga yuklatilgan organlar va muassasalar, maktabgacha ta'lim muassasalari, umumta'lim muassasalari va boshqa muassasalar, shuningdek, prokuror tomonidan taqdim etilishi mumkin.

Ota-onalik huquqini cheklash to'g'risidagi ishlar prokuror hamda vasiylik va homiylik organi ishtirokida ko'riladi.

Ota-onalik huquqini cheklash to'g'risidagi ishlarni ko'rishda sud ota-onadan (ularning biridan) bolaning ta'minoti uchun aliment undirish masalasini hal qiladi.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Xoldorova 2003 yil fevral oyida Norov bilan yashab, umumiy ro'zg'or olib borishgan. 2003 yil dekabr oyida u qizlik bo'ladi. Shu yilning 17 avgustida esa Norov suvda cho'kib vafot etadi. Xoldorova otalikni tan olish faktini o'rnatish haqida sudga ariza bilan murojaat etadi.

Uning ko'rsatishicha, marhum uning homiladorlik vaqtida o'zini bolaning otasi ekanligini tan olib, unga ism qo'yganligini bildiruvchi bir necha xatlar ham mavjud.

Xoldorovanning arizasini qondirish mumkinmi?

2. Mirzo Ulug'bek tumani FHDYo bo'limiga 15 yoshga to'lgan Iqbolova noqonuniy tug'ilgan farzandiga tug'ilganlik haqida guvohnoma berilishini so'rab murojaat qildi. FXDYo bo'limi mudirasi Iqbolovanning hali to'la muomala layoqatiga ega emasligini inobatga olib, ota-onasidan nabiralarining tug'ilganligini davlat ro'yxatidan o'tkazishga roziliklari hamda uni tarbiyalashda ishtirok etib, moddiy jihatdan ta'minlashlari xususida yozma rozilik berishlari kerakligini uqtiradi.

Iqbolovanning ota-onasi bunga e'tiroz bildirib, qizlarining qilgan xatti-harakatlari ustidan norozi ekanliklarini bildiradilar va hech qanday moddiy va ma'naviy yordam bera olmasliklarini ta'kidlaydilar.

FHDYo bo'limi mudirasining talablari o'rinlimi? Voyaga yetmagan ota-onaning bolaga nisbatan qanday huquq va majburiyatlari mavjud?

3. 10 yil birga yashashganlaridan so'ng er-xotin Murodovlar nikohdan sud tartibida ajrashdilar. Ularning to'rt nafar voyaga yetmagan bolalari bo'lib, ulardan ikki nafari erda va ikki nafari xotinda qolgan.

Er bilan qolgan farzandlari Madina va Muxtorlar o'zlarining bobo va buvilarini sog'inganliklarini va ular bilan ko'rishish ishtiyoqida ekanligini otasiga aytganida, otasi bunga e'tiroz bildirib, ular bundan keyin hech qachon bobo va buvilari bilan uchrashmasliklarini aytdi. Shundan so'ng sobiq er-xotinlar o'rtasida bolaning ota-onasi va boshqa qarindoshlari bilan ko'rishib turishi xususida nizo kelib chiqdi.

Murodova bolalarining huquqlarini himoya qilish maqsadida qaysi organga murojaat qilishi lozim? Oila kodeksining 66-moddasi normasini sharhlang.

4. Mirzo Ulug‘bek tumani fuqarolik ishlari bo‘yicha tumanlararo sudiga Akilov Shamilni 9 yashar farzandi Maratga nisbatan otalik huquqidan mahrum qilish to‘g‘risida xotini Akilova Liliyadan da‘vo arizasi kelib tushadi. Otalik huquqidan mahrum qilish to‘g‘risidagi da‘vo arizasiga asosan Akilov o‘g‘liga nisbatan o‘ta shafqatsizlarcha munosabatda bo‘lib, uning spirtli ichimliklarni suiiste‘mol qilib, o‘g‘lini har kuni kaltaklashini hamda uni tilamchilikka o‘rgatayotganligini ko‘rsatadi.

Aytingchi, ota-onalar qanday va qaysi asoslar mavjud bo‘lgan holda ota-onalik huquqidan mahrum qilinadilar. Sizningcha, sud qanday hal qiluv qarori qabul qilishi lozim ?

## 8-MAVZU. ALIMENT MAJBURIYATLARI

---

Ota-ona va bolalarning aliment majburiyatlari. Er-xotin va sobiq er-xotinlarning aliment majburiyatlari. Oilaning boshqa a'zolarining aliment majburiyatlari. Alimentni to'lash bo'yicha kelishuv. Aliment to'lash va undirish tartibi. Aliment to'lashdan bosh tortish.

### Ota-ona va bolalarning aliment majburiyatlari

---

Aliment – ota-onaning voyaga yetmagan, muomalaga layoqatsiz, yordamga muhtoj bolalariga, bolalarning ota-onasiga, er-xotinning, qarindoshlar va boshqa shaxslarning bir-biriga qonunga muvofiq beradigan ta'minotidir.

Oilada ota-ona va bolalar o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlar, tabiiyki, bir-biriga yordam ko'rsatish, bir-birini qo'llab-quvvatlash, hamjihatlik hamda ixtiyoriylikka asoslangan bo'lishini taqozo etadi.

Aliment majburiyatlari oila a'zolari o'rtasida sodir bo'ladi.

Bu so'z lotincha “alimentum” so'zidan olingan bo'lib – “oziq-ovqat”, “nafaqa”, “ta'minot”, “boqish uchun mablag'lar” degan ma'nolarni anglatadi. Qisqa qilib aytganda, alimentlar bir shaxsning ikkinchi shaxsga majburan to'laydigan moddiy mablag'laridir.

Oila kodeksining 96-moddasiga binoan, ota-ona voyaga yetmagan bolalariga to'lar 18 yoshga to'lgunga qadar aliment to'lashlari shart. Ushbu modda ota-onaning faqat voyaga yetmagan bolalarga nisbatgina ta'minot berish majburiyatlariga bag'ishlangan bo'lib, o'z bolalarini moddiy jihatdan ta'minlash majburiyatini anglatadi. Bu majburiyat bolaning iste'moli uchun oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechak, turli xil o'yinchoqlar, jismoniy tarbiya mashg'ulotlari bilan shug'ullanish chog'ida kerak bo'ladigan buyumlar, o'quv qurollari xarid qilish shaklida amalga oshiriladi.

Voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj bolalariga aliment to'lash ota-onaning majburiyatidir. Bunday aliment oyma-oy to'lanadi.

Oila kodeksining 100-moddasida ota-onaning voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj bolalariga nisbatan tegishli majburiyatlari belgilab qo'yilgan.

Ota-ona voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj bolalariga ta'minot berishi shartdir.

Voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj bolalariga ta'minot berish ota-onaning kelishuviga binoan amalga oshiriladi. Ota-ona o'rtasida bunday kelishuvga erishilmagan taqdirda, nizo sud tartibida hal qilinadi.

Oila kodeksining 108-moddasiga ko'ra, mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj voyaga yetgan bolalar ota-onasidan, agar ular yo'q bo'lsa, qarindoshlari va Oila kodeksida ko'rsatilgan boshqa shaxslardan o'z ta'minoti uchun aliment talab qilish huquqiga ega. Bunday hollarda aliment miqdori sud tomonidan aliment to'lash shart bo'lgan shaxsning moddiy va oilaviy ahvoli hisobga olinib, pul bilan to'lanadigan qat'iy summada belgilanishi mumkin.

*Voyaga yetgan bolalar 1 yoki 2-guruh nogironi deb topilgan bo'lsalar, so'zsiz, o'z ota-onalaridan aliment olish huquqiga ega bo'ladilar. Lekin 3-guruh nogironligini belgilashda shaxsning mehnat layoqatini anchagina yo'qotgani va bu layoqatning uzoq vaqt davomida pasayib borishi asos bo'ladi. Ammo bunday shaxsning mehnat layoqati to'liq va uzil-kesil yo'qotilmaydi. Voyaga yetgan bolalar 3-guruh nogironi bo'lsalar, aniq vaziyatlar bo'yicha sud aniqlab va o'rganib chiqargan xulosaga qarab, aliment olish huquqi vujudga kelishi mumkin.*

*Oilaga tarbiyaga berilgan bolalar ham o'zlariga tegishli bo'lgan aliment, shuningdek, pensiya, nafaqa va boshqa ijtimoiy to'lovlarni olish huquqlarini saqlab qoladilar. Bu holat "Voyaga yetmagan bolalarni farzandlikka va bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat) to'g'risida"gi Nizomda belgilangan bo'lib, bu Nizom Vazirlar Mahkamasining 1999- yil 12- apreldagi 171-son Qaroriga keltirilgan 3-ilovada o'z tasdig'ini topgan.*

*O'zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenumining "Sudlar tomonidan farzandlikka olish haqidagi ishlar bo'yicha qonunchilikni qo'llash amaliyoti to'g'risida"gi 2013- yil 11- dekabr 21-son Qaroriga muvofiq, farzandlikka olingan bolaning huquqlarini muhofaza etish maqsadida, sud tartibida foydasiga ota-onasidan aliment undirilayotgan bola farzandlikka olinganda, Oila kodeksi 147-moddasining 2-qismiga asosan, ularning aliment to'lash majburiyatlari tugatiladi. Aliment to'lash majburiyatini tugatish aliment to'lovchi shaxsning iltimosiga asosan, sudning ajrimi bilan hal etiladi.*

Farzandlikka olinayotgan bolaning vafot etgan otasining yoki onasining qarindoshlariga nisbatan shaxsiy nomulkiy hamda mulkiy huquq



va majburiyatlari saqlanib qolgan hollarda (Oila kodeksi 165-moddasining 3-qismi) ota-onaning aliment to'lash majburiyatlari tugatilmaydi. Bunday hollarda aliment miqdorini o'zgartirish, uni to'lashdan ozod qilish masalalari manfaatdor shaxslarning arizalariga asosan hal etilishi lozim.

Shuni ham ta'kidlash o'rinliki, 2013-yil 30-apreldagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra kiritilgan qo'shimchalarga muvofiq, voyaga yetmagan bolani ota-onasidan olish va uni bolalar tarbiya muassasasiga joylashtirish to'g'risidagi hal qiluv qarorini chiqarishda sud ota va onaning har biridan mazkur bola foydasiga Oila kodeksining 99-moddasida belgilangan miqdorlarda alimentlar undiradi. Bunda undirilgan alimentlar mazkur bola nomiga ochilgan bank hisob varag'ida jamlanadi va u voyaga yetganda to'lanadi.

Oila kodeksining 109-moddasiga binoan, voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalar mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj o'z ota-onasiga ta'minot berishlari va ular to'g'risida g'amxo'rlik qilishlari shart.

Ota-onaning mehnatga layoqatsizligi, shuningdek, oiladagi boshqa a'zoning mehnatga layoqatsizligi ularning pensiya yoshiga yetganligi (ayollar 55 yoshga va erkaklar 60 yoshga to'lganligi) yoki I va II guruh nogironlari ekanligini anglatadi. Ota-onaning III guruh nogironi bo'lganligi TMEK (tibbiy-mehnat ekspert komissiyasi)ning tegishli xulosasida tavsiya etilgan ishni topa olmaganlari taqdirda, ularga o'z bolalaridan ta'minot olish huquqini beradi.

Oila kodeksining 111-moddasiga binoan, voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalar ota-onasining kasalligiga va boshqa uzrli sabablarga ko'ra qilinadigan qo'shimcha xarajatlarda ishtirok etishlari shart.

Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalar tomonidan qo'shimcha xarajatlar ixtiyoriy ravishda qoplanmasa, talab qilinayotgan summa sud tartibida undirilishi mumkin.

Oila kodeksining 112-moddasiga binoan, aliment undirish to'g'risidagi nizo uzil-kesil hal etilgunga qadar, sudya shu nizo bo'yicha unda belgilangan miqdorda vaqtincha aliment undirish to'g'risida ajrim chiqarishi mumkin. Agar sud nikohdan ajratishda ishning ko'rilishini keyinga qoldirib, er-xotinga yarashish uchun muddat berganda, "Sudlar tomonidan nikohdan ajratishga oid ishlar bo'yicha qonunchilikni qo'llash amaliyoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenumining 2011-yil 20-iyul 6-sonli Qaroriga ko'ra, Oila kodeksi 112-moddasiga muvofiq bolalar ta'minoti uchun aliment undirish masalasini muhokama qilishga haqlidir.

Bola tug‘ilmasidan avval ham uning normal rivojlanishini ta’minlash maqsadida, shuningdek, tug‘ilish arafasida ham muhtoj onaga otasi ekanligi isbotlangan, ammo ixtiyoriy yordam berishdan bosh tortgan shaxsdan moddiy ta’minot undirish to‘g‘risida ajrim (qaror) chiqarilishi mumkin. Bunda moddiy ta’minlash miqdori, sudning ajrimi (qarori) bilan, ta’minot berish majburiyati ehtimol tutilayotgan shaxsdan ma’lum summada undirilishi mumkin.

### **Er-xotin va sobiq er-xotinlarning aliment majburiyatlari**

---

Er-xotinning aliment yuzasidan huquq va majburiyatlari, ya’ni bir-birlariga moddiy ta’minot berish majburiyatlari mulkiy huquq va majburiyatlar turlaridan biri hisoblanadi. Bu masala bo‘yicha jinsiy holat hech qanday imtiyoz belgilamaydi.

Er-xotinlar va sobiq er-xotinlarning aliment majburiyatlari Oila kodeksi XV bobining 117-121-moddalari bilan tartibga solinadi.


Agar er va xotin xoxlasalar, Oila kodeksining 31-moddasiga muvofiq, nikoh shartnomasida o‘zaro moddiy ta’minot berish bo‘yicha huquq va majburiyatlar belgilashi yoki aliment to‘lash to‘g‘risida kelishuv tuzishlari mumkin (Oila kodeksining 130-moddasi).

Agar aliment to‘lash uchun er-xotin o‘rtasida kelishuv tuzilmagan bo‘lsa, manfaatdor er (xotin) tegishli da’vo bilan sudga murojaat qilishi mumkin.

Oila kodeksining 117-moddasida er-xotinning bir-biriga moddiy ta’minot berish majburiyatlari belgilangan. Unga muvofiq, er-xotin bir-biriga moddiy yordam berishi shart. Bunday yordam berishdan bosh tortilgan taqdirda, yordamga muhtoj, mehnatga layoqatsiz er yoki xotin, shuningdek, xotin homiladorlik davrida va o‘rtada bola tug‘ilgan kundan boshlab uch yil davomida, o‘rtadagi nogiron bola o‘n sakkiz yoshga to‘lguncha yoki bolalikdan I guruh nogironi bo‘lgan o‘rtasidagi bolaga qaragan yordamga muhtoj er (xotin) yordam berishga qodir bo‘lgan xotin (er)dan sud tartibida ta’minot (aliment) olish huquqiga ega.

Erkak va ayol o‘rtasidagi rasman qayd etilgan nikoh mavjud bo‘lmagan paytda, bu holat (qonuniy nikoh munosabatida bo‘lmaganlari sababli) ularning biriga boshqasidan tegishli moddiy yordam berishni talab qilish huquqini bermaydi. Bu qoida mutlaq tusga ega bo‘lib, erkak va ayolning amalda qancha vaqt nikoh munosabatlarida bo‘lganiga bog‘liq bo‘lmaydi.

Oila kodeksining 119-moddasiga asosan, er yoki xotinga beriladigan ta'minot mablag'ining miqdori sud tomonidan ta'minot to'lovchining va oluvchining moddiy va oilaviy ahvolini hisobga olgan holda, har oyda to'lanadigan qat'iy summada belgilanadi.



Er yoki xotinning moddiy ta'minot bo'yicha nafaqa olish yoki berish majburiyati: aliment undirish uchun zarur bo'lgan sharoitlar tugashi bilan; er yoki xotinning mehnat qobiliyati tiklanishi bilan (agar mehnatga layoqatsizlik nogironlik tufayli sodir bo'lgan bo'lsa); muhtojlik tugashi (chunonchi, davlatdan pul yordami olish, pensiya, meros olish hamda boshqa manbalardan yashash uchun mablag' olish tufayli aliment olayotgan tomonning moddiy holati yaxshilanishi) bilan, shuningdek, aliment to'lovchi tomonning ta'minot berish imkoniyati bo'lmay qolishi bilan tugaydi.

Aliment olayotgan shaxsning nikohdan ajralib, yangi nikohga o'tishi ham aliment to'lashning tugashiga asos bo'ladi. Chunki nikoh tuzish munosabati bilan u ikkinchi tomondan moddiy ta'minot olish imkoniga ega bo'ladi.

Oila kodeksining 118-moddasiga muvofiq, yetarli mablag'ga ega bo'lgan sobiq er (xotin)dan:

-sobiq xotin homiladorlik davrida va o'rtada bola tug'ilgan kundan boshlab uch yil davomida;

-o'rtadagi nogiron bola o'n sakkiz yoshga to'lguncha yoki bolalikdan I guruh nogironi bo'lgan bolaga qaragan yordamga muhtoj sobiq xotin (er);

-nikohdan ajralgunga qadar yoki nikohdan ajralgan paytdan boshlab bir yil davomida mehnatga layoqatsiz bo'lib qolgan yordamga muhtoj sobiq xotin (er);

-shuningdek, nikohdan ajralgan paytdan boshlab besh yil ichida pensiya yoshiga yetgan yordamga muhtoj xotin (er), agar er-xotin uzoq vaqt nikohda turishgan bo'lsa, sud tartibida aliment talab qilish huquqiga egadir. Nikohdan ajralgandan keyin sobiq er yoki xotinga to'lanadigan aliment miqdori va uni to'lash tartibi sobiq er-xotin o'rtasidagi kelishuv bilan belgilanishi mumkin.

Oila kodeksining 146-moddasiga muvofiq, sud taraflardan har birining talabiga ko'ra alimentning belgilangan miqdorini o'zgartirishga yoki aliment to'lashi shart bo'lgan shaxsni aliment to'lashdan ozod qilishga haqli hisoblanadi.

Er-xotin o'rtasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlar ular o'rtasidagi mulkiy munosabatlarning barqaror bo'lishiga, oilani mustahkamlashga xizmat qiladi. Er-xotin o'rtasida vujudga keladigan nizolarni to'g'ri hal qilish alohida ahamiyatga molikdir. Bu nizolar sudlar tomonidan adolatli asosda hal qilinishi lozim.

### **Oilaning boshqa a'zolarining aliment majburiyatlari**

---

Oila qonunchiligida agar ota-onalar o'zlarining voyaga yetmagan bolalariga qonunda nazarda tutilgan sabablarga ko'ra moddiy ta'minot berishga qodir bo'lmasalar, voyaga yetmagan bolalarga, shuningdek, voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj shaxslarga ta'minot berish majburiyati sud tomonidan ularning qarindoshlari: bobo, buvi, nevara, aka-uka, opa-singil, qolaversa, o'gay ota va o'gay ona, o'gay o'g'il va o'gay qiz, doimiy tarbiyada bo'lgan shaxslar zimmasiga yuklatilishi mumkin.

Oila kodeksining 123-moddasiga binoan, ota-onasi yo'q bo'lgan yoki ulardan ta'minot ololmaydigan voyaga yetmagan nevaralariga ta'minot berish majburiyati yetarli mablag'ga ega bo'lgan bobo va buvi zimmasiga yuklatilishi mumkin.

Bobo va buvi nevaralari bilan ularga moddiy ta'minot to'lash to'g'risida kelishuv tuzishlari mumkin. Bunday kelishuvga Oila kodeksi XVII bobining qoidalari tatbiq etiladi. Kelishuv tuzilgan taqdirda, aliment miqdori, shartlari va to'lash tartibi belgilanadi.

Bobo va buvining aliment majburiyatlari aliment to'lovchilarning ikkinchi navbatdagi a'zolariga kirib, agar ular aliment to'lovchilarning birinchi navbatdagilaridan, yani ota-onasidan ta'minot ololmaydigan bo'lsa, ularga yuklatiladi.

Bobo va buvilarning nevaralar bilan yaqin qon-qarindoshlik munosabatlarini hisobga olib, ular o'rtasidagi aliment majburiyatlari belgilanadi. Nevaralarning aliment majburiyatlari shu turdagi huquqiy munosabatlarning ikkinchi navbatiga kiradi. Bobo yoki buvi uchun aliment faqat birinchi navbatdagi aliment majburiyatidagi shaxslardan – o'zlarining voyaga yetgan bolalaridan, er-xotinlar va sobiq er-xotinlardan undirish imkoni bo'lmasa, u holda nevaralardan undiriladi.

Bobo va buvi uchun undiriladigan moddiy ta'minot nevaralarning moddiy holatini pasaytirib qo'yimasligi lozim.

Aliment to'lovchi nevaralardan biriga da'vo qilinganda, bu da'volar boshqa aliment to'lovchi nevaralarni, shuningdek, boshqa ikkinchi navbatdagi aliment to'lovchilarni ham hisobga olishi lozim.

Bobo va buvi bilan nevaralar o'rtasida aliment to'lash to'g'risida o'zaro kelishuv bo'lmagan taqdirda, bobo va buvi foydasiga nevaralardan aliment undirish sud tartibida qonun asosida hal qilinadi.

Aka-uka va opa-singillar aliment to'lash to'g'risida o'zaro kelishuv tuzishlari mumkin. Bunday kelishuvga Oila kodeksining XVII bobi qoidalari tatbiq etiladi. Kelishuvning shartlari, tartibi va alimentning miqdori shu kelishuv bilan belgilanadi.

Kelishuv bo'lmasa, aliment olish huquqi voyaga yetgan mehnatga layoqatli aka-uka va opa-singillardan faqat aliment undirish huquqiga ega bo'lgan voyaga yetmagan muhtoj va voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz muhtoj aka-ukalar va opa-singillarda saqlanadi.

Oila kodeksining 126-moddasiga binoan, mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj eri yoki xotini (sobiq eri yoki xotini) yoki voyaga yetgan mehnatga layoqatli bolalari bo'lmagan yoxud ulardan ta'minot uchun mablag' ololmaydigan, amalda ularni tarbiyalaganlarga ta'minot berish majburiyati ularning doimiy tarbiyasi va ta'minotida bo'lgan shaxslar zimmasiga yuklatilishi mumkin. Bunday majburiyat vasiylikda (homiylilikda) turgan shaxslar zimmasiga yuklatilmaydi.

Mehnatga layoqatli doimiy tarbiyada bo'lganlardan doimiy tarbiyaga olganlarga undiriladigan aliment tartibi va uning hajmi taraflarning yozma kelishuvi bilan belgilanadi (Oila kodeksining 130-moddasi).

Sud tarbiyada bo'lganlarni, agar ular tarbiyachilarning tarbiyasi va ta'minotida besh yildan kam turgan bo'lsa, qonunda ko'rsatilgan majburiyatdan ozod qilishga haqli.

Tarbiyalanuvchini aliment to'lashdan ozod qilish sudning majburiyati bo'lmay, balki huquqidir. Shuning uchun sud ishni ko'rishda hamma holatlarni hisobga olib, uni hal qiladi.

Oila kodeksining 127-moddasida mustahkamlab qo'yilganidek, o'gay ota yoki o'gay onaning tarbiyasida yoki ta'minotida bo'lgan voyaga yetmagan o'gay o'g'il va o'gay qizlarning ota-onasi yo'q bo'lsa yoxud o'z ota-onasidan yetarli mablag' ololmayotgan bo'lsa, ularga ta'minot berish majburiyati o'gay ota yoki o'gay ona zimmasiga yuklatilishi mumkin.

Bu aliment majburiyati qon-qarindoshlik munosabatiga asoslangan bo'lmay, o'gay ota yoki o'gay ona tomonidan o'gay bolalarni tarbiyalaganlik yoki ta'minlaganlik yuridik faktiga asosan kelib chiqadi.

O'gay bolalarga o'gay ota yoki o'gay ona tomonidan tarbiya va ta'minot berilganlik yuridik fakti ularning bir oilada birga yashaganliklari bilan tasdiqlanishi mumkin. Aliment majburiyatini belgilash uchun o'gay ota yoki o'gay ona bilan o'gay bolalarning uzoq vaqt birga yashagan bo'lishlari shart emas.

O'gay ota yoki o'gay ona bilan o'gay bolalar o'rtasidagi aliment majburiyati ta'minot berish uchun majbur bo'lgan boshqa qarindoshlar bo'lmagan holda vujudga keladi.

Oila kodeksining 128-moddasiga binoan, mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj o'gay ota yoki o'gay onaning ota-onasi, eri yoki xotini (sobiq eri yoki xotini) yoki voyaga yetgan mehnatga layoqatli bolalari bo'lmasa yoxud ulardan ta'minot uchun mablag' ololmasa, ularga ta'minot berish majburiyati o'gay o'g'il va o'gay qizlar zimmasiga yuklatilishi mumkin.

O'gay bolalarning o'gay ota, o'gay onaga aliment berish majburiyati belgilangan bo'lib, u o'z mazmuniga ko'ra, amaldagi Oila kodeksining 127-moddasida belgilanganidek, bolalarning o'z ota-onasiga ta'minot berish majburiyatlariga o'xshashdir.

O'gay bolalarda o'gay ota-onaga aliment to'lash majburiyatining kelib chiqishi uchun, birinchidan, o'gay ota yoki o'gay onaning o'z ota-onasi, eri yoki xotini (sobiq eri yoki xotini) hamda voyaga yetgan mehnatga layoqatli bolalari bo'lmasligi yoxud ulardan qandaydir sabablarga ko'ra ta'minot uchun mablag' olishlari mumkin bo'lmasligi, ikkinchidan, ta'minot talab qiluvchi o'gay ota, o'gay ona mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj bo'lishi shart.

Aliment to'lovchi bolalarning o'zi voyaga yetgan mehnatga layoqatli va ta'minot berish imkoniyatiga ega bo'lishlari shart. Bu talablar ham aliment majburiyatini belgilashda zaruriy shart hisoblanadi.

Quyidagi hollarda sudga o'gay o'g'il va o'gay qizni mehnatga layoqatsiz yordamga muhtoj o'gay ota yoki o'gay onaga ta'minot berish majburiyatidan ozod qilish huquqi berilgan. Bular jumlasiga o'gay o'g'il

va o'gay qizning tarbiyasi va ta'minoti uncha uzoq davom etmagan (ya'ni, 5 yildan kam muddatni tashkil etgan) bo'lishi, shuningdek, o'gay ota yoki o'gay ona o'gay o'g'li va o'gay qizini tarbiyalash yoki unga ta'minot berish borasidagi o'z majburiyatlarini lozim darajada bajarmaganligi kiradi.

### **Aliment to'lash bo'yicha kelishuv**

---

Aliment to'lash to'g'risidagi kelishuv Oila kodeksining 130-134-moddalari bilan tartibga solinadi.

Oila kodeksining 130-moddasiga muvofiq, aliment to'lash to'g'risidagi kelishuv (aliment miqdori, shartlari va to'lash tartibi) aliment to'lashi shart bo'lgan shaxs bilan aliment oluvchi o'rtasida tuziladi. Agar aliment oluvchi muomalaga layoqatsiz bo'lsa, kelishuv uning qonuniy vakili bilan tuziladi.

14 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlar hamda sud tartibida muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslar nomidan kelishuv ularning qonuniy vakillari (voyaga yetmaganlarning ota-onalari, vasiylari, homiylari) tomonidan tuziladi. 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlar hamda muomalaga layoqati sud tartibida cheklangan shaxslar o'z qonuniy vakillarining roziligi bilan aliment to'lash to'g'risida kelishuv tuzadilar.

Kelishuvni yozma ravishda tuzish, uni notarial tarzda tasdiqlash sharti belgilangan. Notarial tartibda tasdiqlanmagan aliment to'lash to'g'risidagi kelishuv haqiqiy hisoblanmaydi.

Notarial tasdiqlangan kelishuv o'z ijro kuchiga ko'ra ijro varaqasiga tenglashtiriladi. Bu aliment maoshdan ushlab qolinishi uchun boshqa hujjatlarni ko'rsatish talab qilinmasligini bildiradi. Notarial tasdiqlangan kelishuvni jo'natish, hisobga olish va saqlashga nisbatan ijro varaqalarini jo'natish, hisobga olish va saqlash qoidalari qo'llaniladi.

Aliment to'lash to'g'risidagi kelishuvni tuzish, ijro etish, bekor qilish va haqiqiy emas deb topish Fuqarolik kodeksi bilan tartibga solinadi.

Aliment to'lash to'g'risidagi kelishuvlar Fuqarolik kodeksining 150-moddasida belgilangan da'vo qo'zg'atish muddati doirasida e'tiborsiz qoldirilishi ham, rad etilishi ham mumkin.

Yuqorida qayd etilganidek, Oila kodeksining XVI bobiga ko'ra, aliment kelishuvlarini quyidagilar: ota-onalar o'zlarining voyaga yetmagan bolalarini ta'minlash to'g'risida; ota-onalar yordamga muhtoj, mehnatga layoqatsiz voyaga yetgan farzandlarini ta'minlash to'g'risida; mehnatga

layoqatli farzandlar o'zlarining mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj ota-onalarini ta'minlash to'g'risida; er-xotinlar ulardan biri mehnatga layoqatsiz, muhtoj bo'lgan hollarda; sobiq er-xotinlar – nikoh mavjudligi davrida ham, ular nikohdan ajralganidan keyin ham; shunday bitim tuzishlari mumkin bo'lgan aka-ukalar va opa-singillar; bobolar va buvilar nevaralari bilan o'zlarini ta'minlash to'g'risida; kelishuv tuzish huquqiga ega nevaralar bobolari va buvilarini ta'minlash to'g'risida; voyaga yetgan amaldagi tarbiyalanuvchilar o'zlarining sobiq amaldagi tarbiyachilarini ta'minlash to'g'risida; voyaga yetgan asrandi o'g'illar va qizlar o'gay otalari va o'gay onalarini ta'minlash to'g'risida; o'gay ota yoki o'gay onaning o'gay o'g'il va o'gay qizlariga, shuningdek, o'gay o'g'il va o'gay qizlarning o'gay ota yoki o'gay onaga ta'minot to'lash to'g'risida tuzishlari mumkin.

Oila kodeksining 145-moddasida xorijiy davlatga doimiy istiqomat qilish uchun jo'nab ketayotgan shaxs bilan aliment to'lash to'g'risida kelishuv tuzish mumkinligi nazarda tutilgan. Bu kelishuvda tomonlar aliment olish huquqiga ega bo'lgan shaxslarni ta'minlashning har qanday usulini ko'zda tutishga haqlidirlar.

*Aliment miqdori, uni to'lash usuli va tartibi.* Kelishuvga muvofiq, voyaga yetmagan bolalar uchun belgilanadigan aliment miqdori ular sud tartibida undirganda olishi mumkin bo'lgan aliment miqдорidan kam bo'lmasligi kerak. Bu miqdor Oila kodeksining 99-moddasiga asosan belgilab qo'yilgan va bir bola uchun eng kam oylik ish haqi va (yoki) boshqa daromadning  $\frac{1}{4}$  qismini, ikki bola uchun  $\frac{1}{3}$  qismini va uchta hamda undan ortiq bola uchun  $\frac{1}{2}$  qismini tashkil qiladi.

Bunda alimentlar ish haqi yoki boshqa daromadga nisbatan hissada, aytaylik, har oyda yoki har chorakda to'lanadigan qat'iy pul miqdorida va boshqa usullarda to'lanishi nazarda tutiladi.

*Aliment miqdorini indekslash tartibi.* Indeksdashning eng keng tarqalgan usuli – aliment miqdorini eng kam ish haqiga yoki chet el valyutasi kursiga bog'liq qilib qo'yishda ifodalanadi.

*Aliment kelishuvini o'zgartirish va bekor qilish tartibi.* Kelishuv, tomonlarning o'zaro kelishuviga binoan, istalgan paytda o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin. Shuning uchun ham kelishuv tuzilgan tartibda amalga oshirilishi kerak.

Tomonlarning moddiy yoki oilaviy ahvoli jiddiy ravishda o'zgargan hamda aliment kelishuvini o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risida kelishuvga erishilmagan holatlarda manfaatdor tomon ushbu kelishuvni o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risidagi da'vo bilan sudga murojaat qilish huquqiga ega.



## Aliment to‘lash va undirish tartibi

---

Oila kodeksining 135-moddasiga binoan, aliment to‘lashi shart bo‘lgan shaxs alimentni ixtiyoriy ravishda shaxsan yoki o‘z arizasiga muvofiq ishlab turgan joyida yoxud pensiya, nafaqa, stipendiya va boshqa turdagi mablag‘ olayotgan joyida to‘laydi.

Amaldagi oila qonunchiligida aliment bo‘yicha nizo bo‘lmagan hollarda, uni ixtiyoriy ravishda to‘lashning umumiy tartiblari belgilangan.

Qonunga asosan, ixtiyoriy tartibda mablag‘, bolalar bilan bir qatorda, qonun bilan belgilangan hollarda er-xotindan biriga, ota-onalarga, aka-uka, opa-singil va boshqa qarindoshlarga ham berilishi mumkin. Qonun voyaga yetmagan bolalarning manfaatlarini alohida himoya qiladi.

Aliment to‘lovchining arizasiga muvofiq ish joyidagi yoxud u pensiya, nafaqa, stipendiya olayotgan joydagi ma‘muriyat orqali to‘lanishi mumkin.

Ixtiyoriy tartibda to‘lanayotgan aliment nafaqat bolalar va er-xotinlarning, shuningdek, qarindoshlar va boshqa shaxslarning ham aliment majburiyatlari hisoblanadi.

Alimentning ixtiyoriy ravishda to‘lab turilishi aliment undiruvchini xohlagan vaqtda aliment undirish haqida ariza bilan sudga murojaat qilish huquqidan mahrum etmaydi.

Alimentni sud tartibida undirish – Oila kodeksining 96-129-moddalarida belgilanganidek, oila a‘zolarining va boshqa shaxslarning aliment majburiyatlari to‘g‘risida, aliment to‘lash to‘g‘risida kelishuv bo‘lmasa, u holda aliment to‘lash to‘g‘risida sudga da‘vo bilan murojaat etish mumkin.

Oila kodeksining 136-moddasida alimentni sud tartibida undirishga oid qoidalar belgilab qo‘yilgan.

Aliment olish huquqiga ega bo‘lgan shaxs aliment talab qilish huquqi vujudga kelganidan so‘ng qancha muddat o‘tganidan qat‘i nazar, xohlagan vaqtda aliment undirish to‘g‘risidagi talab bilan sudga murojaat qilishga haqlidir.

Aliment da‘vo taqdim etilgan kundan boshlab undiriladi.

Aliment undirishning sud tartibi aliment talab etish huquqiga ega bo‘lgan voyaga yetmagan bolalar manfaati va boshqa oila a‘zolarining huquqlarini himoya qiluvchi kafolat hisoblanadi.

Aliment undirish huquqi qachon vujudga kelganidan va undan keyin qancha muddat o‘tgan bo‘lishidan qat‘i nazar, aliment olishga haqli bo‘lgan shaxs yoki uning vakili xohlagan vaqtida sudga murojaat qilishga haqlidir.

*Aliment undirish bilan bog'liq ishlar fuqarolik sudlarida da'vo tartibida yoki sud buyrug'i chiqarish yo'li bilan ham ko'rilishi mumkin. Shunga ko'ra, alimentni sud tartibida undirib olishga oid tartib Fuqarolik-prostessual huquqida ham o'z aksini topgan, deyishimiz mumkin. Agar voyaga yetmagan bolalar uchun alimentlar undirish haqidagi otalikni belgilash bilan yoki uchinchi shaxslarni jalb etish zarurati bilan bog'liq bo'lmagan talab arz qilingan bo'lsa, sud buyrug'i chiqarilishi mumkin. Sud buyrug'i chiqarish haqidagi talab O'zbekiston Respublikasi FPKning 145-moddasida belgilangan sudlovga taalluqlilikning umumiy qoidalariga amal qilingan holda sudga beriladi. Shu bilan birga voyaga yetmagan farzandning ta'minoti uchun aliment undirish haqidagi talab undiruvchi yashayotgan joydagi sudga, ijro qilish joyi ko'rsatilgan notarial tasdiqlangan bitimga asoslangan talab ushbu talab bajarilishi lozim bo'lgan joydagi sudga taqdim qilinishi ham mumkin. Aliment sudga murojaat etilgan paytdan boshlab undiriladi.*

*Oila qonunchiligi talabiga ko'ra, voyaga yetmagan bolalar uchun aliment undirish haqidagi talab ota-onalarning biri yoki har ikkalasidan, boshqa ota-onalar, farzandlikka oluvchi, bolaning vasiy yoki homiyi yoxud bolalarni tarbiyalash muassasasi ma'muriyati tomonidan ham berilishi mumkin. ("Buyruq tartibida ish yuritishni tartibga soluvchi qonun normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenumining 2006-yil 3-fevraldagi 4-sonli qarori).*

Oila kodeksining 139-moddasiga binoan, aliment qarzi aliment to'lashi shart bo'lgan shaxsning ish haqi va (yoki) boshqa daromadidan undiriladi. Ish haqi va (yoki) boshqa daromad yetarli bo'lmaganda, aliment to'lashi shart bo'lgan shaxsning banklar va boshqa kredit tashkilotlaridagi hisob varaqalarida turgan pul mablag'idan, tijorat va notijorat tashkilotlariga shartnoma asosida o'tkazilgan pul mablag'idan undiriladi (mulk huquqining o'tishiga olib keluvchi shartnomalar bundan mustasno).

Aliment qarzi aliment to'lashga majbur shaxsning hamma daromadidan undiriladi.

Oila kodeksining aliment undirishga qaratilgan tartibi Fuqarolik kodeksida belgilangan tartibda hamda FPKda belgilangan tartib va navbat asosida amalga oshiriladi.

Dastlab aliment xodimning asosiy ish joyida oladigan maoshidan, keyin uning bank yoki boshqa kredit muassasalaridagi mablag'laridan undiriladi.

Aliment to‘lash to‘g‘risidagi notarial tartibda tasdiqlangan kelishuv yoki ijro varaqasi asosida o‘tgan davrdagi aliment qarzi ijro yoki aliment to‘lash to‘g‘risidagi kelishuv aliment undirish uchun taqdim qilingunga qadar o‘tgan uch yildan ortiq bo‘lmagan muddat uchun undiriladi.

Amaldagi qonun undan ortiq muddat uchun ham istisno tariqasida aliment undirilishi mumkinligini belgilaydi.

Alimentlar ijro varaqasi yoki aliment to‘lash to‘g‘risidagi notarial tartibda tasdiqlangan kelishuv bo‘yicha aliment to‘lashi shart bo‘lgan shaxsning aybi bilan undirilmagan bo‘lsa, qonunda ko‘rsatilgan uch yillik muddatdan qat’i nazar, o‘tgan barcha vaqt uchun undiriladi.

Aliment O‘zbekiston Respublikasi hududida va uning tashqarisida pul yoki natura tarzida olingan barcha turdagi daromadlardan ushlab qolinadi.

Chet el valutasida olinadigan daromadlar aliment undiriladigan kunda amalda bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy kursi bo‘yicha so‘mlarda hisoblanadi.

Shuni e‘tiborga olishimiz zarurki, aliment olayotgan shaxsning vasiylari yoki homiylari bo‘lsa, “Vasiylik va homiylik to‘g‘risida”gi 2014- yil 2- yanvardagi 364-sonli Qonunga binoan, bu vasiy yoki homiy alimentlar, pensiyalar, nafaqalar hamda qonun hujjatlariga muvofiq boshqa ijtimoiy to‘lovlar to‘lashni talab qilish yuzasidan zarur choralar ko‘rishga majburdir.

### **Aliment to‘lashdan bosh tortish**

---

Oila kodeksining 142-moddasiga binoan, aliment to‘lash to‘g‘risidagi kelishuvga muvofiq, aliment to‘lashi shart bo‘lgan shaxsning aybi bilan qarz vujudga kelgan bo‘lsa, aybdor shaxs ushbu kelishuvda belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

Aliment to‘lash to‘g‘risidagi kelishuv tuzuvchi taraflar mustaqil ravishda alimentni tegishli ravishda bajarmaganlik uchun javobgarlik belgilashlari mumkin. Agar aliment to‘lash to‘g‘risidagi kelishuvda tegishli ravishda bajarmaganlik uchun javobgarlik belgilanmagan bo‘lsa, u holda bu amaldagi qonunlar asosida hal qilinadi.

Aliment majburiyatini bajarmaganlik uchun belgilangan javobgarlik javobgarining alimentni o‘z vaqtida to‘lanishini ta‘minlashiga va uning to‘xtab qolishi bilan bog‘liq holatlarning oldini olishga xizmat qiladi. Aliment majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarmaslik uchun javobgarlik

Fuqarolik kodeksining XXIV bobi qoidalari bilan tartibga solinadi. Aliment to'lovchining aybli xatti-harakati keltirilgan zararni va neustoykani to'lash uchun asos hisoblanadi. Qarz paydo bo'lishida uning aybi bo'lmasa, bunday choralar qo'llanilmaydi.

Oila kodeksi 142-moddasining 2-qismiga muvofiq, sudning hal qiluv qaroriga ko'ra aliment to'lashi shart bo'lgan shaxsning aybi bilan qarz vujudga kelgan bo'lsa, aybdor shaxs kechiktirilgan har bir kun uchun to'lanmay qolgan aliment summasining o'ndan bir foizi miqdorida aliment oluvchiga neustoyka to'laydi.

Ayni paytda shuni ham unutmaslik joizki, aliment olishga haqli shaxs o'z huquqlari buzilmagan taqdirda ham odatdagi fuqarolik muomala sharoitida olishi mumkin bo'lgan, ammo ololmay qolgan daromadlari (boy berilgan foyda)ni talab qilishga haqlidir. Agar aliment to'lash majburiyatini buzgan shaxs shu buzish oqibatida daromad olgan bo'lsa, huquqi buzilgan shaxs boshqa zararni to'lashni talab qilish bilan bir vaqtda boy berilgan foydaning bunday daromaddan kam bo'lmagan miqdorda to'lanishini talab qilishga haqli hisoblanadi (Fuqarolik kodeksining 14-moddasi). Oila kodeksining 141-moddasi talablaridan kelib chiqib, sud hujjatida belgilangan miqdordagi aliment qarzlarni to'lashdan to'la yoki qisman ozod etishga faqat sud tartibida yo'l qo'yiladi.

Har bir bola uchun undiriladigan aliment miqdori qonun hujjatlari bilan belgilangan eng kam ish haqining uchdan bir qismidan kam bo'lmasligi kerak.

Amaldagi qonunda voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlaganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 122-moddasiga binoan, moddiy yordamga muhtoj bo'lgan voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxsni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash, ya'ni ularni moddiy jihatdan ta'minlash uchun sudning hal qiluv qaroriga binoan undirilishi lozim bo'lgan mablag'ni uch oydan ortiq muddat mobaynida to'lamaslik eng kam oylik ish haqining ellik barobarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud olti oygacha qamoq bilan jazolanadi.

*Qonunchilikka ko'ra, voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash deb, shaxsning sud hujjatida belgilangan aliment miqdorini to'liq hajmda to'lamasligi holati ham tushunilishi lozimligi "Sud hujjatlarini bajarishdan bo'yin tovlash va ularning ijro etilishiga to'sqinlik qilish uchun jinoiy javobgarlikka doir qonunlarni qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi Oliy sud*

*Plenumining 2009-yil 10-apreldagi 7-sonli qarorida, O‘zbekiston Respublikasining “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida”gi Qonunida hamda sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etishdan bo‘yin tovlagan jismoniy shaxslarni O‘zbekiston Respublikasi hududidan chiqish huquqlarini vaqtincha cheklash haqidagi nizom asosida tartibga solinadi.*

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Ota-ona va bolalarning mulkiy huquq va majburiyatlari. Ota-ona va bolalarning alohida mol-mulki. Ota-ona va bolalarning umumiy mol-mulki.

2. Bolalarning oiladagi xususiy mulki. Ota-ona va bolalarning mulkiy nizolarini hal qilish tartibi qanday?

3. Sobirov Toshkent shahar Hamza tumani fuqarolik ishlari bo‘yicha sudining hal qiluv qaroriga binoan 4 yoshli o‘g‘li uchun u 18 yoshga to‘lguniga qadar har oyda oylik ish haqining 1/4 qismi miqdorida aliment to‘laydigan bo‘ldi. Sobirovning xotini o‘g‘li Rustamning og‘ir betoblighi va u kasalxonada olti oydan ortiq muddat bo‘lishi lozimligi, bolaning to‘liq ravishda ovqatlanishi, unga alohida parvarish lozim ekanligini asosli qilib ko‘rsatib, suddan farzandi uchun eridan qo‘shimcha ravishda aliment undirib berishni so‘raydi.

Sobirov farzandi uchun to‘layotgan aliment miqdori qaysi hollarda va qancha miqdorda undirib berilishi mumkin? Ota-onalar farzandlarining qo‘shimcha sarf-xarajatlarida qanday ishtirok etishlari kerak? Da‘vogarning da‘vosi qanoatlantiriladimi? O‘g‘lining qo‘shimcha sarf-xarajatlarida Sobirovning ishtiroki qanday va qancha miqdorda bo‘lishi kerak?

4. Javlonov Mamat voyaga yetguniga qadar bobo va buvisining tarbiyasida bo‘lgan. Vaqt o‘tgan sari bobo va buvisining sog‘ligi yomonlasha boradi. Shunda ular nabiralaridan moddiy yordam berishini so‘raganlarida, u moddiy yordam berishdan butunlay bosh tortadi.

Aytingchi, Javlonov Mamatning moddiy yordam berishdan bosh tortishi o‘rinlimi? Qaysi hollarda nevaralar bobo va buvilariga ta‘minot berish majburiyatini oladilar?

## **9-MAVZU. OTA-ONA QARAMOG‘IDAN MAHRUM BO‘LGAN BOLALARNI ANIQLASH VA JOYLASHTIRISH**

---

Ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish. Ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan voyaga yetmagan bolalarning mulkiy huquqlari. Voyaga yetmaganlarning shaxsiy nomulkiy huquqlari. Ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni aniqlash va hisobga olish. Ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni joylashtirish.

### **Ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish**

---

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 64-moddasining ikkinchi qismida davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarining vasiyligidan mahrum bo‘lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o‘qitishni ta‘minlaydi, bolalarga bag‘ishlangan xayriya faoliyatlarni rag‘batlantiradi, deb belgilangan. O‘z kelajagi haqida qayg‘uradigan har qanday davlat va jamiyat, albatta, farzandlar ta‘lim-tarbiyasi, ularni har tomonlama komil inson bo‘lib voyaga yetishi va tarbiyalanishlariga alohida e‘tibor qaratadi. Bu borada mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, erishilayotgan yutuqlar hech bir insonni befarq qoldirmaydi.

Aytish joizki, voyaga yetmagan bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar mavjud huquqiy tizim har tomonlama mukammalini namoyon qiladi, shu bilan birga, milliy urf-odat va an‘analarimizga mos ravishda voyaga yetmaganlarga ta‘lim-tarbiya berishga imkon beradi. Zero yurtboshimiz ta‘kidlaganidek, bizning vazifamiz, kerak bo‘lsa, oliy burchimiz – farzandlarimizning ham jismoniy, ham ma‘naviy jihatdan uyg‘un rivojlangan, zamonaviy bilim va tajribalarni puxta egallagan, Vatanimiz va xalqimiz kelajagi uchun mas‘uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir bo‘lgan barkamol insonlar bo‘lib voyaga yetishi uchun qo‘limizdan kelgan barcha-barcha ishlarni amalga oshirishdan iboratdir<sup>1</sup>.

Oila huquqi huquq sohasi sifatida alohida ijtimoiy munosabatlarni, ya‘ni nikoh, qon-qarindoshlik, oila a‘zolari o‘rtasidagi, shuningdek, ota-

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. “2014 йил юқори ўсиш суръатлари билан ривожланиш, барча мавжуд имкониятларни сафарбар этиш, ўзини оқлаган ислохотлар стратегиясини изчил давом эттириш йили бўлади”. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримовнинг “Мамлакатимизни 2013 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш якунлари ва 2014 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси. Халқ сўзи, 2014 йил 16 январь.

ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni oilaga joylashtirishga doir munosabatlarni tartibga soladi. Mazkur huquqiy munosabatlarda, ayrim hollarda, voyaga yetmagan shaxslar ham ishtirok etadiki, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish davlat va jamiyatning muhim vazifasi sanaladi. Chunki ularning o'zlari mustaqil ravishda o'z huquqlarini amalga oshirishi hamda uni himoya qilish jarayoni voyaga yetmaganliklari bois qiyin kechishi tabiiy. Shu sababli ham oila qonunchiligi voyaga yetmagan shaxslarni ular ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan hollarda huquq va manfaatlarini himoya qilishga doir alohida qoidalarni belgilaydi.

Oila kodeksining 148-moddasida, ota-ona vafot etganda, ota-onalik huquqidan mahrum etilganda, ularning ota-onalik huquqi cheklanganda, muomalaga layoqatsiz deb topilganda, kasal bo'lganda, uzoq muddat bo'lmaganda, ota-ona bolalarni tarbiyalash yoki ularning huquq va manfaatlarini himoya qilishdan bo'yin tovlaganda, shu jumladan, ota-ona tarbiya, davolash, aholini ijtimoiy himoyalash muassasalari va shunga o'xshash boshqa muassasalardagi bolasini olishdan bosh tortganda, shuningdek, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan boshqa hollarda bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish vasiylik va homiylik organlari zimmasiga yuklatilishi belgilangan. Demak, garchi ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan deb topilmagan bo'lsa-da, turli xil vaziyatlarda ota-ona g'amxo'rligidan, himoyasidan bahramand bo'lolmagan voyaga yetmagan shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish va ta'minlash vasiylik va homiylik organlari zimmasiga yuklatilgan vazifa hisoblanadi.


Voyaga yetmagan shaxslarni mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarini amalga oshirish va himoya qilishga alohida e'tibor qaratish lozim. Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning mulk huquqi va qonuniy manfaatlari qonun bilan kafolatlangan. Bunda voyaga yetmaganlarning mulkiy huquqlari doirasi keng bo'lishi mumkin.

*Masalan, fuqarolarning banklardagi omonatlari, ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olinadigan foyda va daromadlar, uning ta'minoti uchun taqdim etiladigan pul mablag'lari va h. k.*

Voyaga yetmagan bolalarning boshqa fuqarolar kabi turar joyga ehtiyoji mavjud bo'ladi. Shu bois ularning turar joyga nisbatan huquqlarini ta'minlash alohida o'rin egallaydi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 2-avgustdagi 164-son qarori bilan tasdiqlangan "Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni turar-joylar bilan ta'minlash tartibi to'g'risida"gi Nizomning 8-bandida yetim

bolalar va ota-ona qaramogʻidan mahrum boʻlgan bolalarning turar joyga boʻlgan huquqlarini amalga oshirish maqsadida, ularni yetim bolalar va ota-ona qaramogʻidan mahrum boʻlgan bolalarga moʻljallangan muassasalarga, oilaviy bolalar uylariga, farzandlikka olgan oilalarga, vasiylar yoki homiylarga yuborishda tuman (shahar) hokimining qarori bilan uning yashash joyi boʻyicha turar joyini bolada saqlab turish kafolati belgilangan.

Oʻzlariga biriktirilgan turar joyga ega boʻlgan yetim bolalar va ota-ona qaramogʻidan mahrum boʻlgan bolalar yetim bolalar va ota-ona qaramogʻidan mahrum boʻlgan bolalar uchun moʻljallangan muassasalarda, boshqa taʼlim muassasalarida, oilaviy bolalar uylarida, farzandlikka olgan oilalarda, vasiy (homi) qaramogʻida boʻlgan toʻliq davrda, shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida xizmatni oʻtash davrida yoki ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni ijro etish muassasalarida boʻlgan davrda turar joyga boʻlgan huquqini saqlab qoladi.



*9.1. Sxema. Ota-ona qaramogʻidan mahrum boʻlgan bolalarning mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlari*



## **Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan voyaga yetmagan bolalarning mulkiy huquqlari**

---

Voyaga yetmagan bolalarning mulkiy huquqlarini amalga oshirish va himoya qilishda vasiylik va homiylik organlari faol ishtirok etadi. Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar hisobidagi turar joyning saqlab turilishi yuzasidan nazorat yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning yashash joyi bo'yicha vasiylik va homiylik organi tomonidan amalga oshirilishi belgilangan. Bunda vasiylik va homiylik organi yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar hisobidagi turar joyning saqlab qolinishini nazorat qilishda yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning qonuniy vakillari, shuningdek, ularning turar joylari va mulklari joylashgan hududdagi vasiylik va homiylik organlari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari hamda tuman (shahar) yer resurslari va davlat kadastr bo'limlari bilan hamkorlik qiladi<sup>1</sup>.

Bu o'rinda bolaning manfaatlari unga tegishli bo'lgan muayyan mablag'lar va ko'chmas mulkka nisbatan huquqlarni amalga oshirishni (masalan, pul mablag'laridan samarali foydalanishni yoki ko'chmas mulkni ijaraga berish orqali daromad keltirishni) taqozo qilishi ham mumkin. Ya'ni, voyaga yetmagan bolalarning mulk huquqi ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan holatda yanada dolzarb masalaga aylanadi. Bunda bola manfaatlarini ta'minlovchi shaxslardan faol harakat qilish (jumladan, turar joydan tushayotgan mablag'lar to'g'risidagi hamda tegishli turar joy hisobidan bajarilgan xarajatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni ham yuritishi) talab qilinadi.

Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar o'zlariga birlashtirilgan turar-joyga ega bo'lmasligi ham mumkin. Bunday hollarda o'zlariga birlashtirilgan turar joyga ega bo'lmagan hamda tuman (shahar) hokimliklarida turar joyga muhtojlar sifatida hisobda turgan yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar bilan belgilangan tartibda turar joy olish huquqiga ega bo'ladi<sup>2</sup>.

Yetim bolalarga va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga taqdim etish uchun bo'sh turgan turar joy bo'lmaganda, ularning mulkiy manfaatlarini ta'minlash maqsadli transfert, jumladan byudjet transferti

---

<sup>1</sup> Vasiylik va homiylik organlari tomonidan yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar turar joylarining saqlanib qolishini nazorat qilish qoidalari. //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2011-y., 4-5-son, 42-modda.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 2-avgustdagi 164-son "Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni turar joylar bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2010-yil, 31-son, 260-modda.

ajratish hisobidan amalga oshiriladi. Bunda turar joy maqsadli kommunal uy-joy fondidagi uylar, vaqtincha foydalanilmayotgan davlat mulki bo'lgan yotoqxonalar, uy-joylar, ko'p kvartirali uylardagi bo'sh turgan kvartiralar va boshqa beg'araz beriladigan turar joylardan olinishi mumkin.

Maqsadli transfert Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan belgilanadigan uy-joy maydonining ijtimoiy normasi doirasida, O'zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksiga muvofiq turar joy sotib olish uchun ajratiladi. Bunda maqsadli transfertning eng yuqori miqdori turar joy bilan ta'minlanmagan yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning soniga va ular yashab turgan tuman (shahar) umumiy turar joy maydonining 1 kvadrat metrining o'rtacha bozor narxiga<sup>1</sup> nisbatan uy-joy maydonining ijtimoiy normasini ishlab chiqish sifatida hisoblanadi<sup>2</sup>.

Voyaga yetmagan bolalarning mulkiy huquq va manfaatlarini ta'minlash bo'yicha xalqaro huquqiy hujjatlar ham qabul qilingan. Jumladan, Gaaga konferensiyasida va Yevropa Ittifoqi o'rtasida 1980-yilda bolalarga vasiylik tayinlash bo'yicha Lyuksenburg Konvensiyasi ham ishlab chiqilgan. Shuningdek, Yevropa Ittifoqi doirasida 2003-yil 27-noyabrda "Ota-onalarning javobgarligi to'g'risida"gi Konvensiya qabul qilingan. Gaagada 1996-yilda "Bolalarni himoya qilish bo'yicha ota-ona javobgarligi to'g'risida" va 2000-yilda "Voyaga yetgan bolalarni xalqaro himoya qilish to'g'risida" Konvensiya qabul qilingan. Mazkur xalqaro huquqiy hujjatlar bolalarning mulkiy huquq va manfaatlarini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

## **Voyaga yetmaganlarning shaxsiy nomulkiy huquqlari**

---

Voyaga yetmaganlarning shaxsiy nomulkiy huquqlarini amalga oshirish va himoya qilinishi masalasiga ham alohida e'tibor qaratish zarur. Bunda quyidagi shaxsiy huquqlarga bo'lish mumkin: oilada yashash va tarbiyalanish huquqi; ota-onasi va boshqa qarindoshlari bilan ko'rishish huquqi; o'zini himoya qilishga bo'lgan huquqi; o'z fikrini erkin ifoda etish huquqi; ism, ota ismi va familiya olish huquqi. Albatta, mazkur huquqlar doirasi qisqarmagan holda, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga nisbatan ham daxldor sanaladi.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining 1999-yil 19-avgustda qabul qilingan "Baholash faoliyati to'g'risida"gi Qonunning 7-moddasi. //O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999-yil, N 9, 208-modda.

<sup>2</sup> "Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga turar joy sotib olish uchun maqsadli transfertlarni, shu jumladan, budjet transfertlarini berish tartibi to'g'risida"gi Nizom. //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2010-y., 42-43-son, 375-modda.

Har bir bola oilada yashash va tarbiyalanish, o'z ota-onasini bilish, ularning g'amxo'rligidan foydalanish, ular bilan birga yashash huquqiga ega bo'lib, bola manfaatlariga zid bo'lgan holatlar bundan mustasno holat hisoblanadi. Bola o'z ota-onasi (farzandlikka oluvchilari, oilaga tarbiyaga oluvchilar) tomonidan tarbiyalanishi, o'z manfaatlari ta'minlanishi, har taraflama kamol topishi, insoniy qadr-qimmatlari hurmat qilinishi huquqiga ega bo'ladi. Bolaning ota-onasi bo'lmaganda yoki ular ota-onalik huquqidan mahrum qilinganda va bola ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan boshqa hollarda uning oilada tarbiyalanish huquqi vasiylik va homiylik organi tomonidan ta'minlanadi.

Bola otasi, onasi, bobosi, buvisi, aka-ukalari, opa-singillari va boshqa qarindoshlari bilan ko'rishish huquqiga ega bo'lib, ota-onasining nikohdan ajralishi, nikohning haqiqiy emas deb topilishi yoki ota-onaning alohida-alohida yashashi bolaning huquqlariga ta'sir qilmaydi. Muayyan holatlarda ota va ona alohida yashagan holda bola ularning har biri bilan ko'rishish huquqiga ega. Ota-ona turli davlatlarda yashagani taqdirda ham, bola ular bilan ko'rishish huquqini saqlab qoladi. Favqulodda vaziyatlarga tushib qolgan bola (ushlab turish, qamoqqa olish, hibsga olish, davolash muassasasida bo'lish va boshqa hollarda) o'z ota-onasi va boshqa qarindoshlari bilan qonunda belgilangan tartibda ko'rishish huquqiga ega bo'ladi.

*2014-yil yanvar oyining 17-kuni fuqarolik ishlari bo'yicha Toshkent shahar Uchtepa tumanlararo sudida da'vogar N.ning javobgar G.ga nisbatan bola bilan ko'rishish tartibini belgilash haqidagi da'vo arizasi yuzasidan qo'zg'atilgan fuqarolik ishi ko'rib chiqilgan. Da'vo arizasi qisman qanoatlantirilib, da'vogarning 2013-yil 3-sentabr kuni tug'ilgan K. ismli voyaga yetmagan farzandi bilan, vaziyat o'zgargunga qadar, har oyning birinchi shanba kuni soat 10.00 dan 13.00 ga qadar va uchinchi yakshanba kuni soat 15:00 dan 18:00 ga qadar bo'lgan vaqt mobaynida onasining ishtirokida ko'rishish tartibi belgilangan.*

Bola o'z huquqi va qonuniy manfaatlarini himoya qilish huquqiga ega bo'lib, bolaning huquqi va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uning ota-onasi (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar), qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda esa vasiylik va homiylik organi, prokuror va sud tomonidan amalga oshiriladi. Ayrim holatlarda voyaga yetmagan bola qonunga muvofiq to'la muomala layoqatiga ega deb e'tirof etilsa, u o'z huquq va majburiyatlarini, shu jumladan, himoya huquqini odatdagi huquqiy munosabatning ishtirokchisi kabi mustaqil ravishda amalga oshirishga haqli bo'ladi.

Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning huquqlarini himoya qilishga bo'lgan huquqi nafaqat uchinchi shaxslarga nisbatan, balki uning o'zining ota-onasi (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar) tomonidan qilinadigan suiiste'molliklardan himoyalaniish huquqini ham qamrab oladi.

Bolaning huquq va qonuniy manfaatlari buzilganda, shu jumladan, ota-ona (ulardan biri) bolani tarbiyalash va ta'lim berish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmaganda yoxud ota-onalik huquqlarini suiiste'mol qilganda bola o'z huquq va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini so'rab, vasiylik va homiylik organiga, o'n to'rt yoshga to'lgandan keyin esa, mustaqil ravishda sudga murojaat qilish huquqiga ega. Bunda vasiylik va homiylik organining voyaga yetmagan bolalarning huquqlari va manfaatlari himoya qilishga doir harakatlari qonun doirasida bo'lishi, ota-ona va bolalar o'rtasidagi munosabatni yanada chigallashtirishga, tushunmovchiliklar va salbiy munosabatni vujudga kelishiga olib kelmasligi zarur.

Ota-onasi bilan birga yashaydigan bolalardan ko'ra ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar huquqiy himoyaga ko'proq ehtiyojmand bo'ladi. Bunda muayyan holatlarda bolaning hayoti yoki sog'lig'iga xavf tug'ilganligidan (masalan, og'ir kasallikka chalingani), uning huquq va qonuniy manfaatlari buzilganligidan (masalan, qarindoshlari tomonidan suiiste'molliklar sodir etilayotganidan) xabardor bo'lgan shaxslar bu haqida bola ayni paytda yashab turgan joydagi vasiylik va homiylik organiga ma'lum qilishi talab qilinadi. O'z navbatida, bunday ma'lumotlarni olgan vasiylik va homiylik organi bolaning huquq va qonuniy manfaatlari himoya qilish yuzasidan zarur choralar ko'rishi shart bo'ladi.

Bolaning o'z fikrini erkin ifoda qilish huquqi uning ajralmas huquqlaridan hisoblanadi. Zero, bola garchi muomalaga layoqatsiz bo'lsa-da, mavjud voqelikka va holatga nisbatan o'z nuqtayi nazarini erkin ifoda etish orqali ma'naviy va jismoniy rivojlanib boradi. Shu boisdan, bolaning manfaatlariga taalluqli har qanday masala hal qilinayotganda bola o'z fikrini ifoda qilishga, shuningdek, har qanday sud muhokamasi yoki ma'muriy muhokama davrida so'zlashga haqlidir.

Umumiy qoidaga ko'ra, bola ism, ota ismi va familiya olish huquqiga ega bo'lib, u ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan hollarda ham ushbu huquqni saqlab qoladi. Shu bilan birga, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirish, xususan, farzandlikka olinayotganligi munosabati bilan ushbu huquqqa rioya qilgan holda, bolaning manfaatlaridan kelib chiqib, qonunda belgilangan tartibda yangilanishi (o'zgartirilishi) ham mumkin.

## **Ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni aniqlash va hisobga olish**

---

Ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni aniqlash va hisobga olish ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash hamda tegishli yordam ko‘rsatish imkonini beradi. Oila kodeksining 149-moddasiga asosan, vasiylik va homiylik organlari ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni aniqlaydi, bunday bolalarni hisobga oladi va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan har bir holatga qarab, bolalarni joylashtirish shakllarini tanlaydi, shuningdek, bundan buyon ularga ta’minot berish, ularni tarbiyalash va ularga ta’lim berish shart-sharoitlarini nazorat qilib boradi.

Mazkur qoida umume’tirof etilgan xalqaro huquqiy hujjatlarga ham to‘liq mos keladi. Xususan, Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyaning 20-moddasida, bola vaqtinchalik yoki doimiy oilaviy muhitdan yiroqlashgan yoki bunday muhitda bo‘lishi mumkin bo‘lmagan holatlarda davlat tomonidan taqdim etiladigan alohida himoya va yordam olish huquqiga egaligi ta’kidlanadi.

Vasiylik va homiylik organidan tashqari boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni aniqlash va joylashtirish bo‘yicha faoliyat yuritishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Ya’ni, oilaviy munosabatlarga biroz bepisand munosabatda bo‘ladigan ayrim xorijiy mamlakatlar qonunchiligidan farqli ravishda, qonun ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni aniqlash va joylashtirish bilan bog‘liq faoliyatning turli subyektlar tomonidan foyda ko‘rish maqsadida amalga oshirilishini taqiqlaydi. Ushbu taqiq farzandlikka olish, oilaga tarbiyaga berish, vasiylik (homiylk)ka doir vositachilik faoliyatiga ham tatbiq qilinadi (bunda so‘z bunday bolalarni qidirish, aniqlash va tanlashga doir masala haqida ketmoqda). Mazkur qoida ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni aniqlash va joylashtirishda turli suiiste’mollklar (voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan huquqbuzarliklar sodir etilishi) ro‘y berishining oldini olishga qaratilgan.



## 9.2. *Sxema. Vasiylik va homiylik organi funksiyasi*

Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish vazifasi vasiylik va homiylik organiga yuklatilar ekan, avvalo, bunday shaxslarni aniqlash, ular haqida ma'lumotlar yig'ish, ularning hisobini yuritish va boshqa huquqiy choralarni amalga oshirishni talab qiladi. Ota-onasining qarovisiz qolgan bolalar to'g'risidagi ma'lumotlar bolalar amalda yashayotgan joydagi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi hududiy bo'limlari huzuridagi vasiylik va homiylik organiga taqdim etiladi<sup>1</sup>.

Ota-onasining qarovisiz qolgan bolalar to'g'risidagi ma'lumotlar vasiylik va homiylik organlariga muayyan holatlar yuz berganda masalan, ota-onasi vafot etganda yoki sud tomonidan vafot etgan deb e'lon qilinganda, ota-onasi ota-onalik huquqlaridan mahrum bo'lganda yoki ularning ota-onalik huquqlari cheklanganda, ota-onasi sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb e'tirof etilganda, ota-onasi ikki oydan ortiq kasal bo'lib, oqibatda ota-onalik huquqini bajara olmaganda va qonunchilikda belgilangan boshqa hollarda taqdim etiladi.

Ota-onasining qarovisiz qolgan bolalar to'g'risidagi ma'lumotlarni vasiylik va homiylik organiga taqdim etuvchi shaxslar

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 26-maydagi 110-sonli qarori bilan tasdiqlangan Vasiylik va homiylik organiga ota-onasining qarovisiz qolgan bolalar to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etish tartibi haqidagi Nizom. //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2008- yil, 22-23-son, 200-modda.

doirasi ham belgilangan. Ushbu shaxslar doirasiga bolaning qarindoshlari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari raislari (oqsoqollari), Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYo) organlarining mansabdor shaxslari, sudlar, muassasalar, bolalarning ota-onasining qarovisiz qolganligi to'g'risida ularga ma'lum bo'lgan fuqarolar kiradi. Bunda fuqarolar muayyan xizmat vazifalarni bajarish munosabati bilan emas, balki, boshqa turli sabablar masalan, qo'shni bo'lib yashashi, tanishi va boshqa vaziyatlar tufayli xabardor bo'lganligi bois bunday ma'lumotlarni taqdim etadi.

Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni aniqlash va ularning huquqlari hamda manfaatlarini ta'minlashda mahalla instituti ham muhim rol o'ynaydi. Jumladan, mahalla raisi (oqsoqoli) ota-onasining qarovisiz qolgan bolalar aniqlangandan keyin tegishli qaror qabul qilingunga qadar, bolalarning ota-onalarini yoki bolaning oilasi bilan do'stona aloqalarda bo'lgan shaxslarni, bolalarni ushbu oilalarga vaqtincha joylashtirish uchun bolalarni zarur tarzda parvarish qilish to'g'risida ulardan tilxat olgan holda, aniqlash chora-tadbirlarini ko'radi. Mazkur qoida aynan bizning mamlakatimiz huquqiy tizimida mavjud bo'lgan, milliy urf-odat va an'analарimiz ruhiga singdirilgan holda, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan voyaga yetmagan bolalarga ko'rsatiladigan alohida mahalla g'amxo'rлиgi sifatida ko'rilishi mumkin.

Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar, tarbiyalanish uchun oilaga joylashtiriladigan bolalarning hisobi yuritilishi belgilangan. Hisobga olishning bunday tartibi bolalar manfaatlarini har taraflama himoya qilishga imkon beradi. Har bir bola osonlikcha joylashtirilishi uchun imkoniyatga ega bo'ladi. Bunday qayd etish tizimi bolalarni oilaga tarbiyalash uchun berishda suiiste'molliklarning oldini olishga xizmat qiladi.

Ota-onasining qarovisiz qolgan bolalar aniqlanganligi to'g'risida tegishli davlat organi (masalan, ichki ishlar bo'limi, FHDYo organi) yoki muassasa (masalan, maktabgacha ta'lim muassasasi, kasalxona, tug'ruqxona va h. k. ) ning, mansabdor shaxsi tomonidan dalolatnoma tuziladi va rahbari tomonidan tasdiqlanadi. Shundan so'ng tayyorlangan barcha hujjatlar vasiylik va homiylik organiga tegishli chora ko'rish uchun yuboriladi. Vasiylik va homiylik organi esa qonun doirasida ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning huquq va manfaatlarini ta'minlashga doir chora- tadbirlarni amalga oshiradi.

Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lganligi aniqlangan barcha bolalar hisobga olinishi va tegishli davlat reestriga kiritilishi zarur. Vasiylik yoki



homiyluk belgilanishiga muhtoj bo'lgan shaxslarni, ularning joylashtirilganligi hamda mol-mulkini hisobga olish davlat reestrini (keyingi o'rinlarda davlat reestri deb ataladi) shakllantirish va yuritish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 22- sentabrdagi 269-son qarori bilan tasdiqlangan "Vasiyluk yoki homiyluk belgilanishiga muhtoj bo'lgan shaxslarni, ularning joylashtirilganligi hamda mol-mulkini hisobga olish davlat reestri to'g'risida"gi Nizom<sup>1</sup> bilan belgilangan. Mazkur nizom davlat reestrini shakllantirish, yuritish, davlat reestrda vasiyluk yoki homiyluk belgilanishiga muhtoj bo'lgan shaxslar va ularning mol-mulki hisobini yuritishning to'xtatilishi, davlat reestrda foydalanish bilan bog'liq qoidalarni o'z ichiga qamrab oladi.

### **Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirish**

---

Oila kodeksining 150-moddasiga muvofiq, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar oila (farzandlikka olinishi, vasiyluk, homiyluk belgilanishi yoki tutingan oila)ga berilishi, bunday imkoniyat bo'lmaganda esa, yetim bolalar yoxud ota-onalar qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar uchun tayinlangan muassasalar (tarbiya, davolash, aholini ijtimoiy himoyalash muassasasi va shunga o'xshash boshqa muassasalar)ga tarbiyaga berilishi lozim. Bolalarni joylashtirish bolaning yoshi va sog'lig'iga ham bevosita bog'liq bo'ladi. Jumladan, bolaning sog'lig'i yomonlashgan, u bilan bog'liq muayyan xavf-xatarlar mavjud bo'lganda, u tibbiy muassasaga davolanish uchun joylashtirilishi zarur.

Bunda, avvalo, bolalarni oilada yashashlari uchun joylashtirish, keyingi navbatlarda esa buning uchun belgilangan maxsus muassasalarda tarbiyaga berilishi nazarda tutiladi. Bu bejiz emas, albatta. Zero, bola odatda, tug'ilganidan boshlab oila muhitida, ota-ona g'amxo'rlikida kamol topib voyaga yetadi. Bolaning oilada bo'lishi va ta'lim tarbiya olishi uning moddiy-maishiy yashash sharoitlari hamda boshqa keng doiradagi manfaatlariga ham to'la mos keladi. Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolaga g'amxo'rlik qilishda, imtiyozli huquq bu vazifani bajarishga qodir bo'lgan qarindoshlariga beriladi. Davlat bolaning oilada bo'lishiga to'sqinlik qiluvchi sharoitlarni bartaraf qilish, bola oilasidan ajratilgan hollarda esa, uni oilasiga tezroq qaytarish bo'yicha zarur choralarni ko'radi ("Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunning 24-moddasi)<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014- y., 39-son, 490-modda.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2008- yil, 1-2-son, 1-modda.



Ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish ko‘plab davlatlar qonunchiligida ham belgilangan. Masalan, Rossiya Federatsiyasi, Sharqiy va Markaziy Yevropa mamlakatlari (Bolgariya, Polsha, Sloveniya, Xorvatiya) qonunchiligida yaqinlari (ota-onalari) g‘amxo‘rligidan mahrum bo‘lgan bolalar davlat muhofazasida bo‘lishi mustahkamlangan<sup>1</sup>.

Ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar tegishli ta‘lim-tarbiya yoki shunga o‘xshash boshqa muassasalarga joylashtirilishi ham mumkin. Bolani oilaga joylashtirishning imkoniyati bo‘lmagan taqdirda, uni ixtisoslashtirilgan muassasalarga joylashtirish oxirgi choradir. Ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar ta‘lim-tarbiya muassasalariga joylashtirilgan hollarda ham oilada yashash va tarbiyalanish huquqini saqlab qoladi.

Ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar yashaydigan muassasalar faoliyati xavfsizlik, sog‘liqni saqlash, yaroqlilik va boshqa zaruriy nazoratni amalga oshirish shartlarga mos bo‘lishi zarur<sup>2</sup>. Mazkur muassasalar xalq ta‘limi, Sog‘liqni saqlash vazirligi tizimida tashkil qilinishi mumkin.

*Masalan, bu kabi muassasalar turkumiga barcha turdagi bolalar uylari, mehribonlik uylari, reabilitatsiya markazlari, maktab-internatlar va boshqalar kiradi.*

*O‘zbekiston Respublikasida Mehribonlik uylari 27 tani tashkil qilib, ularda 2602 nafar voyaga yetmagan shaxs tarbiyalanadi<sup>3</sup>.*

Ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan ayrim toifadagi voyaga yetmagan shaxslarga qo‘shimcha kafolatlar ham beriladi. Voyaga yetmagan bolalar agarda qo‘shimcha ijtimoiy himoyaga muhtoj hisoblansa, u holda davlat maxsus pedagogik yondashuvga ehtiyoji bo‘lgan ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning belgilangan ta‘lim standartlari va talablari darajasida bilim olishlarini kafolatlovchi zarur mablag‘lar ajratadi hamda boshqa choralar ko‘radi. Jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo‘lgan bolalar va nogiron bolalar ular uchun maxsus ishlab chiqilgan ta‘lim dasturlari bo‘yicha ta‘lim muassasalarida o‘qish va tarbiyalanish hamda o‘z jismoniy, aqliy qobiliyatlari va xohishlariga mos bo‘lgan ta‘lim olish huquqiga ega.

---

<sup>1</sup> Конституции государств Центральной и Восточной Европы /Отв.ред Н.Варламова. М.: 1997.-С.67, 214, 375, 437.

<sup>2</sup> “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiyaning 3-moddasi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining qarori 09.12.1992 yildagi N 757-XII qarori bilan 1989-yil 20-noyabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 44-sessiyasi qabul qilgan “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiyaga a‘zo bo‘lingan.

<sup>3</sup>www.uzedu.uz

Tibbiy-psixologik-pedagogik komissiyaning tavsiyasi bo'lgan taqdirda, jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalar va nogiron bolalarning ota-onalari o'z xohish-istagiga ko'ra hamda bolaning qiziqishlaridan kelib chiqqan holda, ta'lim (umumta'lim yoki ixtisoslashtirilgan) muassasasi turini tanlash huquqiga ega bo'ladi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarga o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirishda qonun hujjatlari bilan imtiyozlar belgilanishi mumkin ("Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risidagi" Qonunning 29-moddasi)<sup>1</sup>.

Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirish shaklini tanlash vasiylik va homiylik organining vakolatiga kiradi va har bir alohida holatda bolaning taqdiri bilan bog'liq masalani (vasiy tayinlash, ixtisoslashtirilgan tarbiya, davolash muassasalariga, maktab-internatga joylashtirish va h. k. ) alohida hal qiladi.

*Masalan, sud ota-onalik huquqidan mahrum qilish to'g'risidagi ishni ko'rib chiqib hal qiladi, ammo bolani vasiylik va homiylikka topshirar ekan, bolani joylashtirish shaklini belgilab bermaydi.*

Joylashtirishning muayyan shakli tanlanguniga qadar bola vaqtinchalik voyaga yetmaganlar uchun tashkil qilingan maxsus muassasalarga joylashtirilishi mumkin. Jumladan, ma'naviy barkamol va jismoniy sog'lom avlodni tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish, jismoniy imkoniyatlari cheklangan bolalar, notinch oilalar bolalari yoki ota-onalari qarovisiz qolgan bolalarning to'liq ijtimoiy moslashuvini ta'minlash, ko'rsatib o'tilgan toifadagi bolalar to'g'risida g'amxo'rlik qilish zarurligini jamiyatning ma'naviy-axloqiy asoslari va negizini mustahkamlashning majburiy sharti sifatida jamoatchilik ongiga singdirish maqsadida Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi tashkil qilingan<sup>2</sup>.

*Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi jismoniy imkoniyatlari cheklangan (nogironlar, jismoniy nuqsoni bo'lgan hamda asab va ruhiyati buzilgan bolalar, surunkali og'ir kasalliklardan azob chekuvchi bolalar), ijtimoiy va huquqiy jihatdan xatarli guruhlariga kiradigan bolalarni (yetimlar, ota-onasi yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar qarovisiz qolgan bolalar, notinch oilalar bolalari), shuningdek ijtimoiy moslashuvda qiyinchilikka ega bo'lgan, biroq xatarli guruhlariga kirmaydigan alohida iqtidorli bolalarni (umumiy maxsus qobiliyatli*

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2008-yil 1-2-son, 1-modda.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazini tashkil etish to'g'risida"gi 2004-yil 7-sentabrdagi 419-sonli qarori. //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2004-yil 36-son 400-modda.

*bolalarni, xususan: sportga, badiiy, ilmiy va boshqa qobiliyatlarga ega bo'lgan bolalarni) (keyingi o'rinlarda "bolalar" deb ataladi) ijtimoiy moslashtirish muammolarini o'rganuvchi mustaqil tashkilot hisoblanadi<sup>1</sup>.*

Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar uchun davlat muassasalaridan tashqari nodavlat ta'lim muassasalari ham tashkil etilishi mumkin. Ushbu muassasalarda ham qonunda belgilangan shartlarga rioya qilinishi ta'minlanadi. Mazkur muassasalar turli tashkiliy huquqiy shaklga ega bo'lishi mumkin. Masalan, "SOS-O'zbekiston bolalar mahallalari" uyushma shaklida tashkil qilingan (Fuqarolik kodeksining 77-moddasi)<sup>2</sup>.

Bundan tashqari, ota-onasining qarovisiz qolgan bolalarni tarbiyalashning shakl va metodlarini takomillashtirish, oila sharoitlarida tarbiyalash uchun ularga shart-sharoitlar yaratish, bolalar tarbiya muassasalari faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining "Bolalar shaharchasi" tarbiya muassasalari tashkil etish nazarda tutilgan bo'lib, ularning faoliyatini yo'lga qo'yish orqali ota-onasining qarovisiz qolgan va to'liq davlat ta'minotida bo'lgan bolalarni oilada tarbiyalashning zamonaviy shakllari joriy etilgan<sup>3</sup>.

*Bolalar shaharchasi tarbiya muassasasi hisoblanib, uning doirasida ota-onasining qarovisiz qolgan va to'liq davlat ta'minotida bo'lgan bolalar kichik guruhlar shaklida oiladagiga yaqinlashtirilgan sharoitlarda tarbiyalanadi. Shu bilan birga, Bolalar shaharchalari ota-onasining qarovisiz qolgan va to'liq davlat ta'minotida bo'lgan bolalar uchun tarbiya muassasalarining yanada mukammallashgan turlari sifatida, shu jumladan, "Mehribonlik" bolalar uylarini Bolalar shaharchalariga bosqichma-bosqich aylantirish shartlarida tashkil etishni nazarda tutadi. Bolalar shaharchasi ota-onasining qarovisiz qolgan va to'liq davlat ta'minotida bo'lgan bolalarning yashashga va oilada tarbiyalashga bo'lgan huquqlarini ro'yobga chiqarish, shuningdek,*

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 28-iyundagi 185-sonli qarori//O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012-y., 26-27-son, 295-moddasi.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 31-dekabrda 585-son qaroriga ilova bilan tasdiqlangan "SOS - O'zbekiston bolalar mahallalari" uyushmasi to'g'risida" Nizom //O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "SOS-O'zbekiston bolalar mahallalari" uyushmasining xayriya faoliyatini rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2001- yil 26- iyundagi 271-son qarori.

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 22-maydagi "Ota-onasining qarovisiz qolgan va to'liq davlat ta'minotida bo'lgan bolalar uchun bolalar shaharchalari to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 104-sonli qarori. //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2008-y., 22-23-son, 199-moddasi; 2011-y., 25-son, 260-moddasi; 2011-y., 52-son, 565-moddasi.

*ijtimoiy moslashish va jamiyatga integratsiyalash uchun ularni ma'naviy-axloqiy, mehnat tarbiyasi va ta'lim olishini har tomonlama ta'minlash maqsadini ko'zlaydi.*

Ota-onasining qarovsiz qolgan bolalar mavjudligi aniqlangan bo'lsa-da, ularning shaxsi aniqlanishi va zarur hujjatlarni o'rganishga muayyan vaqt sarflanadi hamda mazkur vaziyatda ham bolaga zarur yordam ko'rsatish talab qilinadi. Bunday hollarda ularning shaxsi aniqlangungacha va zarur hujjatlar rasmiylashtirilgunga qadar qonunda belgilangan tartibda vaqtincha voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markaziga joylashtiriladi hamda ota-onasining qarovsiz qolgan bolalar aniqlangan kundan boshlab yetti kun mobaynida ichki ishlar organlari tomonidan tegishli ma'lumotlar bolalar yashaydigan joydagi tuman (shahar) vasiylik va homiylik organiga taqdim etiladi<sup>1</sup>.

Ayrim holatlarda voyaga yetmagan bolalar ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lishi bilan birga g'ayriijtimoiy hayot kechirishi (spirtli ichimliklar, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalarni iste'mol qilishi) holati ham yuz berishi mumkin. Mazkur holatda spirtli ichimliklar, giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki aql-iroda faoliyatiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarni muntazam ravishda iste'mol qilayotgan voyaga yetmaganlarni aniqlash, hisobga olish, tekshirish, davolash va tibbiy-ijtimoiy rehabilitatsiya qilishni tashkil etish sog'liqni saqlashni boshqarish organlari va sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan amalga oshiriladi. Bunda spirtli ichimliklar, giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki aql-iroda faoliyatiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarni muntazam ravishda iste'mol qiluvchi voyaga yetmaganlarga narkologiya muassasalari tomonidan o'z vaqtida ixtisoslashtirilgan diagnostika va davolash-tiklash yordami ko'rsatilishi shart<sup>2</sup>.

*O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi 188<sup>2</sup>-moddasiga ko'ra, restoranlar, kafelar, barlar, klublar, diskotekalar, kinoteatrlar, kompyuter zallari, internet tarmog'idan foydalanish xizmatlarini ko'rsatish uchun jihozlangan xonalar yoki boshqa ko'ngil ochish (dam olish) joylarining rahbarlari yoxud boshqa mas'ul*

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 26-noyabrdagi "Ichki ishlar organlarining voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlari to'g'risida"gi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 269-son qarori.- //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2010 y., 48-son, 446-modda.

<sup>2</sup> Spirtli ichimliklar, giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki aql-iroda faoliyatiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarni muntazam ravishda iste'mol qilayotgan voyaga yetmaganlarni aniqlash, hisobga olish, tekshirish va tibbiy-ijtimoiy rehabilitatsiya qilish tartibi to'g'risidagi Nizom //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2011-y., 15-son, 154-modda.

*shaxslari tomonidan voyaga yetmagan shaxsning tungi vaqtda ota-onasidan biri yoki uning o'rnini bosuvchi shaxsning kuzatuvsiz ko'rsatilgan muassasalarda bo'lishiga yo'l qo'yish eng kam ish haqining o'n baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.*

Bundan tashqari g'ayriijtimoiy xulq-atvorli, huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo'lgan voyaga yetmagan shaxslar ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalariga ham joylashtirilishi mumkin. Voyaga yetmagan shaxslar joylashtirilishi mumkin bo'lgan ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalariga ixtisoslashtirilgan maktablar va ixtisoslashtirilgan kasb-hunar kollejlari kiradi<sup>1</sup>.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Voyaga yetmagan bolalarning huquq va manfaatlarini ta'minlash va himoya qilishga bir qator davlat organlari mas'ul hisoblanadi. Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish qaysi organ (tashkilot)lar tomonidan amalga oshiriladi?

2. Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar haqidagi ma'lumotlarni olish uchun manfaatdor shaxslar turli tashkilotlarga murojaat qilishlari mumkin. Bu borada ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni aniqlash va hisobga olish hamda davlat reestrini yuritish tartibini tushuntirib bering.

3. O'zbekiston Respublikasining Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish qo'mitasining Toshkent shahar boshqarmasi Toshkent shahri Yashnobod tumani Quruvchilar ko'chasi 15-uy bir necha yillardan buyon egasiz, qarovsiz ahvolda ekanligi sababli tashlandiq ahvolda qolib ketganligi uchun mazkur xonadonni egasiz deb topish haqida da'vo arizasi bilan fuqarolik ishlari bo'yicha Mirobod tumanlararo sudiga murojaat qildi. Ushbu xonadon fuqaro Alimovlarga tegishli bo'lib, ular 2010-yilda avtohalokat tufayli vafot etishgan va

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi Qonuni // "Xalq so'zi" gazetasi. 2014-yil 15-may. 94(6024)-soni; O'zbekiston Respublikasining "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2010-y., 39-son, 341-modda; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 26- noyabrdagi "Ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalari to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida"gi 268-son qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2010-y., 48-son, 445-modda; 2014-y., 23-son, 269-modda; "Ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalariga joylashtirilayotgan voyaga yetmaganlarning tibbiy ko'rigini o'tkazish tartibi to'g'risida" Yo'riqnomasi (2011-yil 12- yanvar, ro'yxat raqami 2179). O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2011-y., 1-2-son, 15-modda.

ularning 2 nafar voyaga yetmagan farzandlari bo'lgan. Biroq ular haqida hech qanday ma'lumot yo'qligi sababli, ushbu xonadonni egasiz deb topish haqida da'vo qo'zg'atildi.

Mazkur holatda voyaga yetmagan shaxsni aniqlash, ularning mulkiy huquq va manfaatlarini himoya qilish, hisobini yuritish vazifalari kimning zimmasiga yuklangan? Voyaga yetmagan shaxsning huquq va manfaatlarini himoya qilish yo'llarini ko'rsatib bering.

4. Raximovlar oilasi 2000-yilda o'zaro turmush qurishgan va o'zaro nikohlaridan 2005-yilda Raximov Sardor tug'ilgan. Fuqarolik ishlari bo'yicha Sergeli tumanlararo sudining qaroriga asosan, 2008-yilda Raximovlar nikohdan ajratilgan. Shundan so'ng Raximov Sardorning otasi Kamol Raximov farzandining ismini o'zgartirishni talab qilib sudga murojaat qildi.

Mazkur holatda Kamol Raximovning talablari qonuniymi? Voyaga yetmagan shaxsning shaxsiy nomulkiy huquqlari doirasini tavsiflang.

## 10-MAVZU. FARZANDLIKKA OLISH

---

Farzandlikka olish tushunchasi. Farzandlikka olish tartibi va uning qayd etilishi.

### Farzandlikka olish tushunchasi

---

Farzandlikka olish tarixan uzoq vaqtlardan ma'lum bo'lib, ko'p asrlik tarixiy rivojlanish bosqichini bosib o'tgan. Ijtimoiy vazifalari katta bo'lgan mazkur huquqiy institut qadimgi Gretsiyada, qadimgi Babil va Rimda shuningdek, Movarounnahrda ham mavjud bo'lgan. Har bir tarixiy davrda o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turgan.

Farzandlikka olishning ikkita usuli qo'llanilgan. Birinchi usul *arrogatio*, ya'ni *status familiae* ega bo'lgan shaxs farzandlikka olingan va ikkinchisi, **adoptio** bo'lib bunda farzandlikka olinuvchi begona huquqqa tegishli bo'lgan. Farzandlikka olishning birinchi shakli *arrogatio* - bu xalq yig'inida farzandlikka oluvchi va farzandlikka olinuvchi ishtirokida ommaviy ravishda amalga oshirilgan. O'z fuqarosini farzandlikka olishni xohlovchi rimliklar bu haqida xalq yig'inida ma'lum qilgan va uning sanksiyasi ushbu maqsad uchun yetarli sanalgan.

Ikkinchi usul-adoptio esa, 12 jadval qonunlari asosida uch marotaba emansipatsiya qilish orqali amalga oshirilgan va bu oila boshlig'i almashganligini anglatgan. Bunday usulda farzandlikka olish avvalgi oila bilan qon-qarindoshlikning uzilishiga va farzandlikka oluvchi bilan qon-qarindoshlik aloqalarining vujudga kelishiga olib kelgan.

Musulmon huquqida farzandlikka qabul qilishning asosiy sababi voqe'lik nuqtayi nazaridan asoslanadi. Bunda, birinchidan, nasl-nasabi begona bolani oilaga qabul qilib mahram bo'lmagan ayollarning mahramligi belgilanmagan; ikkinchidan, farzandlikka olish siri mavjud bo'lmagan; uchinchidan, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolani asrab olish, uni tarbiyalash va voyaga yetkazish juda mas'uliyatli vazifa bo'lib, uddasidan chiqa olmaslik holatlari ham inobatga olingan.

Farzandlikka olish huquqiy instituti insoniyat tarixiy rivojlanishi bilan birga rivojlanib borgan. Farzandlikka olish oila muhitini yaratishga intilish sifatida ayrim oilalarga muayyan imkoniyat, rag'bat, meros olish va boshqa imkoniyatlarga ega bo'lish huquqini bergan.

Farzandlikka olishdan asosiy maqsad u yoki bu sababga ko'ra o'z ota-onasi bag'rida o'sish imkoniyatiga ega bo'lmagan voyaga yetmagan

bolalarni oila muhitida tarbiyalash imkonini bersa, boshqa tomondan farzandlikka oluvchilarga ota-onalik huquq va majburiyatlariga ega bo'lish imkonini beradi.

Odatda, har qanday bola oilada dunyoga keladi, tarbiyalanadi va voyaga yetadi. Biroq hayotda shunday holatlar ham uchrab turadiki, natijada bolalar o'z ota-onalarining qaramog'idan mahrum bo'lib qolishadi. Ushbu holatlarni shartli ravishda obyektiv va subyektiv sabablarga ajratish mumkin. *Masalan, obyektiv sabablarga: ota-onaning o'limi, ularning og'ir kasallikka chalinishi, turli xil baxtsiz hodisalar, muomala layoqatini yo'qotishi, favqulodda vaziyatlarda (tabiiy ofatlarda, harbiy harakatlar jarayonida) bolani yo'qotib qo'yishi va h.k. larni ko'rsatib o'tish mumkin.*

Bolalarning o'z ota-onalari qaramog'idan mahrum bo'lishining subyektiv sabablari, odatda, ota-onalarning o'z bolalariga nisbatan g'ayri-huquqiy xulq-atvorda bo'lishi bilan bog'liq.

*Masalan, bolalar bilan shafqatsiz munosabatda bo'lish (jismoniy kuch ishlatish, do'pposlash, qiynash va h.k.); ota-onalarning tug'ruqxonalardan, tarbiya va boshqa muassasalardan bolalarni olishdan voz kechishi; bolalarni jamoat joylarida yoki begona shaxslarga qoldirishi; bolalarni uyda zarur oziq-ovqatsiz, dori-darmonsiz qoldirishi; farzandiga kiyim-kechak, maktab anjomlari olib berishni xohlamasliklari va h.k.larda ifodalanishi mumkin.*


O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining 1998-yil 11-sentabrdagi "Bolalar tarbiyasi bilan bog'liq bo'lgan nizolarni hal qilishda sudlar tomonidan qonunlarni qo'llash amaliyoti to'g'risida"gi 23-sonli Plenum qarori<sup>1</sup>da ko'rsatilishicha, bolalar boshqa shaxslar tomonidan farzandlikka olingan va farzandlikka olish bekor qilinmagan yoki haqiqiy emas deb topilmagan bo'lsa, ota-onalik huquqini tiklashga yo'l qo'yilmaydi.

Farzandlikka olishda bo'lajak ota-ona uchun oilaviy-huquqiy munosabat avvaldan mavjud bo'ladi. Ya'ni, ularning o'zaro nikohda bo'lishi oilaviy munosabat vujudga kelganligidan dalolat beradi. Farzandlikka olish natijasida bola uchun yangidan oilaviy-huquqiy munosabat vujudga keladi, xuddi oilada yangidan farzand dunyoga kelgani kabi farzandlikka oluvchi ota-onaga qonun tomonidan bir qator huquq va majburiyatlar beriladi.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining "Bolalar tarbiyasi bilan bog'liq bo'lgan nizolarni hal qilishda sudlar tomonidan qonunlarni qo'llash amaliyoti to'g'risida"gi 1998- yil 11- sentabrdagi 23-sonli Plenum qarori.





## Farzandlikka olish tartibi va uning qayd etilishi

---

O‘zbekiston Respublikasi oila qonunchiligida yaqin vaqtlarga qadar farzandlikka olishning ma‘muriy tartibi amal qilgan. Ma‘muriy tartibda farzandlikka olish bolani farzandlikka olishni xohlagan shaxslarning arizasiga, vasiylik va homiylik organlari tavsiyasiga ko‘ra, tuman, shahar hokimi qarori bilan amalga oshiriladi.

Oila qonunchiligining rivojlanishi farzandlikka olish institutiga ham ta‘sir ko‘rsatdi va ma‘muriy tartib o‘rniga farzandlikka olishning sud tartibi joriy qilindi<sup>1</sup>. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining arizalari bo‘yicha farzandlikka olish haqidagi ishlar farzandlikka olinayotgan bolaning yashash yoki turgan joyidagi fuqarolik ishlari bo‘yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudlari sudloviga taalluqli hisoblanadi.

Ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan farzandlikka olinuvchining sog‘lig‘i tegishli tartibda tekshiriladi va bu haqida tibbiy ma‘lumot pediatr, nevropatolog, xirurg (ortoped-travmatolog), oftalmolog, otolaringolog, logoped tomonidan tuziladi.

Farzandlikka olish bilan bog‘liq ishlarning sudlarda ko‘rib chiqilishida ishtirok etuvchilar ro‘yxati ham belgilangan. Ya‘ni, farzandlikka olish to‘g‘risidagi ishlar farzandlikka oluvchilar (oluvchi), vasiylik va homiylik organlarining vakillari, shuningdek, prokuror albatta ishtirok etgan holda ko‘rib chiqiladi. Zarur hollarda sud farzandlikka olinayotgan bolaning ota-onasini (otasini yoki onasini), uning qarindoshlarini va boshqa manfaatdor shaxslarni, shuningdek, o‘n yoshga to‘lgan bolaning o‘zini ishda qatnashishga jalb qilishi mumkin.

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi 2013-yil 30-apreldagi qonuni. //O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013-y., 18-son, 233-modda.

Shuni ta'kidlash lozimki, farzandlikka oluvchilarning (oluvchining) vakolati tegishli tartibda rasmiylashtirilgan vakili borligi, ularni (oluvchining) sudda hozir bo'lish majburiyatidan ozod etmaydi. Mazkur toifadagi ishlar bo'yicha farzandlikka oluvchilarning (oluvchining) vakili ularning shaxsiy ishtirokisiz sudda ishni ko'rish bosqichidan tashqari harakatlarni olib borishga, xususan, zarur dalillarni yig'ish va taqdim etish, ishni sudda ko'rishga tayyorlashda ariza yuzasidan tushuntirishlar berish, sudyaning talabi bo'yicha qo'shimcha dalillar taqdim etish, yozma va ashyoviy dalillarni talab qilib olishga yordam ko'rsatish masalasini qo'yishga haqli bo'ladi.

O'n yoshga to'lgan bolani ishga qatnashishga jalb qilish masalasini hal etishda, sud bola har qanday sud muhokamasi davrida so'zlashga haqliligini nazarda tutuvchi Oila kodeksining 68-moddasi qoidalaridan kelib chiqib ish ko'rishi lozim. Bolaning sudda ishtiroki unga noxush ta'sir etishi mumkinligini ko'rsatuvchi asoslar mavjud deb hisoblanganda, sud ushbu masala bo'yicha vasiylik va homiylik organining fikrini aniqlamog'i kerak.

Muayyan holatlarda chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxs bo'lib, boshqa davlat hududida doimiy yashayotgan bola O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan farzandlikka olinishi mumkin. Bunda bola doimiy yashayotgan davlatning qonun hujjatlarida belgilangan tartibda, farzandlikka olinayotgan bola yetim va farzandlikka oluvchilarning (oluvchining) yaqin qarindoshi bo'lgan yoki o'z vatanida turli sabablarga ko'ra farzandlikka olinishi mumkin bo'lmagan hollarda amalga oshiriladi. Shuningdek, chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxs bo'lib, boshqa davlat hududida doimiy yashayotgan bolani O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan farzandlikka olishda farzandlikka olinayotgan bolaning O'zbekiston Respublikasiga kirishi va O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashashi uchun O'zbekiston Respublikasi vakolatli organining ruxsatnomasi talab qilinadi (Oila kodeksining 161<sup>1</sup>-moddasi)<sup>1</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 279-moddasiga muvofiq, sud tomonidan alohida ish yuritish tartibida ko'riladigan ishlar toifasiga bolani farzandlikka olish to'g'risidagi ishlarni kiritadi. Oila qonunchiligida bo'lgan o'zgarishlar natijasida fuqarolik protsessual qonunchilikda ham bu borada muayyan o'zgarishlar kiritilib, FPKning alohida 31<sup>1</sup>-bob farzandlikka olishga bag'ishlandi.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi" 2016-yil 23-sentyabrdagi qonuni. //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2016-yil, 39-son, 457-modda.

Bu o‘rinda chet el elementi bilan murakkablashgan munosabatlarda, chunonchi, farzandlikka olish istagini bildiruvchi O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lgan bolani farzandlikka olishni istagan O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida doimiy yashovchi O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga ham bu borada muayyan tartib belgilangan.

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Sudlar tomonidan farzandlikka olish haqidagi ishlar bo‘yicha qonunchilikni qo‘llash amaliyoti to‘g‘risida”gi 2013- il 11-dekabrda 21-son qarorida ko‘rsatilishicha, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining arizalari bo‘yicha farzandlikka olish haqidagi ishlar farzandlikka olinayotgan bolaning yashash yoki turgan joyidagi fuqarolik ishlari bo‘yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudlari sudloviga taalluqlidir.*

*O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida doimiy yashab kelayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi, shuningdek, qayerda doimiy yashayotganliklaridan qat’i nazar, chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning farzandlikka olish haqidagi arizalari farzandlikka olinayotgan bolaning yashash yoki turgan joyidagi, tegishli Qoraqalpog‘iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo‘yicha Oliy sudiga, fuqarolik ishlari bo‘yicha viloyatlar yoki Toshkent shahar sudi sudloviga taalluqli bo‘ladi.*

*Farzandlikka oluvchilarning biri boshqa davlat fuqarosi bo‘lganda ham, farzandlikka olish haqidagi ariza ushbu sudlarga taalluqlidir.*

Farzandlikka olish to‘g‘risidagi arizada farzandlikka oluvchilar va farzandlikka olinayotgan bola haqidagi ma’lumotlar ko‘rsatilgan bo‘lishi shart. Bunday ma’lumotlar jumlasiga farzandlikka oluvchilarning (oluvchining) familiyasi, ismi, otasining ismi, ularning (uning) yashash joyi, farzandlikka olinayotgan bolaning familiyasi, ismi, otasining ismi va tug‘ilgan sanasi, uning yashash (turgan) joyi, farzandlikka olinayotgan bolaning ota-onasi to‘g‘risidagi, aka-uka va opa-singillari bor-yo‘qligi haqidagi ma’lumotlar, farzandlikka olish haqidagi iltimosini asoslovchi holatlar va mazkur holatlarni tasdiqlovchi dalillar ko‘rsatiladi. Farzandlikka olish istagini bildiruvchi shaxslar nikohda turgan yoki turmaganligini, tegishli tibbiy ma’lumotnomalar, ish haqi yoki boshqa daromad manbalarini, turar joyga bo‘lgan mulk huquqini yoki turar joydan foydalanish huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni ham ilova qiladilar.

Sud farzandlikka olish to'g'risidagi ishni mazmunan ko'rib chiqib, farzandlikka olish to'g'risidagi arizani qanoatlantirish to'g'risida yoxud uni qanoatlantirishni butunlay yoki qisman rad etish haqida hal qiluv qarori chiqaradi. Farzandlikka olish to'g'risidagi ariza qanoatlantirilgan taqdirda, sudning hal qiluv qarorida farzandlikka olingan bolaning tug'ilishi yozilgan daftarga o'zgartirishlar kiritish uchun zarur bo'lgan farzandlikka olingan va farzandlikka oluvchilar (oluvchi) to'g'risidagi barcha ma'lumotlar kiritiladi.

*2014-yil iyun oyining 4-kuni fuqarolik ishlari bo'yicha Toshkent shahar Uchtepa tumanlararo sudi yopiq sud majlisida arizachi K.ning farzandlikka olish haqidagi arizasi yuzasidan qo'zg'atilgan fuqarolik ishi ko'rib chiqilgan. Ariza qanoatlantirilib, 2013- yil 15-mayda tug'ilgan voyaga yetmagan M. 1968 yil 5-iyun kuni Toshkent shahrida tug'ilgan, o'zbek millatiga mansub bo'lgan, Toshkent shahri, Uchtepa tumani Oydin ko'chasi 34-uyda yashovchi O'zbekiston Respublikasi fuqarosi N. tomonidan farzandlikka olingan. Qarorda 2013-yil 23- iyul kuni Toshkent shahar Yakkasaroy tumani FHDYo bo'limi tomonidan 544-son bilan qayd etilgan, 2013- yil 15- mayda tug'ilgan M.ning tug'ilganligi haqidagi dalolatnoma yozuvidagi bolaning tug'ilgan sanasi, dalolatnoma yozuvining onasi ustunidagi yozuv, tug'ilgan vaqti, millati, tug'ilgan joyi, ish joyi, ma'lumoti qismiga tegishli o'zgartirish kiritilgan va dalolatnoma yozuvining qolgan ustuni o'zgarishsiz qoldirilgan. Sud qaroriga asosan, bolaning tug'ilganligi haqidagi dalolatnoma yozuviga tegishli o'zgartirishlar kiritish va uning nomiga tug'ilganlik haqidagi yangi guvohnoma berish uchun asos bo'lib hisoblangan.*

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Farzandlikka olish er-xotin yoki ulardan birining xohishiga ko'ra amalga oshirilishi mumkin. Voyaga yetmagan shaxslarni oilasi mavjud bo'lmagan fuqarolar ham farzandlikka olishi mumkinmi, uning tartibi qanday?

2. Farzandlikka olishda farzandlikka olinuvchining yoshi muhim o'rin tutadi. Farzandlikka olish haqida sudga murojaat qilinganda, bolaning yoshi necha yoshgacha bo'lishi mumkin?

3. Baxromovlar oila uzoq vaqt davomida o'zaro turmushdan farzand ko'rmaganligi uchun farzand olishga qaror qilishdi va fuqarolik ishlari bo'yicha sudga murojaat qilishdi. Sud tomonidan Baxromovlarning voyaga yetmagan Sardor Mamadaliyevni farzandlikka olish to'g'risidagi arizasi qanoatlantirildi. Oradan besh yil o'tganidan so'ng, Sardor Mamadaliyevning ota-onasi - Mamadaliyevlar oilasi qaytib kelishdi va uni farzandlikka olinganligini bilishgach, sud qarorini bekor qilishni so'rab

murojaat qilishdi. Sudga bergan arizasida Mamadaliyevlar oilasi 2010-yilda xizmat safariga ketayotgan vaqtida aviahalokatga uchraganliklarini, uzoq muddat davomida xorijiy davlatlarda qiynalib yashashganligini va shuncha yil o'tganidan so'ng o'z yurtiga qaytganliklarini ko'rsatib, o'zlarining yagona umidi bo'lgan farzandini qaytarib berilishini so'rashdi.

Bunga Baxromovlar oilasi e'tiroz bildirib, ular Sardorga o'rganib qolganliklarini, bola ham ularga juda bog'langanligini hamda ularni o'z ota-onasi deb bilishlarini, qolaversa, uch yillik da'vo muddati o'tganligi bois, Mamadaliyevlarning arizalari rad qilinishi lozimligini ta'kidlashdi.

Mazkur holatda voyaga yetmagan Sardor Mamadaliyevning ota-onasi sifatida qaysi oila tan olinishi lozim? Agar Sardor Mamadaliyev 10 yoshga to'lgan bo'lsa, uning fikri sud jarayoniga qanday ta'sir ko'rsatadi? Farzandlikka olish munosabatlarida da'vo muddati joriy qilinadimi?

4. Fuqaro Usmonov 2001-yilda qasddan jinoyat sodir etganligi sababli javobgarlikka tortilgan edi. Oradan uzoq vaqt o'tgandan so'ng turmush quradi. Biroq turmush natijasida farzandli bo'lmaydi va farzandlikka olishga qaror qiladi. Fuqarolik ishlari bo'yicha sudga murojaat qilganida, unga tegishli hujjatlar o'rganilishi natijasida, garchi farzandlikka olinuvchi bilan yaqin qarindosh bo'lsa-da, uning farzandlikka olish haqidagi arizasi rad etiladi.

Mazkur holatda Usmonovning arizasiga rad javobi berish qonunga qanchalik mos keladi? Voyaga yetmagan shaxsning huquqlarini himoya qilishning qanday choralari mavjud?

## **11-MAVZU. VASIYLIK VA HOMIYLIK. BOLALARNI OILAGA TARBIYAGA OLISH**

---

Vasiylik va homiylik tushunchasi uning maqsadi. Bolalarga nisbatan vasiylik va homiylikning hozirgi holati va rivojlanishi. Vasiy va homiyning huquq hamda majburiyatlari. Vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxslarning mulkiy huquqlarini himoya qilish. Bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat) tushunchasi va uning tartibga solinishi. Bolalarni oilaga tarbiyaga olish tartibi.

### **Vasiylik va homiylik tushunchasi, uning maqsadi**

---

Vasiylik va homiylik fuqarolik va oila huquqida alohida o'rin egallaydi. O'zbekiston Respublikasining "Vasiylik va homiylik to'g'risida"gi Qonunining<sup>1</sup> 3-moddasida ko'rsatilishicha, vasiylik o'n to'rt yoshga to'lmagan yetim bolalarni va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni, shuningdek sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolarni ularga ta'minot, tarbiya va ta'lim berish, ularning mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida joylashtirishning huquqiy shakli. Homiylik esa o'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan yetim bolalarni va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni, shuningdek, sud tomonidan muomala layoqati cheklangan fuqarolarni ularga ta'minot, tarbiya va ta'lim berish, ularning mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida joylashtirishning huquqiy shakli hisoblanadi. Shuningdek, sog'lig'ining holatiga ko'ra mustaqil ravishda o'z huquqlarini amalga oshira olmaydigan va o'z majburiyatlarini bajara olmaydigan voyaga yetgan muomalaga layoqatli fuqarolarga, bu shaxslarning iltimosiga ko'ra, homiylik belgilanishi mumkin.

Vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj bo'lgan shaxslar toifasiga alohida g'amxo'rlikka, shuningdek, o'z huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishiga muhtoj bo'lgan yetim bolalar va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar, ota-onalik huquqidan mahrum etilmagan va ota-ona bo'lgan hamda bolalarning hayoti yoki sog'lig'iga bevosita tahdid tug'dirayotgan yoki ularning ta'minoti, tarbiya va ta'lim olishiga doir talablarga javob bermaydigan sharoitda yashayotgan bolalar, sog'lig'ining holatiga ko'ra homiylikka muhtoj bo'lgan voyaga yetgan muomalaga layoqatli fuqarolar, muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan fuqarolar kiradi.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014- y., 1-son, 1-modda.

Vasiylik yoki homiylik yetim bolalarga va ota-ona qaramogʻidan mahrum boʻlgan bolalarga quyidagi hollarda belgilanadi:

-ota-onasi vafot etganda yoki sud tomonidan vafot etgan deb eʼlon qilinganda;

-ota-onasi sud qarori bilan ota-onalik huquqidan mahrum etilganda yoki ularning ota-onalik huquqi cheklanganda;

-ota-onasi ikki oydan ortiq kasal boʻlishi oqibatida oʻzlarining ota-onalik majburiyatlarini bajara olmaganida;

-ota-onasi sud qarori bilan muomalaga layoqatsiz deb topilganda;

-ota-onasi yashash joyida vaqtincha boʻlmaganida, agar bola ular tomonidan olti oydan ortiq muddatga qarindoshlarining yoki boshqa yaqin kishilarining vasiyligida yoki homiyligida va nazoratida qoldirilgan boʻlsa;

-ota-onasi yashash joyida olti oydan kam boʻlmagan muddatga vaqtincha boʻlmaganida, agar bola ular tomonidan qarindoshlarining yoki boshqa yaqin kishilarining vasiyligida yoki homiyligida va nazoratida qoldirilgan boʻlsa, agar vasiylik yoki homiylik bolaning manfaatlari uchun zarur boʻlsa;

-ota-onasi bedarak yoʻqolganda;

-ota-onasi bolalarni tarbiyalash yoki ularning huquq va manfaatlarini himoya qilishdan boʻyin tovlaganda, shu jumladan, ota-ona tarbiya, davolash muassasalari, aholini ijtimoiy muhofaza qilish muassasalari va shunga oʻxshash muassasalardan bolasini olishdan bosh tortganda, shuningdek, boshqa zarur hollarda.

Bundan tashqari, ota-onalik huquqidan mahrum qilinmagan ota-onasi boʻlgan voyaga yetmagan bolaga, agar ota-onasi bilan turishi ushbu shaxsning qonuniy manfaatlariga javob bermasligi hamda uning hayoti yoki sogʻligʻi uchun bevosita tahdid mavjudligi vasiylik va homiylik organi tomonidan aniqlanganda, vasiy yoki homiy tayinlanishi mumkin.

Vasiylik va homiylikni belgilash va tugatish, davlat organlarining vasiylik va homiylik sohasidagi vakolatlarini amalga oshirish, vasiylar va homiylar huquqlarini amalga oshirish hamda majburiyatlarini bajarish, oʻzlariga nisbatan vasiylik yoki homiylik belgilangan shaxslar huquqlarini amalga oshirish hamda mulkiy huquqlari himoya qilinishini taʼminlash yuzasidan kelib chiqadigan huquqiy munosabatlar “Vasiylik va homiylik toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonuni va boshqa qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Vasiylik va homiylik organi bolaning hamda uni oʻz tarbiyasiga berishni talab qilayotgan shaxsning (shaxslarning) turmush sharoitlarini

tekshiruvdan o'tkazish va tekshirish dalolatnomasini hamda unga asoslangan nizo mohiyati bo'yicha xulosani sudga taqdim qilishi shart.

Oila kodeksining 87-moddasiga muvofiq, bolaning hayotiga yoki uning sog'lig'iga bevosita xavf tug'ilganda, vasiylik va homiylik organi bolani ota-onadan (ularning biridan) yoki bolani o'z qaramog'iga olgan boshqa shaxslardan zudlik bilan olib qo'yishga haqlidir. Bolani zudlik bilan olib qo'yish fuqarolarning o'zini- o'zi boshqarish organining tegishli dalolatnomasi asosida amalga oshiriladi. Bola olib qo'yilganda, vasiylik va homiylik organi tezda prokurorni xabardor qilishi, bolani vaqtincha muayyan yerga joylashtirishi va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organining bolani olib qo'yish haqidagi dalolatnomasi chiqarilgandan keyin yetti kun mobaynida ota-onani ota-onalik huquqidan mahrum qilish yoki ularning ota-onalik huquqlarini cheklash haqida sudga da'vo bilan murojaat etishi shart.

Vasiylik va homiylik organlari bolalar tarbiyasi va ular bilan ko'rishib turish to'g'risidagi masalalarning hal etilishida ham ishtirok etadi. Bolalar tarbiyasi va ta'limiga taalluqli barcha masalalar bolalar manfaatidan kelib chiqqan va ularning fikrini hisobga olgan holda, ota-ona tomonidan ularning o'zaro kelishuvi bo'yicha hal etiladi. Ota-ona o'rtasidagi bolaning tarbiyasi va ta'limiga doir kelishmovchiliklar vasiylik va homiylik organi yoki sud tomonidan hal etiladi.

Voyaga yetmagan shaxsni to'la muomalaga layoqatli deb e'lon qilish (emansipatsiya) vasiylik va homiylik organining qaroriga ko'ra, ikkala ota-onaning, bolani farzandlikka olganlarning yoki homiyning roziligi bilan yoxud bunday rozilik bo'lmagan taqdirda, sud qarori bilan amalga oshiriladi.

### **Bolalarga nisbatan vasiylik va homiylikning hozirgi holati va rivojlanishi**

---

Vasiylik va homiylik o'z-o'zidan vujudga kelmasdan, muayyan yuridik fakt mavjud bo'lishini taqozo etadi. Vasiylik va homiylik tuman, shahar hokimining qarori asosida vasiy yoki homiy bo'lish istagini bildirgan shaxsning yozma arizasiga muvofiq tayinlanadi. Vasiylik yoki homiylik vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj bo'lgan shaxsning yashash joyi bo'yicha, agar shaxs muayyan yashash joyiga ega bo'lmasa, vasiyning yoki homiyning yashash joyi bo'yicha belgilanadi.

Vasiy yoki homiy tayinlashda, uning axloqiy va boshqa shaxsiy fazilatlari, majburiyatlarni bajarish qobiliyati, vasiy, homiy va vasiylikdagi



yoki homiylikdagi shaxs o'rtasidagi munosabatlar, vasiy yoki homiy oilasining vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxsga munosabati, shuningdek, vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxsning istagi inobatga olinadi.

Muayyan vaziyatlar ham bo'ladiki, ya'ni ota-onaning o'z majburiyatlarini bajara olmay qolgan vaziyatlarda (masalan, uzoq muddatli kasallikka uchrashi va h.k.) voyaga yetmaganlarga ularning ota-onasining arizasiga ko'ra vasiy yoki homiy tayinlanishi mumkin.

Vasiylik va homiylik sohasidagi faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari jumlasiga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, mahalliy davlat hokimiyati organlari va ularning tizimlari kiradi.

Bunda har bir davlat organi muayyan faoliyat bo'yicha mas'ul hisoblanadi. Jumladan, tuman, shahar xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limlari tomonidan voyaga yetmaganlarga nisbatan tayinlansa, tuman, shahar tibbiyot birlashmalari tomonidan sud tomonidan muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan fuqarolarga nisbatan tayinlanadi. Shuningdek, tuman, shahar bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari tomonidan sog'lig'ining holatiga ko'ra homiylikka muhtoj bo'lgan voyaga yetgan muomalaga layoqatli fuqarolarga nisbatan amalga oshiriladi<sup>1</sup>.

Vasiylik va homiylikni rasmiylashtirish uchun hujjatlar tegishli tarzda rasmiylashtirilib, taqdim qilinishi talab qilinadi. Mazkur hujjatlar jumlasiga bolalarning ota-ona qarovisiz qolganlik holatini tasdiqlovchi hujjatlar kiradi. *Masalan, sog'lig'i to'g'risida tibbiy muassasa (tibbiy-maslahat komissiyasi)ning xulosasi va qonunda belgilangan boshqa hujjatlar.*

Ayrim holatlarda shaxsning manfaatini ko'zlab, dastlabki tarzda vasiy va homiy tayinlanishi mumkin. Jumladan, agar vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj bo'lgan shaxsning manfaatini ko'zlab, unga darhol vasiy yoki homiy tayinlanishi zarur bo'lsa, shu jumladan,

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 5-avgustdagi 372-sonli qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi "Xalq ta'limi vazirligi to'g'risida"gi Nizom; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999- yil 14- yanvardagi 18-sonli qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi "Sog'liqni saqlash vazirligi to'g'risida"gi Nizom; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 2-fevraldagi 10-sonli qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi "Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi to'g'risida"gi Nizom; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014- yil 22- sentyabrdagi 269-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Vasiylik va homiylik belgilanishiga muhtoj bo'lgan shaxslarni, ularning joylashtirilganligi hamda mol-mulkini hisobga olish davlat reestri to'g'risida"gi Nizom.

bolalar ota-onasidan yoxud ularning o'rnini bosuvchi shaxslardan olib qo'yilsa, vasiylik va homiylik organi bir oy muddatga dastlabki tarzda vasiy yoki homiy tayinlash to'g'risida qaror qabul qilishga haqli bo'ladi.

Vasiylik va homiylik sohasidagi faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari o'z vakolatlari doirasida qonunda belgilangan tartibda vasiy va homiy tayinlanishi, voyaga yetmagan shaxslarning mol-mulkini himoya qilish bilan bog'liq chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Mahalliy davlat hokimiyati organlari vasiylik va homiylik sohasidagi faoliyatni "Vasiylik va homiylik to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni va boshqa qonun hujjatlarida belgilangan vakolatlari doirasida amalga oshiradi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, vasiylik va homiylik organlaridan tashqari boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj bo'lgan shaxslarni aniqlash va joylashtirish bo'yicha faoliyat yuritishiga yo'l qo'yilmaydi.

Vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj bo'lgan shaxslar va ularning mol-mulkini muhofaza qilish uchun bu to'g'risida zarur axborot taqdim qilinishi va zarur choralar belgilanishi zarur. Shu boisdan, vasiylik va homiylik organlari har oyda uchun tuman, shahar hokimligiga vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj bo'lgan shaxslar to'g'risidagi, ularning joylashtirilganligi hamda mol-mulki haqidagi ma'lumotlarni davlat reestriga kiritish taqdim etadi.

O'zbekiston Respublikasining "Vasiylik va homiylik to'g'risida" gi Qonuni 6-moddasiga ko'ra, vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj bo'lgan shaxslar aniqlanganda, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari, ta'lim muassasalari va sog'liqni saqlash muassasalari, shuningdek, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari mazkur shaxslar aniqlangan kundan e'tiboran yetti ish kuni ichida ular haqidagi ma'lumotlarni yozma shaklda vasiylik va homiylik organlariga yuboradi.

Vasiylik yoki homiylik bilan bog'liq munosabatlarda davlat reestrini yuritish ham belgilangan. Bunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 22-sentabrdagi 269-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Vasiylik va homiylik belgilanishiga muhtoj bo'lgan shaxslarni, ularning joylashtirilganligi hamda mol-mulkini hisobga olish davlat reestri to'g'risida" gi Nizom talablariga asosan, davlat reestrini tuman, shahar hokimligi yuritadi. Davlat reestriga vasiylik va homiylik

organlaridan kelib tushadigan vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj bo‘lgan shaxslar to‘g‘risidagi, ularning joylashtirilganligi hamda mol-mulki haqidagi ma‘lumotlar kiritiladi<sup>1</sup>.

Qonun hujjatlarida muayyan vaziyatlarda bir shaxsga bir nechta vasiy yoki homiy tayinlashga yo‘l qo‘yiladi. Bunda vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj bo‘lgan shaxsning qonuniy manfaatlaridan kelib chiqqan holda, unga tuman, shahar hokimi qarori bilan bir nechta vasiy yoki homiy tayinlanishi mumkin.

Vasiy yoki homiy bo‘lish istagini bildirgan shaxslar vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj bo‘lgan shaxslar haqidagi ma‘lumotlarni olish uchun ular yashayotgan hududidagi vasiylik va homiylik organiga yoki mahalliy davlat hokimiyati organiga yozma ariza bilan murojaat etadi. Bunda vasiy yoki homiy bo‘lish istagini bildirgan shaxslar vasiylik va homiylik organidan farzandlikka oluvchi, vasiy yoki homiy, tutingan ota-ona bo‘lishga nomzodlar sifatida ro‘yxatdan o‘tganidan so‘ng, shuningdek, ular to‘g‘risidagi ma‘lumotlar davlat reestriga kiritilganidan so‘ng, vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj bo‘lgan shaxslar haqidagi ma‘lumotlarni olishi mumkin.

Vasiylik va homiylik organlari tomonidan yetim bola va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolani o‘z oilasiga tarbiyaga olish istagini bildirgan fuqarolarga yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar uchun mo‘ljallangan muassasalarga yo‘llanma beriladi, davlat reestri ma‘lumotlarida yo‘llanma berilganligi haqida tegishli ma‘lumotlar qayd etiladi. Agar davlat reestrda yetim bola va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolani o‘z oilasiga tarbiyaga olish istagini bildirgan fuqaro tomonidan so‘ralgan bola to‘g‘risida ma‘lumot bo‘lmasa, fuqaroning yozma arizasiga ko‘ra, so‘ralgan bolani qidirish davom ettiriladi yoki mazkur fuqaro to‘g‘risidagi ma‘lumotlar hisobini yuritish to‘xtatiladi.

## **Vasiy va homiyning huquq hamda majburiyatlari**

---

Vasiylar o‘z vasiyligidagi shaxslarning qonuniy vakili bo‘lib, ularning nomidan yoki ularning manfaatlarini ko‘zlab barcha zarur bitimlarni tuzadi. Homiyilar esa o‘z homiyligidagi shaxslarning qonuniy

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014- yil 22-sentabrdagi 269-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Vasiylik va homiylik belgilanishiga muhtoj bo‘lgan shaxslarni, ularning joylashtirilganligi hamda mol-mulkini hisobga olish davlat reestri to‘g‘risida”gi Nizom.

vakili bo‘lib, homiyligidagi shaxslarga o‘z huquqlarini amalga oshirishida va majburiyatlarini bajarishida ko‘maklashadi, shuningdek, ularni uchinchi shaxslar tomonidan bo‘ladigan suiiste‘molliklardan muhofaza qiladi.

Oila qonunchiligi vasiy va homiylarga bir qator huquq va majburiyatlarni belgilaydi. Xususan, vasiy yoki homiy o‘z vasiyligidagi yoki homiyligidagi shaxsning ota-onasi va boshqa yaqin qarindoshlari bilan muloqotda bo‘lishiga to‘sqinlik qilishga haqli emas, bunday muloqot vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxsning qonuniy manfaatlariga mos kelmaydigan hollar bundan mustasno.

Vasiy yoki homiy, uning eri (xotini) va yaqin qarindoshlari vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxs bilan bitimlar tuzishga, shuningdek vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxs bilan vasiyning yoki homiyning eri (xotini), uning yaqin qarindoshlari o‘rtasidagi sud ishlarini yuritishda vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxsning vakili bo‘lishga haqli emas.

Homiyning o‘z homiyligidagi o‘n olti yoshga to‘lgan shaxsdan alohida yashashiga, basharti bu homiylikdagi shaxsning tarbiyasiga, ta‘minotiga va ta‘lim olishiga, huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmasa, vasiylik va homiylik organlarining yozma ruxsati bilan yo‘l qo‘yiladi. Homiy o‘z homiyligidagi shaxsdan alohida yashagan taqdirda, uning yashash, ta‘lim olish sharoitlarini nazorat qilishi, uni atrofdagilarning salbiy ta‘siridan himoya qilishi shart.

Muomala layoqati cheklangan fuqarolarning homiylari ularni spirtli ichimliklar, giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki aql-iroda faoliyatiga ta‘sir etuvchi boshqa moddalarni iste‘mol etishdan, chekishdan himoya qilishga doir zarur chora-tadbirlarni ko‘rishi shart.

Vasiyning yoki homiyning o‘z vasiyligidagi yoki homiyligidagi shaxsning ta‘minotiga doir xarajatlarining o‘rni vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxs mablag‘lari hisobidan qoplanadi, bu mablag‘lar yetarli bo‘lmagan taqdirda esa, vasiylik va homiylik organlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda uning ta‘minoti uchun nafaqa tayinlash maqsadida tegishli organlarga murojaat qiladi.

Vasiylar va homiylarning majburiyatlari bajarilishi ustidan nazorat vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxslarning yoxud vasiylarning yoki homiylarning yashash joyidagi vasiylik va homiylik organlari tomonidan amalga oshiriladi. Vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxslar vasiyning yoki homiyning harakatlari (harakatsizligi) ustidan tegishli vasiylik va homiylik organiga yoxud sudga shikoyat qilishga haqli hisoblanadilar.

Vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxslarning hayotiga yoki sogʻligʻiga bevosita tahdid tugʻilganligi toʻgʻrisida, ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilganligi haqida oʻziga maʼlum boʻlib qolgan shaxslar bu haqida vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxsning haqiqatda turgan joyidagi vasiylik va homiylik organiga yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar berishi shart. Bunday maʼlumotlarni olgan vasiylik va homiylik organlari hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlar vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxsning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga doir zarur choralar koʻrishi shart.

Vasiylik va homiylik organlarining gʻayriqonuniy qarorlari yoxud ular mansabdor shaxslarining gʻayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi) natijasida vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxsga yetkazilgan zararning oʻrni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qoplanishi zarur.

Vasiy va homiyning gʻayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi) ustidan vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxs, davlat organlari va muassasalari, fuqarolarning oʻzini-oʻzi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hamda vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxsning yashash joyidagi fuqarolar tomonidan tegishli vasiylik va homiylik organiga yoki sudga shikoyat qilinishi mumkin.

### **Vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxslarning mulkiy huquqlarini himoya qilish**

---

Vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxslarning qonunda belgilangan boshqa huquqlari bilan bir qatorda bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida alohida ahamiyatga ega boʻlgan mulkiy (mulk) huquqini himoya qilish taqozo qilinadi. Vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxslar vasiylarning yoki homiylarning mol-mulkiga nisbatan, vasiylar yoki homiylar esa vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxslarning mol-mulkiga, shu jumladan, alimentlar, pensiyalar, nafaqalar summalariga hamda boshqa ijtimoiy toʻlovlarga nisbatan mulk huquqiga ega boʻlmaydi.

Mol-mulk, qonunda nazarda tutilgan asoslarga koʻra, umumiy mulk huquqi asosida vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxslarga, vasiylarga, homiylarga tegishli boʻlishi mumkin. Vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxslar oʻz vasiylarining yoki homiylarining mol-mulkidan ularning roziligi bilan foydalanishga haqlidirlar. Biroq vasiylarga yoki homiylarga vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxslarning mol-mulkidan oʻzlarining manfaatlari yoʻlida foydalanish taqiqlanadi.

Vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxsning mol-mulkini boshqarish mol-mulkning joylashuvi bo'yicha belgilanadi. Vasiylar yoki homiylar o'z vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxsning mol-mulkini uni saqlashni amalga oshirgan shaxslardan vasiylik yoki homiylik belgilangan kundan e'tiboran uch ish kuni ichida ro'yxat bo'yicha qabul qilib olishi shart. Zarurat bo'lgan taqdirda, muomala layoqati cheklangan fuqarolarning va sog'lig'ining holatiga ko'ra homiylikka muhtoj bo'lgan voyaga yetgan muomalaga layoqatli fuqarolarning homiylari o'z homiylikdagi shaxslarning mol-mulkini ularning iltimosi bo'yicha ro'yxatga ko'ra qabul qilib olishga haqli. Vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxs mol-mulkining ro'yxati vasiylik va homiylik organi tomonidan vasiy yoki homiy, tegishli fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organi vakillari, shuningdek, vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxs ishtirokida tuziladi.

*Vasiylar va homiylar o'z vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxsning o'ziga topshirilgan mol-mulkini asrab-avaylashi, mol-mulkning qiymati pasayishiga yo'l qo'ymasligi hamda undan vasiylik yoki homiylik ostidagi shaxslar manfaatiga zid ravishda o'zi yoki uchinchi shaxslar foyda chiqarishga imkon tug'dirmasligi kerak. Vasiy va homiy tomonidan mazkur majburiyatlarning bajarilishi o'z vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxsning mol-mulki hisobidan amalga oshiriladi.*

Vasiylar o'z vasiylikdagi shaxsning pul mablag'larini banklarga va boshqa kredit tashkilotlariga qo'yishga haqlilar. Vasiylikdagi shaxsning banklarga va boshqa kredit tashkilotlariga qo'yilgan pul mablag'larini vasiy tomonidan sarflash faqatgina vasiylikdagi shaxsning ta'minoti uchun vasiylik va homiylik organining yozma ruxsatiga ko'ra amalga oshiriladi.

Sog'lig'ining holatiga ko'ra homiylik belgilanishiga muhtoj bo'lgan shaxslarning homiylari o'z homiylikdagi shaxsning roziligi bilan homiylikdagi shaxsning ta'minotiga va maishiy ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan maishiy yoki boshqa bitimlar tuzadi, shuningdek, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda homiylikdagi shaxsning mol-mulkini boshqarishni amalga oshiradi.

Mulkni tasarruf etish borasidagi shartnomalarni tuzishda vasiy va homiylarga nisbatan muayyan cheklovlar belgilangan. Jumladan, vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxs nomidan hadya shartnomasi tuzishga yo'l qo'yilmaydi.

Vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxslarning mulkiy huquqlariga daxl qiladigan harakatlarni vasiy yoki homiy amalga oshirganida, vasiylik

va homiylik organlarining ruxsatlari talab qilinadi. Jumladan, vasiylar vasiylik va homiylik organlarining ruxsati bilan vasiylikdagi shaxs nomidan notarial tartibda tasdiqlanishi lozim bo'lgan bitimlar tuzishga, mol-mulkni taqsimlashga, vasiylikdagi shaxsning mol-mulkini bir yildan ortiq bo'lmagan muddatga garovga yoki ijaraga berishga, vasiylikdagi shaxsning turar joyini ayirboshlashga, vasiylikdagi shaxs nomidan meros va (yoki) hadya olishdan voz kechishga haqli hisoblanadilar.

Agar vasiyning yoki homiyning harakatlari vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxsqa qarashli mol-mulkning qiymati pasayishiga olib kelishi mumkin bo'lsa, vasiylik va homiylik organining ruxsati talab etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 22-sentabrdagi 269-son qaroriga 2-ilova bilan "Vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj bo'lgan shaxslarni, ularning joylashtirilganligi hamda mol-mulkini hisobga olish davlat reestri to'g'risida" Nizom qabul qilingan<sup>1</sup>. Unga ko'ra, davlat reestri vasiylik va homiylik organlaridan tushgan ma'lumotlar asosida elektron hujjat ko'rinishida mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan shakllantiriladi va yuritiladi. Davlat reestrini shakllantirish uchun vasiylik va homiylik organlari tomonidan har oy yakuni bo'yicha navbatdagi oyning o'ninchi sanasiga qadar vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj bo'lgan shaxslar haqidagi ma'lumotlar mahalliy davlat hokimiyati organlariga taqdim etiladi. Bolani farzandlikka olish, oilaga tarbiyaga olish (patronat), vasiy yoki homiy bo'lish istagini bildirgan shaxslar (keyingi o'rinlarda vasiy yoki homiy bo'lish istagini bildirgan shaxslar deb ataladi) o'zi haqidagi ma'lumotlarni vasiylik va homiylik organiga taqdim etadilar.

### **Bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat) tushunchasi va uning tartibga solinishi**

---

Bugungi kunda O'zbekistonda mavjud 31 milliondan ortiq aholi 6 milliondan ortiq oilada istiqomat qilmoqda<sup>2</sup>. Albatta, mamlakatimizda oilalarning tinch totuvlikda yashashlari, ayniqsa, yosh oilalarni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Buning uchun zarur huquqiy asoslar yaratilib, yanada mustahkamlanib borilmoqda.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 22-sentyabrdagi 269-son qaroriga 2-ilova bilan "Vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj bo'lgan shaxslarni, ularning joylashtirilganligi hamda mol-mulkini hisobga olish davlat reestri to'g'risida" Nizom. //O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Vasiylik va homiylik to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirishga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash haqida" qarori. //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014-y., 39-son, 490-modda.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasining aholisi 2015-yil 1-yanvar kuni 31 milliondan ortiq kishini tashkil qilgan. www.Stat.uz.

Voyaga yetmagan bolalar haqida qaygʻurish, ularni komil inson sifatida tarbiyalash, avvalo, ularning ota-onalari zimmasidagi vazifa boʻlib hisoblanadi. Ularning bolalar hayotida tutgan oʻrni yuksak boʻlib, har tomonlama barkamol boʻlib tarbiyalanishlarida ijobiy taʼsir koʻrsatadi. Biroq shunday boʻlsa-da, ayrim holatlarda voyaga yetmagan bolalarni oilada tarbiyalanishlarini, ota-onaning qaramogʻida kamolga yetishlarining imkoni boʻlmaydi. Bunday holatda bolalarni tarbiyalash va ularga gʻamxoʻrlik qilish masalalari bevosita davlat organlarining nazorati va koʻmagida amalga oshiriladi. Bunda oila huquqida mavjud boʻlgan ota-ona qaramogʻidan mahrum boʻlgan bolalarni oilaga tarbiyaga berish (patronat) instituti muhim oʻrin egallaydi.

Bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat) ixtiyoriy boʻlib, u vasiylik va homiylik organlari bilan bolani olish istagini bildirgan shaxslar oʻrtasida tuzilgan maxsus shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Bolalarni oilaga tarbiyaga olish ixtiyoriy boʻlib, u vasiylik va homiylik organlari bilan bolani olish istagini bildirgan shaxslar oʻrtasida tuziladigan maxsus shartnoma (kelishuv) asosida amalga oshiriladi. Oila kodeksining 195-moddasiga koʻra, ushbu shartnomada bolalarni taʼminlash, tarbiyalash va ularga taʼlim berish, tarbiyaga olgan tutingan ota-onaning huquq va majburiyatlari, vasiylik va homiylik organlarining bolalarni tarbiyaga olgan oilaga nisbatan majburiyatlari, shartnomani bekor qilish asoslari va oqibatlari koʻrsatilishi kerak.

Kelishuv tuzilishidan oldin bolani tarbiyaga olayotgan shaxsning turmush shart-sharoitlari va oila aʼzolarining sogʻligʻi tekshiriladi. Bolalarni oilaga tarbiyaga berishda vasiylik va homiylik organlari ularga bir yoʻla kiyim-bosh va poyabzal beradi, bolani oilaga tarbiyaga olgan shaxsga esa oilaga tarbiyaga olingan bolaning taʼminoti uchun qonun hujjatlarida belgilangan miqdorda har oyda nafaqa toʻlab turadi.

Bolaning kelajak hayoti istiqbollari uchun patronat oila bolaning biologik oilasi bilan aloqa qilishi mumkin. Bolaning oilada yashash va tarbiyalanish huquqlarini taʼminlashda mazkur shaklning joriy etilishi keng koʻlamli boʻlganligi uchun istiqbolli boʻlib bormoqda, bu shakl mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarini mustaqil hayotga tayyorlash bosqichida yetishmayotgan oila hayotidagi tajribasini toʻldirish maqsadida qoʻllanilishi mumkin.

Oilada yashovchi, davlat himoyasiga muhtoj boʻlgan bolaga nisbatan ijtimoiy patronat oʻrnatilishi mumkin. Patronat toʻgʻrisidagi shartnoma vakolatli organ bilan patronat tarbiyachi oʻrtasida tuzilgan boʻlib, bolaning qonuniy manfaatlarini himoya qilishda ularning huquq va manfaatlarini chegaralangan boʻladi.



Bolaga nisbatan patronat u voyaga yetgunga qadar oʻrnatilishi mumkin, yaʼni 18 yoshgacha. Patronat bir kundan olti oygacha (qisqa muddatli) va olti oy va undan uzoq muddatga (uzoq muddatli) belgilanishi mumkin. Bola uzoq muddatli patronatga uni farzandlikka olish imkoniyatlari mavjud boʻlmagan hollarda joylashtiriladi. Bundan kelib chiqadiki, viloyatlarda patronat shaklidagi bolalarni joylashtirishning usulining kiritilishi, mehribonlik uylari kabi muassasalarga yoʻnaltirilgan bolalarning sonini qisqartirishga olib keladi, bunda istalgan bolani istalgan muddatga oilaga joylashtirsa boʻladi.

*Ayrim davlatlarda oilaga tarbiyaga olish (patronat)lik faoliyatini amalga oshirish yuzasidan vasiylik sudi oʻrnatiladi. U oilaga tarbiyaga olgan shaxslar faoliyatini nazorat qiladi va xohlagan tutingan ota-onadan bola haqidagi hujjatlarni talab qila oladi<sup>1</sup>. Shunga oʻxshash normalar Chexiya, Slovakiya, Bolgariyada ham belgilangan. Fransiya Fuqarolik kodeksida mulkiy munosabatlarda tutingan ota-ona haqida shunday deyiladi: “Qonuniy boshqaruvchi yaxshi xoʻjayindek mulkni boshqarishi va umumiy huquq boʻyicha harakatlari uchun javobgardir”. Fransiyada oilaga tarbiyaga olish (patronat) ancha qiyin hisoblanadi: oilaga tarbiyaga olingan (patronat)dagi shaxs ishlari boshqarilishi uchun tutingan ota-onaga, uning “oʻrinbosari”ga (ota-onalik faoliyatini nazorat qiladi), shuningdek, oila Kengashi (qarindoshlardan iborat boʻladi, sudya tasdiqlaydi), ayrim hollarda esa sudga topshirilishi mumkin.*

*Yuqoridagilarga asosan aytish mumkinki, ota-ona qaramogʻidan mahrum boʻlgan bolalalarning huquqlari davlat, jamiyat tomonidan muhofaza qilinib, ularga nisbatan tarbiya berish shakli belgilanar ekan, bunda oilaga tarbiyaga olish (patronat)ga faqat voyaga yetmagan bolalarga nisbatan va ularning manfaatlarini koʻzlab yoʻl qoʻyiladi.*

*Oilaga tarbiyaga olish bilan bogʻliq huquqiy munosabat shunchaki oddiy, axloqiy, maishiy jarayon boʻlmay, bolalarni oilaga tarbiyaga olish alohida yondashuvni talab qiladi. Bunda oilaga tarbiyaga berish (patronat) faqat voyaga yetmagan bolalarga nisbatan hamda ota-onalar vaqtincha ota-onalik huquqlarini amalga oshirolmay qolganlarida ularning manfaatlarini koʻzlab amalga oshiriladi. Shuningdek, oilaga bolani tarbiyaga olish vasiylik va homiylik organlari bilan bolani olish istagini bildirgan shaxslar oʻrtasida tuzilgan maxsus shartnoma asosida amalga oshiriladi.*

---

<sup>1</sup> Польша Республикаси Оила ва васийлик кодекси. //Kancelaria Sejmu. - Kodeks rodzinny i opiekuńczy. W ustawie z dnia 25 lutego 1964 r. (Dz. U. Nr 9, poz. 59, z 1975 r. Nr 45, poz. 234, z 1986 r. Nr 36, poz. 180, z 1990 r. Nr 34, poz. 198 i z 1995 r. Nr 83, poz. 417, Dz. U. z 2015 r. poz. 583).

## **Bolalarni oilaga tarbiyaga olish tartibi**

---

Oila kodeksining 195-moddasiga binoan, bolalarni oilaga tarbiyaga olish to'g'risidagi kelishuv vasiylik va homiylik organlari bilan tutingan ota-ona o'rtasida tuziladi.

Bolalarni oilaga tarbiyaga olish to'g'risidagi kelishuvda bolalarni ta'minlash, tarbiyalash va ularga ta'lim berish, tarbiyaga olgan tutingan ota-onaning huquq va majburiyatlari, vasiylik va homiylik organlarining bolalarni tarbiyaga olgan oilaga nisbatan majburiyatlari, shuningdek, bunday kelishuvni bekor qilish asoslari va oqibatlarini ko'rsatiladi.

Bolalarni oilaga tarbiyaga olayotgan tutingan ota-onalar albatta voyaga yetgan va muomalaga layoqatli bo'lishlari kerak. Farzandlikka oluvchilarning shaxsiyatidan nima talab etilsa, tutingan ota-onalar shaxsiyatidan ham shularni talab etiladi. Ota-onalik huquqidan mahrum etilganlar yoki ota-onalik huquqlari cheklanganlar, vasiylik va homiylik majburiyatidan ozod etilganlar, ilgari farzandlikka olib ayblari farzandlikka olishdan chetlatilganlar, sog'liqlari tufayli bolalarga tarbiya beraolmaydiganlar; tutingan ota-ona bo'la olmaydilar. Tutingan ota-onalar bilan vasiylik va homiylik organlari shartnoma tuzish vaqtida ularning ma'naviy qiyofalari, moddiy-maishiy sharoitlari, yoshi va boshqa sharoitlarini hisobga oladi.

Bolalar, yoshlaridan qat'i nazar, shartnoma tuzish vaqtida ishtirok etmaydilar. Tutingan oilalarga ota-onalik homiyligidan mahrum bo'lgan bolalar qabul qilinadi. Agar aka-ukalar, opa-singillar bir oilada tarbiyalangan bo'lsalar, ularni ajratish maqsadga muvofiq emas.

Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan voyaga yetmagan bolalar, shu jumladan, tarbiya va davolash muassasalarida, shuningdek, aholini ijtimoiy himoyalash muassasalaridagi bolalar oilaga tarbiyaga beriladi. Farzandlikka olgan oiladagi bolalarning umumiy soni, o'z bolalari va farzandlikka olingan bolalar bilan birgalikda, qoidaga ko'ra, 8 nafardan oshmasligi kerak.

Bolani (bolalarni) farzandlikka olishni xohlovchi shaxslar o'z yashash joyidagi vasiylik va homiylik organiga tutingan ota-onalar sifatida hisobga qo'yish to'g'risidagi iltimos bildirilgan arizani beradilar. Bunda ularning nikohdan o'tgan yoki o'tmaganligidan qat'i nazar ariza berilishi mumkin. Bolalarni oilaga tarbiyaga olish ixtiyoriy bo'lib, u vasiylik va homiylik organlari bilan bolani olish istagini bildirgan shaxslar o'rtasida tuzilgan maxsus shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Oila kodeksi (198-modda)da voyaga yetgan har ikki jinsdagi shaxslar tutingan ota-ona bo'lishlari mumkinligi nazarda tutiladi, biroq tutingan ota-ona bo'lishi mumkin bo'lgan shaxslarning shaxsiy xususiyatlari haqida norma belgilanmagan. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan Qonunida yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga egaligi haqida norma mavjud. Bolani oilaga tarbiyaga olish (patronat)da ham bolani tarbiyalash asosiy vazifa sifatida ko'riladi.

Qonunda belgilangan tartibda tegishlicha tutingan ota-ona bo'lishi mumkin bo'lgan shaxslar hisobga olinadi hamda vasiylik va homiylik organlari bilan kelishgan holda, ota-onalar qarovsiz qolgan, shu jumladan, tarbiyalash va davolash muassasalaridagi, shuningdek, aholini ijtimoiy muhofaza qilish muassasalaridagi voyaga yetmagan bolalarning dastlabki tanlab olinishi amalga oshiriladi. Tutingan ota-onalarni tanlash vasiylik va homiylik organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Bolalarni oilaga tarbiyaga berish ularning xohishini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. O'n yoshga to'lgan bolalarni faqat ularning roziligi bilan oilaga tarbiyaga berish mumkin. Bunda o'zaro qarindosh bo'lgan bolalar, qoidaga ko'ra, bitta oilaga beriladi, tibbiy ko'rsatkichlar bo'yicha yoki boshqa sabablarga ko'ra ular birga tarbiyalanishi mumkin bo'lmagan hollar bundan mustasno.

Bolalarni tarbiyaga olgan shaxslar o'z huquqlaridan g'arazgo'ylik yoki boshqa niyatlarda, tarbiyasidagi bolalarga zarar keltirgan holda foydalansalar, shuningdek, ularni nazoratsiz hamda zarur moddiy yordamsiz qoldirsalar, vasiylik va homiylik organlari bolalarni tarbiyaga olgan shaxslarni qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka tortish masalasini qo'zg'atishga haqli bo'ladilar.

Oila kodeksining 195-modda 3-qismida kelishuv tuzilishidan oldin bolani tarbiyaga olayotgan shaxsning turmush shart-sharoitlari va oila a'zolarining sog'lig'i tekshirilishi nazarda tutiladi.

Bolalarni oilaga tarbiyaga berish vakolatli davlat organlarining bu boradagi vazifalarni amalga oshirishlari bilan chambarchas bog'liq. Zero, vakolatli davlat organlarining (vasiylik organlarining) asosiy vazifalaridan biri bo'lib voyaga yetmaganlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini amalga oshirilishi hamda himoya qilinishini ta'minlash, bu boradagi davlat siyosatini izchil amalga oshirishini ta'minlashdan iboratdir.

Oilaga tarbiyaga olingan bolalar qonunda belgilangan tartibda barcha huquqiy yordam, moddiy ta'minot, kiyim-bosh va poyabzal bilan ta'minlanish va boshqa huquqlarni amalga oshirishga haqli. Ota-ona

qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni oilalarga tarbiya berishda vasiylik va homiylik organi bolaning oilada yashashi va tarbiyalanishini bolaning manfaatlariga qanchalik mosligi nuqtayi nazaridan harakat qilishi va kelgusida kuzatuvni amalga oshirishi zarur.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Homiy ayrim holatlarda moddiy yordam beruvchi shaxs sifatida ko'riladi. Masalan, homiylik faoliyati yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik maqsadlarida boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga mol-mulkni, shu jumladan, pul mablag'larini qaytarmaslik sharti bilan yoki imtiyozli shartlarda berishda ifodalanadi. Bu o'rinda oila huquqidagi homiylikni qanday tushunish mumkin?

2. Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni farzandlikka olish, vasiy va homiy tayinlash, shuningdek, oilaga tarbiyaga (patronat) berish ham mumkin. Bunda har qanday joylashtirish shaklini amalga oshirish imkoniyati mavjud bo'lganda, qanday qaror qabul qilinishi lozim?

3. Vasiylik va homiylik organi va fuqaro Voxidov o'rtasida ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolani oilaga tarbiyaga olish to'g'risida shartnoma tuzishga qaror qilindi. Shartnoma matnida fuqaro Voxidov voyaga yetmagan shaxs oladigan moddiy ta'minot unga ham berilishi, chunki voyaga yetmagan shaxsga ta'lim tarbiya berish muayyan xarajatlar talab qilishini ko'rsatib o'tdi.

Mazkur holatda voyaga yetmagan shaxsning ta'lim tarbiya olishi uchun haq to'lash nazarda tutiladimi? Agar shartnomada bunday shart mavjud bo'lmasa, u holda oilaga tarbiyaga oluvchining xizmatlari uchun haq qanday tartibda to'lanishi lozim?

4. Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan voyaga yetmagan shaxsga nisbatan fuqaro Ikromov 2013-yilda vasiy etib tayinlandi. Oradan muayyan vaqt o'tganidan so'ng voyaga yetmagan shaxs og'ir kasallikka chalindi va unga tibbiy yordam ko'rsatish uchun juda qimmat turuvchi jarrohlik amaliyotini o'tkazish talab qilindi. Shunda fuqaro Ikromov voyaga yetmagan shaxsning ko'chmas mulkini sotishga qaror qildi. Bundan xabar topgan vasiylik va homiylik organi fuqaro Ikromovga mol-mulkni tasarruf etishga haqli emasligini uqtirishdi.

Fuqaro Ikromovning xatti-harakatlari qonun talablariga qanchalik mos keladi? Mazkur holatda voyaga yetmagan shaxsning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishning qanday yo'llari mavjud?

## **12-MAVZU. CHET EL ELEMENTI ISHTIROKIDAGI OILA MUNOSABATLARINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH**

---

Oilaviy kollizion qonunchilik manbalariga umumiy tavsif. Chet el elementi ishtirokidagi nikoh va ajralishning huquqiy tartibga solinishi. Chet el elementi ishtirokidagi farzandlikka olishning huquqiy tartibga solinishi

### **Oilaviy kollizion qonunchilik manbalariga umumiy tavsif**

---

Turli davlatlar qonunchiligi o'rtasidagi kolliziyalarni (kolliziya – bir turdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalarning o'zaro nomuvofiqligi) hal etadigan normalar yig'indisi – kollizion huquq hisoblanadi.

Kollizion norma – xalqaro tusdagi fuqarolik, oila, mehnat va boshqa huquqiy munosabatga nisbatan qaysi davlat qonunchiligi qo'llanilishini ko'rsatadi. Bunday turdagi huquqiy munosabat mavjud bo'lganda sud yoki boshqa davlat organi oldida qaysi huquqni, ya'ni mazkur davlatning milliy huquqini yoki xorijiy davlat huquqini, qo'llash masalasi yuzaga keladi. Bu masala esa ichki, milliy qonunchilikda yoki xalqaro shartnomada belgilangan kollizion norma ko'rsatmasi asosida hal etiladi.

Xalqaro xususiy huquqda chet el elementi ishtirokidagi munosabat deganda, xorijiy mamlakat fuqarosi qatnashgan munosabatlar nazarda tutiladi.

*Masalan, xorijiy mamlakat fuqarosi bilan O'zbekiston fuqarosi o'rtasida nikoh tuzilganda, oilaviy-huquqiy munosabat chet el elementi bilan murakkablashadi va bunda qaysi davlat qonunchiligi qo'llanilishi masalasi yuzaga keladi.*

Bundan tashqari, chet el elementi huquqiy munosabatni vujudga keltiradigan, o'zgartiradigan va bekor qiladigan yuridik fakt chet elda yuzaga kelganda ham mavjud bo'ladi.

*Masalan, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari o'rtasidagi nikoh chet el hududida tuzilganda, huquqiy munosabatda chet el elementi mavjud hisoblanadi.*

Oilaviy munosabatlarda chet el elementi mavjud bo'lganda, ularni tartibga solishda qaysi davlat huquqi qo'llaniladi va bunday tartibga solish jarayonida qaysi mamlakat organi qaror qabul qilish vakolatiga egaligi masalasi yuzaga keladi. Bu holatdagi barcha muammolar xalqaro xususiy huquq sohasiga oiddir. Mazkur masalalar chet el elementi bilan murakkablashgan munosabatga nisbatan qaysi huquq qo'llanilishini aniqlash imkonini beradigan maxsus kollizion normalar asosida hal etiladi.

Chet el elementi ishtirokidagi munosabatlarga nisbatan oila qonunchiligi qo'llanilishini tartibga soluvchi kollizion normalar turli manbalarda ifodalangan. Eng avvalo, bunda normalar O'zbekiston Respublikasining ichki qonunchiligida nazarda tutilgan. Xalqaro xususiy huquq normalari O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining VI bo'limida o'z ifodasini topgan. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining VIII bo'limi bevosita chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirokidagi oilaviy munosabatlarni tartibga solishga oid normalarni belgilaydi.

Oila kodeksida belgilangan qoidalarning muhim jihati shundaki, ular oilaviy-huquqiy munosabatlarga nisbatan chet el huquqi qo'llanilishini nazarda tutadi. Xalqaro huquq qo'llanilishiga ruxsat etilishi esa xalqaro xususiy huquqning umum e'tirof etilgan tamoyillar asosida amalga oshirilishiga xizmat qiladi.

Xalqaro xususiy huquq nazariyasida chet el huquqini qo'llashning tabiatiga nisbatan ikkita bir-biridan sezilarli farq qiluvchi yondashuv mavjud. Ayrim mamlakatlarda chet el huquqining mavjudligi ishning faktik holati sifatida ko'riladi va uning mazmuni taraflar tomonidan isbotlanishi lozim; boshqa mamlakatlarda (O'zbekiston Respublikasida ham) esa chet el huquqi fakt emas, balki huquq maqomiga ega hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida, chet el huquqining mazmuni taraflar tomonidan isbotlanmasligi, aksincha huquqini qo'llovchi organlar tomonidan o'rnatilishini anglatadi.

Chet el oila huquqi normalarining mazmunini aniqlash majburiyati uni qo'llovchi davlat organining vakolatiga kiradi. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 238-moddasi 1-qismiga ko'ra, sud yoki fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organi va boshqa organlar chet el oila huquqining normalarini qo'llashda mazkur normalarning mazmunini ularning tegishli chet el davlatida rasmiy sharhlanishi va amaliyotda qo'llanilishiga muvofiq tarzda aniqlaydi.

Bunda sud fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari va boshqa organlar chet el oila huquqi normalarining mazmunini aniqlash maqsadida yordam va tushuntirish olish uchun belgilangan tartibga rioya qilgan holda, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga va O'zbekiston Respublikasining boshqa vakolatli organlarlariga murojaat qilishlari yoxud ekspertlarni jalb etishlari mumkin. Manfaatdor shaxslar talab yoki e'tirozlarini tasdiqlash uchun o'zlari asoslanayotgan chet el oila huquqi

normalarining mazmunini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim qilishga va chet el oila huquqi normalarining mazmunini aniqlash maqsadida sudga va fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlariga, shuningdek, o'zga organlarga boshqa tarzda yordam berishga haqlidir.

Biroq ko'rilgan barcha choralarga qaramasdan chet el oila huquqining mazmunini aniqlash imkoni mavjud bo'lmasa, O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari qo'llaniladi. Binobarin, tegishli vakolatli organga murojaat qilgan shaxs huquqlari himoyasiz qolib ketishini oldini olish uchun bunday hollarda milliy qonunchilik qo'llanilishi zarur.

Ayrim holatlarda chet el huquqining mazmuni aniqlangan bo'lishiga qaramasdan, chet el huquqi O'zbekiston Respublikasidagi ommaviy tartibga zid kelgan hollarda, u qo'llanilmaydi va uning o'rniga milliy huquq tatbiq etiladi.

*Masalan, O'zbekiston Respublikasining ommaviy tartib to'g'risidagi qoidalari asosida, ayollar yoki muayyan millatdagi shaxslarning huquqlarini kamsitadigan chet el huquqini qo'llash taqiqlanadi.*

O'zbekiston Respublikasi a'zo hisoblanadigan xalqaro Konvensiyadagi kollizion normalar ham chet el elementi ishtirokidagi huquqiy munosabatlarni tartibga solishda qo'llaniladi. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi o'rtasida 1993-yil 22-yanvarda Minskda qabul qilingan O'zbekiston tomonidan 1993-yil 6-mayda ratifikatsiya qilingan,

“Fuqarolik, oilaviy, jinoiy ishlar bo'yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to'g'risida”gi Konvensiyada hamda mazkur Konvensiya yuzasidan 1997-yil 28-martda qabul qilingan, oila huquqlarining alohida normalari nazarda tutilgan Protokolda oilaviy munosabatlarga oid kollizion normalar belgilangan. Ushbu Konvensiyaning II-bo'limi 3-qismi “Oila ishlari”deb nomlanib, o'zida 26-37-moddalarini qamrab olgani holda, nikoh tuzish, er-xotin o'rtasidagi munosabatlar, nikohdan ajralish, vasiylik va homiylik kabi oilaviy munosabatlarga nisbatan qo'llaniladigan huquqqa oid qoidalar nazarda tutilgan.

*Masalan, mazkur Konvensiyaning 26-moddasiga ko'ra, nikoh tuzish shartlari bo'lajak er yoki xotin qaysi kelishayotgan tomonning fuqarosi bo'lsa, shu tomonning qonunchiligi bo'yicha belgilanadi, fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga nisbatan esa, shu shaxsning doimiy yashash joyi bo'lgan tomon qonunchiligi qo'llaniladi. Bundan tashqari, nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlarga nisbatan kelishayotgan tomonlardan qaysi birining hududida nikoh tuzilayotgan bo'lsa, shu tomonning qonunchilik talablariga rioya etilishi lozim.*

Minsk Konvensiyasida oilaviy munosabatlarga nisbatan kollizion normalar bilan birga, sud qarorlari va boshqa vakolatli davlat organlari tomonidan oila ishlari bo'yicha qabul qilingan qarorlarni o'zaro tan olish va ijro etishni tartibga soluvchi qoidalar ham nazarda tutilgan.

Chet el elementi ishtirokidagi oilaviy munosabatlar xalqaro Konvensiyalar bilan birga, “O‘zbekiston Respublikasining boshqa davlatlar bilan tuzgan o‘zaro huquqiy yordam to‘g‘risida”gi ikki tomonlama shartnomalari bilan ham tartibga solinadi. Oila kodeksi, Minsk Konvensiyasi va ikki tomonlama shartnomalardagi kollizion normalar har doim ham o‘zaro mos va bir-biriga muvofiq kelmaydi. Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining oila to‘g‘risidagi qonun hujjatlaridagidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

### **Chet el elementi ishtirokidagi nikoh va ajralishning huquqiy tartibga solinishi**

---

Chet el elementi ishtirokidagi nikoh tuzishga nisbatan qo‘llaniladigan qonunchilikni aniqlashda, avvalo, quyidagi ikki savolga javob berish lozim bo‘ladi: nikoh tuzish shakli va tartibini qaysi mamlakat qonunchiligi tartibga soladi va nikohga kirishuvchi shaxslarning nikoh huquqiy layoqatini aniqlashda qaysi huquq qo‘llaniladi?

O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar uning hududida oilaviy munosabatlarda O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng huquqlardan foydalanadilar va teng majburiyatlarga ega bo‘ladilar (Oila kodeksining 234-moddasi). Mazkur qoidadan kelib chiqib aytish mumkinki, ushbu shaxslar o‘rtasida O‘zbekiston Respublikasi hududida nikoh tuzish shartlariga nisbatan O‘zbekiston oila qonunchiligi normalari qo‘llaniladi. Biroq O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar nikoh munosabatlari boshqa davlatning konsulxonasi yoki diplomatik vakilligida kirishsa, bunday munosabatlarga nisbatan o‘sha davlatning oila qonunchiligi qo‘llaniladi.

Agar O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar O‘zbekiston Respublikasi hududida nikohga kirishmoqchi bo‘lishsa, Oila kodeksining 234-moddasi talablaridan kelib chiqib, nikoh tuzish shartlari va tartibiga, nikoh tuzishga monelik qiluvchi holatlarga rioya etishlari talab etiladi.

Oila qonunchiligiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida tuzilgan nikohlarni tan olish farqlanadi. Bunda O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari ishtirokida tuzilgan nikoh va chet el fuqarolar o‘rtasida tuzilgan nikohlarni e’tirof etish turlicha shartlarda amalga oshiriladi. Agar O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida, boshqa



davlat hududida o'sha davlatning qonun hujjatlariga rioya qilingan holda, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari o'rtasida tuzilgan hamda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslar o'rtasida tuzilgan nikohlarni haqiqiy deb e'tirof etish uchun mazkur nikoh milliy qonunchilikda belgilangan talablarga va shartlarga rioya etib tuzilishi talab etilsa, O'zbekiston Respublikasidan tashqarida chet el fuqarolari o'rtasida boshqa davlat hududida o'sha davlatning qonun hujjatlariga rioya qilingan holda tuzilgan nikohlar O'zbekiston Respublikasida haqiqiy deb e'tirof etish uchun hech qanday shart va talablar belgilanmaydi.

O'zbekiston Respublikasi hududida O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslar o'rtasidagi, shuningdek, chet el fuqarolari o'rtasidagi nikohdan ajratish har doim O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi. Nikohdan ajralish bilan bog'liq barcha masalalar: ajralishning sud yoki ma'muriy tartibi, nikohdan ajralish tamoyili, nikohdan ajralish asoslari O'zbekiston qonunchiligi bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida yashab turgan O'zbekiston Respublikasining fuqarosi O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida yashab turgan eri (xotini) bilan tuzilgan nikohdan, mazkur shaxs qaysi davlat fuqarosi ekanligidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasi sudida ajralishga haqlidir.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga binoan, fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida nikohdan ajralish mumkin bo'lgan hollarda bunday nikohdan ajralish O'zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalarida yoki konsullik muassasalarida amalga oshirilishi mumkin.

Bunday hollarda er-xotinning shaxsiy va mulkiy huquq hamda majburiyatlari ularga birgalikda yashab turgan davlat qonunchiligi agar bunday holat mavjud bo'lmasa, oxirgi marta birgalikda yashagan davlat qonunchiligi qo'llaniladi.

Umumiy fuqarolik bo'lmagan yoki birgalikda yashash joyi mavjud bo'lmagan er-xotin o'rtasida nikoh shartnomasi yoki aliment to'lash to'g'risidagi kelishuv tuzilgan hollarda, ular tuzilgan shartnomaga nisbatan qaysi qonunchilik qo'llanilishini tanlashlari mumkin. Natijada ular er-xotindan hech qaysisining aloqasi bo'lmagan davlat qonunchiligini tanlashga haqlidirlar.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslar o'rtasidagi nikohdan ajratish O'zbekiston

Respublikasi hududidan tashqarida tegishli chet el davlatining qonun hujjatlariga rioya etilgan holda amalga oshirilgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasida haqiqiy deb e'tirof etiladi.

O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida chet el fuqarolari o'rtasidagi nikohdan ajratish tegishli chet el davlatining qonun hujjatlariga rioya etilgan holda amalga oshirilgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasida haqiqiy deb e'tirof etiladi.

### **Chet el elementi ishtirokidagi farzandlikka olishning huquqiy tartibga solinishi**

---

Chet el elementi ishtirokidagi farzandlikka olish masalalari O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksida nazarda tutilgan. Bunda chet el fuqarolarining O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini farzandlikka olishlarida Oila kodeksining farzandlikka olishga nisbatan qoidalari qo'llaniladi. Bunday farzandlikka olish O'zbekiston Respublikasi hududida amalga oshirilishi talab etiladi. Bu qoida farzandlikka olinayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bo'lgan – bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadida belgilangan bo'lib, mazkur holatda farzandlikka olish Oila kodeksining 151-167-moddalarining talablariga rioya qilinishi lozim. Bunda farzandlikka olinishi lozim bo'lgan bolalarni aniqlash va ularning hisobini yuritish, farzandlikka olish tartibi, farzandlikka olishda bolaning ota-onasi, ularning o'rnini bosuvchi shaxslar va bolaning roziligini olish majburiy bo'lgan holatlar hamda farzandlikka oluvchiga nisbatan talablar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida chet el fuqarosi bo'lgan bolani farzandlikka olishda bolaning qonuniy vakili va bola fuqarolikka ega bo'lgan davlat vakolatli organining roziligi, shuningdek, agar o'sha davlatning qonun hujjatlariga muvofiq talab qilinsa, farzandlikka olish haqida bolaning ham roziligi olinishi lozim.

Agar farzandlikka olish natijasida farzandlikka olingan bolaning O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari hamda xalqaro shartnomalari bilan belgilangan huquqlari buziladigan bo'lsa, farzandlikka oluvchining qaysi fuqarolikka mansubligidan qat'i nazar, farzandlikka olish mumkin emas, farzandlikka olingan taqdirda esa, u sud tartibida bekor qilinishi lozim.

Ta'kidlash lozimki, farzandlikka olish O'zbekiston Respublikasi hududida tan olinishi lozim. Shu boisdan, chet el fuqarosi yoki fuqaroligi

bo'lmagan shaxs bo'lib, boshqa davlat xududida doimiy yashayotgan bolani O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida chet davlatning vakolatli organi amalga oshirgan farzandlikka olish, basharti Oila kodeksining 152, 157 va 161<sup>1</sup>-moddalari talablariga rioya etilgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasida haqiqiy deb e'tirof etiladi<sup>1</sup>.

O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan va O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida yashayotgan bolani farzandlikka olish farzandlikka oluvchi qaysi chet davlat fuqarosi bo'lsa, o'sha davlatning vakolatli organi tomonidan amalga oshirilganligi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining farzandlikka olish to'g'risidagi ruxsati oldindan olingan bo'lsagina, O'zbekiston Respublikasida haqiqiy deb e'tirof etiladi.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Oila munosabatlariga nisbatan kollizion huquq va kollizion normalar qo'llashga nisbatan yondashuvlarga ko'ra O'zbekiston huquqini tavsiflang.

2. Chet el elementi ishtirokidagi farzandlikka olishga nisbatan qo'llaniladigan huquq va uning milliy huquq bilan o'zaro nisbatini qiyosiy tahlil qiling?

3. O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan Xamidova Chexiya Respublikasi fuqarosi bo'lgan Piter Chexga turmushga chiqdi. Ular nikohni O'zbekiston Respublikasida qayd etishdi. Oradan besh yil o'tgandan so'ng oilaviy kelishmovchiliklar natijasida nikohdan ajralishga qaror qilishdi. Oilaviy turmushi davomida orttirilgan mol-mulkni bo'lishda kelishuvga erisha olishmadi. Piter Chex bu masalalar Chexiya qonunchiligi bo'yicha hal qilinishi, chunki er oila boshlig'i hisoblanishini ta'kidladi. Xamidova esa, mazkur holatda mol-mulk O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi asosida er-xotin o'rtasida teng taqsimlanishini qayd etdi.

Bu o'rinda masala qanday hal qilinishi lozim? Chet el elementi bilan murakkablashgan huquqiy munosabatlarni tartibga solishning xususiyatlarini ko'rsating.

4. Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi Soxibov Axmadni AQSh fuqarosi Jon Smit farzandlikka oldi.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi" 2016-yil 23-sentyabrdagi Qonuni. //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2016-yil, 39-son, 457-modda.

Bunda farzandlikka olish tegishli tartibda rasmiylashtirildi va uni yashash uchun AQShga olib ketdi. Ma'lum vaqt o'tgach, Jon Smit avariya uchrab vafot etdi. Shundan so'ng, AQShdagi vasiylik va homiylik organi boshqa AQSh fuqarosiga farzandlikka berish masalasini ko'rib chiqdi. Bundan xabar topgan O'zbekiston Respublikasidagi vasiylik va homiylik organi Soxibov Axmadning O'zbekistonga qaytarish masalasini ko'tardi.

Mazkur masala qanday hal qilinadi? Agar Soxibov Axmadning qarindoshlari aniqlansa, Jon Smit hayot bo'lganda ham uni O'zbekistonga qaytarish mumkin bo'larmidi?

## Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

---

1. Атаходжаев Ф.М. Развитие законодательства о браке Республики Узбекистан и проблемы его дальнейшего совершенствования: автореф. дисс. ...доктора юрид. наук. – Т., 2000. – С. 52.
2. Джураева И.Б. Личные и имущественные права супругов по национальному законодательству и по международному частному праву: Автореф. дисс....канд. юрид. наук. – Т., 2006. –С. 24.
3. Имомов Н.Ф. Уй-жой ҳуқуқи. Дарслик. –Т.: ТДЮИ нашриёти, 2012. – Б.315.
4. Иномжонова Г.С. Ота-она ва болалар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш муаммолари. – Т.: Адолат, 2006. –Б.134.
5. Отахўжаев Ф.М. Никоҳ ва унинг ҳуқуқий тартибга солиниши. – Т.: Ўзбекистон, 1995.
6. Отахўжаев Ф.М. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси ва оила. –Т.: ТДЮИ, 2002. –Б.32.
7. Отахўжаев Ф.М. Эр-хотиннинг шахсий ҳуқуқлари ва мажбуриятлари //Соғлом авлод учун. 1998.
8. Отегенова Л.Ж. Брачный договор по семейному законодательству Республики Узбекистан: Автореф. дис.канд.юрид.наук. –Т.: 2012. –С. 26.
9. Раҳмонқулова Н.Ҳ. Халқаро хусусий ҳуқуқда никоҳ муносабатлари. – Т.: “ART FLEX” нашриёти, 2011. –Б. 182.
10. Семейное право. Учебник. Гонглаго Б.М., Крашенинников П.В., Михеева Л.Ю., Рузакова О.А. //Под ред. П.В.Крашенинникова.- М.: Статут, 2008.
11. Семейное право. Учебник.-3-е изд., перераб. и доп. – М.: Юрист, 2008.
12. Топилдиев Б.Р. Оила ҳуқуқи. Ўқув-услубий қўлланма. – Т.: ТДЮИ, 2009.
13. Умаров Т.А. Халқаро хусусий ҳуқуқ: жисмоний шахсининг ҳуқуқий ҳолати. –Т.: Ижод дунёси, 2003.- Б.175.
14. Хамраев К.Ш. Понятие, содержание семейной собственности и проблемы его правовой защиты: Автореф. дисс. канд. юрид. наук. – Т., 1994. – С. 24.
15. Douglas G. , Lowe N. Bromley’s family law. -9<sup>th</sup> ed. – Butterworth. - London, Edinburg, Dublin,1998.
16. Sullivan B. K. Do you need a Prenuptial Agreement. [//www.womenof.com](http://www.womenof.com).

Imomov Nurillo Fayzullayevich  
Babayev Djahongir Ismailbekovich  
Shorahmetova Umida Shoakbarovna  
Topildiyev Bahrom Rahimjonovich  
Mehmonov Qambariddin Miradhamovich

# OILA HUQUQI

## Darslik

yuridik universitet, universitetlarning yuridik fakultetlari, huquq asoslari  
o'qitiladigan oliy maktab talabalariga mo'ljallangan

5240100 – Yurisprudensiya (faoliyat turlari bo'yicha)

**Muharrirlar:** Sh.Ismatova, X.Qambarova

**Texnik muharrir:** A.Yuldashev

**Kompyuterda sahifalovchi:** D.Rajabov

Nashr. litsen. AL № 232. Bosishga ruxsat etildi 26.01.17

Bichimi 84x108 1/32. Ofset bosma. Shartli bosma tabog'i 7.0

Nashriyot hisob tabog'i 6.3. Adadi

Toshkent, Sayilgoh ko'chasi, 35